

Z. XOLMANOVA

# TILSHUNOSLIK NAZARIYASI

DARSLIK



Toshkent - 2020

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**Z. Xolmanova**

**TILSHUNOSLIK  
NAZARIYASI**

**DARSLIK**

**Toshkent – 2020**

**UO'K 81(075.8)**  
**KBK 81ya73**  
**X 72**

**Xolmanova, Zulxumor.**

Tilshunoslik nazariyasi [Matn] : darslik / Zulxumor Xolmanova. -  
Toshkent : Shafolat Nur Fayz, 2020. - 256 b.

Mazkur darslik O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 2-noyabrdagi 1023-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan (qayd raqami: №1023-049).

Ushbu darslik oliy o'quv yurti filologiya yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, "Tilshunoslik nazariyasi" fanining asosiy masalalarini yoritishga qaratilgan. Darslikda tilning mohiyati, tilshunoslikning nazariy masalalari, tilning belgilar tizimi sifatidagi mazmuni, til va jamiyat, til va nutq, til va tafakkur munosabati, dunyo tillari tavsifi va tasnifi, tilshunoslik fani bo'limlari, lingvistik tahlil metodlari haqida umumiy ma'lumot berish, til ilmi haqidagi bilim ko'nikmalarini shakllantirish, tilshunoslikning asosiy tushunchalarini yo'ritish maqsadi qo'yilgan.

Mazkur darslik fanning zamonaviy yutuqlari, xorijiy manbalar asosida tayyorlangan bo'lib, undan tilning ijtimoiy, fiziologik, psixik tabiatini, tilshunoslikka doir masalalarni tadqiq qiluvchi izlanuvchilar, jumladan, magistrantlar, mustaqil tadqiqotchilar ham foydalanishi mumkin.

**Taqrizchilar:**

**B. Mengliyev f.f.d.,prof.**  
**B. Abdushukurov f.f.d.**

**ISBN: 978-9943-6739-5-3**

**© Zulxumor Xolmanova**  
**© «Shafolat Nur Fayz», 2020**

## KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ham iqtisodiy-siyosiy, ham ma'naviy-ma'rifiy sohalarida yuksak yutuqlarga erishdi. Mamlakat taraqqiyoti, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, ijtimoiy farovonlik tomon bosilgan har bir qadam inson manfaatlari va xalq turmush tarzining yaxshilanishi va rivolantirilishi bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ma'naviy-ma'rifiy masalalarga doir har bir chiqishlarida ona tilini, milliy qadriyatlarni e'zozlash, ajdodlar merosini qadrlash, ularning tafakkur mahsulidan unumli foydalanish, kitob mutolaasiga alohida e'tibor qaratish ta'kidlanadi: "Bugun O'zbekistonimiz "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko'tarilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o'rni va nufuzi oshib bormoqda.

O'zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy jabhalarda faol qo'llanib, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda. Xorijiy mamlakatlarda tilimizga e'tibor va uni o'rganishga qiziqish kuchaymoqda.

Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini. Azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiy<sup>1</sup>".

Til eng buyuk milliy qadriyatdir. Til nafaqat muloqot vositasi, balki tafakkur mahsuli sifatida yangilik yaratish asosi hamdir. Til jamiyatda muloqot funksiyasi bilan bir qatorda hissiy ta'sir, to'plash vazifalarini ham bajaradi. Globallashuv jarayonida tilning ijtimoiy funksiyasi kengayib bormoqda. Til va jamiyat, til va tafakkur, til va nutq munosabatlarini tahlil qilish, tillarning shakllanishi va rivojlanishi, yozuv tarixi, ahamiyati, tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi, dunyo tillari tavsifi va tasnifi, tilshunoslikning asosiy tushunchalari va tahlil metodlarini o'rganish kishilik jamiyati

<sup>1</sup> "Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нufузи ва мавқенинг тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5850-сон фармони/ lex.uz/docs/4561730.

taraqqiyoti mahsuli bo'lgan til tabiati haqida bilim hamda undan foydalanish ko'nikma, malakalarini hosil qilishga xizmat qiladi.

“Tilshunoslik nazariyasi” fani tilshunoslikning asosiy masalalari haqida ma'lumot beradi. “Tilshunoslik nazariyasi”ning birinchi qismi tilning shakllanishi, rivojlanishi, dunyo tillari tasnifi haqida boshlang'ich ma'lumot bersa, ikkinchi qismi hisoblangan “Umumiy tilshunoslik” kursi jahon tilshunosligidagi nazariyalar, ta'limotlar, g'oyalarni tahlil qilish, lingvistik metodlar mohiyatini yoritishga yo'naltirilgan.

“Tilshunoslik nazariyasi” fani tilning ijtimoiy-iqtisodiy, biologik, fiziologik va sotsial qiymatini yoritadi, dunyo tilshunosligi taraqqiyoti, ta'limotlar tarixi, nazariy qarashlar bosqichlari, til sathlari, borliqning inson tafakkuri va lisonida aks etish darajasi, xilma-xilligi, olamni lisoniy bilish usullari, kommunikatsiya vositalari, tilshunoslik bo'limlarining yuzaga kelish jarayonlari haqida ma'lumot beradi. Shu bilan bir qatorda soha doirasida shakllanayotgan zamonaviy yo'nalishlar, ularning obykti, predmeti, maqsadi, vazifalari, ijtimoiy, ma'rifiy ahamiyatiga oid masalalarni ham tahlil qiladi.

“Tilshunoslik nazariyasi” – nisbatan murakkab, ilmiy, falsafiy fan. Tilshunoslik nazariyasi til va jamiyat, til va tarix, til va tafakkur, til va ma'naviyat, til va madaniy taraqqiyot, til sathlari, til birliklari, til va nutq, yozuvning shakllanishi, taraqqiyoti, turlari, tilning semiotik tabiati, tizim va struktura sifatidagi mohiyati, tilda substansiya va shakl, paradigmatika va sintagmatika, lingvistik struktura turlari haqida bahs yuritadi.

Mazkur darslik “Tilshunoslik nazariyasi” predmeti haqidagi o'quv qo'llanmalari, milliy pedagogik tajriba hamda xorijiy manbalar asosida tayyorlangan bo'lib, til ilmi haqidagi muhim jihatlarni o'rganishga qaratilgan. Mavzular muayyan izchillikda talabalarning fikrlash qobiliyatlarini e'tiborga olgan holda joylashtirilgan.

Ushbu darslikning qayd etilgan tarzda tuzilishi:

-talabalarning umumta'lim tahsili jarayonida olgan bilimlarini umumlashtirish va mustahkamlashni;

-tilning o'ziga xos tabiatini tahlil etishni;

-til va jamiyat; til va tafakkur; til va nutq munosabatlarini;

-til birliklarining o'zaro mutanosib, yaxlit tizim sifatida namoyon bo'lishini;

- til sathlari mohiyatini yoritishni;
- til fani bo‘limlarining o‘rganish obyektini tahlil qilishni;
- tilshunoslikka doir asosiy tushunchalarni o‘zlashtirish, talabalarda “Tilshunoslik nazariyasi” kursi doirasida mustaqil fikrlay olish ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Ushbu darslikda tilning o‘ziga xos tabiati, tilshunoslik masalalari, tilshunoslik bo‘limlarining mazmun-mohiyati talabalarning milliy-insoniy ko‘nikmalariga asosan va mutaxassislik yo‘nalishiga ko‘ra hamda innovatsion yondashuv asosida o‘zbek, rus, ingliz tili misolida yoritildi.

Ushbu darslikni yozishda A. Sodiqov va boshqa mualliflar tomonidan yozilgan “Tilshunoslikka kirish” (1981) darsligi, M.Irisqulovning “Tilshunoslikka kirish” o‘quv qo‘llanmasi (2009), A.Abduazizovning “Tilshunoslik nazariyasiga kirish” (2010) darsligidan, Daniels P. T. Writing and Language. In The Handbook of Linguistics (Edited by Arnoff, M., Rees-Miller, 2001), Richter B. First steps in theoretical and applied linguistics (Budapest, 2006), Vrabel T.T. Lectures in theoretical phonetics of the english language and method-guides for seminars, poliprintungvár (2009) kabi xorijiy manbalardan foydalanildi. Ingliz tilidagi manbalarni tarjima qilishda amaliy jihatdan yordam bergan f.f.n. I.Azimova, L. Abduhamidova, O. Saydaxmedovalarga muallif o‘z minnatdorchiligini bildiradi.

Darslikda mavzuni mustahkamlash uchun berilgan topshiriqlarda interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar qo‘llandi.

# 1-§. “TILSHUNOSLIK NAZARIYASI” FANI MAZMUNI, MAQSADI, VAZIFALARI

## Reja:

1. “Tilshunoslik nazariyasi” – tilshunoslik haqida nazariy ma’lumot beruvchi fan sifatida.
2. “Tilshunoslik nazariyasi” fanida o’rganiladigan asosiy masalalar.
3. Tilshunoslik nazariyasiga doir qarashlar.

**Asosiy tushunchalar:** *tilshunoslik, tilshunoslik nazariyasi, umumiy tilshunoslik, xususiy tilshunoslik, nazariy tilshunoslik, amaliy tilshunoslik, proto til, sinxroniya, diaxroniya, til va jamiyat, til va nutq, til va tafakkur, dunyo tillari, tillar tasnifi, til oilalari, “Yosh grammatikachilar” maktabi, Praga strukturalizmi, Kopengagen strukturalizmi, Amerika strukturalizmi, tilshunoslik fani bo‘limlari, antinomiya, fonetika, grammatika, morfologiya, sintaksis.*

Tilshunoslik (*lingvistika*: grekcha *lingua* – «til», *logos* – «fan») murakkab va ko‘p qirrali, tilni boshqa ijtimoiy fanlar bilan uzviy aloqadorlikda ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganuvchi, tilshunoslikning asosiy masalalarini, tilning paydo bo‘lishi va til taraqqiyotidagi umumiy qonuniyatlarni, til va nutq xususiyatlarini tahlil etuvchi fandır.

Til jamiyat uchun xizmat qiladi, jamiyat a‘zolari muloqotini ta’minlaydi. Til jamiyat tarixini o‘zida aks ettiruvchi vosita bo‘lib, insonning ma’naviy va ma’rifiy shakllanishi, rivojlanishida belgilovchi ahamiyatga ega. Til, uning amaliy ifodasi bo‘lgan nutq inson tafakkuri, ruhiyati, madaniyati, urf-odati va shaxsiy kamoloti bilan bog‘liqdir.

Tilshunoslik fani umumiy va xususiy xarakterga egadir. Tilshunoslikning umumiy va xususiy tilshunoslik, nazariy tilshunoslik, amaliy tilshunoslik kabi qator ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, til va nutqni turli aspektlarda talqin qiladi. Umumiy tilshunoslik jahon tillaridagi fonetik, fonologik, grammatik (morfologik va sintaktik), leksik-semantik, stilistik jihatlarni ilmiy asosda o‘rganadi. Bu xususiyatlarning muayyan bir tildagi izohi (masalan, o‘zbek tili yoki boshqa tillarning

belgilari)ni xususiy tilshunoslik o'rganadi. *Nazariy tilshunoslik* sohaning nazariy masalalari, til va nutq birliklariga doir qarashlar, til birliklari o'rtasidagi munosabatlar haqida bahs yuritadi. Jamiyatning amaliy ehtiyojlarini qondiradigan tilshunoslik sohasi *amaliy tilshunoslik* deb ataladi va til haqidagi fanning tarqalish doirasini kengaytiradi.

Tilshunoslik fanining o'rganish obyekti murakkab tuzilishga ega, biologik, fiziologik, ijtimoiy jarayonlar mahsuli bo'lgan tildir. Tilni har tomonlama chuqur o'rganish nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Shu sababli tilshunoslikni faqat nazariy fan deb emas, balki tatbiqiy va amaliyot uchun kerakli, ya'ni insonlar muloqoti uchun zarur fan sifatida baholash lozim.

“Tilshunoslik nazariyasi” fanining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- til va jamiyat, til va tafakkur, til va madaniyat, til va psixologiya, til va semiotika masalalarini, tilning semiotik tabiatini yoritish;

- nutq va nutq faoliyati munosabatini o'rganish;

- dunyo tillarini tavsiflash, tasniflash, tillarning genetik asoslarini, eng qadimiy til, proto til (“bobo til”), uning boshqa tillar hamda shevalarga munosabatini tahlil etish;

- tillarning kelib chiqishi va rivojlanishiga oid qarashlarni umumlashtirish, til va jamiyat taraqqiyoti uyg'unligini asoslash;

- dunyo tillari tipologiyasini, tillarning morfologik xususiyatlarini, morfem tarkibi, tuzilishini yoritish;

- tilning hozirgi holati hamda tarixiy rivojlanish bosqichlarini sinxron va diaxron aspektda o'rganish;

- yozuv va imlo qoidalarini ishlab chiqishning nazariy va amaliy asoslarini ko'rsatib berish; tilning talaffuz me'yorlarini belgilashning nazariy va amaliy asoslarini izohlash;

- tilning asosiy sathlarini tavsiflash, fonetik-fonologik, leksik, grammatik sath mohiyatini yoritish, fonetika va fonologiya, morfologiya va sintaksis, leksika va semantika, stilistika masalalarini belgilash.

Tilshunoslik fanining asosiy muammolaridan biri tilning ushbu fan predmeti sifatidagi ta'rifidir. Ma'lumki, tabiiy til faqat tilshunoslikda emas, balki yana bir qator fanlar tomonidan o'rganiladigan murakkab ob-



yekt bo'lib, har bir fanning tilga bergan ta'rifi ham turlichadir. Tilning ta'rifi masalasi tilshunoslik fani tarixidagi eng muhim masalalardan biridir, fan tarixida turlicha talqin qilingan va hozirgi kunda ham turli ilmiy maktablar va oqimlar orasida keskin bahslarga sabab bo'lmoqda.

Tilshunoslik fanining predmeti, o'rganish manbai o'z ichki qonuniyatlariga ega bo'lgan murakkab tizim – tildir. Tilning o'ziga xos xususiyatlarini, taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganish mazkur ijtimoiy hodisaga har tomonlama to'liq ta'rif berish imkonini yaratadi. Til umumiy qonuniyatga bo'ysunadigan o'ziga xos ramzlar tizimi bo'lib, kishilik jamiyatidagi aloqa-munosabatning eng muhim quroli, fikr ifodasi hamda fikr yuritish asosi, voqelikni ajdoddan avlodga yetkazadigan, ichki kechinmalarni, his-tuyg'ularni aks ettiradigan, insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan barcha madaniy, ilmiy boyliklarini ifodalaydigan muhim kommunikativ vositadir.

Darhaqiqat, tilshunoslikda mavjud bo'lgan har bir nazariya, avvalo, tilni qanday tushunishga asoslanadi. Tilni qanday tushunish til haqidagi nazariyani yaratishda ahamiyatlidir. Tilshunoslik fanining obyekt, predmeti va tilni ilmiy o'rganish metodlari kabi masalalar ma'lum darajada tilni qanday tushunishga bog'liqdir. Tilshunoslik tarixida tilni turlicha ta'riflash fanning predmetini ham turlicha tasavvur qilishga sabab bo'ldi. Shuning uchun bu masalaning tilshunoslik tarixi asosiy bosqichlarida qanday hal etilganligini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Tilga bo'lgan qiziqish eramizdan avvalgi V asrlarda paydo bo'lgan. Tilshunoslik qadimgi Hindiston, qadimgi Yunoniston va Rim, Misr, Mesopotamiya, Xitoy, Movarounnahr, Arabiston yarim oroli va h.k. mintaqalarda rivojlangan.

Tilshunoslik fani uzoq vaqt mobaynida falsafa tarkibida rivojlangan. Antik davrda va O'rta asrlarda Yevropada tilshunoslik falsafaning ajralmas qismi bo'lgani, falsafiy g'oyalarning ustunligi, tilshunoslikning hali alohida soha bo'lib, ajralib chiqmaganligidan dalolat beradi. Tilshunoslik taraqqiyoti jarayonida alohida tillar yoki til guruhlarini empirik nuqtayi nazardan o'rganilgan. Ba'zi bosqichlarda muayyan tillar (Yevropada lotin, Yaqin va O'rta Sharqda arab) namuna, etalon sifatida qaralgan.

“Dunyoda o'rta asr olimlarining tilga oid nazariy va amaliy masalalarni qamrab olgan tilshunoslikka oid qarashlari adab ilmlari tarkibi-

da lugʻat, sarf (morfologiya), nahv (sintaksis), balogʻat ilmlari kabi sertarmoq va murakkab ilmiy nazariyalar majmuyi sifatida rivojlanib, uning oʻrganish obyekti til, til hodisalari va til ifodasi boʻlgan nutqdan iborat boʻldi. Til – murakkab ramzlar tizimi sifatida baholandi. Til hodisalarini nazariy oʻrganish jarayonida Gʻarb lingvistika maktablari tilning kommunikativ, kognitiv, nominativ va akkumulyativ funksiyalariga eʼtibor qaratdi, shu bois Gʻarb olamida sotsiolingvistika, psixolingvistika, etnolingvistika, antropolingvistika kabi sohalar rivojlandi. Islom uygʻonish davrida tilshunoslarni koʻproq tilning emotsional-ekspressiv, yaʼni valyuntativ funksiyasi qiziqtirib, til hissiy-ruhiy taʼsir vositasi sifatida chuqur oʻrganildi. Natijada tilning estetik taʼsiri va badiiy tuzilishiga oid nazariy qarashlar arab dunyosida balogʻat ilmiyning vujudga kelishi uchun asos boʻlib xizmat qildi”<sup>2</sup>.

Faqatgina XIX asrda tilshunoslik maydonga alohida fan sohasi sifatida kirib keldi, shunga qaramay falsafa, mantiq va psixologiya bilan aloqasini yoʻqotmadi. Ilmiy tilshunoslikning asoschilari – eng yirik tishunoslar yetuk faylasuf ham boʻlganlar. Bular Y.Grimm, V.Gumboldt, Vundt, Chernishevskiy va boshqalardir.

Bu ikki fan orasidagi munosabat til haqidagi fanni boyitish bilan bir qatorda, unga oid ilmiy tadqiqotlar olib borishni chegaralab qoʻygan. Tilshunoslik masalalari chegaradosh sohalarda oʻrganilmay qolgan.

XIX asr oʻrtalariga kelib tilshunoslikni ijtimoiy sohalardan ajratishga urinishlar boshlandi, bu Darvin taʼlimotining rivojlanishi tufayli amalga oshdi. Tabiiy fanlarning rivojlanishi, Charlz Darvin taʼlimotining vujudga kelishi bilan tilni tirik organizm, deb tushunish kuchaydi. Nemis tilshunoslari M.Myuller va A.Shleyxerlar shu nazariya tarafdori edilar. Tilshunoslikda «natural» maktab oqimi paydo boʻldi. Uning asoschisi nemis olimi A.Shleyxer edi. U birinchi boʻlib biologiya qonunlarini «inson organizmi»ga koʻchirish kerakligini aytdi va tilshunoslikni tabiiy fanlar safiga qoʻshdi.

Jamiyatning eng muhim aloqa vositasi boʻlgan tilning bir butunligiga asoslanib, uni tirik organizmga oʻxshatish notoʻgʻridir. Til oʻzining tuzilishi, ayrim unsurlarining oʻzaro munosabati bilan butun bir

---

<sup>2</sup> Rustamiy S.A. Oʻrta asrlar islom balogʻat ilmidagi tilshunoslikka oid qarashlar.. Filol fan...fan d-ri (DSe) diss. avtoref.-T., 2018.-B.6.

tizimni tashkil etadi. Lekin bu holat uni aynan bir tirik organizm sifatida baholash imkonini bermaydi. Til ijtimoiy hodisa sifatida tabiiy hodisalardan ajralib turadi. Masalan, kishilarning tabiiy-biologik va fiziologik xususiyatlari (ovqat yeyishi, nafas olishi, rivojlanishi va hokazo) tabiat qonunlariga muvofiq jamiyatga bog'liq bo'lmagan holda rivojlanib boradi. Ammo tilda so'zlashish va fikrlash uchun kishilik jamiyati (sotsial muhit) bo'lishi shart. Chunki, til kishilarning bir-biri bilan aloqa qilish va fikr almashish ehtiyojlari natijasida paydo bo'lgan. Shuning uchun ham til tabiiy hodisalardan farqli o'laroq, kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan va unga xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir. Til boshqa kishilar bilan muomala qilish ehtiyoji tufayli paydo bo'lgan. Jamiyat sohalari va inson faoliyatida yuz beradigan o'zgarishlar, birinchi navbatda, tilning lug'at qismida o'z aksini topadi. Til jamiyat taraqqiyoti jarayonida ijtimoiy hodisa sifatida paydo bo'ladi (ayrim qarashlarda aytilganidek, "tug'iladi", "taraqqiy etadi", "rivojlanadi"), bir jamiyat yo'q bo'lishi bilan til ham asta-sekin iste'moldan chiqib boshlaydi va davrlar o'tishi bilan o'lik tilga aylanadi. Lotin, sug'd, qadimiy Xorazm tillari bunga misol. Biroq tilning paydo bo'lishi ("tug'ilishi") taraqqiy etishi ("rivojlanishi") va iste'moldan chiqishi ("o'lishi") biologik jarayon emas, balki jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Shuning uchun til qonunlari, uning taraqqiyot yo'llari jamiyat tarixi bilan va shu tilni yaratgan xalq tarixi bilan bog'liq holda o'rganilgandagina masalani to'g'ri hal qilish mumkin.

Demak, aytilgan fikrlardan shunday xulosa chiqarish mumkin: *birinchidan*, til tabiiy biologik hodisa emas; *ikkinchidan*, tilning mavjud bo'lishi va uning taraqqiy qilishi tabiat qonunlariga bo'ysunmaydi; *uchinchidan*, til kishilarning tabiiy belgilariga (oq-qoraligi va boshqa irqiy belgilariga) bog'liq emas; *to'rtinchidan*, faqat jamiyat bo'lib uyushgan insonlargina aloqa vositasi bo'lgan tilga ega. Binobarin, til tabiiy-biologik hodisa bo'lmay, kishilik jamiyatining eng muhim aloqa vositasi sifatida jamiyatga xizmat qiladigan, subyektga bog'liq bo'lmagan murakkab ijtimoiy hodisadir. Jamiyatdagi turli guruhga mansub shaxslar bir-biri bilan aloqada bo'ladilar, til esa ishlab chiqarishni uyushtirishda jamiyat sohalari rivojlanishida muhim aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Tilning boshqa ijtimoiy hodisalardan ajralib turadigan eng asosiy xususiyati shundan iboratki, til ijtimoiy faoliyatning barcha sohalariga xizmat qiladi. U kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan konkret-tarixiy me'yor sifatida jamiyat a'zolarining barchasiga teng xizmat qiladigan asosiy aloqa vositasidir. So'zlovchi insoniyat tomonidan yaratilgan tildan foydalanadi va ushbu tilning qonun-qoidalariga rioya qiladi. Shu bilan bir qatorda, har bir so'zlovchi, ayniqsa, adiblar, olimlar o'zlarining nutq faoliyati jarayonida tilning rivoji uchun ma'lum hissalarini qo'shadilar.

Tilshunoslik tarixida tilga turlicha yondashuvlarni kuzatish mumkin.

Umumiy tilshunoslik fani asoschisi V. fon Gumboldt (1767-1835) tilshunoslikning asosiy masalalarini, predmetini va chegarasini belgilab berishga harakat qilgan mashhur olimdir. V. Gumboldt tilshunoslikni inson o'rganadigan tarixiy, falsafiy, etnografik fanlar qatoriga qo'shishga harakat qildi.

V. Gumboldt ta'rificha, til murakkab, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan sifat va xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan hodisadir, shuning uchun ham tilni ilmiy o'rganishda, uning haqiqiy mohiyatini tushunishda antinomiya – qarama-qarshilik metodini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Til tabiatiga xos asosiy antinomialar quyidagilardir:

*Birinchi antinomiya:* til bilan tafakkurning ajralmas birligi va ichki qarama-qarshiligidir. Til bilan tafakkur bir-birini taqozo etadigan ajralmas hodisadir. Tilsiz tafakkur bo'lmaganidek, til ham tafakkurdan ajratilishi mumkin emas.

*Ikkinchi antinomiya:* til har doim rivojlanib turadigan dinamik hodisadir. Bir tomondan, til faoliyat bo'lsa, ikkinchi tomondan, faoliyat mahsulidir. Muloqot vositasidan foydalanuvchi har bir til sohibi nutqiy faoliyat davomida til taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi, uni me'yorlashtirishi, keng yoyishi, boyitishi mumkin. Shu bilan birga, til jamiyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan barcha tarixiy boyliklarini mujassamlantirgan va ajdoddan avlodga o'tib boradigan aniq tarixiy me'yordir. "Aslida til" "egrok" (faoliyat mahsuli) emas, balki "energiya" (faoliyat)ning o'zginasidir". Bu antinomiya ko'rinib turibdiki, V. Gumboldt til bilan nutqni tilshunoslik fani obyektlari sifatida ajratib o'rganish masalasini ilgari surgan. Demak, ikkinchi antinomiya til bilan nutqning o'zaro munosabati masalasidan iborat.

Uchinchi antinomiya: nutq va tushunish antinomiyasidir. V. Gumboldt ta'rifiga ko'ra nutq va nutqni tushunish inson nutq faoliyatining ikki tomonini tashkil etadi.

To'rtinchi antinomiya: nutqning obyektiv va subyektiv xususiyatlarini o'z ichiga oladi. V. Gumboldt fikricha, har bir individ insoniyat jamoasi tomonidan yaratilgan tildan foydalanadi va ushbu tilning qonun-qoidalariga rioya qiladi. Subyektiv hodisa sifatida esa har bir so'zlovchi o'zining nutqiy faoliyati jarayonida til rivojiga o'z hissasini qo'shadi.

Beshinchi antinomiya: tildagi jamoaviy va individual xususiyatlaridir. Ma'lumki shaxs o'zidan oldingi avlod tomonidan yaratilgan jamoa mahsulotidan foydalanadi, individual xususiyatini namoyon etadi. Nutq faoliyati. o'z navbatida, so'zlovchi va tinglovchini taqozo qiladi. Shuning uchun nutqning jamoaviy va individual xususiyatlarini o'rganish zarur.

V. fon Gumboldt fikricha, til murakkab va ko'p aspektli hodisa bo'lib, uni ilmiy o'rganish tilning barcha aspektlarini tekshirishni talab qiladi. Olimning ta'kidlashicha, tilning har doim rivojlanib, o'zgarib turishi uning eng asosiy xususiyatidir. Tilshunoslik fanining asosiy masalasi – tilning ana shu xususiyatini o'rganishdan iboratdir. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan masalalar tilshunoslik fanining predmeti masalasi bilan bevosita aloqadordir.

V. Gumboldt nazariyasi, uning ilmiy faoliyati, ayniqsa, til va nutq xususidagi qarashlari tilshunoslik fani taraqqiyotiga katta hissa bo'lib qo'shildi. V. Gumboldtning til haqidagi falsafiy nazariyasi, o'zidan keyingi tilshunoslik fani takomillashuvida, turli ilmiy maktablar va oqimlarning shakllanishida asosiy omil bo'ldi.

Tilning ijtimoiy tabiatini talqin qilishda jahon tilshunosligi dialektik taraqqiyot prinsiplariga asoslanadi. Xususan, tilni jamiyat taraqqiyotining mahsuli deb tushunish tilshunoslik faniga qo'shilgan eng buyuk hissalar-dan biridir. Tilning asosiy va muhim xususiyati shundan iboratki, til kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan bo'lib, eng muhim aloqa vositasi sifatida xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir.

Boshqa bir qator olimlar (A.Shleyxer, G.Paul, M.Myuller), tilshunoslik maktablari ("Yosh grammatikachilar" maktabi, Praga strukturalizmi, Kopengagen strukturalizmi, Amerika strukturalizmi) tilning asl mohiyatini ochib berish masalasiga o'z nuqtayi nazarlaridan yondashdilar. Ularning fikr-mulohazalari tilshunoslik sohasida erishilgan yutuqlardan

hisoblansa-da, mazkur qarashlarning ba'zi jihatlari cheklangan edi. Tilshunoslik fani tarixida muhim o'rin tutgan "Yosh grammatikachilar" maktabi vakillari tilning tarixiy hodisa ekanligini tilning eng asosiy xususiyati deb bildilar. Ularning fikricha, til, avvalo, uzoq tarixga ega bo'lgan kishilik jamiyati madaniyatining mahsuli bo'lib, uni tarixiy taraqqiyot nuqtayi nazaridan o'rganish zarur. Tilshunoslik tilning o'ziga xos tabiatini, tilning o'zgarish sabablarini ham ijtimoiy taraqqiyot negizida tahlil qiladi. "Yosh grammatikachilar" til hodisalarini ayrim (atomizm) holda o'rganishni tavsiya qiladilar. Ular til va tafakkur, tillarning grammatik qurilishi turlicha bo'lishi sabablari, tilning ijtimoiy tabiati kabi masalalar bilan qiziqmadilar, ular o'sha davrda hukm surgan psixologik nazariyalarning ta'sirida bo'lib, tildagi barcha hodisalarni individual psixologiya prinsiplari asosida hal qilishga intildilar.

Til jamiyat mahsuli sifatida shakllangan murakkab, ijtimoiy-biologik, psixik hodisa ekan, insonning olamni anglashi, dunyoni bilish sezgilari jamlangan a'zolarining nutq apparati sifatida takomillashuvi muayyan tarixiy davr hamda tizim talablari asosida amalga oshgan. "Til kishilik jamiyati mahsulidir. Tilsiz hech bir voqelik va hodisani, insonning tabiatda, jamiyatda tutgan o'mini, jamiyat taraqqiyoti yo'llarini bilish, o'rganish mumkin emas.

Tilda so'zlar ma'no anglatadi, ular obyektga, biror narsa-hodisaga ishora qiladi. So'zlar narsa-hodisaning biror belgisiga ishora qilish xususiyatiga ega. Ammo ba'zi so'zlarda uning shakli ma'nosiga to'g'ri kelmaydi. *Dog* (it) nega shu nom bilan ataladi? U hech qachon bizga o'z nomini eslatmaydi yoki *it* so'zi hayvonning biror holatini anglatmaydi. Venger tilida bu tushuncha *kutya* so'zi bilan ifodalanadi. Ba'zi so'zlar narsa-buyum, jonzotning tovushiga ishora qiladi, ammo tovushga taqlid so'zlari ham tillarda bir xil emas. Ingliz tilida *viv-viv*, *bov-vov* tarzida, venger tilida *w* tarzida talaffuz etiladi.

Til tovushlari nutqda muhim ahamiyat kasb etadi. Nutq a'zolari inson uchun zaruriy uzvlar bo'lib, ular barcha tillarda tovushlarni hosil qilish uchun xizmat qiladi. Ammo fonetik imkoniyatlar tillarda bir xil namoyon bo'lmaydi. Masalan, ingliz tilida nutq tovushlarining 40ga yaqin muhim, turli xil ko'rinishlari ishlatiladi. Tovushlar fonema, harflar

shaklida moddiylashtiriladi. Til, avvalambor, kommunikativ vositadir. Bu uning kommunikatsiyaga asoslangan tizim ekanligini ko'rsatadi<sup>3</sup>”.

Kishilar o'zaro aloqa-munosabatda bo'lish, fikrlashishda tildan boshqa vositalardan ham foydalanadilar. Bular ovozli va grafik shaklda bo'lgan so'zlashuv nutqidan boshqa turli tovush signallari: qo'ng'iroq, gudok kabilardir.

Kommunikatsiyani ta'minlashda simvolika, turli ramzlar hamda paralingvistik vositalardan ham foydalaniladi.

Tilshunoslik fani, avvalo, nazariy va tatbiqiy-amaliy fandır. Bu fan keng qamrovli bo'lib, boshqa fan sohalari bilan har tomonlama bog'liqdir. Til murakkab ijtimoiy hodisa, belgilar tizimi sifatida insonlar muloqoti uchun xizmat qiladi. Bu o'rinda til va nutqni farqlash zarur. Nutq – bu tilning va undagi belgilarning barcha qo'llanish holatlarini qamrab oladi. Yozma yoki og'zaki nutq bo'lagi *matn* deb yuritiladi. Yozma nutq va og'zaki nutq farqlanganidek, yozma matn va og'zaki matn (monolog, dialog kabi) ham farqlanadi. Tilning jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan qonunlari davr o'tishi bilan turli o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Tildagi o'zgarishlar va tilning rivojlanishi murakkab muammolarni keltirib chiqaradi. Til kishilar o'rtasidagi munosabatning eng muhim quroli bo'lib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan umuminsoniy manfaatlariga xizmat qiladi. Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ekan, inson kamoloti haqida fikr yurituvchi barcha fanlarning o'rganish manbai tilga aloqador hisoblanadi. Tilshunoslikning fanlar sistemasidagi o'rnini tahlil qilish, boshqa fanlar bilan munosabatini yoritish uning qimmatini belgilashda, bir qator lingvistik tushunchalarning kelib chiqish ildizlarini yoritishda, umuman, tilshunoslikning ko'pgina nazariy muammolariga oydinlik kiritishda muhim ahamiyatga egaligi ta'kidlangan<sup>4</sup>.

Tilning tabiati, mohiyati kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasi, strukturasi va bu strukturani tashkil etgan elementlarning o'zaro munosabati, uning ichki mexanizmi, ishlash prinsiplari kabi muhim masalalarni o'rganishni, tilni har taraflama tadqiq qilishni talab qiladi.

“Tilshunoslik nazariyasi” tilning shakllanishi va rivojlanishini qonuniyatlar asosida tahlil qilar ekan, til va nutqni boshqa jihatdan talqin

<sup>3</sup>Richter B. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest. 2006.-B.17

<sup>4</sup>Nurmonov A. Tanlangan asarlar. I jild. –T.:Akademnashr, 2012. -B. 10

qiladigan sohalarga murojaat etadi. Masalan, til va nutq munosabatini, nutq xususiyatlarini tahlil qilar ekan, nutq ontogenezi (nutqning shakllanishi) masalasida ham to'xtaladi. Darhaqiqat, biz dunyoni tovushlar, so'zlar orqali qanday anglaymiz? Fikrimizni qay holda ifoda etamiz? Nutq jarayoni qay tarzda amalga oshadi? Bu savolga javob topish ham til va nutqning mohiyatini yoritishda ahamiyatlidir. "Biz tilni o'zaro muloqot vositasi sifatida qo'llagan davrimizdan buyon uning vujudga kelish jarayonini tahlil qilishga harakat qilamiz. Biz til mazmunini qayerdan anglashimiz mumkin? Boshqacha aytganda, gapni qanday anglab yetamiz? Ba'zida bir kishi tomonidan aytilgan fikrni ikki kishi turli ma'noda tushunishi mumkin. Bu tilning leksik va struktur jihati bilan bog'liq<sup>5</sup>".

Tilning muhim kommunikativ funksiya bajarishi uning murakkab tizim ekanligi, nutqda voqelanishi ham muayyan qonuniyat asosida yuz berishini ko'rsatadi. Kishilik jamiyati taraqqiyoti davomida tilning jamiyatga bo'lgan munosabati turlicha izohlangan. Har xil fikrlar, turli nazariyalar vujudga kelgan. Til birliklarining mazmun qiymatiga, semantik mohiyatga ega ekanligi ta'kidlangan. Semantikani o'rganish qanchalik murakkab jarayon ekanligi va so'zning qanday ma'no anglatishi ilmiy asoslashni talab etadi. "I saw her run to the bank" *Men uning bankka yugurib ketayotganini ko'rdim*. Bu gapdan, biz *bank* so'zining "moliyaviy institut" yoki "daryo qirg'og'i" ma'nosini anglatayotganini bilmaymiz. Shubhasiz, gap mazmunini muloqot jarayonidan anglab yetamiz. "I ate the biscuits on the bed". *Men shirinlikni yotoqxonamda yedim* gapida siz "Men shirinlik iste'mol qilgan paytimda kravot ustida o'tirganim"ni anglaysiz. Yoki "men kravot ustida turgan holda biskvitni yeganim" anglashiladi<sup>6</sup>.

Nutq ontogenezi (nutqning shakllanishi) murakkab voqelik bo'lib, inson miyasidagi nutq bilan bog'liq jarayonlarni, nutq mexanizmini, nutqni ifoda etish, qabul qilish, tushunish, anglash masalalarini ham o'rganishni taqozo qiladi. Nutqning shakllanishi va rivojlanishini tahlil qilishda psixolingvistika fani tahlillaridan foydalaniladi.

Nutqning shakllanish xususiyatlarini bolalar nutqining rivojlanish jarayoni misolida izohlash mumkin. "Hech bir tilni uning butun lug'at

<sup>5</sup> Richter B. First steps in theoretical and applied linguistics. -Budapest, 2006.-B.61

<sup>6</sup>Richter B. First steps in theoretical and applied linguistics. -Budapest, 2006.-B.17



boyligi yoki gap qurilishini yod olish bilan o'rganib bo'lmaydi. Hatto biror kishi nazariy jihatdan shakllantirilgan hamma so'zlarni o'rgansa ham yetarli bo'lmaydi. Ular o'rganuvchilar nutq faoliyatining muqobil variantlari bilan tanishmasdan turib, muloqotga kirisha olmaydi. Biz biror tilni o'rganish imkoniyatini yaratadigan boshqa usullarni ko'rib chiqishimiz lozim. Bu miya faoliyatining muayyan tilni o'rganish mexanizmi bilan bog'liq. Yana bir muhim ma'lumot sifatida shuni qayd etish zarurki, bolalar tilni tez va oson o'rganishadi. Bola nutqi rivoji yoki til o'rganish qobiliyati uni o'rab turgan muhit ta'siriga bog'liq"<sup>7</sup>.

Inson tillarning paydo bo'lishi, shakllanishi, rivojlanishini bevosita kuzatish imkoniyatiga ega emas. Tilshunoslik til tadqiqiga bag'ishlangan yozma manbalarga tayanadi. Ma'lumotlarning mukammal bo'lishi uchun shuning o'zi yetarli emas. Shu bois ko'p hollarda kishilik jamiyatida nutqning shakllanishi va rivojlanish xususiyatlarini yoritish uchun bola nutqining shakllanishi, rivojlanishiga doir kuzatishlardan foydalaniladi.

Tilshunoslik ham barcha fanlar qatori o'zining tadqiqot doirasiga ega. Tilning tuzilishi, kelib chiqishi, rivojlanishi va boshqa masalalar uning tahlil doirasini tashkil qiladi, bunda boshqa fanlarning ilmiy xulosalariga tayanadi. Bir qator ichki lisoniy masalalar – masalan, tilning kelib chiqishi, rivojlanishi, tarqalishi va hokazolar boshqa ijodiy fanlar yordamida ham hal qilinadi. Bundan tashqari, boshqa fanlarning tilshunoslikka tobeligi mavjud. Masalan, aloqa muhandislari nutqni uzoq masofaga yetkazish maqsadida lisoniy masalalarni bilishlari shart. Biror-bir xalqning tarixini va madaniyatini o'rganayotgan olim, albatta, shu xalqning tiliga, yozma manbalariga murojaat qiladi, chunki til – asosiy manba. Unda xalq haqida, uning madaniyati haqida yetarli ma'lumot mavjud. "Boburnoma"ning, dastavval, ma'lumot manbai sifatida o'rganilganligi ham bu fikrni isbotlaydi.

Atrof-muhit, borliq, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, madaniy taraqqiyot, avvalo, inson ongida aks etadi. Ma'lumotlar sezgi a'zolari hamda ong orqali o'zlashtiriladi, idrok etiladi. Insoniyat ongli faoliyati, tafakkuri yordamida olingan axborotlar yuzasidan fikr qiladi,

---


<sup>7</sup>Kichter B First steps in theoretical and applied linguistics. -Budapest, 2006.-B.19.

mushohada yuritadi. Tafakkur mahsullarini tizimli ravishda og‘zaki va yozma nutq ko‘rinishida ifoda etadi. Obyektiv borliq, voqea-hodisalarni qay darajada proektsiyalash axborot uzatuvchining fikrlash doirasi hamda nutq mahorati bilan belgilanadi. Bu ma‘lumotlar ajdodlar va avlodlar o‘rtasidagi aloqa-munosabatni ta‘minlaydigan, qadriyat, an‘analarning davomiyligini saqlab qoladigan omil sifatida xizmat qiladi.

“Tilshunoslik nazariyasi” til qurilishi, til tabiati, tilning insoniyat ijtimoiy turmush tarzidagi o‘rni, til va tillarni tadqiq etish metodlari xususida umumiy, tizimli xulosalar beradi. Talabalarni tilshunoslikdagi asosiy yo‘nalishlar, maktablar, ularga xos ta‘limotlar, atoqli tilshunoslarning faoliyati va qarashlari, ularga tegishli tamoyillar tavsifi, izlanish olib borish metodikasi, metodlari, qo‘lga kiritilgan muhim yutuqlar bilan tanishtiradi. “Tilshunoslik nazariyasi” fani til sathlari haqida bahs yuritadi. Tilning asosiy sathlari sifatida fonetik-fonologik, leksik, grammatik sath tahlil etiladi. Tilshunoslikning nazariy masalalari mohiyati dialektologiya, frazeologiya, stilistika, etimologiya kabi bo‘limlar orqali yoritiladi. Bu masalalarni o‘rganishda diaxron va sinxron tahlil usullaridan foydalaniladi.

### Savol va topshiriqlar

1. Til va jamiyat munosabatini yoriting.
2. Tilning ijtimoiy tabiatiga xos xususiyatlarni ayting.
3. Tilshunoslik sohasining predmeti, o‘rganish obyektini misollar asosida tushuntiring.
4. Tilning asl mazmunini yoritishdagi nazariy qarashlarga baho bering.
5. Til taraqqiyoti haqidagi tushunchangizni bayon eting.
6. Tilning tabiiy-biologik, fiziologik, ijtimoiy xususiyatlarini yoriting.
7. Til hodisalarini ayrim holda o‘rganish haqida fikr bildiring.
8. Tilni tirik organizm sifatida baholashga munosabatingiz?
9. “Tilshunoslik nazariyasi” fanida o‘rganiladigan masalalarni “klaster” usulida yoriting.



10. “Tushunchalar tahlili” texnologiyasi asosida jadvalni to‘ldiring.

Tushunchalar	Terminning mazmun-mohiyati	O‘rganish sohasi
Fonetika		
Fonologiya		
Leksikologiya		
Frazeologiya		
Leksikografiya		
Morfologiya		
Sintaksis		
Punktuatsiya		
Orfoepiya		
Orfografiya		
Grafika		
Stilistika		
Dialektologiya		
Etimologiya		

### Asosiy tushunchalar glossariysi

**Tilshunoslik** – tilning jamiyatdagi o‘rmi, taraqqiyot xususiyatlari, rivojlanish qonuniyatlari haqidagi fan.

**Tilshunoslik nazariyasi** – tilshunoslik taraqqiyotining eng umumiy qonuniyatlari, tilning ichki qurilishi, til tizimi, til va jamiyat, til va tafakkur, til va nutq munosabatlari haqidagi fan.

**Fonetika** – tilshunoslikning nutq tovushlari, ularning hosil bo‘lishi, tiplari, tovushlar o‘zgarishi, bo‘g‘inlar, ularning tuzilishi, tiplari, strukturasi; urg‘u, urg‘u tiplari va intonatsiya haqidagi tarmog‘idir.

**Grammatika** (yun.) – tilshunoslikning so‘z shakllari (shakl yasalishi), so‘z birikmalarining turlari, gap turlari (tilning grammatik qurilishi) haqidagi bo‘limi.

**Morfologiya** (yun.) – grammatik ma’no, so‘z shakllari, so‘z turkumlari haqidagi grammatik ta’limot.

**Umumiy tilshunoslik** – tilshunoslik uchun umumiy bo‘lgan taraqqiyot qonuniyatlarini, tilshunoslik rivoji, taraqqiyot bosqichlari, tilshunoslik maktablari, nazariy ta’limotlar tarixi, shakllanish jarayoni, til strukturasi xos bo‘lgan umumiy jihatlar haqidagi soha.

**Xususiy tilshunoslik** – muayyan tilning taraqqiyot xususiyatlari, tarkibiy qismlari, bo‘limlari, sathlari, boshqa tillar bilan munosabati, til oilasida tutgan o‘rni haqida bilim beruvchi soha.

**Proto til** – tillar uchun asos bo‘lgan, qadimiy bobo til.

**Sinxroniya** – til taraqqiyotini nutq jarayoni nuqtayi nazaridan tahlil qiladigan metod.

**Diaxroniya** – til taraqqiyotini tarixiylik nuqtayi nazaridan qiyosiy aspektida tahlil qiluvchi metod.

### Test

1. Tilning tarixiy taraqqiyotini, rivojlanish qonuniyatini, taraqqiyot bosqichlariga xos xususiyatlarni o‘rganish metodi qanday nomlanadi?

- A) dialektika
- B) dialektologiya
- C) sinxroniya
- D) diaxroniya

2. “Yosh grammatikachilar” maktabi vakillari tomonidan tilning eng asosiy xususiyati sifatida ajratilgan belgini ko‘rsating.

- A) tilning tarixiylik belgisi
- B) tilning mantiqiylik belgisi
- C) tilning tadrijiylik belgisi
- D) tilning aniqlik belgisi

3. Tilning hozirgi holati, tarkibiy xususiyatlarini o‘rganish metodi qanday nomlanadi?

- A) sinxroniya
- B) dialektologiya
- C) dialektika
- D) diaxroniya

4. Tilning asl mohiyatini nazariy jihatdan yoritishga hissa qo'shgan tilshunoslik maktablarini aniqlang.

- A) Kopengagen strukturalizmi, arab tilshunosligi
- B) Amerika strukturalizmi, hind tilshunosligi
- C) Kopengagen strukturalizmi, Qozon tilshunoslik maktabi
- D) Praga strukturalizmi, Kopengagen tilshunoslik maktabi

5. Quyidagilardan qaysilari o'lik tilga mansub ?

- A) kreol, pijin
- B) ispan, lotin
- C) nautal, lotin
- D) lotin, sanskrit

6. Tilning asl mohiyatini nazariy jihatdan yoritishga hissa qo'shgan olimlarni aniqlang.

- A) F.de Sossyur, G.Blumfeld, M.Myuller
- B) F.de Sossyur, V.Gumboldt, M.Myuller
- C) A.Shleyxer, F.de Sossyur, M.Myuller
- D) A.Shleyxer, G. Paul, M.Myuller

7. Bir qator tillarning taraqqiyotiga asos bo'lgan qadimiy til qanday nomlanadi?

- A) kreol tillari
- B) proto til
- C) asos til
- D) pijin tillari

## 2-§. TILNING IJTIMOIIY TABIATI

### Reja:

1. Til va jamiyat munosabati. Sotsiolingvistika.
2. Til integratsiyasi va differentsiatsiyasi.
3. Tilning ijtimoiy ko'rinishlari. Tilning ijtimoiy vazifalari.

**Asosiy tushunchalar:** *til va jamiyat, sotsiolingvistika, bilingvizm, integratsiya, differentsiatsiya, tilning tarixiyliigi, tilning hayotiyliigi, tilning me'yoriyligi, hududiylik, me'yorlashtirilgan tillar, qadimiy tillar, kreol tillari, pijin tillari, koyne, xalqaro tillar, milliy til, umumxalq tili, sun'iy til, adabiy til, sheva, sotsiolekt, dialekt, argo, jargon, sleng.*

Til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni, tilning falsafa, ijtimoiy psixologiya, etnografiya bilan bog'liq jihatlarini o'rganuvchi soha **sotsiolingvistika** (ijtimoiy tilshunoslik) deb yuritiladi. Sotsiolingvistika quyidagi masalalarni:

- 1) jamiyat va til aloqadorligi va bu munosabatning tarixiy jaryon, hodisa ekanligini;
- 2) tilning ijtimoiy vazifalarini, ularning taraqqiyot xususiyatlarini;
- 3) adabiy til, shevalar lug'at boyligining kengayishi, ortib borishini;
- 4) yashash muhiti yaqin, turmush tarzi o'xshash hamda o'zaro iqtisodiy munosabatlari shakllangan xalqlar tillarining bir-biriga ta'sirini;
- 5) sotsial chegaralangan nutq xususiyatlarini;
- 6) yosh, gender jihatdan farqlanuvchi nutq ko'rinishlarini tahlil qiladi.

Dunyo tillarining, ma'lum ma'noda, o'ziga xosligini yorituvchi, muayyan tilning boshqa tillardan farqli jihatlarini ko'rsatuvchi tadqiqotlar yaratilgan. Mazkur tadqiqotlarning bosh masalasi til va jamiyat munosabati talqinidir. Tilning jamiyat bilan bog'liq tomonlarini o'rganish tilning o'ziga xos ichki qurilishi, imkoniyatlarini yoritishda ahamiyatlidir. "Til hayotimizning markaziy hamda tabiiy qismi hisoblanadi. Inson yoshligidan muloqot qilish, so'zlashish qobiliyatiga ega bo'ladi va atrof-muhitga moslashadi. Til insonning

fikrlash qobiliyatini shakllantiradigan, uning e'tiborini jalb qiladigan hodisadir. Til insonlar o'rtasida axborot almashish, his-tuyg'ularni ifodalash va shaxsning o'z tabiatini namoyon qilish vositasidir. Tilshunoslik insoniyatgagina xos bo'lgan tilni ilmiy jihatdan o'rganadigan, uning barcha shakllarini, xossalari tadqiq etadigan sohadir. Til lingvistikaning turli aspektlarida o'rganiladi va ularning barchasida asosiy vosita vazifasini bajaradi. Mazkur o'rganishlarning qaysi biri lingvistikaning asosini tashkil etishi tilning o'ziga xos jihatlari nuqtayi nazaridan tahlil qilish natijasida aniqlanadi"<sup>8</sup>.

Ma'lumki, har bir inson o'zi yashab turgan muhitda, jamiyatda ulg'ayadi, tarbiya topadi. Albatta, har qanday tarbiyaning, ayniqsa, til, ma'naviy komillik, milliy o'zlik tarbiyasining asosiy o'chog'i bolani o'rab turgan ijtimoiy muhit, birinchi navbatda, oiladir. Abdurauf Fitrat "Rahbari najot" asarida shunday yozadi: "Suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar, o'sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundan iboratki, bolalar ko'proq yaxshi va yomon ahvolni o'z uylaridan, ko'chadagi o'rtoqlaridan, maktabdagi o'quvchilardan qabul qiladilar"<sup>9</sup>.

Sotsiolingvistika til va jamiyat munosabatlarini tahlil qilar ekan, umumiy va xususiy qonuniyatlarga tayanadi. Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiatini yoritishda *tarixiylik*, *hayotiylik*, *me'yoriylik*, *hududiylik* kabi qator mezonlarga amal qiladi. Avvalo, til voqelik sifatida mavjud bo'lishi uchun muayyan tarixiy taraqqiyot bosqichidan o'tishi kerak. Tilning paydo bo'lishi, yaxlit tizim tarzida shakllanishi, ijtimoiy hodisa sifatida mavjudligi uning *tarixiyligi* bilan bog'liq.

Tilning *hayotiyligi* uning aloqa-munosabat vositasi sifatida mavjudligidir. Tilda so'zlashuvchi jamiyat bo'lmasa, u o'lik tilga aylanadi. Til hayotiy bo'lishi uchun shu tildan foydalanadigan jamiyat zarur bo'ladi. Ba'zan o'lik tillar hayotiylik belgisiga ega bo'lishi mumkin, bunga ivrit tili misol qilib keltiriladi. Bu qarashni nisbiy deb baholash kerak. Negaki, til aloqa munosabat vositasi sifatida ahamiyatini yo'qotdimi, uni sun'iy ravishda tiklab bo'lmaydi.

<sup>8</sup>Richter B. First steps in theoretical and applied linguistics. -Budapest, 2006.-B.17

<sup>9</sup>Mahmudov N. Til. - T., 1998.-B.5

Sotsiolingvistikadagi *me'yoriylik* mezoni deyilganda, tilning muayyan me'yorlar asosida muvofiqlashishi tushuniladi. Til grammatikasiga oid qonun-qoidalarning yaratilishi me'yorlashtirishning muhim omillaridan hisoblanadi. Me'yorlashtirilgan til ma'lum bir jamiyatning ehtiyoji uchun xizmat qiladigan, ma'lum qonun-qoidalar asosida muvofiqlashtirilgan milliy – adabiy tildir.

*Hududiylik* tilning ma'lum hudud bilan bog'liqligini ifoda etadi. Hududiylik millat, elatga xos urf-odat, an'analar, tarixiy-etnik birlik va yagona davlat tizimining shakllanganligi bilan bog'liq. Millatning, hududning, tarixiy-etnik asos va taraqqiyotning o'zgachaligi tillar o'rtasidagi farqlar uchun asos bo'ladi. Millat va etnik asosning bir xil bo'lishi hududning farq qilishidan qat'i nazar, aloqa-munosabat vositasining bir xil bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, o'zbek va tojik tillarida har bir tilning o'ziga xosligi ko'zga tashlanadi. Bir xil etnik asosga ega bo'lgan o'zbek va qirg'iz tillari o'rtasida fonetik, leksik, grammatik farqlar bor. Adabiy til va shevalar o'rtasida ham tilning ichki tuzilishi bilan bog'liq farqlar kuzatiladi.

“Tabiat va jamiyatda inson tiliday serqirra, shakl va mazmun munosabati murakkab hodisa kam topiladi. Til dunyoni bilish, bilimlarni to'plash, saqlash, keyingi avlodlarga yetkazish, ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go'zallik kategoriyalarini voqelantirish kabi bir qancha vazifalarni bajarishiga qaramasdan, asosiy e'tibor uning kishilar o'rtasidagi aloqani ta'minlash vazifasiga qaratib kelindi. Tilni faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatidagina talqin etish insonning tabiiy tilini, bu murakkab hodisani jo'nlashtirishdan, aniq bir milliy qiyofa yoki milliy-ruhiy zamindan mutlaqo ayrilgan sun'iy tilga tenglashtirishdan, yo'l harakatini tartibga solish maqsadida yaratilgan shartli “til”ga o'xshatishdan boshqa narsa emas<sup>10</sup>”. Holbuki, til bemisl boylik, sehr-u sinoatga, ruh-u ruhoniyatga, ko'rk-u komillikka limmo-lim bir ne'matdir.

Tilning aloqa vositasi ekanligi uning ijtimoiy vazifalaridan biridir. Aslida til, eng avvalo, dunyoni ko'rish, eshitish, bilish, idrok etish vositasidir. Qolaversa, til har bir insonning, millatning ichki dunyosini, ma'naviyatini butun borligicha ifodalovchi omil hamdir. Ayni paytda tilning ruhiy, estetik hodisa ekanligini ham unutmazlik lozim. Tilshunos olim,

<sup>10</sup> Mahmudov N. Ma'rifat manzillari. –T., 1999.



professor Nizomiddin Mahmudov milliy sezgi va milliy ruhiyatning shakllanishida ona tilining hal qiluvchi ahamiyati xususida qiziqarli ma'lumot keltiradi: "Ingliz jurnalisti Govard Brabinning "Ona tili va miya. Yapon olimining g'aroyib kashfiyoti" nomli maqolasida ("Курьер ЮНЕСКО" jurnali, 1982, № 3, 10-13-betlar) bayon qilinishicha, Tokio universitetining tibbiyot professori Tadanobu Tsunoda 1981-yilda YUNESKOning Afinada o'tgan simpoziumida o'zining 15 yillik tajribatadqiqotlari natijalari haqida axborot bergan. Professor Tsunoda o'z eksperimentiga yaponiyalik va g'arblik (fransuz, ingliz, ispan, nemis va hokazo) kishilarni jalb qiladi. Olim ularga inson ovozi, hayvonlar, hasharotlar tovushi, turli fizik tovushlar, yapon va g'arb musiqa asboblari tovushlarini eshittiradi va tegishli zamonaviy apparatlardan foydalangan holda ularning miyalaridagi markazlarning reaksiyasini qayd etib boradi. Tadqiqotlardan ma'lum bo'ladiki, yapon va g'arb tiplarining, ya'ni yapon va g'arblik kishilarning bosh miya yarim sharlaridagi markazlar vazifalarining taqsimlanishida farq mavjud ekan. Boshqacha qilib aytganda, yapon miyasidagi muayyan bir markaz bilan qabul qiladigan tovushni g'arblik boshqa markaz orqali qabul qilar ekan. Tadqiqotchi bu farq etnogenetika bilan bog'liq yoki bog'liq emasini aniqlash maqsadida 20 ta yapon emigrantining bolalari ishtirokida yana eksperiment o'tkazadi. Natija shuni ko'rsatadiki, bu farq genetik emas, balki ona tili muhiti bilan bog'liq ekan. Ana shularga asoslanib, professor Tsunoda quyidagicha xulosa chiqaradi: "Men insonning o'z atrofidagi tovushlarni qabul qilishi, sezishi, o'zlashtirishi va tushunishini ona tili differentsiatsiya qiladi, deb hisoblayman. Ona tili miyadagi emosional (his-hayajon, kuchli tuyg'u) mexanizmning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Bolalikdan egallangan ona tili har bir etnik guruhning o'ziga xos, betakror madaniyati va ruhiy olamining shakllanishi bilan chambarchas bog'liqdir"<sup>11</sup>".

Til bilan jamiyatning o'zaro bog'liqligi ularning har ikkisi bir vaqtda yuzaga kelganligini, jamiyatning shakllanishida tilning asosiy vazifani bajaruvchi eng muhim omillardan biri ekanligini, shunga ko'ra, tilsiz kishilik jamiyati bo'lmasligini asoslaydi. Shunga ko'ra til o'ziga xos ijtimoiy funksiyalarni bajaradi.

Tilning kishilik jamiyatidagi o'rmini, madaniy-ma'naviy soha taraqqiyotidagi ahamiyatini yoritish uning ijtimoiy vazifalarini to'g'ri bel-

<sup>11</sup> Mahmudov N. Til. -T., 1998. - B.7.

gilashga asoslanadi. Til alohida tizim sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. *Aloqa – munosabat vazifasi (kommunikativ funksiya)*. Tilning mazkur vazifasi jamiyatda aloqa-munosabat vositasi sifatida xizmat qilishdan iborat. Bu funksiya tilning asosiy ijtimoiy vazifasi hisoblanadi. Til belgilari uni aloqa-munosabatning boshqa vositalaridan farqlash, tilni ijtimoiy hodisa sifatida talqin etish imkonini beradi. Til aloqa-munosabatning muhim vositasi sifatida jamiyat bilan, uning madaniyati, turmush tarzi va mehnat faoliyatidagi har bir jarayon bilan uzviy bogʻliq. Kishilar oʻz fikrlarini, sezgi va ruhiy kechinmalarini ifoda qilib, birbirlariga taʼsir koʻrsatadilar.

2. *Tilning hissiy taʼsir vazifasi (emotsional-ekspressiv funksiya)*. Muayyan maʼlumotni ifoda etib, tinglovchiga taʼsir koʻrsatishi tilning hissiy taʼsir vazifasi hisoblanadi. Xabar, sezgi va hayajon, xohish ifoda qilish hissiy taʼsir vazifasining asosini tashkil etadi. Bunda turli tasviriy vositalardan, jumladan, modal soʻzlar, javob talab qilmaydigan soʻroq ( ritorik) gaplar, tartibni oʻzgartirish (inversiya) kabilardan foydalaniladi.

3. *Tilning toʻplash vazifasi (akkumulyativ funksiya)*. Til aloqa-munosabat vositasi, hissiy taʼsir ifodasi boʻlib qolmay, toʻplash vazifasini bajaruvchi muhim manba hamdir. Til toʻplangan bilim va tajribalarni keyingi avlodga yetkazishda muhimdir. Tilning ushbu vazifasi bilish jarayonida ahamiyatlidir. Bevosita aloqa-munosabat davomida tilning nomlash va fikr ifodalash vazifalari namoyon boʻladi. Mustaqil soʻzlar, qoʻshma soʻzlar, iboralar, atamalar nomlovchi birliklar hisoblansa, turli gap koʻrinishlari fikr ifodalovchi birlik hisoblanadi.

Xorijiy adabiyotlarda tilning quyidagi ijtimoiy vazifasi taʼkidlangan: “Til jamiyatda quyidagi vazifalarni bajaradi: 1.Til –aloqa vositasi. 2.Til – boshqalarga taʼsir qilish, taʼsir oʻtkazish vositasi. 3.Til – fikrni shakllantirish va ifodalash vositasi. 4. Til – bilish vositasi. 5. Til – insonga xos xususiyatlardan biri. 6.Til – millat va xalqning asosiy muhim belgilaridan biri. 7.Til – madaniyat, maʼnaviyat va maʼrifatni tarannum qilish quroli, vositasi”<sup>12</sup>.

Ijtimoiy tabiati va oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, tillarning jamiyatdagi koʻrinishlarini quyidagicha guruhlash mumkin.

<sup>12</sup>Richter B. First steps in theoretical and applied linguistics. -Budapest, 2006.

**Qadimiy tillar** – tillarning dastlabki taraqqiyoti davrida shakllangan, takomiliga yetgan, eng qadimiy madaniy-ma'naviy yodgorliklar yaratilgan tillardir. Bu tillar keyingi davrlarda shakllangan bir qator tillar uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Qadimiy tillar kishilik jamiyatining umumiy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Ma'lum davrda aloqa-munosabat vositasi sifatida mavjud bo'lib, keyingi davrlarda iste'moldan chiqqan borgan. Natijada o'lik tilga aylangan. Lotin tili qadimiy tilning yaqqol namunasi.

**Mahalliy tillar** kam sonli aholiga xizmat qiladigan tillardir. Mahalliy tillar o'z yozuviga ega emas. Bunday tillar faqat og'zaki shaklda mavjud bo'lib, aholining kundalik aloqa-munosabat ehtiyoji uchun xizmat qiladi.

**Me'yorlashtirilgan tillar** adabiy til me'yoriga ega bo'lgan tillardir. Bunday tillarga adabiy shakliga ega bo'lgan barcha tillar kiradi. Adabiy til tarixiy taraqqiyot jarayonida takomillashib, o'zgarib boradi.

**Kreol tillari** Yevropa mustamlakachilarining afrikaliklar, Sharq mamlakatlari xalqlari va Amerika hindulari bilan muloqoti natijasida mahalliy aholi tillariga Yevropa (fransuz, ingliz, portugal) tillari xususiyatlarining singishidan hosil bo'lgan tillardir. Masalan, Amerikadagi Gaiti oroli mahalliy aholisi tilining fransuz tili bilan aralashuvi natijasida *giti-kreol*, Lotin Amerikasidagi mahalliy aholi tili bilan ispan tilining aralashuvidan *ispan-nauatl* kreol tili hosil bo'lgan. Kreol tillarining har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularda birdan ortiq tilning xususiyatlari yaxlit holda namoyon bo'ladi.

**Pijin tillari** ham Yevropa tillari bilan mahalliy tillarning aralashuvidan yuzaga kelgan. Lekin pijin tillarida so'zlashadigan jamiyat yo'q (kreol tili jamiyat uchun aloqa-munosabat vositasi sifatida xizmat qiladi). Pijin tillaridan port shaharlarida ikkinchi til sifatida foydalaniladi.

**Koyne** zamonaviy sotsiolingvistikada aholi turli guruhlarining ijtimoiy va lisoniy aloqalari jarayonida shakllangan dialektlararo og'zaki muloqot vositasi hisoblanadi. *Koyne* termini (yunoncha "umumiy til") birinchi marta eramizdan avval IV–III asrlarda shakllangan umumiy yunon tiliga nisbatan qo'llangan.

Turli hududiy dialektlarning xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan qurama dialektlar yoki ushbu mintaqada mavjud bo'lgan tillar-

dan biri koynе rolini bajarishi mumkin. Koynelar oldi-sotdi, harbiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar maqsadida qoʻllanadigan, muayyan dialektlar yoki tillar asosida shakllangan dialektlararo yoki millatlararo muloqot tili sifatida namoyon boʻladi.

Koynelarni *shahar va qishloq koynesiga* ajratish mumkin. “Koynе” tushunchasi ayniqsa, koʻpchilikning turli nutqiy malakalari aralashgan katta shaharlarning lisoniy hayoti uchun dolzarb hisoblanadi. Shahar sharoitidagi guruhlararo muloqot hamma uchun tushunarli boʻlgan kommunikatsiya vositalarini ishlab chiqishni talab qiladi. Shahar aholisi turli guruhlarining kundalik muloqot ehtiyojiga xizmat qiluvchi shahar koynelari ana shunday paydo boʻladi.

Shuningdek, koynelar mintaqalarga, yaʼni muayyan til (yoki tillar) tarqalgan maʼlum hududlarga koʻra ham ajratiladi. Masalan, koʻp tillilik mavjud boʻlgan Mali Respublikasida (Afrikada) qurama dialektlar shakliga ega boʻlgan baman tili koynе sifatida qoʻllanadi.

“Koynе” tushunchasi, odatda, ogʻzaki muloqot vositasini ifodalasa-da, baʼzan bu tushuncha tilning yozuv shakllariga nisbatan ham qoʻllaniladi. Masalan, London koynesi ham kundalik soʻzlashuvda, ham shahar boshqaruvi, mahkama tizimida ishlatilgan. Yoki “koynе” termini oʻrta asrlarda Gʻarbiy Yevropa davlatlarida ilm, din, huquqshunoslik, sanʼat sohalarida millatlararo muloqot vositasi vazifasini oʻtagan lotin yozuviga nisbatan ham qoʻllangan.

Shuni ham taʼkidlash joizki, muayyan koynelar ayrim adabiy tillarning shakllanishiga asos boʻlishi mumkin. Masalan, London koynesi ingliz adabiy tiliga, Pekin koynesi xitoy adabiy tiliga, Edo koynesi esa yapon adabiy tiliga asos boʻlib xizmat qilgan. Shu bilan birga, butun boshli adabiy tillar ham koynе rolini bajarishi mumkin. Masalan, “Ispan tili oʻqituvchilari Yevropa Assotsiatsiyasi” (AEPE)ning maʼlumotlariga koʻra, ispan tili hozir dunyoda oʻrganilayotgan xorijiy tillar orasida birinchi oʻrinni egallaydi.

“Odatda maʼlum hududda yashovchi koʻpchilik xalqning tili *umumiy til* deb ataladi. Tarixda yunon tilining Afina antik dialekti umumxalq tili sifatida qabul qilingan. Bunda Afina shahrining Gretsiya madaniy, siyosiy va iqtisodiy markazi ekani ham hisobga

olingan. Bunday umumiy til *koyne* (grekcha koine – dialektos – "umumiy nutq") deb ataladi<sup>13</sup>.

**Xalqaro tillar** jamiyatning keng doirasiga xizmat qiluvchi, funktsional jihatdan takomillashgan tillardir. Ingliz, arab, rus, xitoy, ispan tillari xalqaro til hisoblanadi.

**Sun'iy tillar** maxsus yaratilgan xalqaro tillardir. Ma'lumotlarga ko'ra, 60dan ortiq sun'iy til yaratilgan. Polyak olimi L.Zamengof tomonidan yaratilgan *esperanto tili* sun'iy tillardan biri hisoblanadi. Bu tilning lug'aviy asosi Yevropa tillaridan olingan, grammatikasi agglutinativ xarakterda, grafikasi lotin yozuvi asosidadir. Bu tilda mashhur asarlar tarjima qilingan. Radio eshittirishlar ham tashkil qilingan.

**Umumxalq tili**, milliy til va adabiy til tushunchalari tilning ijtimoiy taraqqiyot jarayonini o'zida aks ettiruvchi terminlar bo'lib, ular o'rtasida o'zaro uzviy bog'liqlik bo'lishi bilan bir qatorda, farqli tomonlar ham mavjud. Xususan, umumxalq tili va milliy til, hozirgi davr nuqtayi nazaridan qaralganda, bir xil (sinonim) tushunchalardir. Shu bois tilshunoslikda ularning biri o'rnida ikkinchisini qo'llash hollari ham ko'p uchraydi. Biroq umumxalq tili til taraqqiyotining barcha bosqichini, ya'ni eng qadimdan hozirgacha bo'lgan davrini o'zida mujassamlantiradi.

**Milliy til** tushunchasi esa ana shu ko'p asrlik tarixning millat shakllangandan keyingi davrinigina ifodalaydi. Demak, umumxalq tili tushunchasi til tarixining barcha bosqichlariga xos tushuncha bo'lsa, milliy til tushunchasi muayyan millat shakllangandan keyingi davrga xosligi bilan undan farqlanadi.

Umumxalq tili va milliy til doirasiga adabiy til, sheva va lahja (dialekt)lar, oddiy so'zlashuv tili, xalq tili, sotsial jargonlar, argolar kiradi. Umumxalq tili va milliy tillarning muhim tarkibiy qismi bo'lgan mazkur til shakllari ham o'zaro farqlanadi. Xususan, adabiy til umumxalq tilining yoki milliy tilning oliy kommunikativ (aloqa) shakli bo'lsa, sheva, lahja, oddiy so'zlashuv va boshqa til ko'rinishlari uning quyi shakli hisoblanadi. Ayni paytda ular adabiy tilning doimiy rivojini ta'minlovchi muhim ichki omil bo'lib xizmat qiladi. Ammo

<sup>13</sup>Abdug'azizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -T.: "Sharq" NMAK, 2010. -B.116.

sotsial jargonlar va argolar bundan mustasno bo'lib, ular umumxalq tiliga xos bo'lmagan, tor doradagi muloqot shakllaridir.

**Adabiy til** muayyan grammatik qonun va qoida me'yoriga kiritilgan til shaklidir. Tarixan tarkib topgan, qat'iy me'yorlarga bo'ysunuvchi, so'zlashuvchilarning qaysi hududda yashashidan qat'iy nazar barchasi uchun umumiy bo'lgan til *adabiy til* sanaladi. Adabiy tilning ikki xil ko'rinishi, ya'ni og'zaki va yozma shakli mavjud. Tovushlar vositasida og'zaki ravishda bayon qilinuvchi adabiy til shakliga *og'zaki adabiy til* deyiladi. Harflar vositasida yozma ravishda bayon qilinuvchi adabiy til *yozma adabiy tildir*. Masalan, gazeta-jurnallar, ish qog'ozlari tili va boshqalar.

Og'zaki shakl yozma shaklga nisbatan qadimiyroq bo'lib, u umumxalq tilining: 1) qayta ishlanishi; 2) uslubiy tarmoqlanishi; 3) an'anaviy, ommaviy va odatiy qiyofa kasb etishi; 4) nutqiy va estetik ehtiyojlarga xizmat qilishi; 5) xalqchilligi; 6) nisbiy konservativligi; 7) ust-dialektallik kabi dastlabki me'yoriy asoslarga ega bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda qabila, urug' va ular ittifoqining hududiy chegaralangan shevalariga xos dialektal unsurlarning og'zaki ijod janrlari (dostonlar, ertak, qo'shiq, topishmoq, maqollar) vositasida qayta ishlanishi muhim omil bo'ladi. Natijada umumxalq tili doirasida mahalliy dialektlardan ustuvor bo'lgan til shakli, ya'ni og'zaki poetik ust-dialekt vujudga keladi. U umumxalq tili tizimidagi dastlabki adabiy shakl sifatida yozuv joriy etilgunga qadar amalda bo'lib, keyinchalik yozma tilning taraqqiyotiga asos sifatida xizmat qiladi. Yozuvning ixtiro qilinishi va yozma tilning taraqqiyoti natijasida adabiy tilning amal qilish doirasi yana ham kengaydi, uning me'yoriy asosi qat'iy qoidalar vositasida takomillashib bordi. Og'zaki va yozma til shakllari o'rtasidagi tafovutlarning kamayishiga qulay imkoniyatlar yaratildi. Bu jarayonni hozirgi o'zbek adabiy tili va boshqa milliy tillar misolida ko'rish mumkin. Zamonaviy adabiy tilning tez sur'atlar bilan rivojlanib borishi natijasida umumxalq tilida mavjud bo'lgan dialektal (lahjalarga xos) farqlar ham kamayib, dialektlarning amal qilish doirasi esa torayib boradi.

Shevalar til tizimida dialektizmlar sifatida tadqiq qilinadi. Shevalar – hududiy tushuncha bo'lib, muayyan bir hududda yashovchi kishilar uchun xos, adabiy tildan farqlanib turuvchi nutq ko'rinishi hisobla-

nadi. Sheva va dialektizmlarni o'rganuvchi tilshunoslik sohasi – *dialektologiya* deb ataladi. Unda lahja va shevalarning fonetik, morfoogik, sintaktik va leksik xususiyatlari tavsif qilinadi. Milliy tilning paydo bo'lishi va rivojida shevalarning tutgan o'rni, milliy tilga asos bo'lgan shevalar aniqlanadi. Shevalararo, shuningdek, shevalarning adabiy til va qardosh tillar bilan munosabati aniqlanadi.

**Shevalar** – tilning lug'at boyligini oshiruvchi ichki manba hisoblanadi. Faqat muayyan bir hududga xos ayrim belgilarni o'zida namoyon qilgan til shakli **mahalliy shevalar** hisoblanadi.

O'zbek adabiy tili uchun *Toshkent va Farg'ona* shevalari asos qilib olingan. Aslida, sheva so'zi *fors* tilidan olingan bo'lib, "ovoz", "til", "so'zlashish", "odat", "yo'sin", "ravish" degan ma'nolarni bildiradi. Sheva biror bir tilning o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi muayyan qismi hisoblanganligi bois lahja tushunchasidan kichikdir. Lahja shevalar yig'indisidir.

O'zbek milliy tili ko'p lahjali tillardan hisoblanadi. Bu hol uning murakkab rivojlanish sharoiti va etnik jihatdan xilma-xilligi bilan izohlanadi. Jumladan, uning dialektal asosini 1) qarluq; 2) qipchoq; 3) o'g'uz lahjalari tashkil etadi. Bu lahjalarning har biri ko'plab shevalar birligidan tashkil topadi. Boshqacha aytganda, bir-biriga yaqin bo'lgan shevalar yig'indisi *lahja* yoki *dialekt* deyiladi. Lahja yoki shevalar adabiy tilning muhim ichki manbai bo'lsa ham, ular faqat og'zaki shaklga egaligi hamda fonetik, leksik va grammatik jihatdan o'ziga xosligi bilan adabiy tildan farqlanadi. Chunki shevalar ma'lum bir hududda istiqomat qiluvchi kishilarning o'zaro og'zaki nutqiy aloqasini ta'minlovchi vositadir. Shu bois ularning ishlatilish doirasi adabiy tilga nisbatan cheklangan bo'ladi.

Badiiy uslubda, ya'ni badiiy asarlar yaratayotganda shevalardan foydalanish voqea, hodisalarga mahalliy, hayotiy va ijtimoiy tus berishda, shuningdek, personajlar nutqini individuallashtirishda katta ahamiyatga ega. "Kishilar turli hissiyotlarini shevalarda hamda adabiy til talaffuzida bildiradilar. Agar bu o'rinda tilda ko'pchilikni tashkil etadigan fenomen (so'zlar, grammatik xususiyatlar, talaffuz xilma-xilligi) bir hududda mavjud bo'lsa, bu holatga nisbatan *sheva* atamasi qo'llanadi. Shunday ekan, sheva "mamlakat tili" yoki ajdodlar qo'llagan tilning bir varianti emas, balki tilning ma'lum hududdagi ko'rini-

shidir. Barchamiz shevadan foydalanamiz. Sheva adabiy til normalariga to'g'ri kelmaydi va undan farqlanadi"<sup>14</sup>.

Shevalardan o'rinli foydalanish badiiy ijodning, umuman, nutqning badiiyligini, uslubning fazilati, ta'sirchanligini oshiradi. Ammo shevalarning ishlatilish doirasi va me'yori chegaralangan. Shevalarni faqat badiiy va so'zlashuv uslubida qo'llash mumkin. Rasmiy, ilmiy uslublarda shevaga xos so'zlarni qo'llash to'g'ri emas. Shuni ham qayd etish lozimki, matbuot, radio va televideniya, maktab va maorif muassasalari ta'siri natijasida adabiy tilning qo'llanish doirasi kengayib boradi.

Og'zaki va yozma nutq xususiyatlari, imkoniyatlari jihatidan bir xil emas. "Og'zaki nutqda kuzatilganidek, yozma nutqning ham uch turi farqlanadi: formal, informal, neytral. Yaqin tanishimizga qiladigan muomala rasmiy shaxsga qilinadigan muomaladan farqlanadi. Yaqin tanishimizga **What's up? It's awesome that you came to visit!** (Yaxshimisiz? Sizni uchratganim zo'r bo'ldi!) tarzida qo'llansa, mansabdor yoki boshliqqa nisbatan **Good morning, Mr. ...! We appreciate your visit** (Assalomu alaykum, janob ...! Tashrifingizdan benihoya xursandmiz) kabi murojaat kuzatiladi.

Formal yozuv turida sheva so'zlari, klishe, turli qisqartmalardan foydalanilmaydi<sup>15</sup>.

**Sotsiolekt** – umumiy ijtimoiy xususiyatlariga ko'ra birlashgan ayrim guruhlarining lisoniy ehtiyojlarini qondirish uchun nutq amaliyotida ishlab chiqilgan muloqot shakli. Mazkur shakllar ijtimoiy chegaralangan kishilar guruhining kommunikativ ehtiyojlariga xizmat qiladi.

«Argo» (frans. argot) – umumxalq tilidan farq qiluvchi biror ijtimoiy toifa, guruh (dallollar, sportchilar, talabalar, o'g'rilar...) ga xos yasama til. Mas., *kolxoz* — chiptasiz yo'lovchilar (haydovchilar tilida)<sup>16</sup>.

«Jargon» (*fran.*) – biron ijtimoiy guruh vakillarining o'z nutqi bilan ko'pchilikdan ajralib turish maqsadida, o'zicha mazmun berib ishlatadigan so'z va iboralari. Mas., *novcha* (aroq), *qizil* (vino) – ichuvchilar nutqiga xos; *tog'amning o'g'li* (militSIONER, inspektor) – shofyorlar nutqida.<sup>17</sup>

<sup>14</sup> Richter B. First steps in theoretical and applied linguistics. -Budapest, 2006. -B.101

<sup>15</sup> Richter B. First steps in theoretical and applied linguistics. -Budapest, 2006. - P.17.

<sup>16</sup> Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. -T., 2002. -B.15.

<sup>17</sup> Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. -T., 2002. -B.37.



«Sleng» – muayyan kasb egalari yoki ijtimoiy guruhning ogʻzaki nutqida qoʻllanadigan emotsional-ekspressiv boʻyoqqa ega boʻlgan soʻz va iboralar. «Sleng» termini ilk bor yozma ravishda XVIII asrda Angliyada qayd qilingan va oʻsha davrda «haqorat» maʼnosini anglatgan. 1850-yildan esa «noqonuniy» oddiy leksikaning ifodasi sifatida keng qoʻllanila boshladi.

“*Sleng* muayyan guruhga xos soʻzlar boʻlib, ogʻzaki nutqda ham, yozma nutqda ham bunday soʻzlardan foydalanish kuzatiladi. Masalan,

- awesome/cool (zoʻr)
- okay/ok (yaxshi)
- check it out (oʻlmoq)
- in a nutshell (qisqa qilib aytganda)

Klishe ogʻzaki nutqda qoʻllaniladigan nutqiy qoliplardir. Bunday qoliplardan formal yozma nutqda foydalanilmaydi. Masalan,

- Time is money (Vaqt bu pul)
- Don't push your luck (Omadningni qoʻldan boy berma)”<sup>18</sup>.

Slenglar koʻproq yoshlar nutqida uchraydi.

Yoshlar nutqidagi sotsiolektlarni semantik jihatdan bir nechta turga boʻlish mumkin:

1. Gapiruvchilarning yoshiga koʻra: «Sen «sentr» boʻlishing kerak!»(10-12 yoshli bolalar nutqidan»)
2. Jinsiga koʻra: «Paxan» ularga «harip» deb murojaat etsa, demak, ularning tilidan ham bu soʻz tushmaydi) (oʻgʻil bolalar nutqidan, Tohir Malik, “Jinoyatning uzun yoʻli”,100-b.); « E qizlar, u gʻirt «sirkach» ekan (qiz bolalar nutqidan. Bu yerda «sirkach» (циркач) soʻzi, «masxaraboz» maʼnosida kelgan).
- 3.Maʼlumotiga koʻra: «Sezon oʻldi, deganing issiq gapmi?» (Tohir Malik, “Jinoyatning uzun yoʻli”,13-b.); talabalar nutqida: «yopmoq» – sessiyani tugatmoq; «vozdux» – stipendiya; «yaxlamoq» – imtihondan qaytmoq; «stukach»– chaqimchi.
4. Nutq vaziyatiga koʻra: «Telman onasidan koʻz uzmagani holda aroqning yuqini ichib olgach, «Mamul nakaut», deb kuldi» (Tohir Malik, “Jinoyatning uzun yoʻli”, 89); «Mirhosil gardanini silab turib, keyin birdan qoʻl siltadi: – Nastroeniya buzildi». (Tohir Malik, “Jinoyatning uzun yoʻli”, 93).

<sup>18</sup> Richter B. First steps in theoretical and applied linguistics -Budapest. 2006.- P.17

Slenglarni modal munosabatga ko'ra quyidagilarga ajratish mumkin:

1. Ijobiy ma'nodagi slenglar: «Dahshat qiz ekan, jo'ra!» (yoshlarning ko'cha nutqidan. Bu yerda «dahshat» so'zi "o'ta darajada chiroyli" ma'nosida kelgan); «Qoyil, sindirding jo'ra» (yoshlarning ko'cha nutqidan. Bu yerda «sindirmoq» so'zi «qoyil qilib bajarmoq» ma'nosida kelgan); «krutoy» (olifta, "ketvorgan").

2. Salbiy ma'nodagi slenglar: «G'isht ekansan-da» (yoshlarning ko'cha nutqidan.

Bu yerda «g'isht» so'zi «xunuk» yoki «yuzsiz» ma'nosida); «uxlatib ketmoq» (aldamoq); «risovka» (ko'z-ko'z qilmoq).

Jinoyatchilar to'dasi orasida ishlatiladigan ba'zi bir sotsiolektlar:

«kraxabor» – mayda o'g'rilar;

«shinner» – sotqin;

«ment» – militsioner;

«parazuxa» – qattiq kaltak ostida ko'rsatma berish;

«traktor» – jinoyatchilarning o'zlari qo'lbola qilib yasagan suv isitkichlari);

«karbusha» – tabletka dorilar (giyohvand modda bilan ayblangan shaxslarning o'z to'dalari ichida ular uchun zarur bo'lgan narkotik moddaning nomlanishi);

«tayka» – beriladigan non miqdori;

«shuler» – qimorboz;

«manyak» – jinoyatni ketma-ket sodir etgan jinoyatchi;

«kannibal» – «odamxo'r» (odam hayotiga suyuqas qilgan jinoyatchi).

Yoshlar nutqida ko'p uchraydigan so'zlar mavzuga oid bo'lgan badiiy asarlarda kuzatiladi. Masalan, Tohir Malik asarlarida yoshlar nutqiga xos so'z va iboralar ko'p. «Alvido bolalik» asaridan:

«Stalba qorovullari» gaplashadigan aniq mavzu yo'q (40-b.);

Sinfda, hatto «zo'r»likni – «lider»likni talab qila boshlaydi (57-b.);

«Diskoteka» degan balo haqida ham ikki og'iz gapirmasak bo'lmas (57-b.);

Ammo ayrim o'smirlar bu g'oyalarni o'zlaricha talqin etib, jamiyatda o'zlaricha adolat o'rnatmoq uchun «beqiyos yettilik»lar yoki «Zorro komandasini» tashkil qilishadi (120-b.);

«Avtomobilidan saqlaning» degan filmdan keyin ham «Detochkin bolalari» kabi guruhlar paydo boʻlib, shaxsiy avtomobilga zarar yetkazish bilan shugʻullandilar (120-b.);

«Maktabda hatto bolalar ham undan qoʻrqadigan boʻlib, «psix» deb laqab qoʻyib olishgan» (132-b.);

«Boʻri» uni himoya qilish maqsadida Toshmatni koʻrsatdi» (148-b.);

«Xoʻp, sen boraver. Haligi gapimni unutma. Uyingdan chiqib ket. Otang «podles» odam, u bilan yashab boʻlmaydi» (236-b.);

«Oʻpkangni bos, bratishka» (236-b.);

«Ammo u faqat Keldiyorov ishining «yopdi-yopdi» boʻlganidan emas, balki bu «yopdi-yopdi»larning hamon davom etayotganidan gʻazabda edi» (245-b.);

«Papul begonalarni qoʻyma, deganlar, – Sanjar «begonalarni» deb atay burab gapirdi» (247-b.);

«Qarashvoraymi, shef? – dedi» (255-b.);

«Biz bop ekan bu Qamariddin, – dedi Talʼat, – borib chaqirib kel, Graf chaqiryapti, de» (258-bet);

«Mirtillayevni shu «katta baliq» oʻldirgan deysizmi?» (318-bet);

«Taniyman, ularning «shtabi» kinoteatr oldida» (321-b.).

«Samum» asaridan:

«Tirtiq» ni tabriklash marosimi nihoyasiga yetgach, yarim kechada boshlanishi moʻljallangan, oʻzlarining tilida «sxod «deb atalmish toʻplanti» ishidan oldin tanish-bilishlariga oʻzaro fikr almashib olish imkoni berildi» (13-b);

«Ment»lar kuyib koʻmirga aylangan jasadni koʻrishgan (13-b);

«Uning choʻntakda hamisha ikki «Tuz» olib yurishini bilmagan Kapral harakatidan ajablandi» (14-b);

«Hozir eng zoʻr tijorat «narkota» ekani butun dunyoga maʼlum, – dedi u bilagʻonlik bilan» (22-b);

«Men seni «baron»lik taxtini egallab boʻlibsan, deb oʻylabman» (23-b);

«Bor-yoʻgʻi pachoq kuryer ekansan-ku?» (23-b);

«Gʻirrom «zona»da Boʻron bilan birinchi marta uchrashganida tirik qolishiga amin edi» (28-b);

«Kartser» (каруер) degani qamoqning ichidagi la'nat tekkan bir qamoqxona (48-b);

«Boshimga balo keltiradigan tilim bor-da, indamasam qutulardim, lekin «bildim, kanserning o'zi ekan», degandim, yana yigirma kun «kommunizm»da yashadim.

«Uxlash niyati yo'q, «chefir» atalmish achchiq choy har qanday uyquni ham qochirib yuboradi (53-b);

«Irimim shunaqa «qarg'a» zotiga ishqim bor (68-b);

«G'irrom uchta «qirol»ga qarab, ayyorona kuldi (95-b);

«Shu yerda «gera» sotilar ekanmi?» (147-b);

«Chervonets». Odamlar o'n so'mlik qizil pulni «chervonets» deb o'rganib qolishgan. Bo'ronning olamida bu so'z qamoq lagerida o'n yil o'tirib chiqqan mahkumni bildiradi (159-b);

«O'tirganlardan biri cho'pondir, biri bog'bondir, yana biri egilib ishlashga tobi-toqati yo'q takasaltangdir, har holda jinoyat olamida «shoqob» deb nomlanuvchi surbet toifadan emas (180-b);

«G'ayrat G'irromning «jonon kukun» olib borayotganiga unchalik ishonmagan, navbatdagi tullaklik deb o'ylagan edi» (288-b).

«Shaytanatning jin ko'chalari» asaridan

«Muhokama maktub (ular tilida «ксива») orqali amalga oshirilgan.

Dastlab maktubda tavsiya etilayotgan «go'dak» (малютка)ning fazilatlari bayon etiladi: bu go'dak yosh bo'lishiga qaramay, yetarli fazilatlarga ega va o'g'rilar olami uchun yetarli xizmat qilgan» (11-b);

«O'g'rilik chog'ida qotillik qilishdan ham ehtiyot bo'ladilar va bu jinoyatni «shilta ish» (макруха) deb ataydilar» (12-b);

«O'g'rilarning umumxazinasiga (обшак) ko'proq pul o'tkazgan o'g'riga ham toj kiydiradigan bo'lib qolishgan. Bundaylarga kattalar «lavrushnik» deb laqab berib, saflariga qabul qilishdan bosh tortadilar. «Apelsin» laqabi bilan tanilgan o'g'ri tojdorlar safiga shunday kirib kelgan» (12-b);

«O'g'rilar esa o'zlarining yuqori tabaqalarini «Haloli» (честняга) deb atashgan. (13-b);

«Jinoyatning «reket» (do'kondordan zo'rvonlik bilan noqonuniy pul talab qilish) turi avj oldi». Ular pulni talab qilib borishganda, ba'zilari olgan pullari hisobiga boylarni himoya qilishardi va ular «tom» (крыша) deb atalardi (20-b).

«O'g'rilik guruhlari» o'g'rilarning o'z tillarida:

(«Shaytanatning jin ko'chalari» asaridan)

1. «Daydi» (бродяга)

2. «Yalangoyoq» (босяки)

3. «Cho'ntakkesar» (ширмач)

4. «Qo'ng'izcha» yoshroq kissavurlar.

«O'g'rilar» ning nomlari:

«Bozorchilar» – (рыночники) bozorlarda o'g'irlik qiluvchilar;

«Yumronqoziq» – (кроты) metroda o'g'irlik qiluvchilar;

«Maydonchilar» – (майданщики) temir yo'llarda o'girlik qiluvchilar;

«Po'ygachilar (marshrutchilar)» – (гонщики, маршрутчики) shahar transportidagi o'g'rilar;

«Do'kondorlar (teatrchilar)» (магазинные, театральные) – do'kon va jamoat joylaridagi o'g'rilar;

«Yo'lichilar» – (уличные) ko'cha-ko'yda o'g'irlik qiluvchilar;

«Badxatlar» – (писаки) kiyim, sumka kesishga usta kissavurlar;

«Niqobchilar» – (ширмачи) qo'lini kiyim yoki qandaydir bir buyum ortiga berkitib o'g'irlik qiluvchilar;

«Baliq ovlovchilar» – (рыбаки) cho'ntakdagi pulni maxsus yasalgan qarmoq bilan o'g'irlovchilar;

«Xirurglar» – yashirilgan pulni maxsus qisqich (пинцет) yordamida o'g'irlovchilar;

«Chimchilog'ich» – (щипачи) hech bir yordamchi ashyosiz o'g'irlik qiluvchilar;

«Titratgichlar» – (трясуны) turtib-surtinish, taloto'p orasida o'g'irlik qiluvchilar;

«Sumkachilar» – ayollar sumkasini o'g'irlovchilar;

«To'nka» – (дубило) xo'jalik xaltasidagi pulni o'g'irlovchi

(o'g'rilar nazdida eng past tabaqa) o'g'rilar.

Xulosa qilib shuni aytilish mumkinki, jamiyatdagi har qanday jaryonlar, ulardagi ijtimoiy tabaqalar tilimizda o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy guruhlarining dunyoni qanday ko'rishi ularning leksikasida

aks etgan. Tildagi sotsiolektlar nutq egasining ijtimoiy mavqeyidan, madaniyatidan darak beradi.<sup>19</sup>

Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi kishilik jamiyati bilan mustahkam bog'liq. Til insoniyat tarixi qadar qadimiydir. Til jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanadi, ijtimoiy o'zgarishlar natijasida tilning grammatik qurilishi takomillasha boradi. Til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'langan. Kishilik tarixidan shu narsa ma'lumki, avval urug' tili, keyin qabila tili, elat, xalq va millat tili shakllangan. Shevalarda tilning muayyan taraqqiyot bosqichlariga xos urug', qabila, elat tili xususiyatlari o'z izini qoldirgan.

Umumiy til tushunchasining shevadan farqi bor: til butun bir xalqqa xizmat qiladi, sheva esa xalqning bir guruhigagina taalluqlidir. Til ko'p vazifali, hamma uchun umumiy bo'lgan aloqa-munosabat vositasidir; sheva esa vazifa nuqtayi nazaridan chegaralangan bo'lib, tilning og'zaki nutqiy ko'rinishini tashkil etadi. Masalan, o'zbek tili – ko'p dialektli til, bu tilga qarluq – chigil – uyg'ur lahjasi asos bo'lgan. Bu dialekt Farg'ona, Toshkent, Samarqand – Buxoro shevalarini o'z ichiga oladi. Bu hol o'zbek tilining o'ziga xos murakkab tarixiy rivojlanish sharoiti va o'zbek millatining o'tmishdagi xilma-xil etnik tarkibi bilan izohlanadi.

Dialektlar urug'chilik davridan boshlab, jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichiga qadar son jihatdan ko'payib boradi. Bu qabilalarning yashash tarzi bilan bog'liq. Avval bir qabilaga kirgan tillar markazdan uzoqlashgan sari ulardagi dialektal farq orta boradi va bu dialektal farqlar oxir-oqibatda yangi til paydo bo'lishi uchun asos bo'ladi. Dialektlar sonining ko'payishi va ular asosida yangi-yangi tillarning vujudga kelishi til taraqqiyotining *differensiatsiya* jarayonini tashkil qiladi. Differensiatsiya tillarning dialektlarga parchalanishidir.

Har bir millat o'z adabiy tilining mustahkamlanishi uchun harakat qiladi. Jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida dialektlar kamayib, adabiy tilga yaqinlashish kuzatiladi. Buni adabiy til ta'sirining kengayishi bilan izohlash mumkin. Til taraqqiyotidagi bu jarayon *integratsiya* deb yuritiladi. Integratsiya bir tilga mansub shevalarning adabiy til me'yorlariga yaqinlashuvidir. Bunday jarayonlar tasodifan

<sup>19</sup> *Samatboyeva M.* O'zbek yoshlari nutqidagi sotsiolektlar (argo, jargon, sleng)/ Filologiya masalalari – yosh tadqiqotchilar nigolida. –T., 2018. –B.108–115.

yuz bermaydi, balki jamiyat rivojiga, ijtimoiy hayotning taraqqiyot jarayonlariga bog‘liq tarzda sodir bo‘ladi.

Tillarning o‘zaro ta‘siri natijasida, ko‘p hollarda, madaniy va iqtisodiy jihatdan yaxshi rivojlangan xalqning tili ta‘sirida ikkinchi tilga ko‘pgina so‘zlar o‘zlashadi. Masalan, Afrika tillarida arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar ko‘p. Lekin, aksincha, Afrika tillaridan arab tiliga o‘tgan so‘zlar juda kam topiladi. Bir-biriga o‘zaro ta‘sir ko‘rsatgan tillarning har ikkisi ham so‘zlarning o‘zlashishi natijasida boyiydi. Masalan, qadimiy g‘arbiy german tillarining lotin tili bilan aloqasi natijasida german tillariga hayotning turli sohalariga tegishli so‘zlar kirib keldi: ingliz. *street*, nemis. *strasse* “ko‘cha”, ingliz. *cheese*, nemis. *kase* “pishloq”, ingliz. *toll*, nemis *pfund* “boj haqi”, *pound*, *pfund* “fond” kabi. O‘z navbatida, german tillaridan ham lotin tiliga qator so‘zlar o‘zlashgan va ulardan ba‘zilari ispan tilida saqlanib qolgan: ispan tilida *espiar* “ortidan bormoq”, *tregua* “kelishuv”, *guardar* “qo‘riqlamoq”, *orgullo* “faxr” kabi.

Tillarning o‘zaro ta‘siri ularda so‘zlashuvchi xalqlarning yonmayon yoki yaqin hududda yashashiga, ba‘zi hollarda, bog‘liq bo‘lmaydi. Ba‘zi baynalmilal so‘z va terminlarning bir yo‘la bir necha tillarda qo‘llanishi bunga misoldir.

Ko‘pincha tillarning o‘zaro ta‘siri leksika sohasida, xususan, so‘z qabul qilish bilan boshlanadi va keyinchalik u fonetika va grammatikada ham kuzatiladi. O‘zbek tilida arab va fors tillaridan o‘zlashgan so‘zlar ko‘p. Arab tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan ba‘zi so‘zlarda o‘zlashma fonetik hodisalar ham mavjud: *toat*, *tal‘at*, *soat*, *sur‘at* kabi. Bu so‘zlarda arabcha “ayn”ning cho‘ziqroq talaffuzi kuzatiladi; s /ts/ (sirk, sirkul), /j/ (jyuri, jurnal) fonemalari o‘zbek tiliga grek tilidan kirib kelgan so‘zlar bilan birga o‘zlashgan.

Bir tildan ikkinchi tilga so‘z o‘zlashishi natijasida ulardan birining tarkibida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bunday ta‘sir tillardan birining yo‘qolib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin. Saqlanib qolgan tilda yo‘qolgan til unsurlarining bo‘lishi *substrat* (lotincha sub “yuqori”, *stratum* “qatlam”) deb ataladi. Substrat ko‘proq fonetika sohasida kuzatiladi. Masalan, german tillaridagi “yuz” va “ming” sonlari qadimiy ingliz, qadimiy sakson tillarida *hund*, qadimiy yuqori nemis tilida *hunt*, boshqa german tillarida *hunda* shaklida o‘zlashgan.

“Ming” so‘zi *thusundi* shaklida (qadimiy ingliz tilida *thusend*, qadimiy friz tilida *thusend*, qadimiy sakson tilida *thusundig*, *thusint* kabi) o‘zlashgan. Bu so‘zlarda fonemalar almashuvi kuzatiladi. Qrimdagi gotlar tilida *sada* “yuz”, o‘rta osetin tilida *sada*, fin-ugor tillaridan o‘zlashgan *sada* va *hazar* “ming” (o‘rta fors tilida *hazar*, venger tilida o‘zlashgan *ezer* shakli mavjud)<sup>20</sup>.

Kishilar ikki va undan ortiq tillarda so‘zlasha oladilar. Shunga ko‘ra ikki tillilik bilingvizm (grekcha *bi* “ikki”, *lingua* “til”) va ko‘p tilda so‘zlashish – polilingvizm (grekcha *poly* “ko‘p”, *lingua* “til”) farqlanadi.

Tillarning o‘zaro ta‘siri, bilingvizm masalasi, uning o‘ziga xos ko‘rinishlarini ilmiy jihatdan yoritgan mutafakkirlardan biri Alisher Navoiydir. Alisher Navoiy turkiy va sart xalqlarining tilni bilish, til ko‘nikmalariga ega bo‘lish madaniyati haqida so‘z yuritar ekan, bu xalqlarning tildan foydalanish darajalarini bayon etadi. Turkiylarning sart tilini to‘liq o‘zlashtirgani, kichigidan tortib kattasigacha bu tilni mukammal bilishlari haqida ma‘lumot beradi: *Ammo turkning ulug‘din kichigiga degincha va navkardin begiga degincha sort tilidan bahramanddurlar*. Turkiylarning sart tilini shunchaki bilibgina qolmay, uning nozik jihatlarini farqlashlari, shu tilda rangin ash‘orlar bitishlari haqida yozgan: *Andoqkim, o‘z xurd ahvolig‘a ko‘ra ayta olurlar, balki ba‘zi fasohat va balog‘at bila ham takallum qilurlar. Hatto turk shuarosikim, forsiy til bila rangin ash‘or va shirin guftor zohir qilurlar*.

Sartlarning turk tilida so‘zlasha olmasliklari, bu tilni tushunmasliklari, yuztadan, balki mingtadan bittasi bilsa ham, talaffuzida o‘z tiliga xos xususiyatlar sezilib turishini ta‘kidlagan: *ammo sort ulusining arzolidin ashrofig‘acha va omisidin donishmandig‘acha hech qaysi turk tili bila takallum qila olmaslar va takallum qilg‘onning ma‘nisin ham bilmaslar. Agar yuzdin, balki mingdin biri bu tilni o‘rganib so‘z aytsa ham har kishi eshitsa, bilur va aning sart ekanini fahm qilur*<sup>21</sup>.

Jamiyatdan tashqarida yashagan inson qancha umr ko‘rmasin, u gapira olmaydi. Chunki til nasldan naslga, avloddan avlodga o‘tmaydi, ya‘ni uni irsiyatga bog‘lab qo‘yish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Irsiyat qonuniga binoan. bolaning biologik, antropologik xususiyatlari avloddan avlodga o‘tadi, lekin o‘zbek oilasida tug‘ilgan bola faqat o‘zbek tilida gapiradi, deyish

<sup>20</sup> *Abduazizov A.* Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -T.: “Sharq” NMAK, 2010. -B.116.

<sup>21</sup> *Alisher Navoiy.* Mahokamat ul-lug‘atayn. -T., 2011. - B.37.



noto'g'ridir. U qaysi tilda gapira boshlashi qaysi oila, qaysi ijtimoiy muhitda tarbiyalanishiga bog'liq. Bolaning qaysi tilda so'zlay boshlashi uni o'rab turgan til muhitiga bogliq. Masalan, fransuz bolasi go'daklikdan yaponiyaliklar orasida tarbiyalansa, u faqat yaponcha so'zlab, ajdodlari tilini bilmaydi, yapon tili uning ona tiliga aylanadi. Ammo bolaning biologik belgilari (yuz tuzilishi, sochining rangi va hokazolar) o'zgarma-gan holda shakllanib boradi.

“Tilning paydo bo'lishi, uning takomillashib borishi, odamzod-ning bunday buyuk ne'matga noil bo'lishiday murakkab jarayonda ijti-moiy muhitning, kishilik jamoasining hal qiluvchi omil ekanligidan iborat haqiqatni inson aqli to'liq anglagunga qadar ko'p zamonlar o't-gan. Eramizdan oldin ham, bizning eramizda ham dunyoning turli burchaklarida ana shu haqiqatni izlab turli-tuman tajribalar o'tkazilgan. “Mo'g'ullar imperiyasining umumiy tahriri” (Parij, 1705) nomli kitobda XVI asrda Akbarshoh tomonidan o'tkazilgan bir g'aroyib tajriba haqida batafsil yozilgan. Ulug' shoh “Biron-bir tilga o'rgatilmagan odamning tabiiy tili yahudiy tili bo'ladi” degan g'ayriilmiy gapni eshitib qoladi. Shunda Akbarshoh bolaga hech qanday til ataylab o'rgatilmasa, u qaysi tilda gapiradigan bo'lishini bilishni istaydi. Ana shu maqsadda shoh o'n ikkita emizikli bolani ajratib olib, Agradan olti mil uzoqlikdagi qal'aga joylashtiradi, ularni tarbiyalashni o'n ikki soqov enagaga topshiradi. Tilsiz qorovulga qal'a darvozasini ochish qat'iyon taqiqlanadi, darvoza ochilsa, uning boshi olinishi aytiladi. Vaqt o'tib, bolalar o'n ikki yoshga yetganda, shoh bolalarni huzuriga keltirishni buyuradi va saroyga barcha tillarni biladigan donishmandlarni ham taklif qiladi. Ular Agrada yashay-digan yahudiy bolalar chindan ham yahudiycha gapirishi yoki gapir-masliklariga hakamlik qilishi kerak edi. Agrada arablar va xaldey (somiylardan bo'lgan qadimiy xalq)lar ko'p edi. Hind faylasuflari bu bolalarning tili sanskrit (qadimgi hind tili)cha bo'lib chiqadi, deb hisob-lardilar. Ammo bolalar shoh huzuriga keltirilganda, barcha hayratdan tosh qotadi. Chunki bolalar hech bir tilda gapirmas edilar. Ular o'z ena-galaridan fikrlarini faqat turli imo-ishoralar bilan ifodalab, hech qanday tilsiz muomala qilishni o'rgangan edilar. Ular bu notanish, begona jamo-adan qo'rqib-hurkib turardilar, ochilmay tugilgan bu tillarining tugunini

yechmoq tamoman mushkul edi, bu tillarga nutq tovushlarini aytirmoq zamoni o‘tib bo‘lgan edi”<sup>22</sup>.

Boshqa bir misol: 1920- yilda Hindistonda ovchilar bir uyada ikki bo‘ri bolasi va ikki qizchaga duch kelganlar. Ular (ayniqsa, ularning katasi – Kamola) o‘zlarini bo‘ri sifatida tutganlar. Kamola bo‘rilar bilan 15 yil birga hayot kechirgan. Lekin u gapirishni umuman bilmagan. Faqat o‘rgatishning uchinchi yilida ikki oyoqda turishni (shunda ham orqasidan ushlab turilsa) o‘rgangan. Yetti yildan keyingina ikki oyoqda yura boshlagan. Lekin, baribir, yugurish zaruriyati tug‘ilsa, emaklab chopgan. Uni gapirtirish yana ham qiyin bo‘lgan. To‘rt yil davomida faqat olti so‘zni bilib olgan. Yetti yil davomida Kamolaning lug‘atidagi so‘zlar ellikka ham bormagan. 16 yoshida bu qiz o‘zini 4 yoshli qiz holida tutgan.

1998-yilda matbuotda London shahridagi ko‘p qavatli uyning yerto‘lasida itlar bilan yashab yurgan 7-8 yashar bola topilgani, uning gapira olmasligi, itlarga xos emaklab yurishi, yugurishi, suvni tili bilan yalab ichishi, itlar kabi uvlashi haqida xabar e‘lon qilindi. Ma‘lum bo‘lishicha, ota-ona ichkilikka berilib ketib, bola bir yarim-ikki yasharlikda dom-daraksiz yo‘qolgan. Hech kim qidirmagan, izlamagan. U emaklab ko‘chaga chiqqanicha, itlarga qo‘shilgan, go‘dakligidan to 7-8 yoshigacha ular bilan birga bo‘lgan. Jamiytda yashab turib, jamiyatdan ayro tushgan. Natijada insonlik qiyofasiga ega bo‘lmagan, turgan gapki – so‘zlashni ham bilmagan. Bu fojea texnika takomillasha borgan, jamiyat rivojlangani sari mehr-oqibat, boshqalar hayotiga e‘tiborning susayib borayotganidan dalolat beradi.

Keltirilgan misollar ham tilning jamiyat bilan bog‘liqligini, uni jamiyatdan ajratish mumkin emasligini, tilning ijtimoiy hodisa ekanligini ko‘rsatib turibdi. Ma‘lumki, jamiyatga xizmat qiladigan ijtimoiy hodisalarning turlari nihoyatda ko‘p. Ammo bu hodisalarning jamiyatda bajaradigan funksiyalari, o‘ziga xos xususiyatlari va qo‘llanish doirasi bor. Masalan, bazis jamiyatning iqtisodiy tuzilishini, ustqurma esa jamiyatning siyosiy, yuridik, ideologik me‘yorlarini belgilab beradi. Har bir tuzumning o‘z bazisi va ustqurmasi bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarining o‘zgarishi bilan bazis va ustqurma ham o‘zgarib

<sup>22</sup> Mahmudov N. Til. – T., 1998.-T.4

turadi. Til esa na bazis va na ustqurma tarkibiga kirmaydigan o'ziga xos ijtimoiy hodisadir.

### Savol va topshiriqlar

1. Til integratsiyasi va differentsiatsiyasi haqidagi tushunchalaringizni bayon eting.
2. Mahalliy tillarga xos xususiyatlarni ayting.
3. Tilning ijtimoiy vazifalarini misollar asosida tushuntiring.
4. Tilning kommunikativ funksiyasi haqida ma'lumot bering.
5. Tilning emotsional-ekspressiv funksiyasini tavsiflang.
6. Xalqaro til va uning mohiyati haqidagi tushunchalaringizni bayon eting.
7. Sun'iy tillarning qo'llanishiga munosabat bildiring.
8. E.Vohidovning *Notiq dedi: taqdir shul*,


*Bu – jahoniy iroda.*

*Tillar yo 'qolur butkul –*

*Bir til qolur dunyoda deb boshlanadigan she'rini integrativ yondashuv asosida tahlil qiling.*

9. Til va jamiyat munosabatiga doir "keys" topshirig'ini bajaring. *O'zbek millatiga mansub, ammo o'zbek tilini yaxshi bilmaydigan auditoriya majlis uchun yig'ilgan. Ma'ruzachi o'zbek tilida ma'ruza qilishni rejalashtirgan, rus tilini yaxshi bilmaydi. Ayditoriya ma'ruzachidan rus tilida ma'ruza qilishini so'radi. Ma'ruzachi qanday yo'l tutishi kerak, deb o'ylaysiz?*

10. "Sotsiologiyastika" sohasi mohiyatini "Venn diagrammasi" asosida yoritng.



## Asosiy tushunchalar glossariysi

**Integratsiya** – dialektlarning kamayib, adabiy tilga yaqinlasha borishi, adabiy til ta'sirining kengayishi.

**Differentsiatsiya** – dialektlar sonining ko'payishi va ular asosida yangi tillarning vujudga kelishi, tillarning dialektlarga bo'linishi.

**Tilning tarixiyli** – tilning paydo bo'lishi, yaxlit tizim tarzida shakllanishi, ijtimoiy hodisa sifatida mavjudligi.

**Tilning hayotiyli** – uning aloqa-munosabat vositasi sifatida mavjudligi.

**Tilning me'yoriyligi** – tilning muayyan me'yorlar asosida muvofiqlashtirilishi.

**Hududiylik** – tilning ma'lum hudud bilan bog'liqligi, millat, elatga xos urf-odat, an'analar, tarixiy-etnik birlik va yagona davlat tizimiga aloqadorligi.

**Me'yorlashtirilgan tillar** – adabiy til me'yoriga ega bo'lgan tillar.

**Qadimiy tillar** – tillarning dastlabki taraqqiyoti davrida shakllangan, takomiliga yetgan, eng qadimiy madaniy-ma'naviy yodgorliklar yaratilgan tillar.

**Mahalliy tillar** – o'z yozuviga ega bo'lmagan, faqat og'zaki shaklda mavjud bo'lib, aholining kundalik aloqa-munosabat ehtiyoji uchun xizmat qiladigan tillar.

**Kreol tillari** – Yevropa mustamlakachilarning afrikaliklar, Sharq mamlakatlari xalqlari va Amerika hindulari bilan muloqoti natijasida mahalliy aholi tillariga Yevropa tillari (fransuz, ingliz, portugal) xususiyatlarining singishidan hosil bo'lgan tillar: *giti-kreol*, *ispan-nauatal* tillari.

**Pijin tillari** – Yevropa tillari bilan mahalliy tillarning aralashuvidan yuzaga kelgan tillar. Pijin tillarida so'zlashadigan jamiyat yo'q. Pijin tillaridan port shaharlarida ikkinchi til sifatida foydalaniladi.

**Sun'iy tillar** – maxsus yaratilgan xalqaro tillardir: masalan, polyak olimi L.Zamengof tomonidan yaratilgan *esperanto tili*.

### 3-§.TIL VA TAFAKKUR

#### Reja:

1. Til va tafakkur aloqadorligining mantiqiy asoslari.
2. Til va tafakkur birliklari o'rtasidagi munosabat.
3. So'z va tushuncha munosabati.

**Asosiy tushunchalar:** *kommunikatsiya, dunyoni bilish, hissiy bilish, idrok etish, til birliklari, fonema, morfema, leksema, konstruksiya, mantiq birliklari, his-tuyg'u, sezgi, idrok, tushuncha, hukm, tafakkur, nutq situatsiyasi, mantiq, idrok, muloqot jarayoni, referent, signifikat, signifikativ munosabat, denotat, referent, konnotativ ma'no, denotativ ma'no, til qonunlari, tafakkur qonunlari.*

Dunyoni bilish, idrok etish masalasi doimo falsafa fanining diqqat markazida bo'lib kelgan. Qadimgi faylasuflar ham dunyoni bilish mumkinligini e'tirof etib kelganlar. Xususan, o'rta osiyolik buyuk mutafakkirlar Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek va boshqalar ham o'z asarlarida dunyoni bilishning, bilish jarayonida hissiy organlar bilan aqlning roli haqida muhim fikrlarni ilgari suradilar.

Ingliz faylasufi Bekon ta'limotiga ko'ra, bilish jarayoni fan va amaliyot bilan bog'liq bo'lishi va shularga bevosita xizmat qilishi kerak. Uning fikricha, obyektiv mavjudlik to'g'risidagi bilimlar sezgilarimiz orqali olingan dalillar tufayligina tafakkur yordamida to'ldiriladi. Fransuz faylasufi Dekart esa tafakkurni bilishning birdan bir manbaya deb biladi. Dekartning vatandoshlari Didro, Golbax, Gelvetsiyalar dunyoni bilish jarayonida sezgilarimiz bilan tafakkurning rolini tan olsalar-da, ularning o'zaro munosabatlarini to'la-to'kis ochib bera olmadilar. Tafakkur xususida bunday falsafiy fikrlarni ko'p keltirish mumkin. Lekin falsafada shunday fikr bor: bilish – inson tafakkuridagi voqelikning in'ikos jarayonidir<sup>23</sup>.

Insoniyat bilan birga paydo bo'lgan til uning hayotida eng muhim rol o'ynab kelgan va bundan keyin ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Til, eng avvalo, inson va uning tafakkuri shakllanishidagi zaruriy shartlardan biridir. Aniq nutqning paydo bo'lishi insonning bilish, id-

<sup>23</sup> Tulenov J. Dialektika nazariyasi. – T., 2001.

**rok** qilish jarayonlarini tamoman o'zgartirib yubordi. Til tufayli inson **tafakkuri** boyidi, moddiy dunyodagi narsa va predmetlarni ong orqali **idrok** qilish, ular ustidan mulohaza yuritish, obyektiv borliqqa oid **fikrlarini** so'z bilan ifodalash imkoniga ega bo'ldi. Til ilk davrlardan **boshlab** hech bir narsa bilan tenglashtirib bo'lmaydigan vazifani, ya'ni **Inson** tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish funksiyasini bajarib **keladi**.

Psixologiyada ham insonning tafakkur faoliyati haqida so'z yuritilganda, hissiy bilish bilan bir qatorda, til va nutqning o'zaro bog'liqligi **alohida** qayd etiladi. Bunda inson psixikasining o'ziga xosligi **namoyon** bo'ladi. Jonzotlarning o'ta oddiy, juda sodda instinktlari **hamma** vaqt faqat hayvoniy harakatligicha qoladi; ular mavhum, bavo-sita bilish darajasiga yetmaydi. Hayvonlar ko'z o'ngida turgan narsalarni bevosita idrok qiladi va bu harakat doirasidan chetga chiqmaydi. Inson nutqi shakllangandan so'nggina obyektidan ma'lum bir xususiyatni ajratib olib, uni maxsus so'z yordamida tasavvurda yoki tushunchada jonlantirish, mustahkamlash, qayd etish imkoniyati tug'ildi. Tafakkur so'zda o'zining moddiy qobig'iga ega bo'ladi, **tafakkur** faqat so'z orqali boshqalar uchun reallikka aylanadi. Inson tafakkurini, u qanday shaklda bo'lmasin, tilsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Har qanday fikr nutq bilan chambarchas bog'liq ravishda paydo bo'ladi va rivojlanadi. U yoki bu fikr qanchalik chuqur va asosli suratda o'ylangan bo'lsa, u so'zlarda, og'zaki va yozma nutqda shu darajada aniq, yaqqol ifodalangan bo'ladi. Fikrning so'z orqali ifodalanish darajasi uning takomillashgani, aniqligidan dalolat beradi.

Kishi o'zining fikr-mulohazalarini boshqalar uchun ovoz chiqarib aytar ekan, shu mulohazalarni o'zi uchun ham ifodalaydi. Fikrni ana shu tarzda so'zlar orqali ifodalash, mustahkamlash, so'zlarda qayd qilish uning bo'linishini anglatadi, diqqatni mazkur fikrning turli o'rinlarida va qismlarida tutib turishga yordam beradi hamda fikrni qismlarga bo'lish orqali yanada chuqurroq tushunishga imkon yaratadi. Shu tufayli keng, izchil, sistemali mulohaza yuritish, ya'ni tafakkur jarayonida tug'ilgan hamma asosiy fikrlarni bir-biri bilan aniq va to'g'ri solishtirib ko'rish mumkin bo'ladi. So'zda, fikrni ifodalashda tafakkurning eng muhim zaruriy, mulohazali,

mantiqiy bo'laklarga ajratilgan va anglashilgan tomonlari namoyon bo'ladi. Fikr jumalalarda – og'zaki yoki yozma matnda mustahkam qayd qilinadi. Shuning uchun, kerak bo'lganda, mazkur fikrga yana qaytish, uni yanada chuqurroq o'ylab, tekshirib ko'rish va qayta o'ylash davomida boshqa fikrlar bilan solishtirish imkoniyati saqlanib qoladi. Inson tafakkuri til va nutq bilan chambarchas bog'liqdir. Tafakkur zaruriy tarzda moddiy so'z qobig'ida mavjuddir<sup>24</sup>.

Mantiq ilmida ham til va tafakkur munosabatlariga alohida e'tibor berilgan. Mantiq ilmida tafakkurning muhim xususiyati sifatida uning til bilan bog'langanligi e'tirof etiladi. Unda ta'kidlanishicha, inson tafakkuri uning tili bilan birga takomillashib boradi. Til orqali tafakkur mustahkamlanadi. Til o'zining shu xususiyati bilan insonga bilim to'plashga, uni saqlashga, avloddan avlodga uzatishga, to'plagan bilimlaridan hayotiy faoliyatida unumli foydalanishga yordam beradi. Shu bilan birga, til tafakkurni takomillashtirish, mavhumlashtirish, umumlashtirish va juz'iyashtirish quolidir. Shuning uchun ham tafakkurimiz voqelikni bevosita aks ettirish vositasi bo'lgan sezgilardan til yordamida ifodalanishi bilan farq qiladi.

Til va tafakkur reallikni bilish, boshqa insonlar bilan munosabatda bo'lish, obyektiv reallikka ta'sir ko'rsatish, har bir ishni oldindan o'ylab, ongli ravishda amalga oshirish kabilarda namoyon bo'luvchi, umuman, inson faoliyatining ongli, maqsadga muvofiqligini ta'minlovchi, insongagina xos bo'lgan muhim xislatdir. Amalda, hayotda. tarixiy jarayonda til va tafakkur o'zaro ajralmas bo'lsa-da, ularni turli fanlar alohida o'rganadi. Masalan, tafakkur formalarini mantiq fani o'rgansa, til kategoriyalarini tilshunoslik fanlari tadqiq etadi. Tafakkur umuminsoniy bo'lsa, til, uning qonun-qoidalari milliy xarakterga ega. Dunyodagi tillar juda ko'p qonun-qoidalariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Tafakkur shakllari, tamoyillari esa insonlarning millati, irqi, davridan qat'i nazar, hammada bir xildir<sup>25</sup>. Demak, tafakkurning moddiy qobig'i tildir. Shunday ekan, til bilan tafakkurni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Lekin ayrim tilshunoslar, xususan, N.Y.Marr til bilan tafakkurni ajratib qo'ydi. U shunday yozadi: "Til tabiiy materiyadan xoli bo'lgan, texnikada o'sib borayotgan tafakkurdir". Bunda,

<sup>24</sup> Umumiy psixologiya.- T.: O'qituvchi, 1992.

<sup>25</sup> Xavrutllayev M., Haqberdiyev M. Mantiq. -T., 1993.

albatta, tilning tafakkurdan ajratib qo'yilganligi ko'rinib turibdi. Go'yo kishilar kelajakda o'z qobig'idan xoli bo'lgan tafakkur bilan ish ko'radi<sup>26</sup>. Albatta, bu fikrlar bundan 70-80 yil muqaddam aytilgan. N.Y.Marr texnika taraqqiyotini o'z qarashlariga ko'ra baholagan bo'lishi mumkin. Lekin bugungi axborot texnologiyalari taraqqiy etgan davrda ham til bilan tafakkur bir-biridan alohida rivojlangan emas, aksincha, yanada yaqin munosabatda bo'lmoqda.

Bilamizki, hali tili chiqmagan chaqaloq bir kunda o'z ona tilida gapira olmaydi. Uning tili bir necha oylar, yillar ichida asta-sekin shakllanib, rivojlanib boradi. U dastlabki til ruhiyatini ona suti va ona allasi orqali oladi. Ona allasi orqali chaqaloq orom olish bilan birga uning ko'ngil dunyosiga milliy ruh kiradi. Demak, bolaning ilk til malakalari, dunyoni milliy ko'z bilan idrok etish tajribalari oilada tarkib topadi. Til haqida olmon tilshunosi Vilgelm fon Gumboldt shunday deydi: "Tillarning xilma-xilligi faqat tovushlarning turlichaligi emas, balki har bir millatdagi dunyoni ko'rishning farqliligi natijasi-dir"<sup>27</sup>. Agar chuqurroq o'ylab qarasaq, har bir millatning o'ziga xos ko'rish tarzi, o'ziga xos idrok intizomi, o'ziga xos tafakkur tamoyili bor. Amerika tilshunosi Benjamin Li Uorf "Agar Nyuton inglizcha gapirmaganida, inglizcha o'ylamaganida edi, uning koinot haqidagi buyuk kashfiyoti bir qadar boshqacharoq bo'lardi", degan edi<sup>28</sup>.

Tilshunoslik mantiq fani bilan uzviy aloqadordir. Tilning mantiq bilan aloqadorligi shundaki, har ikkisi ham tafakkur bilan bog'lanadi. Tilshunoslikning o'rganish obyekti bo'lgan til tafakkur bilan aloqador. Til kishilarning olam haqidagi bilimlarini, fikrlarini boshqalarga yetkazuvchi va shakllantiruvchi vositadir. Til va tafakkur o'zaro dialektik munosabatda ekan, ularni o'rganuvchi tilshunoslik bilan mantiq o'rtasida ham ana shunday bog'liqlik ta'minlanadi.

Til fikr ifodalashning muhim vositasidir. Tafakkur bilan tilning munosabati murakkab jarayondir. Til fikr ifodasi sifatida mavjud, o'z navbatida fikr til asosida yuzaga keladigan jarayon. Til ham, tafakkur ham mehnat jarayonida, kishilik jamiyatida shakllangan.

Til birliklari – fonema, morfema, leksema, konstruksiya bir butun holda, mantiqiy tushunchalar (his-tuyg'u, idrok, tafakkur) bilan uzviy

<sup>26</sup> Sodiqov A. va boshq. Tilshunoslikka kirish. –T., 1981.

<sup>27</sup> Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. –T., 2010. –B.87.

<sup>28</sup> Березин Ф.М., Головин Е.Н. Общее языкознание. – М.: Просвещение, 1979.



bog‘liqdir. Nutq jarayoni til birliklarining mantiqiy izchilligi va maqsadga mosligi natijasidir. “Bizning nutq tovushlarini talaffuz qilishimiz fonetik birliklarni maqsadli tarzda birlashtirishdan iborat. Biz muayyan so‘zni ingliz yoki venger so‘zi bo‘lishi mumkin emas, deb aytishimiz mumkin. Tillar turli-tuman va ularning foydalanuvchilari uchun umumiy tamoyillar, qoidalar ishlab chiqarib bo‘lmaydi. Agar shunday qilish mumkin bo‘lsa ham, venger va ingliz tillari tizimini bir xil qoidaga solib bo‘lmaydi. Ayrim so‘zlarni ma‘lum qoidalar asosida me‘yorlashtirish mumkin. Til tamoyillari asosida so‘zlarni tashkil etish va tovushlarni birlashtirish imkoniyatlari cheksiz. Inson tilidagi bu muhim xususiyatga ikki jihatdan yondashiladi. Ma‘nosiz elementlar soni bir qator mazmunli elementlarni hosil qilish uchun birlashtirilishi mumkin. So‘zlardagi ikki xil shaklni ko‘rish uchun (dog) it so‘zini tahlil qilaylik. Alohida-alohida holatda /d/, /o/ va /g/ ma‘nosiz, lekin ular birgalikda mazmunni ifodalaydi. Bulardan birining o‘rniga boshqa bir shakl qo‘yilsa, masalan, /d/ /o/ /c/ ma‘no o‘zgaradi. Ma‘lum bir so‘zdan boshqa shakldagi so‘zning hosil bo‘lishi tildagi unumdorlik asosida yuz beradi. So‘zning gap tarkibidagi ma‘nolari sintaktik unumdorlik asosida amalga oshadi. Xulosa qilib aytish mumkinki, mavzuning o‘zgarishi bilan shunga mos ravishda hukm chiqarish mumkin. Tilshunoslik qoidalari asosida bir qator birikmalarni shakllantirish mumkin. Lingvistik tahlilning har bir darajasida muayyan, cheklangan miqdordagi elementlarni topish, cheksiz miqdordagi elementlar bilan birlashtirish mumkin. Oldin eshitilmagan roman haqida hech narsa aytib bo‘lmaydi, lekin ona tilida ifoda etilgan har qanday matnni tushunish mumkin. Bu insonlarning hayvonlardan farq qiladigan, aloqaning muayyan shakllaridan foydalanishi mumkin bo‘lgan bir jihati-dir<sup>29</sup>”.

Mantiq tafakkur shakllari qonunlari va usullarini o‘rganadi. U inson fikrining aniq, ravshan, ketma-ket va asosli bo‘lishini ta‘minlaydi. Mantiq tilshunoslikning grammatika bo‘limi bilan bevosita munosabatdadir. Chunki tushuncha so‘z va so‘z birikmalari orqali ifodalansa, fikr gap orqali ifodalanadi. Har bir kishi uchun grammatikani bilish qancha zarur bo‘lsa, mantiqning shakl va qonunlarini o‘zlashtirish ham shun-

<sup>29</sup> *Richer B. First steps in theoretical and applied linguistics. -Budapest, 2006 -B. 18*

chalik zarurdir. Bu shuni ko'rsatadiki, mantiq bilan grammatika o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiradi.

Mantiq shakllari: tushuncha, idrok, hukm hamma xalqlar uchun umumiy bo'lsa, ularning turli tillarda ifodalanish shakllari turli-tumandir. Shuning uchun ham har bir til boshqasidan farq qiladigan grammatik qurilishga ega.

**Mantiq** (arabcha "nutq", "so'z", "so'zlashish") – yunon tilidagi "fikr", "so'z", "qonun" ma'nosini anglatadigan *logika* terminining arab tilidagi ifodasi. Mantiq tafakkur shakllari qonunlari va usullarini o'rganadi. U inson fikrining aniq, ravshan, ketma-ket va asosli bo'lishini ta'minlaydi.

Til kishilarning eng muhim aloqa vositasi, bilimlarni saqlovchi va kelajak avlodga yetkazuvchi vositadir. Til va tafakkur o'zaro ajralmasdir. Til uzluksiz rivojlanib, takomillashib boruvchi hodisadir. Shu jihatdan u jonli organizmga o'xshaydi (lekin bundan til faqat biologik hodisa, degan fikr kelib chiqmaydi) va shu xususiyatlarni o'rganish jihatdan tilshunoslik *biologiya* fani bilan umumiy belgilarni namoyon etadi.

Til fikrni shakllantiruvchi va ifodalovchi moddiy vosita bo'lib, bu jihatdan til va tafakkur muayyan shaklni o'zida namoyon etadi, tilshunoslikni ana shu jihatdan *mantiq*, *psixologiya* fanlari tizimiga kiritish mumkin bo'ladi. Insonlar bir-birlari bilan til orqali doimiy muloqotda bo'ladilar, demak, til va tafakkur chambarchas bog'liq, tilsiz fikrni ifodalab bo'lmaganidek, tafakkursiz til ham mavjud bo'lmaydi. Til faqat kishilarga xos, tafakkur ham insoniyatga xos bo'lib, bosh miyaning moddiyligi va fiziologik vazifasi bilan aloqador. Tafakkur – tashqi moddiy olamning ongda aks etish shaklidir. Fikrni to'liq ifodalash qiyin. Demakki, tafakkur tilda ifodasini to'liq topmaydi. Til qonunlari bilan tafakkur qonunlari bir-biriga teng kelmasligi mumkin. Masalan, *Sher yozildi* gapida grammatik ega mavjud: *she'r*. Ammo mantiqiy ega, subyekt mavjud emas. Shuning uchun ham til grammatikaning o'rganish obyekti hisoblanasa, tafakkur mantiq ilmining o'rganish obyektidir. Til fikr ifodasining muhim vositasidir. Tafakkur bilan tilning munosabati murakkab jarayondir. Til fikr ifodasi sifatida mavjud, o'z navbatida fikr til asosida yuzaga keladigan murakkab jarayon hisoblanadi. Til ham, tafakkur ham mehnat jarayonida jamiyatda

shakllangan. Til birliklari – fonema, morfema, so‘z, gap mantiqiy tushunchalar (his, sezgi, idrok, tafakkur) bilan uzviy bog‘liqdir.

**Sezgi** dunyoni in’ikos etishning boshlang‘ich shakli, bilishning qadimiy, faol usulidir. Demak, sezgi-obyektiv dunyoning subyektiv in’ikosidir.

**Idrok qilish** hissiy bilishning murakkabroq shakli bo‘lib, u sezgi a’zolariga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi buyumni yaxlit holda aks ettiradi. Miya inson ilgari idrok qilgan narsani o‘z xotirasida saqlab qolish va uni qayta tiklash qobiliyatiga ega. Sezgi a’zolariga ta’sir ko‘rsatmayotgan buyumning ana shunday qayta tiklangan qiyofasi **tasavvur** deb ataladi.

**Tushuncha**– hodisalarning ongda aks etgan eng muhim umumiy qonuniy aloqalari, muhim tomonlari va belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shakli sanaladi. Tushunchalar so‘zlar orqali ifodalanadi.

**Hukm** – borliqdagi narsa, hodisa, jarayonlarni, ularning xususiyati, aloqa va munosabatlarini aks ettiruvchi tafakkur shakli bo‘lib, u gaplarda o‘z ifodasini topadi. Tushuncha va hukmlar xulosa uchun xizmat qiladi.

“Tafakkur tili kommunikatsiyada eng muhim metod hisoblanadi, til tabiatini namoyon qiladi. Biz muloqot jarayonida so‘zlash bilan birgalikda imo-ishoralar, yuz ifodalari, qolaversa, tana harakatlaridan ham foydalanamiz, bular noverbal vositalardir. Biror tilni o‘qitishda bu vositalar turli kommunikatsiyalar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Til tabiatini o‘rgatishda, ayniqsa, kommunikatsiya jarayonida mantiqiy fikrlashni shakllantirish inson psixologiyasini anglashga, fikrlash doirasining kengayishiga olib keladi va ijtimoiylashuvni tezlashtirish vazifasini bajaradi”<sup>30</sup>.

Tilshunoslikni u yoki bu fanlar sinfiga kiritishda bu fan o‘rganadigan obyektning tabiati asos qilib olinadi. Til kishilarning eng muhim aloqa vositasi, bilimlarni saqlovchi va kelajak avlodga yetkazuvchi vositadir. Ana shu vazifalarini e’tiborga olganda, til – ijtimoiy hodisadir. Chunki u jamiyat uchun xizmat qiladi. Ikkinchidan, ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan til muayyan fizik va fiziologik jarayonlar asosida moddiylashadi. Uchinchidan, til va tafakkur o‘zaro

<sup>30</sup>Vrabel T.T. Lectures in theoretical phonetics of the english language and method-guides for seminars, poliprintungvar, 2009. – P.12. Linguistics: The Scientific Study of Human Language, 2006.

ajralmasdir. Toʻrtinchidan, til uzluksiz rivojlanib, takomillashib boruvchi hodisadir. Bu jihatdan u jonli organizmga oʻxshaydi.

Tildagi ayrim qonuniyatlar biologik jarayonlar bilan bogʻliq. Jumladan, nutq aʼzolari, nutq jarayoni biologik-fiziologik hodisalar asosida izohlanadi. Shunga koʻra tilshunoslik biologiya bilan aloqador.

Kishilar, odatda, bir-birlari bilan til orqali munosabatda boʻladi. Fikr til orqali voqelanadi, tilda mavjud boʻladi. Ongda paydo boʻladigan fikrning mohiyatini, mazmunini tashkil etadigan har qanday idrok yoki tasavvur ham faqat soʻzlar vositasi orqali namoyon boʻladi.

Til va tafakkur munosabatida qaysi birining ahamiyatligi, muhimligi, birlamchi ekanligi haqida savol tugʻiladi. “Qaysi biri birinchi yuzaga kelgan? Qaysi biri avval paydo boʻlgan?”

Borliq barcha uchun bir xil, biroq uning ifodasi boʻlgan tildan turli darajada foydalaniladi. Bu haqida Amerikada 1950-yillarda mantiq maktabi vakili Sepir-Vorfning qarashlari (gipotezalari) ahamiyatli. Unda til qaysidir holatda borliqqa taʼsir etadi, degan qarash mavjud. Bu qarash koʻplab isbotlangan va isbotlanmagan fikrlarga sabab boʻlgan. Shunga qaramay, ushbu muammoga hali ham qiziqish yuqori: nima deb oʻylaysiz, til tafakkurning shaklimi yoki tafakkur tilda shaklga kiradimi? Tilshunoslikda tilni oʻrganishda yoki tarjima jarayonida ushbu savolga qayta-qayta duch kelinadi. Inson har bir tilda dunyoni anglashda oʻz dunyoqarashi va til imkoniyatiga tayanadi. Baʼzi tillarda soʻzlashuvchilar tomonidan predmetlarning turli xususiyatlari yoritiladi. Italyan tilini olaylik, bu tilda pasta (makaron)ning turlari mavjud va ularning nomlari ham bor. Masalan, *macaroni, spaghetti, orzo, penne*. Nomlar soʻzlashuvchilarning hayot tarzi bilan bogʻliq. Bu soʻzlar ingliz va venger tillarida mavjud emas va bu soʻzlar italyan tilidan oʻzlashtirilgan. Hozirda ingliz va venger tillarida *penne* soʻzidan foydalaniladi. Kuzatish mumkinki, bu hodisa tufayli dunyoqarash kengaygan”<sup>31</sup>.

Soʻzning funksional xususiyatlari uning leksik, grammatik va semantik jihatlarini oʻzida mujassamlantiradi. Chunki soʻzlar tilning lugʻat tarkibini shundaygina tashkil etmay, umuman, tilning tizim va strukturasidagi barcha bogʻlanishlarni taqozo etadi.

---

<sup>31</sup> Richter B. First steps in theoretical and applied linguistics. — Budapest, 2006.—B.132

Ko‘pincha so‘zning ma‘nosi haqida gapirganda, uning narsa va tushuncha bilan aloqasi tilda qanday ifodalanishi ko‘zda tutiladi. Biroq qadimiy tilshunoslikda so‘z va nom o‘rtasida moslik bor, degan qarash ham mavjud edi. Ba‘zi tilshunoslar so‘zning talaffuz jihatiga e‘tibor bergan edilar. So‘zning aytilishi uning moddiy tomoni, ya‘ni tovushlarning birikuvini ifoda etadi. Tinglovchi va so‘zlovchi uchun so‘zning aytilishi obyektiv haqiqatdir. Biroq so‘zning faqat aytilishi uni izohlay olmaydi. So‘z aytilishi bilan narsa yoki hodisa o‘rtasidagi bog‘lanish uning ma‘nosini yuzaga chiqaradi. Bu aloqa, odatda, uchburchak shaklida ko‘rsatiladi:



Mazkur qarash, albatta, barcha so‘zlar uchun shunday tartibda tuzilgan, degan noto‘g‘ri xulosaga olib kelishi mumkin. Chunki so‘zning ma‘nosi bizga boshqa bir narsa yoki hodisani eslatganidek, o‘z navbatida biror narsa ham boshqa bir denotatni kishi ko‘z oldiga keltirishi mumkin. So‘zlar turli struktura tuzilishiga egadir. Shu tufayli so‘zning narsa va tushuncha bilan bog‘lanishini shartli ravishda qaramoq zarur, chunki barcha so‘zlar ham narsa, hodisa yoki belgining nomini anglatmaydi, ya‘ni hamma so‘zlar atama funksiyasiga ega emas. So‘zlar ichida otlar (narsa), fellar (harakat), sifatlar (narsa belgisi) va ravishlar (harakat belgisi) atash funksiyasini bajaradi.

Yordamchi so‘zlar ham nominativ funksiya bajarmaydi. Bir mustaqil so‘zning nominativ funksiyasi doimo faqat bir narsa yoki tushuncha, harakat yoki belgiga qaratilavermaydi. Ba‘zan esa, aksincha, bir narsa turli nomlar bilan atalishi mumkin. Masalan, *gul* so‘zi shu o‘simlikning barcha turlarini ifodalaydi. Braziliyadagi oborogonlar tilida to‘tiqushning har bir turi o‘z nomiga ega. O‘zbek tilidagi “bo‘sh vaqt” tushunchasi ingliz tilida *spare time*, *free time*, *leisure* so‘zlari bilan ifoda etiladi. Ingliz tilida bu so‘zlar ma‘nosiga ko‘ra turlicha ishlatiladi.

*Spare time* kechqurun ishdan keyin yoki haftaning dam olish kunlaridagi bo'sh vaqtni ifodalaydi. *Free time* kun davomida ish yoki o'qishdan xoli bo'lgan bo'sh vaqtni bildiradi.

*Leisure* so'zi dam olish vaqtini ko'rsatadi. Ingliz tilida "dam olish, tanaffus qilish, madaniy hordiq chiqarish" ma'nolarini ifodalagan yana bir qancha so'zlar, jumladan, *recreation, rest, relaxation, amusement, entertainment* kabilar mavjud. Bu so'zlar ham qo'llanishiga ko'ra farq qiladi.

So'zlarning ma'nosi kontekst yordamida oydinlashadi. Tildagi barcha birliklar (fonema, morfema, leksema, konstruksiya) umumlashtirish xarakteriga ega. So'zning mavhum tabiati uning bir qancha narsa, hodisa va belgilarga tegishli ekanligi bilan izohlanadi. Biroq so'z ma'lum nutq situatsiyasida yoki kontekstda o'zining aniq shaklida namoyon bo'ladi.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan so'z ifoda va mazmun birligidan iborat. So'z borliqdagi biror narsaning kishi ongidagi in'ikosi bo'lib, bu ifoda tafakkur yordamida til orqali amalga oshiriladi. Shu sababli so'z biror tushuncha, narsa, hodisa yoki belgini ifodalay oladi. Lekin so'z tushuncha va narsaning aynan o'ziga to'g'ri kelmaydi. So'z biror narsaning nomini atash orqali shu tildagi barcha narsalarga tegishlidir. Masalan, *paxta* so'zi uning barcha tur va navlariga tegishlidir, ya'ni umumlashtirish xarakteriga ega. Biroq bu so'z boshqa so'zlar bilan birikib yoki ma'lum affiks qo'shilishi bilan aniq ma'noni ifodalay oladi. Bu o'rinda so'zlarning aniq ma'noga ega bo'lishida grammatik qurilish katta ahamiyatga ega.

Demak, so'zning leksik ma'nosi bilan grammatik ma'nosini farqlamoq zarur. Ayrim olingan so'zga tegishli bo'lib, boshqa so'zlardan farqlay oluvchi ma'no shu so'zning leksik ma'nosi deb yuritiladi.

So'zning leksik ma'nosi birinchi navbatda o'sha so'z o'zining ma'nosi bilan bog'liq bo'ladi va har qanday affiks qo'shilganda ham saqlanib qoladi. Masalan, *yaxshi, yaxshilik, yaxshilikcha* kabi so'z formalarining barchasi "yaxshi" ma'nosini ifoda etgan. Bu o'rinda *yaxshi* so'zining leksik ma'nosi uni boshqa so'zlardan (masalan, *yomon* so'zidan) farqlashga xizmat qiladi.

Nutqda har qanday mustaqil so'z shakli leksik ma'nodan tashqari, grammatik ma'noga ega bo'ladi. Masalan, *suvimizdan, keltirdi* so'z-

laridagi *suv* va *kel* soʻzlari oʻz leksik maʼnosidan tashqari narsa va harakat maʼnolarini ifoda qiladi. Bu ularning grammatik maʼnosidir. Bu soʻzlardagi *-imiz*, *-dan*, *-tir*, *-di* affikslari turli grammatik maʼnolarni ifodalaydi. Grammatik maʼno soʻzning leksik maʼnosiga orttirilgan qoʻshimcha maʼnodir. Soʻzning grammatik maʼnolari grammatikada oʻrganiladi.

Soʻzlarning leksik va grammatik maʼnolari bir xil emas. Atoqli va turdosh otlar nutqda qoʻllanishiga koʻra farqlanadi. Turdosh otlar narsa va hodisani atashdan tashqari, ularning biror guruh yoki turga kirishini ham ifodalaydi. Atoqli otlar esa maʼlum shaxs, shahar, qishloq va boshqa narsalarni shu turdagilari ichidan ajratib koʻrsatish, alohida oʻziga xos xususiyatini ifodalash uchun xizmat qiladi. Til faqatgina tushunchalarni umumlashtiruvchi vosita boʻlmay, ularni farqlash vositasi sifatida insonning amaliy faoliyatida katta ahamiyatga ega. Barcha soʻzlar aytilishi, yaʼni tovushlar birikmasi yoki tovushdan iborat boʻlgan material tomoniga ega. Soʻzning material tomoni u ifoda etgan narsaning belgisi deb ataladi. Til esa shunday belgilarning alohida tizimi deb qaraladi.

Tildagi belgilar hayotdagi boshqa belgilardan, jumladan, koʻcha qatnoviga oid belgilar va signallardan tubdan farq qiladi. Chunki bu belgilar shartli qabul qilingan boʻlib, tez oʻzgarishi mumkin. Soʻzning talaffuzi esa shartli emas, u odamlarning xohishi bilan paydo boʻlmagan. Soʻzning talaffuzidagi oʻzgarishlar tilning tarixiy rivojlanish qonuniyatlari va nutqda ishlatilish xususiyatlari asosida roʻy beradi.

Soʻz maʼnosining narsaga aloqasi denotativ aloqa, soʻz atayotgan narsa denotat yoki referent deb ataladi (lotincha *denotatum* – koʻrsatuvchi, inglizcha *refer* – aloqador). Soʻz maʼnosining tushunchaga munosabati signifikativ aloqa (lotincha *significatum* – "belgi"), tushunchaning oʻzi signifikat deb yuritiladi. Bir soʻz maʼnosining boshqa soʻz maʼnosiga munosabati *struktural aloqa* deyiladi. Bunday aloqa natijasida turli soʻzlar oʻrtasidagi munosabatlar, ularning oʻxshash va farqli tomonlari aniqlanadi, soʻzlar har xil guruh va tiplarga ajratiladi.

“Bilimlarni tilda ifodalash bilan birgalikda maʼno imo-ishora yoki belgilar bilan ham ifodalanadi, bunda aytilgan fikr aniqroq tushuniladi, tinglovchi tafakkurida yana ham aniq jonlanadi. Qayd etish zarurki, maʼlum bir tilda, masalan, surdo tilida fikrlar yoki yetkazilay-

otgan xabarlar imo-ishora – vizual harakatlarga asoslaniladi. Tabiiy til-da, asosan, tovush orqali muloqot amalga ohsa, surdo tilida belgi tili muhim ahamiyat kasb etadi.

Lingvistik bilimlar soʻzlovchi ongida namoyon boʻladi va u *grammatikani* tashkil qiladi. Lingvistik nazariya soʻzlovchilarning ongida mavjud bilim va aqliy shakl bilan bogʻliq holda namoyon boʻladi va til nazariyasi yuzaga keladi. Biror grammatik bilim umumlash-tirilsa hamda unda mantiqiy izchillik boʻlsa, u holda bu bilimlar tilning umumiy nazariyasiga kiradi, keyinroq grammatik nazariya sifatida shakllanadi. Bu grammatika bir tildagi barcha shakllarni: leksik qat-lamni (soʻzlar yoki lugʻat qatlamini), morfologiyani (soʻzlarning struk-turasini), sintaksisni (soʻz birikmasi, gap shakllari va strukturasi), semantika (soʻz va gaplar maʼnolari)ni, fonetika va fonologiya (tov-ushlar va tovush tizimi)ni oʻzida aks ettiradi. Grammatika tarkibida oʻziga xos hamda universal komponentlar mavjud boʻladi<sup>32</sup>.

Tilning mazmun mundarijasida soʻzning asosiy maʼnosi *semema* termini bilan ataladi, ifoda jihatida esa *leksema*, ifoda shakli esa nome-ma deb yuritiladi. Tilning ifoda va mazmun jihatlarini bir-biri bilan uz-viy bogʻliq holatda qaraladi. Soʻzning maʼnosi uning bir qancha aniq maʼnolari yigʻindisidan, yaʼni sememalardan tashkil topadi. Masalan, *bormoq, yurmoq, chopmoq, kelmoq, qadam bosmoq* soʻzlari turli leksemalar boʻlib, “harakat qilmoq”ni koʻrsatuvchi bir sememaga bir-lashadi. Ammo bu soʻzlarning har biri alohida semasiga ega. Semalar bir soʻzning maʼnosini boshqa soʻzlardan farqlash uchun xizmat qiladi. Semalar narsa va hodisalarga tegishli boʻlgan tashqi va ichki belgilar yordamida aniqlanadi va ular nutq situatsiyasida oydinlashadi. Baʼzan bir soʻz maʼno jihatidan turlicha variantlarga ega boʻlishi mumkin. Bunda soʻzning oʻzagi, uning morfemik tarkibi ham variantlashadi va bu leksik-semantik hamda stilistik farqlanishga olib keladi. Masalan, *kurs* soʻzi (I–V kurs talabalari) nazariy yoki amaliy kurs (dars) maʼnolarida variantlashadi va ular baʼzan alloksemalar deb yuritiladi. Bunday soʻz variantlarining maʼnolari nutq situatsiyasi bilan bogʻliq boʻladi. Soʻzning leksik maʼnosi doirasiga uning konnotativ (lotincha *con* – “birga”, *notatio* – “koʻrsatish”) maʼnosi, yaʼni qoʻshim-

<sup>32</sup>Linguistics: The Scientific Study of Human Language. 2006. P.7. Peter T. Daniels. (2001) Writing and Language. In The Handbook of Linguistics. Edited by Arnoff, M., Rees-Miller, J. P. 65-68.



cha ma'nosi ham kiradi va u so'zga emotsional-ekspressiv bo'yoq va stilistik sifat beruvchi ma'noni anglatadi. Masalan, *chehrasi ochiq; basharasini ko'rmay*. Bu gaplarda *chehra* va *bashara* so'zlari leksik ma'nosi ("yuz", "bet")dan tashqari konnotativ ma'no (ijobiy va salbiy munosabat) ham ifoda etadi. *Kalla* va *tabassum* so'zlari ham mana shunday xususiyatga ega.

So'zlarning konnotativ ma'nolari tilshunoslikning stilistika bo'limida, aniqrog'i, leksik stilistikada o'rganiladi<sup>33</sup>.

Inson borliq, atorofdagi olam haqida muayyan bilimga ega bo'ladi, bu bilim uning fikr doirasini kengaytiradi. Bu ma'lumotlarni tinglovchiga yetkazish jarayonida olingan bilimlar yanada mustahkamlanadi. Chunki ma'lumot tinglovchiga uzatilar ekan, miyada ma'lumotni qayta ishlash jarayoni amalga oshadi. Inson mulohaza qilib, fikrini ma'lum tartibga keltiradi, ichki nutq ko'rinishida shakllantiradi. Shundan so'ng fikr tashqi nutq ko'rinishida (og'zaki va yozma shaklda) reallashadi. Shu bois biror ma'lumotni tushunish, xotirada saqlab qolish uchun uni boshqalarga yetkazish, tushuntirish muhimdir. "O'zaro fikr almashish va uni kelajak avlodlarga yetkazuvchi vosita sifatida milliy madaniyatning shakllaridan biri bo'lgan til ong va tafakkur bilan uzviy bog'langandir. "Fikr", "tafakkur" va "ong" terminlarini ko'p hollarda sinonim sifatida ishlatamiz. Aslida ularning har biri ma'no ifodalash doirasiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Xususan, ong – voqelikning kishi miyasida uning butun ruhiy faoliyatini o'z ichiga olgan va ma'lum maqsadga yo'nalgan holda aks etishi. Tafakkur – o'ylash, muhokama qilish, voqelikni anglash, tasavvur qilish, unga baho berish, fikrlash qobiliyati. Fikr – tafakkur mahsuli. Demak, tafakkurni so'z boyligi vositasida ifodalashda asosiy vazifani til bajaradi. Albatta, har bir inson tafakkuridagi fikrlarni ifodalashda shu inson nutqining takomil darajasi muhim sanaladi. Chinakam nutq madaniyati shu tilning butun boylig va go'zalliklaridan foydalana olish, uni ne'mat sifatida idrok etish asosida shakllanadi. Aniqki, nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Haqiqiy ma'nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasining favqulodda muhim unsurlaridan biridir. Shuning uchun ham mamlakatimizda ma'naviy-ma'

<sup>33</sup> *Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. –T., 2010. –B. 63-67*

rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishi deb eʼlon qilingan bugungi kunda nutq madaniyati masalalari, farzandlarimizning nutqiy madaniyat koʻnikmalari va malakalarini oshirish, taʼlim jarayonlarining barcha bosqichlarida madaniy nutq muammolarini yetarli darajada nazarda tutish har qachongidan ham dolzarblik kasb etganligi bejiz emas. Respublikamizda qabul qilingan “Davlat tili haqida”, “Taʼlim toʻgʻrisida”gi qonunlar, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” va boshqa juda koʻplab hujjatlarda maʼnaviy-maʼrifiy tarbiya, til masalalariga alohida eʼtibor berilgan. Fikrni oʻz ona tilida mustaqil, ravon, goʻzal va loʻnda ifoda etish uchun insonda nutqiy madaniyat yetarli darajada shakllanishi kerak, busiz, zotan, ona tiliga sohiblik degan tushuncha ham maʼnoga ega emas. Chunki nutq madaniyati tildan bermalol va maqsadga muvofiq tarzda foydalana olishni taʼminlaydigan bilim, koʻnikma, malakaning jami demakdir.

Inson tafakkurining mahsuli yoki fikrni soʻz orqali ifodalash qobiliyati, mahorati sanalgan nutqning madaniyligini taʼmin etuvchi toʻgʻrilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, rang-baranglik, soflik kabi bir qancha sifatlar mavjud. Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini oʻzida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi”<sup>34</sup>.

Til va tafakkur ularni tashkil etuvchi birliklarning ahamiyati va qurilishi nuqtayi nazaridan farqlanadi. Tafakkurning maqsadi yangi bilimlarni olish va ularni sistemalashtirishdan iborat boʻlsa, til fikrni shakllantiradi, mustahkamlaydi va uni boshqa obyektga yetkazadi. Boshqacha aytganda, biz bilish va tushunish uchun fikrlaymiz, fikrimizni, istak va hissiyotlarimizni ifodalash uchun esa gapiramiz. Tilning asosini uning grammatik qurilishi, soʻz yasash va gap tuzish qoidalari tashkil etib, ular fikrni aniq ifodalash hamda tushunarli tarzda yetkazishga xizmat qiladi. Bir soʻz bilan aytganda, fikr tilda soʻzlar vositasida ifodalanadi. Ongimizda shakllanadigan har qanday fikrning mohiyati, mazmunini tashkil etuvchi idrok yoki tasavvur faqat soʻzlar vositasidagina voqelanadi. Demak, inson tafakkurining mahsuli til orqali namoyon boʻladi.

<sup>34</sup>Mahmudov N. Maʼrifat manzillari. -T., 1999.

## Savol va topshiriqlar

1. Til va tafakkur bog'liqligini misollar asosida tushuntiring.
2. Til va tafakkur birliklari aloqadorligini asoslang.
3. So'z va tushuncha munosabatida mantiqning o'rnini ko'rsating.
4. Nutq situatsiyasi, fikr almashish, axborot uzatish jarayonining mantiqiy asoslarini misollar asosida tushuntiring.
5. Tilning kommunikativ funksiyasida mantiqiy tushunchalarning muhim o'rin tutishini asoslang.
6. Leksemalarning o'z va ko'cma ma'nosi reallashuvida tafakkurning ahamiyatli o'rnini yoritng.
7. So'zlarning konnotativ ma'nolariga asos bo'ladigan mantiqiy omillar haqida ma'lumot bering.
8. Idrokning muhim belgilarini, ong mahsuli sifatidagi ahamiyatini tavsiflang.
9. Bir obyektning turli saviyadagi yoshlar tomonidan bir xil idrok etilmasligi sabablarini ayting.
10. "Xotira mashqi". Daftarga 50ta so'z yozing. Daftarni yopib, yozgan so'zlaringizni qaytadan qog'ozga tushiring. Nechtasini unutganingizni aniqlang.

## Asosiy tushunchalar glossariysi

**Kommunikatsiya** – lot.*communicatio* < *commununicare* – umumiy lashtirmoq, bog'lamoq. Fikr almashuv, aloqa.

**Leksema** (yun.) – tilning lug'at tarkibiga xos birlik; til qurilishining lug'aviy ma'no anglatuvchi birligi.

**Leksik ma'no** – lug'aviy ma'no, leksema anglatadigan ma'no.

**Nutq situatsiyasi** – til birliklaridan foydalanish imkoniyati, so'zlash, muloqot jarayoni.

**Mantiq** – a.nutq, til; sozlash, logika. To'g'ri fikr yuritishning asosiy qonunlari va shakllari haqidagi fan.

**Idrok**– a. erishish, fahmlash, ong, tushuncha, tashqi dunyo. voqea-hodisa, bilish, tushunish qobiliyati, zehn, fahm-farosat.

**Muloqot jarayoni** – a. uchrashish, ko‘rishish, qabul qilish jarayoni.

**Referent** – inglizcha *refer* – aloqador, ko‘rsatuvchi, so‘z atayotgan narsa, predmet, voqelik, hodisa.

**Signifikat** – lotincha – *significatum* “belgi”, “tushuncha”.

**Signifikativ munosabat** –so‘z ma’nosining tushunchaga munosabati.

**Hukm** –hukmronlik, hokimiyat, boshqarish, tuzum, qaror, to‘xtam, buyruq; fikr, tushuncha. Narsa va uning belgisi haqidagi tasdiq yoki inkor.

#### 4-§. TIL – TAFAKKUR – NUTQ MUNOSABATI

##### Reja:

1. Tilning ijtimoiy, nutqning xususiy hodisa sifatidagi mohiyati.
2. Til birliklari va nutq birliklari munosabati.
3. Nutqiy faoliyat va uning mohiyati.

**Asosiy tushunchalar:** *fonema, morfema, til birliklari, nutq birliklari, nutqiy vaziyat, muloqot jarayoni, artikulyatsiya, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza, til va nutq belgilari, umumiylik – xususiylik; abstraktlik – konkretlik; muhim – nomuhimlik; mohiyat – hodisa; zaruriylik – tasodiflik; uzual hodisa, okkazonal hodisa, sifat – miqdor belgilari, ichki lingvistika, tashqi lingvistika, birinchi signal tizimi, ikkinchi signal tizimi.*

Til va nutq hodisalarini o‘zaro farqlash ularning munosabat mohiyatini o‘rganish arab tilshunosligida VIII–IX asrlardayoq mavjud edi. Mazkur tushunchalarning munosabat shakli hozirga qadar dunyo tilshunoslarining diqqatini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Smernitskiy A.I., Panfilov V.Z., Melnichuk A.S., Solnsev V.M. kabi Praga tilshunoslari sistem tilshunoslik taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shib, til va nutq munosabati tarixi xususida o‘z mulohazalarini bildirgan edilar. Lekin til va nutq hodisalarini va ularga xos birliklarni tom ma’noda ilmiy-nazariy hamda amaliy farqlash; «til» va «nutq» tushunchalariga

batamom yangi mazmun berilishi F.de Sossyur va uning izdoshlari yaratgan ta'limot bilan bog'liqdir.

XX asr tilshunoslik fani predmetini aniqlashda yangi davr boshlandi. Tilshunoslikni alohida fan sifatida ajratish, tadqiqot predmetini aniqlash, chegaradosh sohalardan ajratish shveysar olimi Ferdinand de Sossyur (1857-1913) tomonidan e'lon qilingan go'yalarda ko'zga yaqqol tashlanadi<sup>35</sup>. F. de Sossyurning fandagi asosiy xizmati shundan iboratki, u birinchilar qatori tilning murakkab hodisa ekanligini aniqlagan holda yangi, mukammal va aniq shakllangan umumiy tilshunoslik nazariyasini yaratib berdi. Tilshunoslik fani predmetini aniqlash va uni ta'riflashga intilgan F.de Sossyur qarashlari tilshunoslik tarixidagi muhim masalalarni hal etishda sezilarli ta'sir ko'rsatdi.



Shveysarlik mashhur tilshunos Ferdinand de Sossyur 1857-yilda Jenevada olimlar oilasida tavallud topdi. U bolalik paytlaridayog yunon huquq shunisi toffu tilini mukammal o'rgandi. Sossyur 1878-yilda Jeneva universitetiga o'qishga kirib, 1876-yilda esa o'qishni Germaniyaning Leypsig universitetiga ko'chirdi va bu yerdagi ikki yil davomida fakultetda Sossyur 1880-yilda "Shavkatda ahvoliqt qaytish" nomli asarida falsafaviy shavkatshunoslik nazariyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Shundan so'ng u 1886-yilda Parijga ko'chib o'tib Parij lingvistik jamiyatining faol a'zosi bo'lib o'qishni davom ettirdi. Sossyur 1891-yilda vataniga qaytib va 1897-yildan boshlab Jeneva universiteti umumiy tilshunoslik kafedrasiga rahbarlik qildi. Uning 1913-yilda vafot etishi F.de Sossyur fikrini va fikrini davom ettirishni ta'minlagan bo'lsa-da, uning nazariyasi hozirgacha davom etib kelyotadi. Uning fikricha, til nutq faoliyatining faqat bir tomonini tashkil etadi. F. de Sossyur til bilan nutq o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni e'tirof etsa-da, ikkala hodisani alohida-alohida o'rganishni taklif qildi. Bu ikki jihatcha o'rganish maqsadida F. de Sossyur til lingvistikasi va nutq lingvistikasini ajratdi.

F. de Sossyurning ta'kidlashicha, insonning nutq faoliyati ko'p tomonlama hodisa bo'lib, falsafa, psixologiya, fiziologiya, antropologiya, filologiya kabi turli fanlar tomonidan o'rganilishi lozim. Shuning uchun nutq faoliyatini o'rganishda F. de Sossyur ham V. fon Gumboldt kabi antinomiya metodidan foydalandi.

Tilshunoslik fani chegarasini, predmetini aniqroq ta'riflash maqsadida F. de Sossyur til bilan nutqni ajratib, bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi. Uning fikricha, til nutq faoliyatining faqat bir tomonini tashkil etadi. F. de Sossyur til bilan nutq o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni e'tirof etsa-da, ikkala hodisani alohida-alohida o'rganishni taklif qildi. Bu ikki jihatcha o'rganish maqsadida F. de Sossyur til lingvistikasi va nutq lingvistikasini ajratdi.

<sup>35</sup>F. de Sossyur. Курс общей лингвистики. 1916; Шендельс Е. И. Связь языкознания с другими науками. -М. 1962 Стр. 6.

F. de Sossyur ichki va tashqi lingvistikani ajratib, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi. Uning fikricha, tilshunoslik fanining asosiy vazifasi tilning ichki qurilishi (strukturasi)ni o'rganadigan lingvistikada aks etadi, tashqi lingvistika esa tilning xalq madaniyati, tarixi bilan aloqasini o'rganadigan soha bo'lib, tilshunoslik fani uchun ikkinchi darajali hodisadir.

F. de Sossyur til va madaniyat, til va tarix, til va ong (va hokazolar)ni *tashqi lingvistika* deb nomlab, tilshunoslarga "ichki lingvistika", til strukturasi bilan shug'ullanishni tavsiya qilgan. F. de Sossyur nazariyasi tilshunoslik fani predmetini o'rganishga qo'shilgan muhim hissa bo'ldi. F. de Sossyur nazariyasi ta'sirida XX asrda «Strukturalizm» nomi bilan atalgan yangi lingvistik oqim vujudga keldi. Strukturalistlar *ichki lingvistika* ("mikrolingvistika")ni *tashqi lingvistika* ("makrolingvistika")ga qarshi qo'yishadi. Ular tilshunoslikni ijodiy va tabiiy fanlardan faqatgina predmet tadqiqotlari masalasida emas, balki metodlar masalasida ham ajratmoqchi bo'ldilar. Strukturalistlar yangi metodlar izlab tabiiy fanlarga: fizika va matematikaga murojaat qilishdi, yangi tadqiqotlar tizimini ishlab chiqishdi. Bu metodlar fizika-matematika metodlariga ko'p jihatdan o'xshash edi. Ayrim chet el tilshunoslari til haqidagi fanning o'rnini aniq fanlar ichida, deb biladilar. Bu fikrning to'g'riligini tilshunoslikning texnik fanlar bilan aloqasida (masalan, axborot nazariyasi, kibernetika fanlari bilan munosabatida) ham ko'rish mumkin. Keyingi paytlarda kompyuter tilshunosligining rivojlanishi natijasida, televideniye, kompyuter, faks, uyali telefonlar yordamida hozirgi zamon tilshunosligining amaliy masalalari hal etilmoqda. Bu yo'nalishlar, qarashlar hozirgi zamon struktural tilshunosligi asoslari hisoblanadi.

Tilshunoslik fanining predmetini yanada aniqroq tasavvur etish maqsadida F. de Sossyur tilni o'rganishda sinxron (bir vaqtda) va diaxron (ketma-ket, tadrijiy suratda yuz beradigan yoki tarixiy) aspektlarni ajratib, bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi va ko'proq sinxron aspektga ahamiyat berdi. F. de Sossyur fikricha, sinxron va diaxron aspektlar o'zaro bog'liq bo'lib, ma'lum aspektni tanlash tadqiqotchi maqsadlaridan kelib chiqadi. Sinxron aspekt til tizimini o'rganadi, ammo diaxron aspekt o'rganadigan obyekt tizimni tashkil qilmaydi.

F. de Sossyur nazariyasida asosiy antinomiya – til va nutq antinomiyasidir. Yuqorida ko'rib o'tilgan tashqi va ichki lingvistika, sinxroniya

va diaxroniya antinomialari til va nutq antinomialari asosida yuzaga kelgan.

Ferdinand de Sossyurning fanidagi asosiy xizmati shundan iboratki, u birinchilar qatorida tilning murakkab hodisa ekanligini anglagan holda, yangi, mukammal va aniq shakllangan umumiy tilshunoslik nazariyasini yaratib berdi. Uning ilmiy g'oyasi tilning murakkab, ziddiyatlarga boy, ko'p tomonlama hodisa ekanligiga asoslangan.

Til va nutq masalalariga munosabat dunyoning muayyan taraqqiyot darajasidagi tillarda o'ziga xos tarzda talqin qilinmoqda. Jumladan, hozirgi o'zbek tilshunosligida o'zaro dialektik bog'liq bo'lgan til va nutq hodisalarining farqiga oid ayrim fikrlar bayon qilinayotgan bo'lishiga qaramay, bu masalaning hal qilinishi lozim bo'lgan jihatlari ko'p.

Tilshunoslik boshqa fanlardan ajralib, o'zicha alohida mustaqil fan deb tanilgan davridayoq, til va nutqni farqlashga e'tibor berilgan edi. Ammo fan taraqqiyoti tarixi davomida hamma sohada ham til va nutq bir-biridan farqlanavermaydi. Shuning uchun ko'pincha nutqqa xos hodisalar til hodisasi sifatida talqin qilinib keldi.

“Tilshunoslikda til va nutq o'zaro farqlanganidan buyon ularga xos til birliklari ham bir-biri bilan o'zaro doimo aloqada bo'lgan birliklar sifatida ajratiladigan bo'ldi.

N.A.Slyusareva ta'kidlaganidek, F. de Sossyur ta'limotining mohiyati, eng qisqa shaklda ifodalaganda, bu til (langue) va nutq (parole) farqlanishidir. Uning boshqa barcha nazariyalari mantiqan shu asosiy tezisdan kelib chiqadi. Y.Zvegensev F. de Sossyurning til –nutq haqidagi qarashlari asosida bu hodisalarning quyidagi farqli belgilarini ko'rsatadi.

1. Nutq individual, til umumiy hodisadir. Umumxalq tili doimo va, albatta, alohida nutqiy ko'nikmalarda til tizimi chegarasida ma'lum o'zgarishga uchraydi.

2. Nutq psixik, til sotsial hodisadir.

3. Nutq dinamik, til esa stabilikka, statiklikka intiladi.

4. Nutq tarixiy, til axronik xususiyatga ega.

5. Nutqiy elementlar o'rtasida sababiy tobelik, til elementlari o'rtasida funksional tobelik mavjud.

6. Til lingvistik qonuniyatlarga bo'ysunadi. U lingvistik «regulyar», nutq esa lingvistik noregulyar, sporodik xarakterga ega.

7. Nutqqa moddiylik xosdir. U o'zining funksiyasini real moddiy sifatga ega bo'lgan birliklar sifatida bajara oladi. Til abstrakt tizim sifatida mavjud. Bunday farqlanish substansiya va forma o'rtasidagi farqlanish kabidir. N.A. Slyusareva shu kunga qadar til va nutq qarama-qarshiligiga bag'ishlangan ishlarni umumlashtirgan holda, til va nutqni qutbiy ziddiyat (binar oppozitsiya) asosida uch xil yo'l bilan aniqlash mumkin ekanligini ko'rsatadi: 1) bilish nazariyasi nuqtayi nazaridan gnoseologik aniqlash; 2) til va nutqning predmetlik xususiyati nuqtayi nazaridan ontologik aniqlash; 3) qo'llanish doirasi va foydalanish tarzi nuqtayi nazaridan – pragmatik aniqlash. Bu uch xil yo'l bir-birini to'ldiradi.

Gnoseologik jihatdan til va nutq quyidagi belgilar asosida farqdanadi:

- 1) umumiylik – xususiylik;
- 2) abstraktlik – konkretlik;
- 3) muhim – nomuhimlik;
- 4) mohiyat – hodisa;
- 5) zaruriylik – tasodiflik;
- 6) sifat – miqdor.

Til va nutq ontologik jihatdan yetti belgi asosida farqlanadi va har qaysi belgi o'z ichida mayda belgilarga bo'linishi mumkin; 1) psixik – fizik – fiziologik; virtual – aktual; imkoniyat – akt va boshqalar; 2) tizim – tekst; tizim – funksiya; paradigmatika – sintagmatika; 3) bir xillik – har xillik; 4) invariantlilik – variantlilik; o'zgarmaslik – o'zgaruvchanlik; barqarorlik – beqarorlik va boshq.; 5) butun – qism; 6) jarayon – kvant jarayon; 7) ong mahsuli – tafakkur mahsuli.

Til va nutq pragmatik jihatdan quyidagi uch belgi asosida farqlanadi:

- 1) sotsial – individual; aloqa vositasi – aloqa jarayoni; vositalar tizimi, bu vositalarga amaliy jihatdan egalik qilish; avtomatizm – erkinlik;
- 2) uzual – okkazional;



3) kod – xabar”<sup>36</sup>.

Keyingi davrlarda til bilan nutqni farqlab yondashish o‘zbek tili tadqiqotlari uchun asos qilib olina boshlagani nutq tovushi va fonema, fonetik va fonematik o‘zgarishlar, leksema, leksik va situativ nominatsiya, qurilma va ularning yuzaga chiqishi, lug‘aviy birliklarning makro va mikrotekstdagi xususiyatlarini, o‘zbek tili sintaksisi sathida mohiyat va hodisa kabi masalalarni atroflicha chuqur tadqiq etish imkonini yaratmoqda.

Til va nutq tushunchalarining tarixiy taraqqiyotdagi madaniy xizmati cheksiz. Biroq tilning ifoda imkoniyatlari nutq orqali, nutq jarayonida ochiladi. Nutq bo‘lmas ekan, tilning cheksiz imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolaveradi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy «Mahbub-ul qulub» asarida til va nutq munosabatlarini shunday ifodalaydi:

«Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir, agar nutq noma’qul bo‘lib chiqsa tilning ofatidir». Buyuk mutafakkirning til va nutqqa doir aksariyat fikrlari tabiat hodisalari, borliq voqeligiga qiyosan, uyg‘un ravishda tasvirlangan. Masalan, Alisher Navoiy “Muhokamat-ul lug‘a-tayn”da turli qushlarning sayrashi, jonzotlarning tovush ifodalari bir-biriga o‘xshamasligini aytadi: *Andoqki, tuyur va bahoyim va subo‘ning tillarikum, har birining o‘zgacha xurush va takallumlari bor va g‘ayri mukarrar navo va tarannumlari*. Xuddi shuningdek, lafz va iboralardin maqsad inson ekanligi va ko‘ngil izhori, narsa-hodisa mohiyatini ifodalovchi ma’no jilvalari, nozikliklari uning kalomida, so‘zida namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi: *Ammo chun alfoz va iboratdin murod ma’nidur va mazkur maxluqotdin maqsud insondur va ul mazhari maoniy va bayon, so‘z aning so‘zidadur va takallum aning kalomida borur*<sup>37</sup>. Bu fikrlar olimlarning Navoiy birinchilardan bo‘lib til va nutq hodisalarini farqlagani haqidagi qarashlarini asoslaydi. Darhaqiqat, buyuk mutafakkir tilning umumiy hodisa sifatidagi mohiyatini anglagan, har bir shaxs nutqining o‘ziga xosligini birinchilardan bo‘lib ajratgan.

Nutqiy faoliyat natijasida nutq shakllanadi, nutq elementlardan tuziladi va til elementlariga ajralib ketadi. Til elementlari esa nutq fa-

<sup>36</sup>Нурмонов А. Лингвистик белги назарияси. –Т.: Фан, 2008. -Б.32-33.

<sup>37</sup> Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn. -Т., 2011. - Б.37

oliyati uchun xizmat qiladi. Lekin bu xulosa F.de Sossyurning fikrini qisman rad etadi. U «avval nutq faoliyati yuz beradi, undan til yuzaga keladi, tildan nutq hosil bo'ladi», degan «o'tish» tartibi haqidagi fikrini ilgari surgan hamda til va nutq dixotomiyasini shatranj o'yini qoidalarini misolida tushuntirib berishga harakat qilgan edi.

Haqiqatan ham, shatranj taxtasidagi 64 katak teng holatda 2 xil rangda, 2 guruhga 32 tadan ajratilib qarama-qarshi qo'yiladi, har 2 guruhdagi donalar vazifasi va qiymati jihatidan bir-biriga teng, donalarning o'ziga xos joylashish tartibi va yurish qoidalari bir xil; shatranj o'yini qoidalari o'yinchilar uchun majburiy, avvaldan ma'lum bo'lib, ular doim o'yinchilar xotirasida saqlanadi. Har ikkala o'yinchi bir xil imkoniyatlarga ega bo'lib shatranj o'yini qoidalariga bir xil bo'ysunsa ham o'yinchilarning o'zlari imkoniyatlaridan foydalanish mahoratiga ko'ra biri kuchli, biri kuchsiz mavqeda bo'ladi. Qaysi biri shatranj imkoniyatlarini o'z maqsadi yo'liga izchillik bilan bo'ysundira olsa, u shu imkoniyatlardan foydalana olmagan raqibini yengadi. Lekin Sossyur shatranjda durang holatlar ham bor ekanligini e'tiborga olmagan. Demak, u ta'riflagan harakatda kuchlar tengligiga e'tibor berilmagan. Shuning uchun bu qarash bugunga kelib cheklanib qoldi.

Shunday ekan, til va nutq, Sossyur ta'riflaganidek, bir-biriga zid tushuncha bo'lgani holda (Sossyur bu o'rinda bir-birini taqozo qiluvchi zidlikni nazarda tutgan), bir-biriga bog'liq ravishda bir-birini talab qiladi, to'ldiradi. Hozirgi davr sistem tilshunosligida til va nutq oppozitsiyasidan kelib chiqib, nutq faoliyati quyidagi uch tarkibiy qismdan iborat, deb hisoblanadi.

1. Til.

2. So'zlash qobiliyati (tildan foydalanish ko'nikmasi va malakasi).

3. Nutq.

*Til* deganda ma'lum bir jamiyatning barcha a'zolari uchun avvaldan tayyor holga keltirilgan, hamma uchun umumiy, qabul qilinishi majburiy, fikrni shakllantirish, ifodalash va boshqa maqsadlar uchun xizmat qiladigan birliklar va shu birliklarning o'zaro birikishi, bog'lanishini belgilovchi qonun-qoidalar yig'indisi tushuniladi.

So'zlash qobiliyati tushunchasi ostida ma'lum bir jamiyatga mansub shaxsning, shu jamiyatga mansub tilni bilishi, uning imkoniyatlaridan foydalana olish ko'nikmasi va darajasi anglashiladi.

Nutq esa yuqorida ta'riflangan til imkoniyatlari asosida ayrim shaxs tomonidan so'zlash qobiliyati ko'magida ma'lum bir kommunikatsiya maqsadi uchun ishga solinish yoki qo'llanish natijasidir. Til birliklari va nutq birliklari bir qator belgilari bilan farqlanadi:

<b>Til birliklari</b>	<b>Nutq birliklari</b>
fonema	fon
morfema	morf
leksema	leks
konstruksiya (model)	so'z shakli; so'z birikmasi; gap; mikrotekst, makrotekst

Bu birliklar o'z navbatida ma'lum vazifa va funksiyaga ega, bir-biridan amaliy jihatdan farqlanadi. Ba'zan esa bir-birini to'ldiradi.

Til va nutq orasidagi dialektik aloqa va munosabat haqida aytilgan fikrlarni quyidagicha umumlishtirish mumkin.

<b>Til</b>	<b>Nutq</b>
Umumiylik	Xususiylik
Imkoniyat	Voqelik
Tayyorlik	Hosilalik
Majburiylik	Ixtiyoriylik
Birliklari chegaralangan	Birliklari chegaralanmagan
Hajmi chegaralanmagan	Hajmi chegaralangan

Demak, til va nutq bir-birini taqozo etuvchi hodisalar sifatida e'tirof etilgan. Til va nutq umumiylik – xususiylik, imkoniyat – voqelik, mohiyat – hodisa qarama-qarshiligini o'zida namoyon etib, bir-biriga zidlanadi, bunday zidlanish har bir til sathlariga xos birliklarning nomlanishida ham o'z ifodasini topadi. Tilning fonologik (fonetik) sathi birligi fonema bo'lsa, fonemaning real talaffuz qilingan, quloq bilan eshitilgan ko'rinishi *fon (allofon)* yoki *tovush* hisoblanadi.

Til va nutqning o'ziga xos jihatlari quyidagilar:

1. Til – munosabat asosi; nutq munosabat ifodasidir. Til – ijtimoiy, umumiy, nutq – xususiy hodisa. Tilning imkoniyatlari nutqda ifodalanadi. Nutq so'zlovchining saviyasiga, uslubiga, o'rin va mavqeyiga qarab har xil bo'ladi. Nutq ikki shaklda bo'ladi: og'zaki va yozma. Og'zaki nutq o'zaro muloqot shaklidir, undan o'zaro suhbatlarda, ma'ruzalarda, radioda, telefonda, uy-oila muomalasida foydalaniladi. Har ikki nutq shakli oldiga bir xil talablar qo'yiladi. Fikrning aniq va tu-

**shunarli bo'lishi, jumlaning to'g'ri, ravon hamda ta'sirli tuzilishi har qanday nutqning bosh fazilatidir. Aniqlik, to'g'rilik, ravonlik, soddalik, tozalik, joziba (ta'sirli so'zlash) nutqning eng muhim belgilaridir.**

2. Til jamiyatda shakllangan; nutq esa har bir shaxs faoliyatida namoyon bo'ladi.

3. Tilning mavjudlik davri uzoq, ijtimoiy hayot bilan bog'liq; nutqning mavjudlik davri qisqa, u aytilgan paytdagina mavjud.

4. Bir shaxs ayni zamonda bir necha tilga ega bo'la oladi; shaxsning nutqi esa faqat bitta bo'ladi, negaki nutq ma'lum vaqtda, aniq makonda reallashadi.

5. Tilning hajmi noaniq, chegaralanmagan, xizmat doirasi juda keng; nutqning hajmi aniq: u dialog, monolog, matn ko'rinishida bo'ladi.

6. Til nisbatan qat'iy, turg'un hodisa; nutq o'zgaruvchan harakatdagi hodisadir. Tilning qonun-qoidalari uzoq yillar davomida saqlanib qoladi, silliqlashadi va boyib boradi. Nutq esa doim o'zgarishda bo'ladi; vaziyatga yoki nutq a'zolari artikulyatsiyasiga qarab so'z strukturasini o'zgaradi. Tilning fonetik, leksik, grammatik sathlarida o'zgarishlar uzoq tarixiy bosqichlar davomida kuzatiladi.

Nutq mexanizmi, nutq jarayoni va so'zlash faoliyati, nutqni ifoda etish, nutqni tushunishni psixolingvistika o'rganadi. Psixolingvistika boshqa sohalar qatorida nutqni til bilan uzviylikda talqin etadi.

Til ma'lum miqdordagi nutq tovushlarining turli kombinatsiyasi bilan kishilar bir-birlariga bildiradigan so'zlar, grammatik vositalar va ulardan foydalanish qoidalaridan tashkil topgan, degan fikr XIX asrning birinchi yarmidayoq qiyosiy grammatikachilar tomonidan ilgari surildi. Hozir ham tilni shu xilda tasavvur qiladilar.

Ma'lumki, til o'ziga xos strukturaga ega bo'lgan tizimdir. Til bir-birining mavjudligini talab qiladigan, bir-biridan ajralmas ikki elementdan tashkil topgan. Bular: A. Leksika, yani lug'at tarkibi. B. Grammatika. Ularning har biri nutq tovushlaridan iborat bo'lgan materiyaga ega.

“Nutqning jamiyatdagi ko'rinishlari turlichadir. Regional variatsiya. Quyida britaniya televizion kanali orqali efirga uzatilgan dialogni keltiramiz:

Bir kishi benzin quyish shaxobchasiga kirdi.

Xizmat ko'rsatuvchi: – Bizda o'z-o'ziga xizmat.

Xaridor: – Rahmat, menga benzin (petrol) kerak emas.

Xizmat ko'rsatuvchi: – Juda soz! Bizda undan qolmagan, faqat benzin (gas) bor.

Ushbu kichik suhbat qiziq tuyulyaptimi? Chunki, ularning har ikkisi ham bir narsani – benzinni nazarda tutdilar. Britaniyalik ingliz xaridor “benzin” tushunchasini *petrol* so'zi bilan ifodalasa, amerikalik xizmat ko'rsatuvchi *gas* so'zi bilan ifodalagan. Shunga o' xshash misollarni keltiramiz:

Britaniyaliklar shim (trousers) kiyadilar, xonadon (flat)da yashaydilar, do'konlarga (shops) shirinliklar (sweets) xarid qilishga boradilar.

Amerikaliklar esa shim (pants) kiyadilar, xonadonda (apartments) yashaydilar, do'konlarga (stores) shirinliklar (candies) xarid qilishga boradilar.

Mamlakatlarning joylashuviga ko'ra, inglizlar o'z ona tillarida gaplashadilar.

Britaniyadagi ingliz tili (ingliz, irland, shotland) tillari Amerika, Kanada, Avstraliya ingliz tilidan farqlanadi, biroq bularning o'z ichida ham ko'plab lahjalar mavjud. Bir qancha mamlakatlar, jumladan, ingliz koloniyalari borib qolgan davlatlarda, masalan, Hindiston yoki Gongkon (Osiyo) va Nigeriya yoki Keniya (Afrika)da ingliz tili rasman ikkinchi til hisoblanib, mahalliy aholi o'z ona tili bilan birgalikda bu tildan ham foydalanadi. Ushbu variatsiyalar fonetik-fonologik, leksik, leksikografik, grammatik jihatlariga ko'ra bir-biridan farqlanadi<sup>38</sup>.

Britaniyada eng mashhur ingliz taomlaridan biri – baliq va qovurilgan kartoshka (fish and chips). Biroq qovurilgan kartoshka (chips) Amerika restoranlaridagidek tayyerlanmaydi. Qovurilgan kartoshkaning xohlagan turidan foydalanish mumkin. Amerikada ushbu taom fransuzcha qovurdoq (French fries) deb nomlanadi. Unda foydalaniladigan kartoshka juda nozik va yumaloq qilib kesiladi va qarsildoq qilib qovuriladi. Bunday qovurilgan kartoshka Britaniyada qarsildoq kartoshka (crisps) deb nomlanadi. Qovurilgan kartoshkaning *chips*, *French fries* va *crisps* variantlari leksik farqlanishlarga misol bo'ladi.

Amerika hamda Britaniyadagi ingliz tilining bir-biridan farqlanishi, deyarli, barcha sathda kuzatiladi. Masalan, Britaniya ingliz tilida

<sup>38</sup> Richter B. First steps in theoretical and applied linguistics. -Budapest, 2006. -B.99

*the police* ko'plikni anglatrsa, Amerika ingliz tilida esa *the police* birlikni ifodalaydi. "Shifoxona" ma'nosidagi so'z Britaniya ingliz tilida predlogsiz ishlatilsa (*in hospital*), Amerika ingliz tilida aniq artikl bilan ishlatiladi (*in the hospital*).

Fonologik farqlar ham kuzatiladi. Masalan, Britaniya ingliz tilida *r* tovushi nilidan so'ng (*father, fair*), qolaversa, undoshlardan oldin kelganda (*herb, Barbie*) talaffuz etilmaydi, Amerika ingliz tilida esa bu tovush aniq talaffuz etiladi.

Orfografik hamda orfoepik farqlar ham kuzatiladi. Masalan, Britaniya ingliz tilida *neighbour* bo'lsa, Amerika ingliz tilida *neighbor* tarzida qo'llanadi. Ushbu farqli jihatlar Britaniya, Irland, Amerika ingliz tillarining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Ingliz tilining hududiy variantlari yagona ingliz tilini tashkil qiladi.

Leksik, grammatik, fonologik farqlar bir davlatda yoki hududda ham bo'ladi. Hududiy variantlar yoki shevalar asosiy birlik bo'lib, shevalar dialektologiyada o'rganiladi.

Talaffuzda *father and farther* so'zlari bir-biridan farqlanadi. Ko'plab ingliz tili o'rganuvchilari *r* tovushini talaffuz qiladilar, biroq inglizlar bu so'zning talaffuzida *r* tovushini talaffuz qilmaydilar, chunki ushbu tovush qisqa talaffuz etiladi. Aksincha, amerikaliklar *farther* so'zi tarkibidagi *r* tovushini talaffuz etadilar va nutqda shu tovushdan foydalanadilar. Ushbu holat regional variatsiyaning mavjudligini ko'rsatadi. *R* tovushi Janubiy Angliyada talaffuz etilmasa, shimoliy hududda, ya'ni Irlandiya va Shotlandiyada talaffuz qilinadi.

Xuddi shunday, Amerikaning ko'pgina shtatlarida *r* tovushi talaffuz qilinadi, biroq Boston va Nyu-Yorkda *r* tovushi talaffuz qilinmaydi.

Shevadagi farqlarni ifodalovchi so'zlarga quyidagilar misol bo'ladi: *heavy rain, downpour, shower* yoki *toad frog strangler* (ushbu so'zlarning barchasi "kuchli yomg'ir, jala" ma'nosini bildiradi) so'zlari Amerikaning o'rta va janubiy shtat qirg'oqlarida yashovchi aholi tilide uchraydi. Ba'zi shunday variantlar (xuddi so'nggi misoldagi kabi) janubiy hududlarda mavjud.

Grammatikada ko'plab qiziqarli farqlarni kuzatish mumkin. Masalan, irlandiyalik kishi "siz"ni ifodalash uchun *yous* (bir necha kishi bo'lsa) olmoshini qo'llaydi, aslida adabiy tilda ko'plik shaklida *you* ol-

moshidan foydalaniladi. Amerika janubida (masalan, Georgiya shtatida) y'all (you+all) qisqartmasidan foydalaniladi. Ingliz tili standartlarida you olmoshining birlik hamda ko'plik shakllari farqlanmaydi<sup>39</sup>.

Til ham, fikr ham hayotning ongimizdagi ko'rinishi va nutq yordamida boshqalarga ma'lum qilinuvchi voqelikdir. Tilni xalq yaratadi, shuning uchun u umumxalq bahosi va xususiyatiga ega bo'ladi; nutq esa ayrim shaxsga oid bo'ladi. Har kim o'z qobiliyati, so'z boyligi, savodiga qarab gap tuzadi. *Til* – aloqa-munosabat quroli, u vosita. *Nutq* esa shu aloqa jarayonini amalga oshirishga xizmat qiladi. Tilning umri uni yaratgan xalqning o'zidek uzoq bo'ladi. Nutqning umri esa qisqa. Og'izdan so'z yoki gap chiqdimi – uni qaytarib bo'lmaydi.

Tana, ta'm-maza, ko'rish, eshitish kabi sezgi a'zolari orqali olamni bilish barcha jonzotlarga xos xususiyatdir. Inson jonzotlarning eng oliy ko'rinishi sifatida yana bir vosita – nutq orqali bilish qobiliyatiga ega. Birinchi bilish vositalarini mashhur ruhshunos Pavlov *birinchi signal tizimi*, keyingisini esa *ikkinchi signal tizimi* deb nomlagan. Inson ikkinchi signal tizimiga egaligi bilan boshqa jonzotlardan ajralib turadi, shuning uchun ham hazrat Alisher Navoiy barcha maxluqotlarning zoti sharifi inson ekanligini ta'kidlaydi. So'zga (tilga) insonni hayvondan ajratib turuvchi belgi sifatida munosabatda bo'ladi:

*Insonni so'z ayladi judo hayvondin,*


*Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.*

So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi axborot uzatish va axborotni qabul qilish faoliyati *nutqiy faoliyat* sanaladi. Nutqiy faoliyat muayyan jamiyatning aloqa vositasi hisoblanuvchi til yordamida yuzaga chiqadi. Ana shuni e'tiborga olgan holda Ferdinand de Sossyur nutqiy faoliyatning til va nutq zidlanishi asosida amalga oshirishini ta'kidlaydi hamda tilshunoslikda til va nutq tushunchalarini farqlaydi. Nutq faollashgan, bevosita yuzaga chiqqan til sanaladi. Hali voqelanmagan imkoniyat tarzidagi, ma'lum jamiyat a'zolari uchun barobar xizmat qiluvchi ijtimoiy-ruhiy aloqa vositasi – til, shu tilning muayyan shaxs nutqiy faoliyatida bevosita namoyon bo'lishi, voqelanishi – nutqdir. Og'zaki nutq bevosita, yozma nutq bilvosita amalga oshiriladi.

<sup>39</sup> Richter B. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.100

## Savol va topshiriqlar

1. Til va nutq munosabatlari haqidagi fikringizni ayting.
2. Til birliklari va nutq birliklari o'rtasidagi munosabat masalasida o'z fikrlaringizni bayon eting.
3. Nutqning og'zaki va yozma ko'rinishlarini tavsiflang.
4. Til va nutq sifatlarini bayon eting.
5. Tilning umumiyligi, nutqning xususiyligi namoyon bo'ladigan jihatlar haqida ma'lumot bering.
6. Til – imkoniyat, nutq – voqelik ekanligini asoslang.
7. Tilning mohiyat, nutqning hodisa ekanligini misollar asosida tushuntiring.
8. Turli tillardagi nutqiy xususiyatlar haqida mulohazalaringizni bildiring.
9. Nutqni ifoda etish va qabul qilish jarayonini izohlang.
10. Til va nutqning farqlanishiga oid fikrlar haqida bilganlaringizni umumlashtiring. Quyidagi tasvir asosida nutq jarayonini tavsiflang.



## Asosiy tushunchalar glossariysi

**Morfema** (yun.) – tilning ma'noli, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan eng kichik birligi. Morfema ikki xil bo'ladi: 1) o'zak (so'z) morfema; 2) affiksial morfema (qo'shimcha morfema).



**Artikulyatsiya** – tovushlarning paydo bo‘lishidagi nutq a‘zolarining holati va harakati.

**Assimilyatsiya** – bir tovushning yonidagi tovushga moslashishi, singishi. Progressiv assimilyatsiya – oldingi tovushning ta‘sirida keyingi tovushning o‘zgarishi: *ottan (otdan), yurakka (yurakga)*. Regressiv assimilyatsiya: keyingi tovush ta‘sirida oldingi tovushning o‘zgarishi: *tussiz (tuzsiz), yossin (tozsин)*.

**Dissimilyatsiya** – ikki xil o‘xshash tovushdan birining boshqa tovushga almashishi. Progressiv dissimilyatsiya – oldingi tovushning ta‘sirida keyingi tovush o‘zgaradi: *zaral (zarar), biron (biror)*. Regressiv dissimilyatsiya – keyingi tovush ta‘sirida oldingi tovushning o‘zgarishi: *kolidor (koridor)*.

**Fonema** – ma‘no anglatishda ishtirok etgan nutqning eng kichik qismi (unsuri): *qil, qol, qo‘l*.

**Metateza** – yonma-yon kelgan tovushlarning o‘rin almashishi: *Sayram-Saryam, daryo-dayro, tuproq-turpoq*.

**Til birliklari** – til tizimini tashkil etuvchi fonema, morfema, leksema, model.

**Nutq birliklari** – til birliklarining nutqdagi ko‘rinishlari: tovush, bo‘g‘in, so‘z, gap, matn.

**Nutqiy vaziyat** – nutq jarayoni sodir bo‘lgan vaqt.

**Muloqot jarayoni** – nutq orqali o‘zaro fikr almashish.

### Test

1. Qaysi birlik nutqning eng katta fonetik birligi bo‘lib, ikki tomondan pauza bilan chegaralanib, o‘ziga xos ohangga ega bo‘ladi?

- A) ibora
- B) fonema
- S) fraza
- D) gap

2. Til birliklariga nimalar kiradi ?

- A) fonema, morfema, leksema, model
- B) bo‘g‘in, fon, leksema,
- S) matn, so‘z birikmasi, gap
- D) affiks, so‘z, gap

3. Nutq birliklariga nimalar kiradi ?

- A) fonema, morfema, leksema
- B) tovush, bo'g'in, affiks, morf, so'z birikmasi
- S) tovush, gap, so'z birikmasi
- D) fonema, morfema, leksema

4. Tilshunoslikning nutq mexanizmi, nutq jarayoni va so'zlash faoliyati, nutqni ifoda etish, nutqni tushunishni o'rganadigan bo'limi qaysi?

- A) fonetika-fonologiya
- B) psixolingvistika
- S) fonetika
- D) fonologiya

5. Nutqning hajmga nisbatan ko'rinishlarini belgilang.

- A) monologik, sinxronik
- B) monofonik, polifonik
- S) sinxronik, diaxronik
- D) monologik, dialogik

6. Frazga nima?

- A) nutqning eng katta fonetik birligi.
- B) nutqning eng kichik birligi.
- S) leksik atama
- D) morfologik birlik

7. Takt nimalardan tashkil topadi?

- A) tovushlardan.
- B) unlilardan.
- S) bo'g'inlardan
- D) gapdan

8. Tilning eng kichik ma'no anglatmaydigan birligi qanday nomlanadi?

- A) orpoepiya
- B) etimologiya

- S) leksikologiya
- D) fonema

9. Assimilyatsiya soʻzining maʼnosi?

- A) “oʻxshashlik”
- B) “moslashuv”
- S) “nooʻxshashlik”
- D) “metonimiya”

10. Assimilyatsiya, dissimilyatsiya, gaplologiya, diereza, metateza kabilar qanday oʻzgarishlarga misol boʻladi?

- A) kombinator
- V) pgressiv
- S) distant
- D) tarixiy

## 5-§. TIL – RAMZLAR TIZIMI

### Reja:

1. Til sathlarining tizim sifatidagi mohiyati.
2. Tilning belgilar tizimi.
3. Tilning fonetik-fonologik, grammatik sathlari. Tilning lugʻat sathi.

**Asosiy tushunchalar:** *til tizimi, til, lison, nutq, ramz, belgi, sana-ma belgilar, indeks belgilar, simvol belgilar, semiotika, fonologiya, til belgilari, lingvistik belgi, lingvistik belgi nazariyasi, fonema, kvazimonim, til sathlari, fonetik-fonologik sath, nutqning fonetik boʻlinishi, fraza, takt, bogʻin, tovush, urgʻu, fonema, fonologiya, tilning lugʻat sathi, grammatik sath, etimologiya, leksikografiya, semasiologiya, sinonim, antonim, omonim.*

Har qanday til fonetik tuzilish, grammatik qurilish va lugʻat tarkibidan tashkil topadi. Tilning ushbu tarkibiy qismlari muayyan qonuniyatlar asosida oʻzaro bogʻlanib, til tizimini hosil qiladi. Tilning rivojlanishi, ichki qurilishi, tilning murakkab tizim ekanligi I.A. Boduen de Kurtene, H.B. Krushevskiy, F.F. Fortunatov, V.A. Bogoroditskiy,

A.A.Potebnya, A.A. Shaxmatov, S.P. Obnorskiy, V.V. Vinogradov, A.-M.Peshkovskiy, L.V. Sherba kabi tilshunoslarning asarlarida yoritilgan. Ichki qurilishi jihatidan til ma'lum miqdordagi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan til birliklarining yig'indisi va ana shu birliklardan foydalanish qoidalaridan tashkil topgan murakkab tizimdir. Til – belgilar tizimidir. Belgining lisoniy tasnifi bir qator tadqiqotlarda keltirilgan.

“Til kishilar o'rtasidagi eng muhim aloqa qurolidir. U obyektiv borliqdagi ma'lum voqea-hodisa haqida axborot tashuvchi asosiy vositadir. Axborot uzatishning boshqa yo'llari ham bor. Masalan, yo'l harakatidan ma'lumot beruvchi vositalar, yo'ldan o'tish-o'tmaslik xabarini beruvchi belgilar va boshqalar. Bu jihatdan til ham axborot berish uchun xizmat qiladigan yuqoridagi vositalar sirasida turadi. Ularning hammasi uchun umumiy narsa, avvalo, o'zi haqida va shu bilan birga borliqdagi ma'lum narsa-hodisalar haqida ma'lumot berishdir. Bunday vositalar *belgilar* deb nomlanadi. Inson o'zini qurshab turgan olamni bilish jarayonida voqelikni obrazlar orqali ongida aks ettiradi va bu olam manzarasi belgi orqali ifodalanadi. Sotsial axborotning har qanday moddiy ifodalovchilari belgi hisoblanadi. Tilning belgilar tizimi ekanligi uning asosiy xususiyati va universal tomonidir”<sup>40</sup>.

Til inson hayotida muhim rol o'ynaydi. Til yordamida kishilar o'zaro fikr almashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, til murakkab, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan sifatlarni o'zida mujassamlantirgan hodisadir. Tilning tabiati, mohiyati, kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasi kabi muhim masalalar ilmiy asosda o'rganishni talab qiladi.

“XIX asrdagi belgilar tizimiga bag'ishlangan falsafiy izlanishlar orasida Ch.S.Pirs asari alohida ajralib turadi. Semiotikaning asoschisi sanaluvchi Ch. Morrisning Ch.S.Pirs qarashlariga tayanishi ham bejiz emas. Garchi F. de Sossyurning «Umumiy lingvistik kurs» asarida Ch.S.Pirs asarlariga ishora sezilmasa ham, bu ikki olimning belgilar haqidagi qarashlarida bir-biriga o'xshashlik bor. Shuning uchun ham R.O.Yakobson «Ikki olimning (Sossyur va Pirsning –A.N.) belgilar tizimini o'rganishdagi harakatida qandaydir genetik aloqa bormi yoki fikriy muvofiqlikni uchratamizmi, degan masalani hal qilish juda qiziqarli bo'lar edi»,– degan edi.

<sup>40</sup>Nurmonov A. Lingvistik belgi nazariyasi.-T.:Fan, 2008.-B.4.

Ch.Pirs belgilarni birinchi marotaba tasnif qiladi. U belgilarni tasnif qilishda belgining moddiy tomoni bo'lgan ifodalovchi bilan ma'no tomoni bo'lgan ifodalanuvchi o'rtasidagi farqlanishga asoslanadi. Ana shu belgi asosida Ch.Pirs belgilarni uch katta guruhga ajratadi:

1. **Sanama belgilar.** Bunday belgilarda ifodalovchi ma'lum darajada ifodalanuvchi bilan o'xshashlikka ega bo'ladi: masalan, hayvonlarning tasvir belgisi sifatida aks ettirilishi.

2. **Indeks belgilar.** Bunday belgilarda ifodalovchi ifodalanuvchi bilan sabab-natija yoki boshqa munosabat (yaqinlik, makon va zamondagi bog'liqlik va boshqalar) orqali bog'lanadi. Masalan, tutun olovning indeks belgisi sanaladi.

3. **Simvol belgilar.** Bunday belgilarda ifodalovchi bilan ifodalanuvchi o'rtasida shartli, konvensional, motivlanmagan munosabat mavjud bo'ladi. Bu munosabat erkin va ma'lum qoida asosida vujudga keladi. Ana shu jihatdan lingvistik belgilar simvol belgilarga o'xshaydi. Lekin belgilar tipologiyasida alohida o'rin egallaydi"<sup>41</sup>.

Tilshunoslik fani tarixida tilning tabiati, ijtimoiy mohiyati kabi eng muhim masalalarni o'rganishda turli nazariyalar va oqimlar mavjud bo'lgan. A.Shleyxer tilning biologik tabiati to'g'risida, G.Paul til faqat individga xos hodisaligi haqida, Vundt xalq psixologiyasi bilan til o'rtasidagi munosabat to'g'risida ilmiy tadqiqot olib borishgan.

Til belgilari uni aloqaning boshqa vositalaridan farqlash, tilni ijtimoiy hodisa sifatida xarakterlash imkonini beradi. Umuman, til kishilik aloqa-munosabatining eng muhim vositasi sifatida jamiyat, madaniyat, turmush tarzi va mehnat faoliyati davomidagi bilimlarni ifoda etib kelmoqda. Tilning jamiyatdagi bu vazifasini, uning jamiyat, kishi ongi va fikrlash qobiliyati bilan aloqasini aniqlamay turib, til tizimi, uning birliklari va kategoriyalarini chuqur anglab bo'lmaydi. Kishilar o'zaro aloqa-munosabatda bo'lib, istaklarini, sezgi va ruhiy kechinmalarini ifoda qilib, bir-birlariga ta'sir qiladilar, bir-birlarini tushunadilar. Tilning jamiyatda aloqa quroli vazifasini bajarishi uning kommunikativ funksiyasidir. Bundan tashqari til ekspressiv va akkumulyativ funksiya bajaradi. Ekspressiv funksiya hissiyotni, modallikni ifoda etishda namoyon bo'lsa, akkumulyativ funksiya xalq tarixi, madaniyati, dunyoqarashi haqidagi muhim ma'lumotlarni to'plashida o'z aksini topadi.

<sup>41</sup>Нурмонов А. Лингвистик белги назарияси.-Т.:Фан, 2008.-Б.4-5.

“XIX asr oxiriga qadar belgi nazariyasi bilan asosan faylasuflar shug‘ullandilar. Faqat XIX asr oxiridan boshlab bu masala ruhshunoslarning ham diqqatini jalb qila boshladi. Belgi haqidagi falsafiy nazariya o‘zining uzoq tarixiga ega.

Belgi nazariyasining vujudga kelishida qadimgi Gretsiyada epikuriyalar va stoiklarning xizmati katta bo‘ldi. Bu ikki falsafiy maktab vakillari, garchi turli maqsadlarni o‘z oldiga qo‘ygan bo‘lsalar ham, bevosita kuzatishda berilgan hodisalar bilan sezgi a‘zolari yordamida his qilish mumkin bo‘lgan mohiyatlar o‘rtasidagi assotsiativ aloqani o‘rganishga asosiy e‘tiborni qaratishda umumiylikka ega bo‘ldilar. Masalan, badan harakati ruh belgisi sifatida, yuzning qizarishi uyalish belgisi, tana titrog‘i kasallik belgisi sifatida qaraladi. Shunday qilib, greklarning belgi nazariyasi semeiotike (sema “belgi”, semiotikos “belgini kuzatish”) nomi bilan tarqaldi.

XVIII asr oxirlarida ingliz olimi Dj. Lokk greklar tomonidan ko‘proq meditsinaga nisbatan qo‘llangan “semeiotika” atamasini ingliz falsafasiga olib kirdi va ilmiy triada deb hisoblangan mantiq, fizika va etika doirasida qo‘lladi. Uning fikricha, semeiotikaning maqsadi narsalarni tushunishga, bu narsalar haqida hosil bo‘lgan bilimni boshqalarga uzatishga xizmat qiladigan belgilar tabiatini o‘rganishdan iboratdir.

Faylasuflar ta‘sirida XIX asrdan boshlab tilning umumiy nazariyasiga bag‘ishlangan, deyarli, barcha lingvistik asarlarda so‘z ikki tomonlama xarakterga ega bo‘lgan belgi sifatida talqin qilina boshladi. V.Gumboldt, Shleyxer, Shteyntal, L.Breal, A.Meye, F.Fortunatov, I.A.Boduen de Kurtene, N.Krushevskiy asarlarida so‘zga belgi nuqtayi nazaridan yondashiladi. F.de Sossyur tilning belgili tabiatini aniq-ravshan yoritib berdi. Hatto belgi nazariyasi bilan shug‘ullanuvchi alohida fan *semiologiya* fani mavjud bo‘lishini va lingvistika ham semiologiya tarkibiga kirishi lozimligini ta‘kidladi”<sup>42</sup>.

Tilshunoslik fanining asosiy muammolaridan biri tilning ichki qurilishini o‘rganishdir. Til, avvalo, belgilar tizimidir.

“Bir tomondan, strukturalizmning muvaffaqiyati, ikkinchi tomondan, semeiotika fanining rivojlanishi tufayli, 50-yillardan boshlab belgi muammosiga qiziqish yanada ortdi. Lingvistik muammolarni semeiotik

<sup>42</sup>Nurmonov A. Lingvistik belgi nazariyasi.-T.:Fan, 2008.-B.4-5.

aspektda o'rganish lingvistikaning o'zgarishiga olib keldi. U ham "inson bilimlari tizimida markaziy o'rin tutuvchi fanga aylandi".

Hozirgi kunda belgining turli aspektlarini hisobga oluvchi turli ta'riflari mavjud. Uning hamma qirralarini hisobga olgan holda, Y.S.Maslov shunday ta'rif beradi: "Belgi – bu idrok qilinadigan narsa bo'lib, idrok qiluvchi-ga o'zi haqida va ushbu belgidan tashqarida bo'lgan boshqa narsa haqida ma'lumot beruvchi vositadir".

Belgini aniqlashda, odatda, uning ikki xususiyati ko'rsatiladi: Belgining birinchi xususiyati idrok qilinishidir. Demak, belgi idrok qilinishi uchun ma'lum moddiy asosga ega bo'lishi kerak. Belgining moddiy asosi turlicha bo'lishi mumkin; tovush (akustik), ko'rish (optik), maza (gustator) va boshqalar.

Belgining ikkinchi xususiyati o'zi haqida va boshqa obyekt haqida ma'lumot berishdir. Anglashiladiki, har qanday belgida o'zaro ma'lum munosabatda bo'lgan ikki obyekt mavjud bo'ladi. Obyektlar o'rtasidagi munosabat ikki xil: sabab-natijali munosabat va shartli munosabat. Sabab-natijali munosabatda o'zaro munosabatda bo'lgan obyektlar motivlangan, shartli munosabatda esa motivlanmagan bo'ladi. Demak, belgilar obyektiv reallikdagi o'zi aks ettirgan obyektga munosabatiga ko'ra motivlangan va motivlanmagan belgilarga bo'linadi. Masalan, tutunni ko'rib, yong'in yoki olov haqida, o'rik gullaganini ko'rib, bahor fasli haqida, suv jimirlaganini ko'rib, baliq haqida, tosh so'zini eshitib, qattiq jism haqida tasavvurga ega bo'lamiz. Birinchi obyektlar (tugun, o'rik guli, suv jimirlashi, tosh so'zi), ikkinchi obyektlar (olov yoki yong'in, bahor, baliq, qattiq jism) haqida axborot berish uchun xizmat qilyapti. Bulardan dastlabki uch obyekt o'rtasida (tutun va olov, o'rik guli va bahor, suv jimirlashi va baliq) tabiiy bog'lanish, sabab-natija munosabati, ya'ni obyektlar aloqasida motivlanish (motivatsiya) bor. Oxirgi obyektlar (*tosh so'zi va qattiq jism*) munosabatida esa tabiiy bog'lanish, sabab-natija munosabati (motivatsiya) yo'q. Ular o'rtasidagi munosabat shartli.

Mashhur Amerika olimi K. fon Frishning ma'lumotiga ko'ra, asalarilar o'yini ham belgi vazifasini bajaradi. Asalari o'yinining shakli va chastotasi ozuqa manbaining masofasi va yo'nalishi haqida ma'lumot beradi. Doira shaklidagi o'yini ozuqa manbaining asalari uyasidan uzoq emasligini, yuz metr atrofida ekanligini, sakkiz shaklidagi o'yini esa birdaniga ikki axborot – ozuqa manbaining masofasi yuz metrdan ancha ortiqligi va

yo'nalishini bildiradi. Masofa ma'lum vaqt ichida bajarilgan o'yin shaklining miqdoriga bog'liq. Masofa uzunligi asalari o'yini chastotasiga teskari proporsionaldir. To'qqiz-o'nta sakkizlik bo'lsa yuz metr atrofidagi masofani, yettita sakkizlik shakli 200 metr masofani, to'rt yarim sakkizlik shakli bir kilometr masofani, ikki sakkizlik shakli esa olti kilometr masofani ko'rsatadi. Masofa qancha uzoq bo'lsa, o'yin shuncha sekin bo'ladi. Yo'nalish esa «sakkizlik» o'qining nisbatiga ko'ra belgilanadi. Quyoshga nisbatan «sakkizlik» o'qining o'ngga yoki chapga burilish burchagi yo'nalish tomonini aniq ko'rsatadi.

Asalari o'yinining shakli va chastotasi bilan ular ifodalagan axborot o'rtasida ham shartli, motivlanmagan munosabat bor. Shuni ham ta'kidlash lozimki, biri ikkinchisi bilan almashinib keladigan har qanday ikki obyektning biri belgi bo'la bermaydi. Faqat biri o'rnida ikkinchisi muttasil almashinadigan va bu almashinuv (eng muhim) inson ongida aks etgandagina belgilashadi. Masalan, tutun olovning belgisidir. Ammo uning belgiligi obyektlar o'rtasidagi tabiiy sabab-natija (sabab-olov, natija-tutun) munosabati emas, balki bu munosabatning inson ongida aks etganligi, konvensionalligi uchundir. Aks holda tabiatdagi har qanday sabab-natija munosabatida bo'lgan obyektlar o'zlariga tabiiy ravishda belgi yaratib olar edi.

Sabab-natija munosabatli (motivlangan) belgilar obyektlar o'rtasidagi munosabatning inson ongida aks etishidan vujudga keladi. Shartli munosabatli (motivlanmagan) belgilarda esa obyektlar o'rtasidagi munosabat inson tomonidan hosil qilinadi. Ana shu subyektiv hosil qilingan aloqa belgi mazmuni (konsept yoki signifikat) hisoblanadi. Belgi orqali ifodalangan obyekt esa *denotat* yoki *referent* terminlari bilan nomlanadi".<sup>43</sup>

"Tilshunoslikda tilni belgilar tizimi sifatida talqin qiluvchi ikki xil yondashuv bor. Birinchi yondashuv tarafdorlari tilning belgilar tizimi ekanligini umuman rad etadilar. Bu nazariya idealistik nazariya sifatida baholanaadi. Xususan, L.O.Reznikovning dastlabki asarlarida bu nuqtayi nazar yorqin aks etadi. Uning fikricha, tilshunoslikda agnostitsizm birinchi navbatda, tilning belgilar tizimi ekanligi haqidagi nazariyada ifodalanaadi. In'ikos nazariyasiga asoslangan dialektik materialistik ta'limot agnostitsizmning bu ko'rinishini keskin tanqid qilish lozimligini ta'kidlaydi.

<sup>43</sup>Nurmonov A. Lingvistik belgi nazariyasi.-T.:Fan, 2008.-B.4-5.



R. A. Budagov ham lingvistik belgi haqidagi nazariyani inkor etadi. U har qanday milliy til ma'lum ifodalar tizimigina emas, balki bu tilda muloqot qiluvchilarning barcha faoliyatini o'ziga xos aks ettirish natijasi hamdir, deydi. Uning ta'kidlashicha, tilning belgili tabiati konsepsiyasi milliy tillar tabiatini va shu bilan birga lingvistikani ham nihoyatda kambag'allashtiradi.

Lingvistik belgi nazariyasini inkor etuvchilarning hammasi lingvistik belgi tabiati haqidagi bir yo'nalish monoletaristik (belgining bir yoqlamaliligi) yo'nalishga nisbatan fikr yuritadilar. Belgini faqat shakldan iborat, degan fikrga asoslanadilar.

B.A.Serebrennikov to'g'ri ta'kidlaganidek, lingvistik belgi nazariyasini umuman rad etuvchi olimlar ikki narsani kommunikatsiya vositasi sifatidagi lingvistik belgi tabiati va belgi – ma'no – narsa (hodisa) munosabati muammolarini aralashtiradilar.

Davrlar o'tishi bilan tilning belgilar tizimi ekanligi haqidagi nazariya asta-sekin e'tirof etila boshladi. Lekin lingvistik belgi tuzilishi masalasida ikki xil oqim vujudga keldi. Til belgilar tizimi sifatida e'tirof etila boshladi.

Birinchii oqim tarafdorlari lingvistik belgi tuzilishiga faqat ifodalovchini kiritadilar. Xususan, Y.M.Galkina-Fedorukning fikricha, tovush kompleksi obyektiv borliqdagi ma'lum predmet haqidagi umumxalq tushunchasining ifodalovchisidir. Shuning uchun ham so'z orqali ifodalangan tushunchani emas, balki faqat so'zning tovush kompleksinigana belgi deyish mumkin. So'zning «ma'nosi»da ham «belgi»ni ko'rishning har qanday imkoniyatini mutlaqo yo'qotish kerak. So'z o'zining tovush sostavi bilan borliqdagi hodisalarning ongdagi in'ikosi bo'lgan tushunchalarni ifodalaydi, shu bilan birga, tushunchalarni shakllantirib nomlaydi. Demak, so'z predmetlar kopiyasi ham emas, ularning belgisi ham emas".

Ilgari lingvistik belgini mutlaqo inkor etgan L.O.Reznikov ham keyingi asarlarida bu nazariyani e'tirof eta boshladi va faqat tovush kompleksinigana lingvistik belgi deb hisobladi. U so'zning tovush tomoni moddiy xarakterga ega bo'lib, predmetga nisbatan belgi vazifasini bajaradi, deydi. Uning ta'kidlashicha, ma'no predmetni bevosita emas, balki bilvosita tovush tomoni orqali aks etiradi, chunki borliqning umumlashgan ichki mazmuni faqat ikkinchi signal tizimi orqali, ya'ni umumlashgan ma'noga ega bo'lgan

tovushlar kompleksini talaffuz etish va qabul qilish jarayonida vujudga keladigan maxsus fiziologik aloqalar tizimi orqali amalga oshirilishi mumkin<sup>13</sup>.

Bu konsepsiyaning faol tarafdorlaridan biri V.Z.Panfilovdir. U bir butun til birligini emas, balki faqat uning material tomonini belgi deb hisoblash kerakligini, til belgisi ikki tomonli emas, balki bir tomonli mohiyat ekanligini ko'rsatadi.

Belgining bir tomonlama ekanligini polyak tilshunosi L. Zavadovskiy quyidagicha ta'riflaydi: «Belgining ikki tomonlama tabiati tarafdorlari tayangan asos to'g'ri. Belgi, darhaqiqat, shuning uchun belgiki, u ma'noga ega. Lekin bundan belgi ikki elementdan tashkil topgan bir butunlik, kombinatsiya degan xulosaga kelmaslik kerak. Axir bog' egasini *kishi* + *bog'* tarzida, ikki tomonlama mohiyat sifatida talqin etish kerakmi?».

V.M. Solnsev ham belgining bir tomonlama ekanligini ma'qullaydi. U to'g'ri ta'kidlagani kabi, ma'noni belgi tarkibiga kiritish yoki kiritmaslik, boshqacha aytganda, belgining bir yoqlama yoki ikki yoqlama mohiyat ekanligini tan olish ko'p jihatdan ma'no tabiatini turlicha tushunishga bog'liq. Hozirgi kunda ma'noni ikki xil tushunish mavjud:

1) munosabat turi sifatida (a) belgining ifodalanuvchi predmetiga munosabati, (b) tushunchaga munosabati va 2) ideal aks ettirish sifatida. Birinchi qarash bo'yicha belgiga ikki tomonlama mohiyat sifatida yondashishga asos bor. Ikkinchi qarash bo'yicha esa yo'q. Shuning uchun ham belgining ikki tomonli ekanligini himoya qiluvchilar belgi haqidagi ikkinchi qarashni tanqid qiladilar.

Ma'noni tushuncha bilan bir xil holda in'ikos kategoriyasi sifatida, ayni paytda, ong fakti sifatida tan olish uni belgi tarkibiga kiritishga monelik qiladi va belgini bir tomonlama mohiyat deb qarashga asos bo'ladi.

Ma'no ong fakti sifatida «ideal narsa» (harakat, belgi, miqdor va boshqalar), «aqliy predmetdir».

Ma'no «aqliy predmet» sifatida xuddi tushuncha kabi turlicha bo'lishi mumkin: a) tashqi olamning (turli darajadagi aniqlik va adekvatlik bilan aks etgan) nusxasi. Masalan, «daraxt» ma'nosi ongda konkret predmetlar sinfining, «yurmoq» ma'nosi real harakatlar sinfining aks etishidir; b) tashqi olamni buzilgan holda aks ettirish yoki ijodiy fantaziya natijasi: dev, suv parisi va boshqalar.

Ma'noning birinchi tipida *d-a-r-a-x-t* tovush qatori har qanday real predmetni aks ettirish uchun qo'llanilishi mumkin. Bu holda belgi, ya'ni *d-a-r-*

*a-x-t* tovush qatori o'zidan tashqaridagi ma'lum narsa haqida ma'lumot beradi.

Belgiga ikki tomonlama mohiyat sifatida yondashuvchilar, odatda, «daraxt» ma'nosiga ega bo'lgan belgi real borliqdagi predmetni ifodalash uchun xizmat qiladi, deydilar.

V.M. Solnsev talqiniga ko'ra esa *d-a-r-a-x-t* tovush qatori, ya'ni belgi, eng avvalo, ma'noga, aqliy predmetga, «umuman daraxt»ga ishora qiladi, shuning uchun u har qanday konkret «daraxt» bilan muvofiq kelishi mumkin. «Aqliy predmet», «aqliy harakat», ya'ni umumlashmalar ortida real predmetlar, harakatlar turadi va bu umumlashmalar har qanday holda belgi bilan ifodalanishi mumkin.

Ikkinchi tipdagi manoda esa (dev, suv parisi) real predmetlar bo'lmaganligi uchun belgi (tovush qatori) fantaziya mahsuloti sifatida faqat ongda mavjud bo'lgan «aqliy predmet»largagina ishora qiladi. Uning fikricha, belgi ishora qilgan narsa belgi tarkibiga kirmasligi kerak. Ma'no ong fakti, miya vazifasi sifatida faqat kishilar ongida mavjud bo'ladi. Belgi esa moddiy predmet sifatida insondan tashqarida yashaydi. Ma'no belgidan ajralmasdir. Lekin ayni paytda, u to'g'ri icha belgiga teng emas.

Belgining ikki tomonlamaliligi konsepsiyasida ma'no belgining ifodalanayotgan predmetga munosabati sifatida talqin qilinadi. Belgining bir tomonlamaliligi konsepsiyasida esa ma'noga munosabat sifatida yondashuvning to'g'ri emasligi ta'kidlanadi.

V.M.Solnsev fikricha, ifoda va ma'no birligi til birligini hosil qiladi. Masalan, so'z, morfema. Uning ta'kidlashiga ko'ra, til birligi haqida gap ketganda, albatta, uning tarkibiga ma'noni qo'shish kerak. Til birligining ma'nosida shu tilda so'zlashuvchi xalqning tajribasi aks etgan. Til birligi bir butunlik sifatida o'zining ma'nosi orqali tashqi olam bilan bog'lanadi. Til birligi bir butunlik sifatida belgi emas. U belgi va ma'nodan tashkil topgan.

Ayrim olimlar ong elementlarini ham belgi hisoblash tarafdorlaridir. Hozirgi kunda bunday qarash A.A.Ufimseva, N.D.Arutyunovalar tomonidan olg'a surilmoqda. Xususan, A.A.Ufimseva borliqdagi predmet va hodisalarning ideal aks etishi belgilar dunyosini vujudga keltiradi<sup>17</sup>, deydi.

N.D.Arutyunova esa til ikki belgilar tizimidan iborat, degan xulosa-ga keladi. Biri tovush belgilaridan iborat bo'lib, tushunchani ifodalay-

di, ikkinchisi esa borliqdagi predmet, hodisalarni aks ettiruvchi tushunchalardan tashkil topadi<sup>18</sup>.

Ikkinchi oqim vakillari esa belgining ikki tomonlama mohiyatidan kelib chiqib, uni ifodalovchi va ifodalanuvchi birligidan tashkil topgan, deydilar (Kasseri, Rassel, Sossyur, Vandries, Sepir, Yelmslev, Blumfeld, Vigotskiy, Serebrennikov va boshqalar).

F.de Sossyur "Umumiy lingvistika kursi" asarida belgini ifodalovchi (akustik obraz) va ifodalanuvchi (tushuncha) birligi sifatida talqin etadi. Uning fikricha, lingvistik belgi narsa va uning nomi birligidan emas, tushuncha va akustik obraz o'rtasidagi munosabat birligidan iborat. Akustik obraz sof moddiy hodisa emas, balki tovushlarning psixik zuhuri hisoblanadi. Shuning uchun belgi ikki tomonlama psixik mohiyat hisoblanadi. Bu bilan u lingvistik belgining abstrakt mohiyat ekanligiga ishora qiladi. Fanda bu oqim "bilateralistik oqim" nomi bilan mashhur bo'ldi. B.A.Serebrennikovning fikricha, belgining ikki tomonlamaligi konsepsiyasi haqiqatni to'g'riroq aks ettiradi. Chunki ma'nodan tashqari belgining bo'lishi mumkin emas. Tovush qobig'ini ma'nodan ajratish katta ilmiy xatodir.

Lingvistik belgi va uning turlari, o'ziga xos xususiyatlari: belgining erkinligi va ketma-ketligi, diskretlik xususiyati; o'zgarmaslik va o'zgaruvchanlik jihatlari xususida, shuningdek, uning strukturasi haqidagi nazariy qarashlar o'zbek tili materiallari asosida yoritilgan<sup>44</sup>.

Belgining monolateraliligini yoqlovchilar ma'noni borliqning aks etishi, belgi orqali ifoda qilingan obyektiv fakt deb izohdaydilar. Shu bilan birga, borliqning in'ikosi bo'lgan tushuncha ham mavjud. U holda in'ikos etishning bu ikki turi o'rtasida, ya'ni ma'no va tushuncha o'rtasida qanday farq bor? Y.M. Galkina-Fedoruk tushunchaning mantiq kategoriyasi, ma'noni esa lingvistik kategoriya ekanligini ta'kidlaydi. Lekin B.A.Serebrennikov ko'rsatganidek, bu ikki hodisaning yuqoridagi kabi farqlanishi nutqda bir vaqtning o'zida ikki xil aks ettirish mavjud ekanligini tushuntirib berolmaydi. Y.M.Galkina-Fedoruk tomonidan so'zning leksik ma'nosi so'zlashuvchi kollektiv tomonidan borliqning u yoki bu hodisasi bilan bog'lanishi sifatda talqin qilinadi.

<sup>44</sup> Нурмонов А. Лингвистик белги назарияси. Танланган асарлар. 1-жилд. –Т.: Akademi-nashr. 2012. -Б. 86-105.

Darhaqiqat, tushuncha va ma'no o'rtasida katta farq bor. Predmetning in'ikosi inson ongida tabiiy ravishda ro'y beradi. Predmet belgilarining umumlashmasi sifatida predmet o't razi gavdalanadi.

Tovush kompleksi va reallikdagi predmet o'rtasida dastlab hech qanday aloqa mavjud bo'lmaydi. Bu yerda "aks ettirish" deb nomlanishi mumkin bo'lgan hodisa yo'q. Tovush kompleksi bilan predmet o'rtasidagi aloqa inson tomonidan o'rnatiladi.

Tovush kompleksi bilan predmet o'rtasidagi bunday shartli munosabat bo'lganda tovush kompleksi ko'rsatish, ishora qilish vazifasini bajaradi. Ma'no tushunchadan farqli ravishda doimo hosil qilinadi, tabiiy asosda kelib chiqadi.

B.A.Serebrennikov ma'no va tushunchani bir-biridan farqlagan holda, ma'noning in'ikosi kategoriyasi ekanligini inkor qiladi. Uning ta'kidlashicha, shartli va sun'iy ravishda tiklangan aloqaga hech qachon aks ettirish sifatida qarash mumkin emas. Aslida ma'no bu – tovush kompleksining tushuncha bilan inson tomonidan o'rnatilgan shartli aloqasi. P.V.Chesnokov ham ma'no munosabatda mavjud emas, faqat shu munosabatda hosil qilinishini ta'kidlaydi.

I.P.Susov fikriga ko'ra, ifodalanuvchining tildagi qarama-qarshi a'zosi bir butun belgining barcha tomoni emas, balki uning faqat bir tomoni substansial tomoni sanaladi. Belgining bu tomoni uning ifodalanuvchisidir. Demak, ifodalanuvchi belgining faqat bir tomoni, substansial, tomonini tashkil etadi. Belgining boshqa tomoni ma'no hisoblanadi. Ma'no til ifodasining tildan tashqaridagi ifodalanuvchiga munosabatini ko'rsatadi. Bunga muvofiq, ma'no til substansiyasiga funksional qo'shimcha sifatida ishtirok etadi, substansiyaga hayot bag'ishlaydi, belgining substansial va funksional tomonlarini bir butunlik sifatida shakllantiradi.

A.A.Ufimseva lingvistik belgi ma'nosini aniqlashning murakkab ekanligini, lingvistik belgi bir vaqtning o'zida bir qancha funksiyada kelishini ta'kidlaydi. U belgi shaklining ifodalanuvchi bilan munosabati ikki tomonlama ekanligini ko'rsatadi: 1) ifodalanuvchining belgi shakliga munosabati; 2) ifodalanuvchining predmetga (obyektiv faktga) munosabati. Bulardan birinchisi ma'no, ikkinchisi esa ifoda hisoblanadi. Belgi ma'noning shakllanishida o'zaro bog'langan yuqoridagi uch qism (belgi–predmet haqidagi tushuncha – predmet) ma'lum dara-

jada aks etadi. A.A.Ufimseva o'z fikrini yanada konkretroq qilib, ma'noni belgi vaziyati qismlari o'rtasidagi alohida munosabat sifatida xarakterlash mumkinligini ko'rsatadi. Belgi bilan predmet ifodasi o'rtasidagi alohida munosabat ostida inson orqali yuzaga chiqadigan aloqa tushuniladi.

Shunday qilib, belgi ma'nosi obyektiv qatordagi ifodalanuvchi bilan ham, subyektiv qatordagi ifodalanuvchi -- denotat bilan ham teng emas. Ifodalanuvchi belgidan va tildan tashqarida qoladi. Ma'no esa belgining bir tomonini tashkil etadi va til ma'nomiga ega bo'ladi.

Belgining bir yoqlamaligi va ikki yoqlamaligi muammosi ma'noga ikki xil yondashuv bilan bog'liq. Belgiga bir yoqlama mohiyat sifatida yondashuvchilar in'ikos jarayonini uch bosqichdan iborat, deb talqin qiladilar: narsa -- narsa belgilarining umumlashmasi, narsa obrazi, ya'ni narsa haqidagi tushuncha, akustik xossa (ifodalovchi). Ikkinchi bosqich -- narsani aks ettirish bosqichi, ong fakti belgidan tashqarida qoldiriladi. Bu bosqich borliqdagi narsani aks ettirish bosqichi sifatida belgiga ikki yoqlama mohiyat, deb yondashuvchilar tomonidan ham belgi tarkibiga kiritilmaydi. Bu jihatdan yuqoridagi ikki oqim hamfikrdirlar. Lekin ikkinchi oqim tarafdorlari in'ikos jarayonini uch bosqichga emas, balki to'rt bosqichga bo'ladilar. Ma'no bilan tushunchani bir-biridan farqlaydilar: narsa -- tushuncha -- munosabat (ma'no) -- akustik xossa (ifodalovchi). Bunga muvofiq, ifodalovchi bilan narsaning umumlashgan obrazi, ya'ni tushuncha o'rtasidagi munosabat ma'no sanaladi. Shuning uchun ham ma'no belgi tarkibiga kiritiladi.

Biz belgining ikki tomonlamaligi haqidagi qarashni ma'qullaymiz va in'ikos jarayoni to'rt bosqichli ekanligini e'tirof etamiz. Lekin ma'noni boshqacha talqin etamiz. Bunga muvofiq, lingvistik birlikning mohiyati moddiy tomoni bilan (belgi bilan) g'oya tomoni (ma'no)ning birligidan iboratdir.

I.P.Susov ma'no mohiyatini anglash va uning xarakterini belgilash uchun ifodalovchi va ifodalanuvchi tahliliga tayanish kerakligini aytadi. Ifodalanuvchi ma'no (смысл), semantik predmet (signifikat), real predmet (denotat)larning birligidan iborat. Ma'no semantik predmetning ajralishiga asos bo'lgan belgilar majmuasidir. Belgilar majmuasi bilan ajraladigan aniqlanuvchi predmet semantik predmet hisoblanadi. Masalan, *tog'a* so'zi o'zida quyidagi besh belgini (semanti) mujassam etgan ma'nodan iborat: 1) erkak jinsidagi shaxs; 2) qarindosh; 3) o'gaylik belgisi bo'lmagan qarindosh; 4) nisbiy qarindosh

(ona orqali), 5) bir avlod katta. Yuqoridagi belgi asosida ajraladigan shaxs *tog'la* so'zining semantik predmeti sanaladi. Semantik predmet ham obyektiv borliqning aks etishini ko'rsatadi. Semantik predmet real predmetning ong'dagi in'ikosi sanaladi. Yuqoridagi *tg'la* so'zi obyektiv reallikdagi ong'dan tashqarida mavjud bo'lgan, real predmetni aks ettiradi. Semantik predmet ham, real predmet ham ifodalanuvchi tarkibiga kiradi. Ular o'rtasidagi farq shundaki, birinchisi aks ettiruvchi, ikkinchisi esa aks etuvchi hisoblanadi. Semantik predmet semantik belgilar, semalar konyunksiyasi orqali, denotat esa (agar u turdosh ot bo'lsa) real predmetlar dizyunksiyasi orqali ajratiladi. Bu jihatdan atoqli va turdosh otlar denotati bir-biridan farq qiladi. Atoqli otlar denotati obyektiv borliqdagi yolg'iz predmetlar bo'lsa, turdosh otlar denotati esa borliqdagi real predmetlar dizyunksiyasidir. Shunday qilib, nomlash nazariyasi so'z, semantik predmet, real predmet (denotat) va ma'no bo'lishini taqozo qiladi. Tilshunoslikda quyidagilar haqida fikr yuritishga to'g'ri keladi: 1) abiiy til so'zi haqida; 2) bu so'zning semantik ishtirokchilari, ya'ni maddiy olamning inson ongida aks etishi va so'z orqali ifodalanishi haqida; 3) inson ongida aks etadigan va so'z orqali ifodalanadigan obyektiv olam predmetlari, hodisalari haqida. Denotativ ma'no inson ongidan tashqarida bo'lgan obyektiv olamdagi narsa, hodisalar va ular o'rtasidagi aloqalarning ongda aks etishidir. Semantik predmet bilan real predmet o'rtasidagi prinsipial farq shundaki, birinchisi aks etadi, ikkinchisi aks ettiriladi. Signifikativ ma'no denotativ ma'noga nisbatan ikkilamchi xarakterga ega. Chunki, olamni bilish jarayonida obyektiv olam elementlarining eng muhim belgilari inson ongida aks etadi va ongda aks etgan obyektiv olamdagi bir qancha narsalar, hodisalar haqidagi bu psixofiziologik jarayon substrat til belgisi orqali ifodalana ldi. Anglashiladiki, lingvistik belgining asosiy qismi bir vaqtning o'zida ham denotativ, ham signifikativ ma'noga ega bo'ladi. Bunday vaq'da lingvistik belgining denotat bilan aloqasi signifikat orqali ro'yobga chiqadi. Bunga muvofiq til quyidagi uch hodisani o'zida mujassamlashtiradi: 1) material olam hodisasi sifatida belgini; 2) obyektiv olamni aks ettiruvchi ideal hodisani; 3) mavjudligi ideal hodisaga va uning belgisining mavjud bo'lishiga bog'liq bo'lmagan obyektiv borliqni. T. P. Lomtevning ta'kidlashicha, lingvistik belgining mohiyati belgi va belgi ma'nosining (signifikat) konvensionalligini emas, balki obyektivligini e'tirof etishdir. Belgi

ma'nosi va obyekt o'rtasida aks ettirish munosabati mavjud. Ayrim hollarda signifikat obyektiv olamda korrelyat bo'lmagan, inson tomondan sun'iy ravishda hosil qilingan obrazni bildirishi mumkin: *dev, pari* va bosh<sup>45</sup>.

Til tizimini tashkil etuvchi birliklarning o'zaro munosabati va bog'lanish qonuniyatlari murakkab hamda ko'p qirralidir. Garchi til yaxlit tizim bo'lsa-da, bu tizim o'ziga xos jihatlarga ega bo'lgan, tilning tarkibiy qismlari hisoblangan sathlar birligidan iborat. "Til sistemaviy tabiatga ega ekanligi bois uning tarkibiy qismlari ham sistem xarakterdadir"<sup>46</sup>. Har bir sathning o'z birliklari va tushunchalari bo'lib, ular bir-biridan farqlanib turadi. Masalan, fonetik-fonologik sath lug'at sathidan, lug'at sathi grammatik sathdan farqlanadi. Til tizimini tashkil etgan asosiy sathlar quyidagilar:

1. Fonetik-fonologik sath.
2. Lug'at sathi.
3. Grammatik sath.

**Fonetik-fonologik sath.** Tilning bu sathi til tizimidagi nutq tovushlarini o'rganadi. Fikr almashish uchun foydalaniladigan so'zlar va gaplar tovushlar tizimida o'z ifodasini topadi. Tilning tovush tizimini turli tomondan o'rganish mumkin, chunki nutq tovushlari o'z tabiatiga va til tizimida bajaradigan funksiyasiga ko'ra murakkab hodisadir. Nutq tovushlari fizik xususiyatlariga ko'ra tabiatda paydo bo'ladigan tovushlarning bir turidir. Shuning uchun tovushlar tizimini o'rganishda akustik nuqtayi nazardan ham yondashiladi. Ammo, inson foydalanadigan tovushlar, tabiatdagi boshqa tovushlardan farqli o'laroq, nerv tizimi tomonidan boshqarilib turadigan nutq organlari mahsulidir. Shuning uchun tovushlar fiziologik nuqtayi nazardan ham o'rganiladi. Nihoyat, tovushlarni tildagi bajaradigan funksiyasi nuqtayi nazaridan ham o'rganish mumkin, chunki tovushlar tilda o'z holicha mavjud bo'lmaydi. Ular so'zlarni yasashda va fikr almashish vositasini ta'minlab berishda muhim rol o'ynaydi. Tovushlarning fizik va biologik xususiyatlarini fonetika fani o'rganadi. Tovushlarning til tizimida bajaradigan funksiyalarini esa fonologiya o'rganadi. Fonetikaning bir necha ko'rinishlari bo'lib: *nazariy fonetika, eksperimental fonetika, segmental fonetika*.

<sup>45</sup> Nurmonov A. Lingvistik belgi nazariyasi. -T.:Fan, 2008. -B.13.

<sup>46</sup> Mengliyev M. Til - yaxlit sistema sifatida. -T., 2010. -B.4



*supersegmental fonetika va fonologiya.* Alohida apparatlar yordamida nutq tovushlari, bo‘g‘in, urg‘u va intonatsiyadagi artikulyatsion-akustik xususiyatlarni o‘rganish sohasi *eksperimental fonetika* deb nomlanadi.

Fonetikaning asosiy sohasi hisoblanmish fonologiya alohida fan sifatida qaraladi.

Fonetika tilning boshqa sathlari bo‘lgan morfologiya, sintaksis, leksika va uslubiyat bilan uzviy bog‘liqdir. Tovushlar fonetika birligi sifatida o‘rganilganda *nutq tovushlari* yoki *fonlar* deb yuritiladi. “Fon” hozirgi tilshunoslikda keng tarqalgan atama bo‘lib, nutqning eng kichik, ma‘no anglatmaydigan birligidir.

Nutq ketma-ket kelgan tovushlar yig‘indisi yoki zanjirsimon ulanishdan iborat bo‘lib, u talaffuz davriga ko‘ra oldinma-keyin kelgan fonetik birliklarga bo‘linadi. Nutqning ana shunday katta va kichik birliklarga bo‘linishi *nutqning fonetik bo‘linishi* deb ataladi.

Til materiya sifatida, eng avvalo, havo qatlamlaridagi harakat natijasida hosil bo‘lgan tovush sifatida reallashadi. Jamiyat a‘zolari o‘zaro tovushlar asosidagi nutq orqali munosabatda bo‘ladi. Shu bilan birga, nutq tartibsiz holda talaffuz etilgan tovushlar oqimidan iborat emas. Biz gapirayotganimizda nutq tovushlari oqimi muntazam ravishda o‘zaro bog‘liq holda, ma‘lum tartibda, ketma-ketlikda reallashadi. Nutq tovushlarning uzluksiz oqimidan iborat bo‘lmay, ayrim nutqiy bo‘laklarda namoyon bo‘ladi.

Nutq fonetik jihatdan *fraza, takt, bo‘g‘in va nutq tovushlariga* ajraladi. Nutq tovushlari mustaqil holda emas, balki bo‘g‘in, takt va jumlar tarkibida qo‘llanadi. Nutq fonetik jihatdan quyidagilarning birikishidan hosil boladi:

1. Faza (jumla) – (yun. *phrasis* – “ifoda”, “nutq”). *Faza* nutqning eng katta fonetik birligi bo‘lib, ikki tomondan pauza bilan chegaralanib, o‘ziga xos ohangga ega bo‘ladi. Frazalar taktdan tashkil topadi. Umuman, jumlar biridan keyin ikkinchisini aytish uchun nafas olish bilan, ya‘ni to‘xtamlar bilan ayrim - ayrim birliklarga ajratiladi: *Do‘stim, / uyqu yo‘q. / yotishim bilan uyqum qochib /o‘rnimdan turib ketaman / chiroq yoqib, / kitob o‘qish bilan tunni o‘tkazaman.* Bu misolda besh intonatsion – fonetik birlik to‘xtam bilan ajratilgan.

Fraza – fonetik birlik, gap esa grammatik (sintaktik) birlikdir. Jumla-lar taktlarga bo‘linadi. Takt intonatsion butunlik (jumla)ning bir bo‘lagi bo‘lib, u bosh urg‘u bilan birlashtiriladi. Takt bir yoki bir necha bo‘g‘indan iborat bo‘ladi. Ko‘p tillarda urg‘u mustaqil ma’noli so‘zlarning o‘zida bo‘lgani uchun ularning har qaysisi bir takt bo‘ladi. Yordamchi so‘zlar mustaqil ma’noli so‘zlar bilan birikib, bir taktni hosil qiladi. Masalan: *Ustozim bilan gaplashib fakulitet tadbiriga taklifnomalar jo‘natdik*. Bu jumla besh taktdan iborat. Taktlarda yordamchi so‘zlarning mustaqil so‘zlar bilan birikib kelgan o‘rniga qarab enklitika va proklitika hodisalari farqlanadi. Yordamchi so‘zlar mustaqil ma’noli so‘zlardan oldin yoki keyin kelishi mumkin. Odatda urg‘u olmagan so‘zlar urg‘u olgan so‘z bilan birikib keladi. Masalan: *Faqat ukam keldi*. Bu gapda ikkita takt bor. Urg‘u olmagan so‘z urg‘uli so‘zdan oldin turib unga bog‘lansa, tilshunoslikda *proklitik elementlar* deb ataladi. Agar urg‘usiz so‘z urg‘ulidan keyin kelsa, *enklitik elementlar*, deb ataladi. Masalan, *Bor ekan, yo‘q ekan*.

Rus tilida ham proklitika, ham enklitika uchraydi. Masalan: *Уехали ли, иностранные делегаты в Москву?*

Turkiy tillarda jumladan, o‘zbek tilida, asosan, enklitika hodisasi uch-raydi. Masalan: *Talabalar uchun yangi yotoqxonona qurildi. Jamoa yer-lari traktor bilan haydaldi*. Bu gaplarda talabalar uchun, traktor bilan taktlaridagi *uchun, bilan* yordamchi so‘zlari enklitikadir.

2. Takt (lot. *tactus* – “tegin”, “sezish” ma’nolaridagi so‘z. Fonetikada “bo‘lak”, “qism” kabi ma’nolarni ifodalaydi). Frazaning ikki kichik pauza orasiga joylashgan va yagona urg‘u bilan talaffuz qilinadigan bir yoki bir nechta bo‘g‘indan iborat yig‘indisiga *takt* deyiladi. Frazada nechta urg‘u bo‘lsa, shuncha takt bo‘ladi.

Takt grammatikadagi so‘z birikmasiga teng emas. Takt bo‘g‘in-lardan iborat. So‘zda nechta unli tovush bo‘lsa, shuncha bo‘g‘in bo‘la-di. Ba’zi tillarda sonorlar ham bo‘g‘in hosil qiladi; *Trnka* so‘zi (chex tilidagi so‘z bo‘lib, ikki bo‘g‘indan iborat).

3. Bo‘g‘in. **Bo‘g‘in** bir yoki bir nechta tovushdan tahril topib, bir zarb bilan talaffuz qilinadigan fonetik birlikdir. Bo‘g‘in ta’rifiga aloqador bir qancha nazariya mavjud. Shulardan ikkitasi: **fonologik bo‘g‘in nazariyasi** va **fonetik bo‘g‘in nazariyasi** keng tarqalgan.

Soʻz boʻgʻinlarga ajratib talaffuz qilinadi. Shuning uchun boʻgʻin nutqning eng kichik akustik-artikulyatsion birligidir. Baʼzan boʻgʻin morfema bilan teng kelib qoladi. Boʻgʻin taktning bir boʻlagidir. Boʻgʻin bir yoki bir necha tovushlardan iborat boʻlib, bir nafas toʻlqinida aytiladi. Har qanday tovush boʻgʻin hosil qilavermaydi. Unlilar faqat musiqiy ohang, ovozdan iborat boʻlgani uchun har doim boʻgʻin hosil qiladi. Baʼzi tillarda bir boʻgʻin tarkibida ikki va undan ortiq unli tovushlar boʻlishi ham mumkin. Masalan: qirgʻiz tilidagi *tooda* (*togʻda*), *sooda* (*savdo*) soʻzlarida *too-*, *soo-* birinchi boʻgʻin, *-da* ikkinchi boʻgʻin boʻlib, birinchi boʻgʻindagi ikki unli tovush bir boʻgʻinni hosil qilgan. Bir boʻgʻinda ikki unli tovushning birikib kelishi *diftong* deb ataladi.

o, o unilari qozoq, qoraqalpoq, noʻgʻay, qorachoy-balqar tillarida soʻz boshida diftonglashgan holda talaffuz etiladi: q-qalp. *uoq* “oʻq”, q-balq. *uot* “olov”, *uon* “oʻn”, qoz. *uoraq* “oʻroq”. Shunga oʻxshash talaffuz singarmonizm saqlangan ayrim oʻzbek shevalarida ham kuzaatiladi.

Ayrim tillarda diftong koʻp uchraydi. Masalan, nemis tilidagi *heute* (bugun) soʻzida diftong – eu, *hous* (uy) soʻzida diftong – au, *eins* (bir) soʻzida diftong ei; fransuz tilidagi *moi* (men) soʻzida diftong – oi, ingliz tilidagi *vou* (oʻgʻil bola) soʻzida diftong – ou dir. Diftonglar kuchli va kuchsiz boʻlishi mumkin. Kuchli (koʻtariladigan) diftong sust unli tovush bilan boshlanib, toʻla unli holiga keladi. Masalan, rus tilidagi *красная* soʻzida keyingi boʻgʻindagi *ya* ikki tovush (y-a) dan iborat boʻlib, y – sust unli, a esa toʻla unlidir. Mana shunday diftonglar fransuz, nemis tillarida va boshqa tillarda ham uchraydi.

Sust (pasayadigan) diftong toʻla unli bilan boshlanib, sust unli holiga keladi. Masalan, rus tilida *day*, *pey*, *ley*, *moy* soʻzlaridagi ajratib koʻrsatilgan unlilar toʻla unli boʻlib, ulardan keyin kelgan y unlisi sust unlidir. Oʻzbek tilida, asosan kuchsiz diftong uchraydi. Masalan, *qiy-namoq*, *toʻyga*, *saroy* soʻzlaridagi ajratib koʻrsatilgan unlilar kuchsiz diftonglar boʻlib, i, oʻ, o – toʻla unlilar; ulardan keyin kelgan y esa sust unlidir. Kuchli (koʻtarilgan) diftonglar ham uchraydi: *yara*, *yogʻ*, *yer* (*y+ara*, *y+ogʻ*, *y+er*) soʻzlarida y kuchli, a, o, e sust unlilar. Bundan tashqari, baʼzi tillarda bir boʻgʻinda uch unli tovushning birikib kelish hodisasi ham uchraydi. Uch unlining birikib bir boʻgʻin hosil qilishi

**triflong** deb ataladi. Masalan, ingliz tilida *five –stjreed (Fayvstroid)* (besh qavatli) birikmasida eue – triflong.

Bo'g'in tuzilishi jihatidan ham tillar bir -biridan farq qiladi.

Ba'zi tillarda sonor undosh (l, m, n, r) tovushlar ham bo'g'in hosil qiladi. Masalan, rus tilidagi *непрѣмь* (barmoq) so'zida bo'g'in hosil qiluvchi unli tovush - e bo'lsa, serb tilidagi *прст* (barmoq) so'zida bo'g'in hosil qiluvchi unli tovush r dir. Rus tilidagi *волк* (bo'ri) so'zida bo'g'in hosil qiluvchi unli tovush o bo'lsa, chex tilidagi *vlk* so'zida bo'g'in undosh tovush asosida hosil bo'ladi.

4. Tovush nutqning fonetik jihatdan eng kichik qismi.

**Urg'u** –nutq tovushlari hamda bo'g'in segment elementlar deyiladi. Bulardan tashqari supersegment elementlar ham mavjud bo'lib, ular urg'u va ohangdir. Supersegment elementlar nutqqa ohang bag'ishlaydi.

So'zlarda bo'g'inlarni, gaplarda so'zlarni ma'lum vositalar bilan ajratib ko'rsatish urg'u deyiladi. So'z urg'usi bir so'zning tarkibidagi bir bo'g'inni boshqalardan ajratish demakdir. Tilshunoslikda dinamik, miqdor va musiqiy urg'u farqlanadi.

*Dinamik urg'uda* ajratib ko'rsatilayotgan bo'g'in kuchli talaffuz qilinadi (masalan, nemis tilida). *Miqdor urg'usiga* ega tillarda unli cho'ziqroq talaffuz qilinadi (masalan, rus, o'zbek tillarida). *Musiqiy urg'uda* urg'u olgan bo'g'in ovoz tonini ko'tarish va pasaytirish yo'li bilan ajratib ko'rsatiladi (masalan, xitoy tilida).

Urg'uning o'rniga ko'ra turg'un urg'uli tillar va erkin urg'uli tillar farqlanadi. Turg'un urg'uli tillarda urg'u doim so'zning ma'lum bo'g'iniga tushadi. Masalan: o'zbek, fransuz tillarida oxirgi bo'g'inga, polyak tilida oxiridan bitta oldingi, venger, chex tillarida birinchi bo'g'inga tushadi.

Erkin urg'uli tillarda urg'u so'zning qaysi bo'g'iniga tushishini oldindan bilish mumkin emas. Rus, ingliz, nemis tillari shular jumlasidandir.

Fraza urg'usi so'z birikmalari yoki bir necha so'zni boshqalardan ajratib ko'rsatishni nazarda tutadi. Faza urg'usining turlari quyidagilar: *sintaktik urg'u*. *Sintaktik – logik urg'u*. *Kuchsiz sintaktik urg'u*. *Emfatik (his – hayajon urg'usi) urg'u*.

Fraza urg'usidan tashqari ohang tarkibiga nutqning ritmik-melodik tuzilishi kiradi. Nutq jaryonida urg'u olgan va olmagan bo'g'inlar almashib, nutqning ritmi paydo bo'ladi. Nutq ohanglariga gap urg'usi, ohang, pauza, sur'at, ritm, tembr kiradi.

Ohang pasayuvchi va ko'tariluvchi bo'ladi. Pasayuvchi ohang darak, undov gaplarda, ko'tariluvchi ohang so'roq gaplarda kuzatiladi.

**Gap urg'usi yoki logik urg'u.** Ovozni kuchaytirish yoki ko'tarish yordamida gap tarkibidagi biror-bir so'z ajratib talaffuz etiladi. Gapda ajratib talaffuz etish hodisasi gap urg'usi yoki logik urg'u deb ataladi. Logik urg'u tufayli gap turli xil mazmunga ega bo'ladi. Logik urg'u yordamida mantiqiy tomondan muhim va butun e'tiborni qaratish kerak bo'lgan so'z ajratib talaffuz etiladi. Logik urg'u gapdagi har bir so'zga tushishi mumkin. Logik urg'uning ifodalanishi dunyo tillarda turlichadir. Masalan, rus tilida urg'u tushgan so'zdagi so'z urg'usi yana ham kuchliroq talaffuz qilinadi. Fransuz tilida logik urg'u olgan so'zning birinchi bo'g'ini so'z urg'usini oladi. O'zbek tilida logik urg'u olgan so'z kesimdan oldingi o'ringa ko'chiriladi. Masalan: *Akam Moskvadan bugun keldi* (kecha emas, bugun).

*Akam bugun Moskvadan keldi* (Toshkentdan emas, Moskvadan).

*Bugun Moskvadan akam keldi* (do'stim emas, akam).

Nutqning ohangdorligi *intonatsiya* deb ataladi. Gap ohangi turli vazifalarni bajaradi. Masalan, uning eng muhim vazifalaridan biri sintaktik funksiyasi hisoblanadi. Bunda ohang yordamida tasdiq, savol, hayajon kabilar ifodalanadi. Intonatsiya yordamida so'z birikmasi, gapga tegishli yoki tugallanmagan gapning bir qismini aniqlash mumkin.

Intonatsiya melodika, ibora urg'usi, temp (nutq sur'ati), tembr (ovozning neytral va emotsional sifati) pauza, ritm (urg'uli va urg'usiz bo'g'inlar almashuvi) majmuyi bo'lib, so'zlovchining his-hayajoni, maqsadi va fikrini ifodalovchi prosodik birlikdir. Demak, intonatsiya ohang emas, ohang – intonatsiyaning bir komponenti melodikaga to'g'ri keladi. Melodikaning pasayuvchi, ko'tariluvchi tur-larini qo'shma gaplarda kuzatish mumkin. Masalan: *U kelsa* (ko'ta-

riluvchi), *biz boramiz* (pasayuvchi).

Intonatsiyaning komponentlariga quyidagilar kiradi:

1. Melodika
2. Frazalar urg'usi
3. Intensivlik
4. Ritm
5. Nutq tempi
6. Ovoz tembri.<sup>47</sup>

Nutq tovushlarini o'rganuvchi aspektlardan biri *fonologiya* deb yuritiladi. Nutq tovushlarining vazifaviy qiymatini fonologiya o'rganadi. Fonologiyaning o'rganish obyekti fonemadir. *Fonema* so'z, so'z shakllari va morfemalarni tashkil etuvchi, ma'no farqlash uchun xizmat qiluvchi eng kichik, boshqa bo'laklarga bo'linmaydigan til birligidir. Masalan, *tup – tub; quy – qo'y; sut – sud* so'zlari fonemalar yordamida farqlanadi. Tarkibidagi birgina fonema bilan farq qiluvchi so'zlar *kvaziomonimlar* deb yuritiladi. Fonemalarning bog'lanishi, o'zaro munosabati fonologik tizimni tashkil etadi. Tilshunoslik tarixida tovush sistemasini o'rganishda ikki davr farqlanadi: 1) "fonema" tushunchasi shakllanishiga qadar bo'lgan davr; 2) fonologiya, ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrda fonema nazariyalarining yuzaga kelish davri. Birinchi davrda fonema va tovush, ba'zan harflar o'rtasidagi farq aniq ko'rsatilmay, tovushlarning talaffuzi so'zlardagi u yoki bu holatda etimologik o'zgarishlarga uchrashiga ko'proq e'tibor berilgan. Fonologiya davrida ular o'rtasidagi farq oydinlashtirildi va tovushlar, keyinchalik, bo'g'in. urg'u va intonatsiyaning tildagi funksional tomonlari o'rganila boshladi. "Fonema" atamasini keng ta'riflagan, bu tushunchaga asos solgan olim I.A.Boduen de Kurtenedir. "Fonema" atamasini o'zbek tilshunosligida birinchi bo'lib professor U.D.Polivanov qo'llagan. Hozirgi tilshunoslikdagi ikki ta'limot – Moskva va Leningrad fonologiya maktablari nazariyalari turkiy tillarga ham tatbiq etilmoqda<sup>48</sup>.

*Fonema* (grekcha phone – tovush, ovoz) nutqni tovush tomondan shakllantirishda ishtirok etuvchi vosita sifatida tilning eng kichik birligidir. Chunki nutqning muhim elementi sanalgan so'zlar, uning ma'no-

<sup>47</sup> Abduazzizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi. -Toshkent: Universitet, 2010. -B. 30.

<sup>48</sup> Abduazzizov A. O'zbek tilining fonologiyasi va morfologiyasi. -T., 1992. -B.6

li qismlari (morfemalar), soʻz formalari ana shu fonemalar vositasida shakllanadi va shu fonemalar yordamida maʼno jihatidan oʻzaro farqlanadi. Fonema tilning eng kichik birligi sifatida tilning fonetik sistemasida muhim oʻrin tutadi. Fonema insonlar jamiyatining asosiy aloqa vositasi boʻlgan nutqni shakllantiruvchi soʻzlarning asosiy elementidir.

Tilning eng kichik qurilish materiali sifatida fonemalarning eng muhim, bosh vazifasi – fonologik xususiyati morfema, leksema, soʻz kabi maʼno ifodalovchi birliklarni hosil qilish – ularning tovush tomonini shakllantirish hamda oʻrni bilan tovush jihatini farqlash kabi ijtimoiy vazifalarni bajarishdir<sup>49</sup>.

Nutq tovushlari oʻzining fiziologik, akustik va fonologik xususiyatlari bilan tovushlardan farq qiladi. Nutq tovushlarining fonologik xususiyati – fonematik holati, yaʼni soʻz maʼnolarini farqlash uchun xizmat qilishi, uning muhim ijtimoiy mohiyatga ega ekanligini koʻrsatadi. Faqat ijtimoiy mohiyatga ega boʻlgan, ijtimoiy aloqa vositasi sanalgan tilning muhim birligi sifatida xizmat eta oladigan tovushlarga fonema sanaladi. Shuning uchun ham har bir konkret tilda tovushlar soni koʻp boʻlgani holda, fonemalar soni adabiy til, yozuv uchun qonunlashtirilgan tovushlar soni bilan cheklanadi. Mutaxassis-nazariyachilar fonemani turlicha talqin qiladilar, turlicha taʼriflaydilar.

A. Abduazizov “fonema”ga shunday taʼrif beradi: “Fonema – til-dagi maʼnodor birliklar boʻlgan soʻz va morfemalarni tashkil etuvchi va ularni farqlash uchun xizmat qiluvchi, tilning eng kichik, oʻzi mustaqil maʼnoga ega boʻlmagan birlikdir”<sup>50</sup>.

Fonema murakkab birlik boʻlib, turli artikulyatsion-akustik belgilarni oʻz ichiga qamrab olgan va bu belgilardan tashkil topgan. Masalan, **t** fonemasida portlovchilik belgisini **s** fonemasidagi sirgʻaluvchilik belgisiga qiyoslab ajratib koʻrsatish mumkin: *tol* – *sol*-, **k** fonemasidagi jarangsizlik belgisini **g** fonemasidagi jaranglilik belgisi bilan qiyoslash mumkin: *kul* – *gul*. Demak, fonema turli belgilarning majmuyi sifatida namoyon boʻladi. Xususan, til oldi, tish, portlovchi, jarangli belgilarning yigindisi **d** fonemasini tashkil etadi. Shu belgilardan biri jarangli **d** fonemasini jarangsiz **t** fonemasidan farqlaydi. Ana shunday bir fonemani ikkinchisidan farqlash uchun xizmat qiluvchi

<sup>49</sup> Restolov R. Umumiy tilshunoslik. 217-b.

<sup>50</sup> Абул азизов А. Коʻrsatilgan manba. -Т., 1992. -Б.5

artikulyatsion yoki akustik belgilar *farqlanish belgilari* yoki *fonologik belgilar* deb ataladi, fonema tarkibida farqlanish belgilari bilan birga tovushlarni farqlamaydigan, fonologik bo'lmagan belgilar ham bor. Masalan, o'zbek tilida unilarning cho'ziq-qisqaligi, undoshlarning yumshoq-qattiqligi fonologik jihatdan ahamiyatsizdir<sup>51</sup>.

"Fonologiyada tovushlar bilan bog'liq, ma'noga ta'sir etmaydigan kichik farqlanishlar nazarda tutilmaydi. Quyida ikki so'zlovchi nutqini kuzatamiz: bir so'zlovchining "Ssh!" ("Jim bo'ling" ma'nosida) va boshqa so'zlovchining ayni "Ssh!"ni boshqacha talaffuz qilishi fonolog olimni qiziqitirmaydi.

Barcha tovushlar farqlanadi. Fonologiya bunday farqlanishlarni tahlil etmaydi. Fonologiya "sh" (*shoe* so'zidagidek) va "s" (*sue* so'zidagidek) tovushlari orasidagi farqlanishlarga e'tibor qaratadi. Fonologiyaning birligi – fonema.<sup>52</sup> Vengr tilida talaffuz qilish juda oson, chunki bir harf bitta tovushga to'g'ri keladi. Istisnoli holatlar vengr tilida ham kuzatiladi. Vengr so'zlari, masalan, *mosd*, *lásd*, *nevesd*, *úsd* so'zlaridagi –sd "sh" tovushiga monand, ya'ni "zh" tarzida talaffuz qilinadi: *mozsd*, *lázsd*, *nevezsd*, *úzs*.<sup>53</sup>

Vengr tilidagi *mozsd* so'zini tovush jihatidan tahlilga tortamiz. Bunda eng so'nggi tovush "sh" talaffuz etilmaydi. Chunki undoshdan so'ng yana bir undosh qo'shilgan: *mos+d*, shuning uchun ikkinchi undoshni talaffuz etish imkoniyati yo'q. Bunda (/s/) tovushi ham, (/d/) tovushi ham shovqinli tovush hisoblanadi, shuning uchun vengr tilida bu tovushlar yonma-yon kelganda /z/ tarzida talaffuz etiladi.

Bunday holat ingliz tili uchun ham xosdir. Masalan, biror /sh/ tovushi bilan tugagan so'zni olaylik, aytaylik, *wash* (yuvmoq) so'zi bo'lsin. Uning o'tgan zamondagi shaklini hosil qilish uchun /ed/ shaklidan foydalaniladi (*washed* - yuvdim). Bunda talaffuzda qiyinchiliklar yuzaga keladi, ya'ni /sh/ tovushi shovqinli, /d/ esa ovozdor tovushdir. Ingliz tili ona tili hisoblangan inglizlar *washed* yoki *washt* tarzida talaffuz qiladi.

Ingliz tilida *r's* tovush birikmasi talaffuzi vengr tilidan farqlanadi. Buning ajablanarli joyi yo'q, chunki bu tovushlar nemis hamda fransuz tillarida ham boshqacha talaffuz qilinadi. Ingliz tilining ba'zi sheva-

<sup>51</sup> *Абдуясоов А.* Ko'rsatilgan manba.-T.,1992.-5,6-7.

<sup>52</sup> *Richter B.* First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.26

<sup>53</sup> *Richter B.* First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.28



larida esa umuman talaffuz qilinmaydi. Agar “hip-hop” musiqani sotib olsangiz (internet orqali) yoki musiqaning nomiga qarasangiz, albatta, *brotha, sista, ganxta* kabi soʻzlarni koʻrasiz, ushbu soʻzlar *brother, sister* va *gangster* soʻzlarining alternativ talaffuzidir. Yoki *singers* soʻzini *singaz* tarzida talaffuz etishadi, yaʼni soʻz oxiridagi *r*ʼs talaffuz qilinmaydi. Bu holat barcha ingliz dialektlari uchun xos emas.

Four. Four people. Four animals (Toʻrt. Toʻrt odam. Toʻrt hayvon).

Agar Angliyaning janubida yashaydigan odamdan shu gaplarni talaffuz qilib berishini soʻrasangiz, /r/ tovushining faqat oxirgi gapda talaffuz qilinganini payqaysiz. R tovushi, odatda, undoshlar oldidan talaffuz qilinmaydi, unlilar oldidan talaffuz qilinganda /Q/ tovushiga oʻxshash tovush eshitiladi.

Aksincha, Amerika Qoʻshma shtatlarida istiqomat qiluvchi kishilar esa har uchala gapda ham *r* tovushini talaffuz etadilar. Umuman, amerikaliklar har bir soʻzda *r* tovushini talaffuz etadilar.<sup>54</sup>

Venger tilida baʼzi soʻzlar *-ban* qoʻshimchasi, baʼzilari esa *-ben* bilan tugaydi: *Házban– kézben; hóban, vízben – kinban va hidban (-kin va -hid* soʻzlari bundan mustasno).

Qoidaga koʻra, “é”, “e” va “i” tovushlaridan soʻng *-ben* qoʻshimchasi, “u”, “o” va “a” tovushlaridan soʻng esa *-ban* affiksi qoʻshiladi. Tovush va fonemalar unli va undosh tovushlarning belgisi sifatida namoyon boʻladi<sup>55</sup>.

**Lugʻat sathi.** Tilning lugʻat sathi tilda mavjud boʻlgan soʻzlarining yigʻindisidan iborat. Lugʻat sathi tilning fonetik-fonologik va grammatik sathlaridan har doim oʻzgarib, rivojlanib turishi bilan ajralib, farqlanib turadi. Fan, texnika, madaniyatning rivojlanish jarayoni lugʻat sathining doimiy oʻzgarib turishini taqozo etadi. Shunga koʻra, tilning lugʻat sathi paydo boʻlishi va qoʻllanish doirasi jihatidan farqlanadigan bir necha qatlamlardan tashkil topadi. Lugʻat sathining asosiy birligi hisoblangan soʻz yordamida kishilar predmet va hodisalarni ifodalaydilar; gapda esa soʻzlar oʻzaro birikib fikr ifodalashga xizmat qiladi. Lugʻat sathini *leksikologiya* oʻrganadi. Soʻzning taʼrifi, soʻz va predmet, soʻz va tushuncha, lugʻatning oʻzgarishi, soʻz-

<sup>54</sup> Richter B. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.29-30

<sup>55</sup> Richter B. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.30

larning bir-biri bilan munosabati, lugʻatning qatlamlari kabi muammolar leksikologiya oʻrganadigan asosiy masalalar hisoblanadi. Soʻzlarning boshlangʻich maʼnosi va shaklida boʻlgan oʻzgarishlarni *etimologiya*, lugʻat va uning tuzilishini *leksikografiya*, soʻzning maʼnosi va uning taraqqiyotini *semasiologiya* oʻrganadi. Frazologizmlar leksikologiya bilan bogʻliq holda oʻrganiladi.

Tilning lugʻat tarkibi bir nechta nuqtayi nazardan oʻrganilishi mumkin. Tilning lugʻat qatlamini tarixiylik nuqtayi nazaridan oʻz va oʻzlashgan soʻzlarga ajratish mumkin. Har bir tilda oʻz qatlam soʻzlari bilan bir qatorda oʻzlashgan qatlam soʻzlari ham uchraydiki, bu tilning mavqeyi, ijtimoiy-tarixiy jarayon, xalqlar va tillar oʻrtasidagi turli munosabatlar taʼsiri bilan izohlanadi. Lugʻat qatlamining maʼlum qismi sheva soʻzlaridan iborat. Sheva soʻzlari asosiy aloqa-munosabat vositasi sifatida xizmat qiladi. Sheva soʻzlarining adabiy til lugʻatini boyitishda alohida oʻrni bor. Tilning lugʻat tarkibi isteʼmol darajasi nuqtayi nazardan ham turlichadir. Bu jihatdan faol va kam ishlatiladigan soʻzlar farqlanadi.

Tilning lugʻat boyligini oshiruvchi asosiy manba soʻz yasalishi, shevalardan soʻz olish, soʻzning maʼno taraqqiyotidagi oʻzgarishlar va maʼno koʻchishidir.

“Lugʻaviy sathda soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari ham qayd etiladi. Gapda sinonimlardan foydalaniladi:

Sue has bought a book. // Sue has purchased a book.

Buy (sotib olmoq) va purchase (xarid qilmoq) soʻzlari sinonimdir. Biroq har doim ham emas, baʼzi sinonimlarda boshqa sinonim izohlagan maʼno boʻlmasligi mumkin. Bu uning kognitiv maʼnosidan kelib chiqadi.

Nutqda turlicha sinonimik birliklar kuzatiladi.

Birinchidan, bir soʻz ibora bilan sinonimlik hosil qilishi mumkin. Masalan, *look* (qaramoq) feʼli *take a look* (qaramoq) frazasi bilan sinonimlikni hosil qiladi.

Ikkinchidan, birikmali holatda sinonim boʻlishi mumkin. Masalan, *buy into a company* birikmasi (kompaniyaning bir qism ulushini sotib olmoq, yaʼni hissador boʻlmoq) birikmasi *purchase the shares of a company* birikmasi bilan sinonimlikni hosil qiladi. *Buy* feʼlining “ishonmoq” maʼnosi ham mavjud, biroq bu oʻrinda u *purchase* feʼli bilan sinonim boʻla olmaydi, chunki *purchase* feʼlida “ishonmoq” maʼnosi yoʻq.

Qolaversa, *have a bought it* iborasi ma'nosi "o'ldirilmoq" bo'lib, bu o'rinda ham *have purchased it* iborasi bilan sinonimlik hosil qila olmaydi. Ingliz uyg kelgan holatda *I've purchased the beer, darling!* (Azizam, ichimlik olib keldim!) deya, *purchase* fe'lidan foydalanadi, *buy* fe'li "olib kelmoq" ma'nosida qo'llanmaydi.

Venger tilida ham *kutya – eb, kukorica – tengeri* so'zlari o'zaro sinonim hisoblanadi. Sinonimlar ma'no bo'yoqlari orqali biroz faqlansada, ayni bir tushunchani bildiradi.

Antonimlar ongimizda juft holda mavjud bo'lgan va bir-birini taqozo qiluvchi so'zlardir. Tilda bir-biriga semantik jihatidan zid bo'lgan so'zlar mavjud va tilda *antonimlar* yoki *bir-birini to'ldiruvchi so'zlar* deb nomlanadi. *Manage* (uddalay olmoq) so'zi *fail* ("muvaffaqiyatsizlikka uchramoq") so'zi bilan antonimlik hosil qiladi.

Antonimlar darajalanish tabiatiga ega: *big – small* (katta – kichik), *hot – cold* (issiq – sovuq). Antonimlar muvofiq ravishda *bigger – smaller* (kattaroq - kichikroq) kabi darajalanadi. Antonimlar ikki bir-biriga zid tushunchani, belgini, holatni ifoda etadi.

Oddiy darajaning qiyosiy daraja bilan qo'llanishi ham zidlikni yuzaga keltiradi. Masalan: *A big mouse is smaller than a small elephant!* (Katta sichqon kichik fildan kichikroqdir)".

Qarama-qarshilikni bildiruvchi yana bir turdagi antonim turi ham mavjud bo'lib, ular darajalanmaydi. Bunday so'zlar<sup>56</sup> misol qilib, quyidagi qarama-qarshi so'zlarni keltiramiz: *open – closed* (ochiq – yopiq), *dead – alive* (o'lik – tirik)<sup>56</sup>. Bunday antonimlar o'zbek tilidagi o'zaro qarama-qarshi bo'lgan nisbiy sifatlarga to'g'ri keladi.

Omonimlar va polisemik so'zlar. Shunday so'zlar mavjudki, ular ikki xil ma'no ifodalaydi (aslida omonimlar turli tushunchani ifodalovchi birdan ortiq so'zlardir). Bunday so'zlar *ambiguity* termini bilan yuritiladi. *Ambiguity*larga quyidagilar misol bo'ladi. Masalan, *string* (tor) so'zi ikki xil ma'noda qo'llanadi: *ecclesiastical building* "cherkovga oid binolar" hamda *people of the same religion* "bir dindagi odamlar jamoasi". *Mouse* so'zi ham ikki xil ma'noda, ya'ni "animal" (hayvon) va "computer accessory" (kompyuterning yordamchi qismi) ma'nolarida qo'llanadi. Talaffuz jihatdan bir xil bo'lgan, yozuvda farqlanadigan so'zlar, ya'ni *now* (hozir) va *know* (bilmoq); *weak*

<sup>56</sup> *Richter B. First steps in theoretical and applied linguistics.* -Budapest, 2006.-B.69

(zaif) va *week* (hafta) kabilar ambiguity bo‘la olmaydi. Venger tilida *szerelem* (ot) – *szerelem* (fe‘l); *követ* (ot) – *követ* (fe‘l) – *követ* (fe‘l) so‘zlari omonimlar hisoblanadi<sup>57</sup>. O‘zbek tilida omonimlik bir turkum, ikki turkum, uch turkum ichida sodir bo‘ladi.

Til birliklari ichida so‘z alohida o‘rin egallaydi. Uning bu xususiyati, ayniqsa, grammatik jihatdan qaralganda ko‘rinadi. Tilning eng kichik ma‘noli birligi hisoblangan morfema oralig‘ida so‘zning ma‘noli qismlari sifatida o‘zak, suffikslar olinsa, mustaqil so‘z shaklidagi gaplar (masalan, nominativ gaplar: Qish. Sovuq. Qorong‘i.) sintaktik jihatdan alohida gap turlari sifatida izohlanadi. Bu esa so‘zning grammatik (morfologik va sintaktik) xususiyatlarini ko‘rsata olsa ham, uning ta‘rifida morfema yoki gapga asoslanish mumkin emasligini ko‘rsatadi. Chunki, so‘z strukturasi semantik jihatdan ma‘noli qismlarga bo‘linish xususiyatiga egadir. To‘g‘ri, bir morfemadan tashkil topgan so‘zlar boshqa qismlarga bo‘linmaydi. Masalan, *u*, *tosh*, *bosh*, *yo‘l* kabi. Biroq tildagi ko‘pgina so‘zlar ma‘noli qismlarga bo‘lina oladi va ular bir necha morfemalarning birikishidan tashkil topadi. Masalan, *toshloq*, *boshliq*, *boychechak*, *gulsafsar*, *tartibli* kabilar. Bunday bir morfemali va ko‘p morfemali so‘zlarning o‘zagi mustaqil ma‘noga ega bo‘ladi. Demak, so‘z mustaqil ma‘noga ega bo‘lgan birlikdir. Lekin bunday qarash hamma tillarga ham to‘g‘ri kelavermaydi. O‘zbek, rus, ingliz, nemis, fransuz, ispan va boshqa ko‘p tillarda so‘z mustaqil birlik hisoblanadi. Uning mustaqilligi alohida olinganda ham, turli ma‘nolarni ifodalashida va ba‘zan fikr ifodalovchi gap holida kelishida ham ko‘rinadi.

So‘z butun birlik sifatida so‘z birikmalaridan farq qiladi. So‘z zanjirsimon birikkan qismlar – o‘zak, suffiks va hokazolardan tashkil topadi. So‘z birikmalari esa ayrim komponentlardan tashkil topib, umumiy ma‘noga ega bo‘lgan, ya‘ni leksik va grammatik jihatdan shakllangan birliklardir. Masalan, *kinoga bormoq*, *dars tayyorlash*, *kitob o‘qish*, *yoshlar klubi* kabi. So‘z birikmalarining biror komponentini almashtirish mumkin (qiyoslang: *kinoga/ teatrga/ o‘qishga/ maginga/ bormoq* kabi). Qo‘shma so‘zlar ba‘zan tuzilishi jihatidan so‘z birikmalariga o‘xshasa ham, ular yaxlit ma‘nosi bilan ajralib turadi: *temir yo‘l*, *gultojxo‘roz*, *chinni gul*, *qo‘lyozma* kabi. Ba‘zan qo‘shma

<sup>57</sup> Richter B. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.69

soʻzga “fonetik jihatdan bir urgʻu ostiga birlashgan bir qancha tovushlarning birikmasi” deb taʼrif beriladi. Bunday yondashuv toʻgʻri emas.

Soʻz shakli (tovush formasi) va mazmun yaxlitligiga ega boʻlib, semantik va grammatik yaxlitlikni oʻzida mujassamlantiruvchi birlikdir. U til strukturasi formal va maʼno jihati bilan toʻrt bosqichda ilmiy jihatdan tadqiq etiladi:

- fonologik jihatdan soʻzning fonemalar tarkibi va uning akzent (urgʻu) strukturasi oʻrganiladi;
- morfologik jihatdan soʻzning morfemik tuzilishi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi;
- leksik jihatdan soʻzning atama birlik ekanligi, yaʼni nom qoʻyish bilan bogʻliq tomoni oʻrganiladi;
- semantik jihatdan soʻzning turli maʼno qirralari tadqiq etiladi.

Bunday oʻrganishda soʻzning fonologik va morfologik tomonlari formal jihatini, leksik va semantik tomonlari mazmun jihatini oʻzida aks ettiradi. Biroq ulardan birortasini alohida olib tekshirish soʻzning formal va mazmun jihatlarining toʻliq yoritilishiga toʻsqinlik qiladi. Shu tufayli ular bir-biri bilan uzviy bogʻliq holda tekshirilishi zarur. Demak, soʻz til strukturasi barcha sohalari bilan bogʻliqdir.

Soʻzning lugʻaviy maʼnosi, *leksema* xususiyatlari, *semema*, *sema* tushunchalari semasiologiyada oʻrganiladi. Semasiologiya (*yun.* “belgi, ifoda” haqida tushuncha, taʼlimot) – til birliklarining, birinchi navbatda, lugʻaviy birliklarning semantik tuzilishi va u bilan bogʻliq masalalarni oʻrganadigan soha<sup>58</sup>.

Soʻz maʼnolari tushuncha ifodalaydi. Bunda inson ongida aks etgan obyektiv olamdagi narsa, hodisa, harakat, holat va belgi haqidagi tushuncha soʻzda oʻz ifodasini topadi. Bunday holat mustaqil maʼnoli soʻz turkumlariga xos. Masalan, ot turkumidagi soʻz narsa va hodisa haqidagi tushunchani ifoda etadi. Feʼllar harakat yoki holat haqidagi tushunchani bildiradi. Sifat va ravish turkumiga oid maʼnolar asosida belgi yotadi. Demak, bunday soʻzlar maʼnosi hamma vaqt tushuncha ifodalaydi. Soʻzlarning bunday maʼnolari *leksik maʼno* deb qaraladi. Leksik maʼnoli soʻzlar differensial-semantik metodning tekshirish obykti sifatida *leksema* deb nomlanadi. Soʻzning grammatik shakllarsiz qismi *leksema*dir: *paxtakorlikni*

<sup>58</sup> Хожиев А. Типология теминларнинг изоҳли луғати. -Т., 2062. -Б.83.

soʻzshaklida *paxtakor* leksema hisoblanadi. Leksemalar ot, sifat, son, olmosh, feʼl, ravish turkumiga mansub deb qaraladi. Shu metodga koʻra leksik maʼnolar *semema* deb atalgan. Sememalar *semalardan* tashkil topadi. Sema sememani tashkil qiluvchi belgilardir. Masalan, qor leksemasida “yogʻin” sememasini tashkil qiluvchi “oqlik”, (chiroyli koʻrinishdagi) “kristallik”, “eruvchanlik” belgilari uning semalari hisoblanadi.<sup>59</sup>

Soʻzning tashqi, yaʼni shakl tomoni fonetika va fonologiya hamda grammatikada atroflicha oʻrganiladi.

**Grammatik sath.** Har bir tilning grammatik sathi soʻzlarning grammatik formasi, soʻz birikmalari va gaplardan tashkil topadi. Tilning boshqa sathlari kabi grammatikaning ham oʻz birliklari bor. Eng kichik grammatik birlik *morfema* boʻlib, morfemalardan *soʻzlar* yasaladi, soʻzlar esa oʻz navbatida soʻz birikmalari va gaplar qurilishida ishtirok etadi. *Gap* grammatikaning yirik va mustaqil birligidir. Gapdan katta birliklar ham mavjud: *murakkab sintaktik (birlik) butunlik, abzas va matn*.

Til grammatik strukturasi oʻziga xos xususiyatlari bor.

**Birinchidan**, tilning grammatik qurilishi: soʻzning strukturasi, tuslanish va turlanish qoidalari, soʻz birikmalari va grammatikaning turlari tarixiy taraqqiyoti mahsul sifatida nisbatan turgʻun boʻladi.

**Ikkinchidan**, grammatika umumlashtirish xususiyatiga egadir. Masalan, arava, *maktab, tosh, bola* kabi soʻzlarning oʻz leksik maʼnosi bor, ammo grammatik nuqtayi nazardan bu soʻzlar predmetlik tushunchasini ifoda qilib, ot turkumini tashkil qiladi. Bu soʻzlar leksik maʼnosi jihatidan emas, grammatik maʼnosiga koʻra umumlashadi. Tilning grammatik strukturasi morfologiya va sintaksis oʻrganadi. Morfologiya soʻz turkumlari va ularning grammatik formalarini tekshiradi. Sintaksis nutqning grammatik strukturasi oʻrganadi. Bunda gap asosiy birlikdir. Gapdan katta birliklar shu kunga qadar sintaksisda oʻrganilar edi. Hozirda gapdan katta murakkab sintaktik butunliklar, abzas, matn alohida yoʻnalish sifatida ajralib chiqqan “Matn lingvistikasi”da oʻrganiladi.

Til tizimi til birliklari – fonema, morfema, leksema, konstruksiya va til sathlarining bir butunligidan iborat. Yuqoridagilardan koʻrinadi-

<sup>59</sup>Миртожиев М. Ўзбек тили семаснологияси.-Т.: Мунтоз соʻз. 2010.

ki, aloqa-munosabat vositasi bo'lgan tilning fonetik, leksik, grammatik jihatlari muayyan ichki qonuniyat asosida o'zaro mutanosiblikni tashkil etuvchi tizimdir. Tizimni tashkil qiluvchi mutanosiblik o'ziga xos bo'lgan alohida qoidalarda namoyon bo'ladi. Muayyan tildagi gaplar so'zlardan, so'zlar bo'g'inlarning birikuvidan, bo'g'inlar nutq tovushlaridan hosil bo'ladi. Jumlani, gapni tashkil etuvchi so'zlar o'zaro til qonuniyatlari asosida birikadi. Istalgan har qanday so'zlar yig'indisi gap bo'la olmaydi. Tartibsiz ravishda yig'ilgan so'zlar mazmun ifodalash uchun xizmat qilmaydi. So'zlarning ketma-ketligi ma'lum tartib va umumiy qoidaga muvofiq bo'lishi talab etiladi. Shu holatning o'ziyoq tilning tizim ekanligini ko'rsatadi. Ma'lum bir tilga xos tovushlar shu tilning fonetik tizimini, so'zlar leksik tizimini tashkil etadi. Bir tildan ikkinchi tilga o'zlashgan so'z ayrim hollarda shu tilning fonetik tizimiga – talaffuz me'yorlariga moslashadi. Masalan, o'zbek tiliga rus tilidan kirgan ayrim so'zlar o'zbek tili talaffuz me'yorlariga moslashgan: *чайник-choynak, поднос-patnis*. Aksincha, o'zbek tilidan rus tiliga o'zlashgan so'zlar rus tilining talaffuz me'yorlariga bo'ysungan: *qorovul – караул, karvon – караван, bozor – базар*.

Umuman, tilda tovushlar, lug'at tarkibi, grammatik tartib birikib, tizim sifatida bir butunlikni tashkil etadi. Til tizimini tashkil etuvchi sathlar o'zaro mutanosib holda bir-birini taqozo qiladi. Ular orasidagi bog'liqlik tilning umumiy qoyidolari va qonuniyatlariga asoslangan.

Grammatik sathning morfologiya bo'limida so'zning morfem strukturasi ham o'rganiladi.

“Morfologiya. Ingliz tilida ko'plikni bildirish uchun ko'plikni bildiruvchi “s” qo'shilishi bilan birga, uning oldidan sonlar qo'yishdan yoki son o'rnida qo'llanuvchi so'zlar (*many, a lot of*)dan foydalaniladi. Masalan, *One apple, two apples, three apples, four ...*(bitta olma, 2 ta olmalar, 3 ta olmalar, 4 ta...)

Quyida uning formulasi keltiriladi: 1 apple ... // 2 apple + s.

Ko'plikni ifodalashda o'zak o'zgarishini kuzatish mumkin. Masalan, *One mouse, two mice, three mice, four mice* (bitta sichqon, 2 ta sichqonlar, 3 ta sichqonlar, 4 ta sichqonlar).

Quyida uning formulasi keltiriladi: 1 mouse // 2 mice + s.

Har doim ham “s” ko'plik shakli shu holatda qo'shilmaydi. “s” ko'plik shakli bilan keluvchi otlar to'g'ri turlanuvchi otlar (Regular

plural), o'zak o'zgarishi bilan hosil qilinadigan otlar esa noto'g'ri turlanuvchi otlar (Irregular plural) deyiladi. Shakli quyidagicha:

- *regular plural* = *singular* + (e)s *book//books*;
- *irregular plural* = ??? [*har xil*] *mouse//mice*;

Noto'g'ri turlanuvchi otlarga quyidagilar misol bo'ladi:

- *child* (bola) – *children* (bolalar);
- *criterion* (mezon) – *criteria* (mezonlar);
- *foot* (oyoq) – *feet* (oyoqlar).

Bundan tashqari, fe'llar, sifatlarda ham to'g'ri va noto'g'ri turlanish yoki tuslanish mavjud. O'zakdagi o'zgarishlarni to'g'ri va noto'g'ri fe'llar tuslanishida ko'rish mumkin. Masalan:

- *go* (bormoq) – *went* (bordi);
- *cut* (kesmoq) – *cut* (kesdi)...

*Cut* fe'li o'tgan zamonda o'zak o'zgarishiga uchramasa-da, -ed qo'shimchasini olmaydi.

Sifatlarning morfologik tarkibida ham o'zak o'zgaradi. Masalan: *good* (yaxshi) – *better* (yaxshiroq) – *best* (juda yaxshi)"<sup>60</sup>.

So'z va qo'shimcha morfemalar. Ma'noli qismlar, ya'ni *apple* (olma) va -s (-lar) qo'shimchasi morfema deyiladi. Quyidagi so'zda 3 ta ma'noli qism mavjud: *un* + *employ* + *ment*. Bulardan *employ* (xizmat) qismi mustaqil (so'z) morfema, alohida qo'llana oladi. *Un-* va *-ment* qismlari esa yakka holda qo'llana olmaydi, shuning uchun ham ular qo'shimcha morfemalar hisoblanadi.

*Un-* qismi *prefix* (old qo'shimcha) hisoblanadi, *-ment* qismi esa o'zakdan so'ng keladi va bu qism *suffix* (o'zakdan so'ng keluvchi morfema) deyiladi. *Employ* esa o'zak (root)dir.

*Un-* prefiksi bilan boshlanuvchi so'zlarga misollar keltiramiz: *un+happy* (baxtsiz), *un+real* (g'ayritabiiy), *un+able* (imkonsiz), *un+conscious* (hushsiz).

Ushbu morfema ko'pincha sifatlarda oldidan keladi: *un* + *adjective*. *Un-* morfemasi qo'shilgandan so'ng ham sifat hosil bo'ladi. *Happy* (baxtli)/ *unhappy* (baxtsiz), qolaversa, *un-(-siz)* morfemasi o'rnida not (emas, yo'q) so'zi ham qo'llanishi mumkin. Bunda ma'noda sezilarli o'zgarish bo'lmaydi. Masalan: *unhappy* (baxtsiz) = *not happy* (baxtli emas).

<sup>60</sup> Richter B. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.36



-ment suffiksiga misollar quyidagicha: *govern+ment* (hokimiyat), *retire+ment* (nafaqa), *argu+ment* (munozara).

Ba'zi qo'shimchalar, xususan, *-er* morfemasi ot yasash va sifatlarda darajalash uchun xizmat qiladi. *Read+er* (kitobxon), *teach+er* (o'qituvchi), *learn+er* (o'rganuvchi), *writ+er* (yozuvchi), *walk+er* (yo'lovchi). Bunda fe'llardan ushbu morfema orqali ot yasalgan.

Sifatning qiyosiy darajasini hosil qiluvchi *-er* morfemasi fe'ldan ot yasovchi *-er* morfemasi bilan bir xil emas, ya'ni ular funksiyasiga ko'ra, bir-biridan farqlanadi: *quicker* (tezroq), *slower* (sekinroq), *nicer* (yaxshiroq), *uglier* (xunukroq), *smaller* (kichikroq) kabi.

*Ed is quick, but Liz is quicker* (Ed tez, biroq Liza tezroq) gapida *quicker* so'zi qiyosiy daraja hosil qiluvchi *-er* morfemasi asosida shakllangan.

*Quicker* (tezroq) va *reader* (kitobxon) so'zlaridagi *-er* morfemasi funksiyasiga ko'ra bir-biridan butkul farqlanadi<sup>61</sup>.

Barcha tillarda so'zlarni turkumlarga ajratishda, birinchi navbatda uning ma'nosiga asoslaniladi.

“So'zlarni turkumlarga ajratamiz:

- Ot (*umbrella* – soyabon)
- Fe'l (*arrive* – yetib bormoq)
- Sifat (*big* – katta)
- Ravish (*soon* – tezda)
- Predlog (*in, at, with, under*)
- Olmoshlar (*her, all, what*)
- Yordamchi fe'llar (*can* – “qila olmoq”, *has* – “bor”)
- Aniqlovchilar (*an, every*)
- Bog'lovchilar (*and* - va, *because* – chunki)
- Undov so'zlar (*Oops, Ouch*).

An'anaviy grammatikaga ko'ra, so'zlar ma'nosiga qarab aniqlanadi. Morfologiya uchun shakl muhim o'rin egallaydi (vengr tilida shakl “Alaktan” deb ataladi). Shuning uchun morfologiya so'zlarni shakily asosga ko'ra guruhlariga bo'ladi. Fikrimizni izohlashning oson yo'li lug'atlardagi so'zlarga e'tibor berishdir: *arrive* (yetib kelmoq) –

<sup>61</sup> Richter B. First steps in theoretical and applied linguistics. -Budapest, 2006.-B.37

fe'l, *should* (maslahat ma'nosida asosiy fe'ldan oldin ishlatiladi) – yor. damchi fe'l, *after* (keyin) – predlog<sup>62</sup>.

Til muayyan birliklarning yaxlitligidan iborat murakkab tizim hisoblanadi. Til birliklarining o'ziga xos tabiati professor Sh.Rahmatullayevning "Til qurilishining asosiy birliklari" qo'llanmasi, da izchil bayon etilgan:

Til–tabiiy yo'sinda vujudga kelgan murakkab ijtimoiy hodisa. Tilshunoslik ana shu murakkab ijtimoiy hodisani o'rganadi va o'rgatadi.

Tilshunoslik oldida turgan eng birinchi masala **tilni** qanday tushu. nishdan boshlanadi. Til kishilar orasidagi eng muhim aloqa-aralashuv quroli deyiladi. Bu lingvistik ta'rif emas, falsafiy ta'rif. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashilsa, **til** so'zini ikki xil mundarija bilan ishlatish mavjudligi ko'rinadi: 1) ijtimoiy hodisa bir butun holda tushuniladi, 2) ijtimoiy hodisaning nutqqa zid qo'yiladigan holatigina tushuniladi. Demak **til** deganda butunni ham (nutqni qamrab olgan holda), qismni ham (nutqni qamrab olmagan holda) tushunish mavjud. **Til** so'zini bunday ikki xil mundarija bilan ishlatish bir qancha milliy tilshunosliklarda mavjud. Masalan, **tilni** butunning nomi sifatida saqlab, nutqqa zidlanuvchi hodisani **lison** deb atash mumkin.

**Lison** – tilning kishi ongidagi til xotirasi markazida mavjud birliklardan va ulardan foydalanish qoidalaridan iborat boylik. **Nutq** esa ana shu boylikdan foydalanish jarayoni va shunday jarayonning hosilasi. Nutq ongda, insonning lisoniy xotirasida mavjud til imkoniyatlarining, til birliklarining tafakkur bilan uyg'unlashgan holda reallashuvidir (nutq jarayonining hosilasi tekst *matn* deb yuritiladi).

Lison kishi ongida mavjud mavhum hodisa bo'lib, uni aql bilan idrok qilamiz; nutq esa ana shu mavhum hodisadan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan moddiy hodisa bo'lib, uni talaffuz birliklari sifatida eshitamiz, matn sifatida ko'ramiz. Lisonga mansub, ya'ni til xotirasida mavjud hodisalarga **lisoniy birliklar** deyiladi; **lisoniy birlikning nutqda moddiy shakl olgan holatiga nutqiy birlik** deyiladi. Demak, har bir kishining ongida lisoniy birliklarning ramz. laridan va ulardan foydalanish qoidalaridan iborat boylik bor, har bir

<sup>62</sup> Richter B. First steps in theoretical and applied linguistics. -Budapest, 2006. -B.41

kishi ehtiyojiga qarab bu boylikdan foydalanib nutq hosil qiladi. Inson tili asosini tovush tashkil qiladi: tilda bor hodisalar tovushlarda real-lashadi. Tovush til birligi sifatida boshqa til birliklari uchun qurilish birligi bo'lib xizmat qiladi. Shunga ko'ra til tovushi til birliklarining birlamchi ifoda jihati deyiladi. Til tovushi lisoniy birlik sifatida miyadagi til xotirasi markazida ma'lum bir ramz sifatida aks etadi. Ana shu ramzda til tovushiga xos belgi-xususiyatlar haqida axborot bo'ladi. Masalan, u tovushi haqida "ovozdan iborat", "og'iz bo'shlig'i tor holatda", "tovush hosil bo'lish oralig'i til sathining orqa qismida", "lablar aktiv qatnashadi", degan axborot bor. Inson faoliyatini, shu jumladan, til faoliyatini ham boshqaruvchi miya markazidan u tovushini aytish haqida "ko'rsatma"(impuls) berilsa, shu tovush ramzida mujassamlangan axborotga binoan nutq a'zolari harakatga kelib, ko'rsatmaga binoan ma'lum holat egallaydi va o'pkadan chiqayotgan havo ma'lum nutq tovushi sifatida, nutqiy birlik sifatida namoyon bo'ladi"<sup>63</sup>.

O'zbek sistem tilshunosligi shakllanishi va rivojlanishi bir qator olimlar nomi bilan bog'liq. An'anaviy tilshunoslik erishgan yutuqlar yuksak baholangan, uning materiallaridan o'rinli foydalangan holda o'zbek sistem tilshunosligi yangi bosqichga ko'tarildi. Sistem-struktur tilshunoslik funksional, glossematik va deskriptiv maktablarining ratsional tomonlarini umumlashtirgan holda o'ziga xos lingvistik konsepsiya yaratildi.

Tilshunoslikning fonetika va fonologiya, semantika va semiotika, morfologiya va sintaksis, til tarixi va tilshunoslik tarixi, tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi: paralingvitsika va lingvopoetika, shuningdek tilshunoslikning umumnazariy masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. An'anaviy va struktur-tilshunoslik xususida A. Nurmonov "Bu ikki yo'nalish, Mahmud Koshg'ariy ta'biri bilan aytganda, ikki uloqchi o'tdek o'zbek tilshunosligi aravasini baravar tortib kelmoqda. Bu ikki yo'nalish bir-birini mutlaqo inkor etmaydi. Aksincha, ularning biri ikkinchisiga tayanadi va biri ikkinchisidan oziqlanadi." Olim sistem-struktur yondashuv asosida tilning barcha sathlarida amalga oshirilayotgan islohotlar shu vaqtga qadar mavjud ilmiy tadqiqotlarning na-

<sup>63</sup>Раҳматуллаев Ш. Тил қурилишининг асосий birliklari. -Т., 2002. -Б.5-7.


zariy bosqichi, tabiat va jamiyatdagi tabiiy rivojlanishning til ilmidagi ko‘rinishi ekanini ta’kidlaydi.<sup>64</sup>

### Savol va topshiriqlar

1. Tilni tizim sifatida ta’riflang.
2. Tilning rivojlanishi, ichki qurilishini til birliklari tahlili yordamida asoslang.
3. Til tabiatini o‘rganishga doir nazariyalar va oqimlarni ayting.
4. Tilning fonetik-fonologik sathini misollar asosida tushuntiring.
5. Fonetik-fonologik sathning morfologiya va sintaksis, leksika va uslubiyat bilan uzviy bog‘liqligini yoritng.
6. Tilning lug‘at sathi haqida bilganlaringizni umumlashtiring.
7. Tilning grammatik sathini tavsiflang.
8. Tilning murakkab ijtimoiy hodisa ekanligi haqida o‘z fikrlaringizni bayon eting.
9. Lison va nutqni bir-biridan farqlang.
10. Quyidagi semiotik belgilarni tavsiflang.



<sup>64</sup> Нурмонов А. Таъланган асарлар. I жилд. –Т.: Akademnasbr, 2012.-Б. 5-6.



## Asosiy tushunchalar glossariysi

**Til tizimi** – til birliklari: fonema, morfema, soʻz, gap va til sathlarining bir butunligidan iborat tizim sifatida bir-birini taqozo qiladigan birliklardan iborat butunlik.

**Ramz** – belgi boʻlib, til belgilar tizimidir.

**Fonologiya** – nutq tovushlarining vazifaviy qiymatini oʻrganadi. Fonologiyaning oʻrganish manbai fonemadir.

**Fonema** – soʻz, soʻz shakllari va morfemalarni tashkil etuvchi, maʼno farqlash uchun xizmat qiluvchi eng kichik, boshqa boʻlaklarga boʻlinmaydigan til birligi.

**Kvaziomonim** – tarkibidagi birgina fonema bilan farq qiluvchi soʻzlar.

**Etimologiya** – soʻzlarning boshlangʻich maʼnosi va shaklida boʻlgan oʻzgarishlarni aniqlaydi, oʻrganadi.

**Leksikografiya** – lugʻat va uning tuzilishini oʻrganuvchi tilshunoslik boʻlimi.

**Semasiologiya** – soʻzning maʼnosi va uning taraqqiyotini oʻrganuvchi tilshunoslik boʻlimi.

**Enklitika** – urgʻuli soʻzdan keyin kelib, urgʻu jihatdan unga qoʻshilib ketadigan soʻz.

**Proklitika** – urgʻuli soʻzdan oldin kelib, urgʻu jihatdan unga qoʻshilib ketadigan soʻz. Oʻzbek tilida proklitika, deyarli, uchramaydi.

**Lison** – kishining miyasida, miyaning til xotirasi qismida mavjud hodisalar va ularni ishlatish qoidalari.

**Nutq** – miyada, til xotirasida mavjud hodisalardan va ularni ishlatish qoidalaridan foydalanish jarayoni.

## Test

1. Til tizimini tashkil etuvchi asosiy sathlar qaysilar?
  - A) fonetik, etimologik, lugʻat
  - B) fonologik, morfemik, grammatik
  - S) fonetik-fonologik, lugʻat, grammatik
  - D) sintaktik, leksik, etimologik

2. Alohida apparatlar yordamida nutq tovushlari, bo‘g‘in, urg‘u va intonatsiyadagi artikulyatsion-akustik xususiyatlarni o‘rganish sohasi qanday nomlanadi?

- A) tasviriy fonetika
- B) eksperimental fonetika
- S) nazariy fonetika
- D) amaliy fonetika

3. Lisonga mansub, ya‘ni til xotirasida mavjud hodisalar qanday nomlanadi?

- A) lisoniy birliklar
- B) fonetik birliklar
- S) leksik birliklar
- D) grammatik birliklar

4. O‘zbek tiliga rus tilidan kirgan qaysi so‘z o‘zbek tili talaffuz me‘yorlariga moslashgan?

- A) karvon – караван
- B) bozor – базар
- S) чайник – choynak
- D) qorovul – караул

5. Grammatikaning yirik va mustaqil birligi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) gap
- B) so‘z birikmasi
- S) so‘z qo‘shilmasi
- D) so‘z

6. Shakli bir xil, ma‘nosi har xil bo‘lgan so‘zlar tilshunoslikda qanday ataladi?

- A) omonim
- B) antonim
- S) sinonim
- D) paronim

7. *Quyulmoq* – *quyilmoq* tarzidagi soʻzlar shakl va maʼno munosabatga koʻra qanday birliklar sirasiga kiradi?

- A) antonim
- B) sinonim
- S) paronim
- D) omonim

8. *Qiziq–gʻalati–ajoyi–alomat–antiqa yaxshi–durust–tuzuk* sinonimik qatoridagi qaysi sinonim soʻzlar belgini kuchsiz darajada ifodalagan?

- A) ajoyib, tuzuk
- B) alomat, qiziq
- S) durust, tuzuk
- D) antiqa, yaxshi

9. *Kuz shamoli* – *kuzgi shamol* sinonimlari qanday nomlanadi?

- A) grammatik sinonimlar
- B) lugʻaviy sinonimlar
- S) frazeologik sinonimlar
- D) leksik-frazeologik sinonimlar

10. *Doston* – *poema* sinonimlarning qanday turiga kiradi?

- A) maʼnoviy sinonimlar
- B) toʻliq sinonimlar
- S) frazeologik sinonimlar
- D) grammatik sinonimlar



## 6-§. TIL BIRLIKLARI O'RTASIDAGI LISONIY MUNOSABATLAR

### Reja:

1. Paradigmatik munosabat va uning xususiyatlari.
2. Sintagmatik munosabat. Iyerarxik munosabat. Assotsiativ munosabat.
3. Fonematik sath unsurlarining pog'onali munosabat doirasidagi o'rni.

**Asosiy tushunchalar:** *paradigma, paradigmatic qator, paradigmatic munosabat, fonetik sath (yarus), bo'g'in, fonologik sath, fonema, morfema, o'zak morfema, affiksial morfema, so'z yasovchi morfema, lug'aviy shakl yasovchi morfema, sintaktik shakl yasovchi morfema, so'z, sintagmatik munosabat, morfonologik sath, grammatik shakl, iyerarxik (pog'onali) munosabat, assotsiativ munosabat, aranjirovka (tartib).*

Ilmiy paradigma (yunoncha "misol, namuna") fan obyektini, uning muayyan davrda hokim bo'lgan nazariy tushunchalarini o'rganishga yo'naltirilgan va shu asosda fanning turli bo'limlarida o'xshash bo'lgan, o'zaro bog'langan muayyan tadqiqot metodlari majmuyidir. Mazkur termin 1962-yilda amerikalik faylasuf va tarixchi T. Kunning mashhur "Ilmiy inqiloblar strukturasi" («Структура научных революций»; rus tiliga 1977-yilda tarjima qilingan) asarida muomalaga kiritilgan. T. Kunga ko'ra "paradigma – o'z tadqiqot faoliyatiga va obyektiga ega bo'lgan, mushtarak ilmiy va falsafiy g'oyalar bilan birlashgan u yoki bu ilmiy yoki falsafiy hamjamiyatlar tomonidan qo'llanadigan o'ziga xos metodlar va usullar yig'indisidir". Paradigmatika – til birliklarini til tizimiga mansub paradigmalarning unsuri sifatida tekshirish aspekti. Paradigmatik munosabat – bir paradigmaga birlashuvchi til birliklarining o'zaro munosabati. Paradigmatik munosabatlar bir so'z turkumiga mansub va ma'no jihatidan birmuncha umumiylikka ega bo'lgan so'zlar orasida vujudga keladi. Bunday so'zlar majmuasiga kiruvchi

birliklar gap tarkibida bir xil pozitsiyalarda bir-birlarining o'rnida ishlatilishi mumkin. Paradigmatik va sintagmatik munosabatlar lug'aviy birliklarning semantik xususiyatlari bilan o'zaro uzviy bog'langan. Paradigmatik munosabatlar so'zlarni semantik sinflarga bo'lish uchun asos vazifasini bajaradi. Bir paradigmatik sinfdagi birliklarning jumla tarkibida bajarayotgan vazifalari o'zaro o'xshashdir.

Paradigmatik qator – ma'lum umumiylik xususiyati asosida birlashib, ayrim farqli (o'ziga xos) xususiyati bilan qarama-qarshi turadigan va nutqiy aloqa talablarig'a ko'ra biri ikkinchisi bilan almasha oladigan birliklar (unsurlar).

F.de.Sossyurning lingvistik birliklar o'rtasidagi munosabatga jiddiy e'tibor berganligi qiymat tushunchasini belgilashda ham, tilning sistemaviy tabiatini belgilashda ham aniq ko'rinib turadi. Uning fikricha, tilning muayyan bir davrida har bir narsa munosabatlarga asoslanadi. Barqaror (uzual) munosabatlar yig'indisi tilni tashkil etadi va uning funksiyalanishini belgilaydi. Shuning uchun tizimning har bir a'zosi boshqa a'zolar bilan sintagmatik va assotsiativ munosabati orqali aniqlanadi. F.de.Sossyur munosabatlarni xarakteriga ko'ra ikki guruhga ajratadi: a) sintagmatik munosabat; b) assotsiativ munosabat. Bu ikki munosabat aqliy faoliyatimizning ikki shakliga muvofiq keladi.

Lingvistik sathlar birliklarining o'zaro munosabati tilning nutqda kommunikativ vazifa bajarishini ta'minlovchi asosiy omil sanalar ekan, bu o'rinda til va nutq birliklarining paradigmatik, sintagmatik hamda iyerarxik bog'lanishi masalasining ustuvor ahamiyat kasb etishi tabiiydir. Mazkur bog'lanish esa, o'z navbatida, murakkab xarakterlidir. Zotan, paradigmatik munosabatni sintagmatik munosabatdan, sintagmatik munosabatni esa iyerarxik munosabatdan ayri holda tasavvur etish qiyin. Chunki muayyan paradigmatlar a'zolarining o'zaro bog'lanishidan sintagmatik munosabat, sintagmatik munosabat doirasida esa iyerarxik munosabat shakllanadi<sup>65</sup>. Har qanday sath birliklarining sintagmatik bog'lanishi ular tegishli bo'lgan sathdan bir pog'ona yuqorida turuvchi sath ichida voqelanadi. Bundan tashqari, sintagmatik munosabat doirasida o'ziga xos paradigmatik munosabat ham voqelanadi. Buning dalilini sintaktik paradigmatlarda ko'ramiz.

<sup>65</sup>Караг: Солнцев В. М. Язык как системно-структурное образование. –М., 1971. –С.85.

Iyerarxik munosabat haqida til va nutq birliklarining sathlararo bog‘lanishi jarayonidagina so‘z yuritish mumkin (bundan, albatta, til va nutq birliklarining ichki differensial belgilariga asoslanuvchi pog‘onalilik istisnodir).

Sintagma (yun.) – “birlashgan narsa”, nutqning mazmun va ritmo-melodik jihatdan bir butunlikni tashkil etuvchi semantik-sintaktik birli-gi. Sintagma bir yoki undan ortiq so‘zdan iborat bo‘lishi, hatto gapga teng bo‘lishi mumkin: *Litsey o‘quvchilari / shahmat musobaqasida/ gu-ruh tarkibida /ishtirok etadilar.*

Sintagmatika – til birliklarini nutq zanjiridagi unsurlar sifatida tek-shirish aspektidir. Sintagmatik munosabat –til birliklarining nutq oqi-mida yuz beradigan xususiyatlari asosidagi munosabatlari. Mas., allofonlar – fonemaning sintagmatik xususiyatlari, so‘zlarning valentligi esa ularning sintagmatik xususiyatlaridir.

Sintagmatik munosabat ikki va undan ortiq munosabat a‘zolari-niing aktual ketma-ketligiga asoslansa va “in praesentia” bo‘lsa, assotsi-ativ munosabat bunday munosabat a‘zolarini virtual, mnemonik qatorga birlashtiradi, ularning a‘zolari doimo “in avbsentia” bo‘ladi.<sup>66</sup>

So‘z nutq jarayonida o‘zaro bog‘lanib, ketma-ketlikka asoslangan munosabatga kirishadi. Ketma-ketlik xususiyati ikki elementning bir vaqtda talaffuz qilinishiga imkon bermaydi. Bu elementlar nutq oqi-mida biri ikkinchisidan keyin keladi. Ana shunday cho‘ziqlikka ega bo‘lgan bog‘lanish F.de Sossyur fikriga ko‘ra, sintagma sanaladi. Sin-tagma doimo eng kamida ikkita ketma-ketlik birliklarining o‘zaro munosabatidan tashkil topadi.

Sintagma a‘zolari o‘zidan oldin yo o‘zidan keyin kelgan birliklar-ga yoki har ikkisiga zidlanishiga ko‘ra ma’lum qiymatga ega bo‘ladi.

Sintagma ikki va undan ortiq birliklarning erkin bog‘lanishi natijasida hosil bo‘lganligi uchun sintagmatik munosabat ayrim mu-alliflar tomonidan nutqqa xos, deb baholanadi. Lekin F.de Sossyur uning ham tilga, ham nutqqa daxldor ekanligini ko‘rsatadi. F.de Sos-syurning fikricha, sintagmaning tipik ko‘rinishi gap bo‘lsa ham, gap nutqqa xos bo‘lganligidan kelib chiqib, sintagma faqat nutqqa daxl-dor bo‘ladi, degan xulosaga kelish to‘g‘ri emas.

<sup>66</sup> Ф. де Соссюр. –С. 156

Nutqning xarakterli belgisi elementlarning erkin almashuvidir. Sintagmaga ana shundan kelib chiqib yondashadigan bo'lsak, sintagmaga daxldor bo'lgan bir qator sintaktik qurilmalar barqarorlik xususiyatiga ega ekanligi ma'lum bo'ladi. Masalan, maqollar, frazeologizmlar va boshqalar. Bunday ifodalar nutq jarayonida hosil qilinmaydi, balki an'anaga ko'ra tayyor holda nutqqa olib kiriladi.

Bundan tashqari, F.de Sossyur ma'lum qoidalar asosida qurilgan barcha sintagmalarni ham nutqqa emas, balki tilga kiritish lozim, deydi. Chunki bunday qurilmalarning tilda tayyor namunalari mavjud bo'ladi. Shuningdek, muayyan shablonlar asosida shakllangan birikma va gaplar haqida ham shu fikrni aytish mumkin. Bunday shablonlar so'zlovchi xotirasida oldindan mavjud bo'ladi.

Pog'onali (iyerarxik) munosabat tushunchasi til va nutq sathlari voqeligi va ularning lingvistik tabiati bilan uzviy bog'liqdir, zotan, *pog'ona* terminining asl mohiyati sathlar o'rtasidagi stratifikativ bog'lanishda o'z ifodasini topadi. Boshqacha aytganda, lingvistik sath qatlam ma'nosini taqozo etadi, ular o'rtasidagi bog'lanish esa pog'onali bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, til taraqqiyotining bugungi davri lingvistik maqomga ega bo'lgan sath tushunchasini faqat til nuqtayi nazaridan emas, balki nutq nuqtayi nazaridan ham izohlash lozimligini ko'rsatmoqda. Bu esa, o'z navbatida, odatdagi sath (yarus) tushunchasi izohtalab bo'lib qolayotganligidan dalolat bermoqda.

Tilshunoslik manbalarida *fonetik sath, fonologik sath, morfonologik sath, bo'g'in sathi, allofonik sath* kabi qator tushunchalar qo'llanilmoqda. Sath tushunchasining bu darajada izohlanishi masala mohiyatini konkretlashtirish uchun emas, balki uni mavhumlashtirish uchun xizmat qiladi. Vaholanki, eslatib o'tilgan barcha sathlarni yagona fonematik sath tushunchasiga birlashtirish mumkin. *Sintaktik sath* tushunchasi ham til nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Agar mazkur sathning asosiy birligi gap hisoblanadigan bo'lsa, u holda uning til sathi tarzida tavsiflanishi izoh talab etadi.

Avval shuni eslatib o'tish lozimki, til sistemasida uning eng kichik birliklarini birlashtiruvchi sath masalasi hozirgacha munozarali bo'lib qolmoqda. Ba'zi tilshunoslar bu o'rinda «fonetik sath» tu-

shunchasidan foydalansalar, boshqa birlari «fonologik sath» tushunchasini qoʻllashni maqsadga muvofiq deb bilmogdalar, ayrimlari esa bunday sathning mavjudligini inkor etayotganini koʻramiz. Masalan, S.D.Katsnelson sathlar mavjudligini, aniqrogʻi, shu nom bilan aytilishini inkor etadi<sup>67</sup>.

A.A.Reformatskiy tadqiqotlarida fonetik sath (yarus) tushunchasi qoʻllanadi va bunda muallif Boduen de Kurtene gʻoyasiga asoslanadi: «Eng avval odam tusiga kirib qolgan «soʻz tovushlardan tashkil topadi» degan aqidadan voz kechmoq kerak, zotan, mazkur tushuncha mutlaqo izohtaladidir. Chunki, birinchidan, soʻz morfemalardan tashkil topadi (hatto bir morfemali soʻzlar ham bundan mustasno emas); ikkinchidan, morfemalar tovushlardan emas, balki fonemalar vositasida shakllanadi. Nutqda talaffuz etiladigan tovushlar fonemalarni taqozo etadi, fonemalar morfemalar uchun qurilish materialidir»<sup>68</sup>.

Albatta, tilning fonologik sathi birliklari faqat morfematik sath birliklari bilangina uzviy aloqador emas, balki barcha sath birliklarini ham fonologik birliklar ishtirokisiz tasavvur etish qiyin. R.I.Avanesov taʼbiri bilan aytganda: «Tilning grammatik qurilishini, uning lugʻat tarkibini oʻrganish, fonetik sistemasini oʻrganishni ham taqozo etadi»<sup>69</sup>. Biroq bu bilan fonetika va grammatikani qorishtirib yuborish mumkin, degan xulosaga kelib boʻlmaydi. R.I.Avanesovning quyidagi fikri haqiqatdir: «...fonema bilan maʼno tushunchasi oʻrtasida uzviy aloqa mavjud boʻlsa ham, bu munosabat bevosita emas, balki bilvositadir. Zotan, fonema soʻz maʼnosini emas, uning tovush qobigʻiniga farqlaydi»<sup>70</sup>. H.Jamolxonovning bu haqdagi mulohazalarida ham shu tarzda belgilanadi: «Fonema – soʻzlar, morfemalar va grammatik shakllarning tovush qobigʻini farqlash orqali ularning maʼnolarini tafovutlash vazifasini bajaradigan eng kichik segment birlikdir»<sup>71</sup>.

<sup>67</sup> Бу ҳақда қаранг. Мартынов В.В. Два уровня языковой действительности и двойное членение языка // Уровни языка и их взаимодействие. –М., 1967. –С.101.

<sup>68</sup> Реформатский А.А. О соотношении фонетики и грамматики (морфологии) // Вопросы грамматического строя. –М., 1955. –С.95.

<sup>69</sup> Аванесов Р.И. Кратчайшая звуковая единица в составе слова и морфемы // Вопросы грамматического строя. –М., 1955. –С.113.

<sup>70</sup> Аванесов Р.И. Курсат тили тасар, 114-115-бетлар.

<sup>71</sup> Jamolxonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –T., 2005, 38-bet.

Fonemaning morfema yoki soʻzning tovush qobigʻini farqlashi shunchaki fonetik oʻzgarish emas. Bu jarayonda fonema oʻzining differensial belgilarini namoyon etadi. Albatta, uning bunday xususiyati hozirgi tilshunoslikda ichki pogʻonali munosabat deb atalayotgan fonologik hodisaning vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, bu xildagi differensial belgilar fonematik sath ichida **merizmatik sath** nomi bilan ataluvchi mikrosathning vujudga kelishi uchun asos boʻladi. Fonemaning differensial belgilari segmentlarni tashkil eta olmaydi. Lekin shunday boʻlsa ham, u fonemaning ichki boʻlinishini taqozo etishi bilan ajralib turadi. Fonemalarning differensial (merizmatik) belgilari fonematik sath ichida yashovchi quyi sathni (subfonematik) tashkil etadi<sup>72</sup>. Shu bois ayni paytda fonematik va quyi fonematik sathlar unsurlari oʻrtasida pogʻonali munosabat shakllanadi.

Merizmatik sath birliklari (aniqrogʻi, unsurlari), fonematik sath birliklaridan farqli ravishda, sintagmatik munosabatga kirisha olmaydi. Ular oʻrtasida faqat paradigmatic munosabat shakllanadi. Shuning uchun baʼzi tilshunoslar merizmalar alohida sathni tashkil eta olmasligini taʼkidlaydilar. Masalan, V.M.Solnsev merizmalar sintagmatik munosabatga kirisha oʻlmagani uchun, ular til sathlariga taalluqli boʻlgan «...dan tashkil topadi», «...ga kiradi» shartiga javob bera olmasligini va shu bois ularni alohida sath tarzida talqin etish notoʻgʻri ekanligini aytadi<sup>73</sup>. Bizningcha, V.M.Solnsevning mazkur fikri haqiqatga yaqin. Shuning uchun tilshunoslik adabiyotlarida bu oʻrinda «subfonematik sath» tushunchasidan foydalanilmoqda.

Shuni ham taʼkidlash lozimki, fonemalar fonematik sath doirasidagina paradigmatic munosabatda boʻladi. Ular fonematik sathdan katta sathlar birliklarida belgining ifodalovchi jihatini tashkil etib, oʻzaro sintagmatik munosabatga kirishadi. Lekin sathlar munosabati bunday xususiyat kasb eta olmaydi. Chunki, ular pogʻonali munosabat qurshovida boʻladi. Shu bois fonematik sath bilan morfematik sath, morfematik sath bilan soʻz sathi va h.k. oʻrtasidagi munosabat vertikal chiziq doirasida boʻladi<sup>74</sup>.

<sup>72</sup>Қаранг: Головин Б.Н. Язык // Общей языковедения. —М., 1979. —С.144

<sup>73</sup>Қаранг: Солнцев В.М. О понятии уровня фоновой системы // Вопросы языковедения, 1972. —№3. —С.14.

<sup>74</sup>Қаранг: Колшанский Г.В. Проблемы стратификации языка // Вопросы языковедения, 1968 - №2. —С.16.

Fonematik sath birliklarining ichki pog'onali munosabatini nisbiy tushunmoq kerak. Chunki fonemalarning differensial belgilari nutqda o'zining aniq ifodasini topadi, zotan, ular fonemalarning artikulyasion va akustik jihatlarini bilan uzviy bog'liqdir<sup>75</sup>.

Ravshanki, fonema nutqning minimal segmenti vazifasida kela oladi, prosodema hamda ritmik-aksentuatsion vositalar esa bunday funksiyani bajarolmaydi. Bu jihatdan ularni fonemalarning differensial belgilari bilan qiyoslash mumkin. Biroq differensial belgilar fonematik sath doirasida ichki pog'onali munosabatni shakllantiradi, urg'u, ritmik-aksentuatsion vositalar hamda prosodemaning esa bunday xususiyatlari yo'q. Ammo mazkur vositalarning nutqni segmentlash uchun, fonemalarning nutqdagi holatini (bo'g'in tarkibida) belgilash uchun ta'siri kattadir. Ichki pog'onali munosabat vujudga kelishi jarayonida fonema integrativ funktsiya bajaradi<sup>76</sup>.

*Fonematik sath birliklari bilan morfematik sath birliklari o'rtasidagi pog'onali munosabat.* Fonematik sath birliklari bilan morfematik sath birliklari o'rtasidagi munosabat tilning ma'no anglatmaydigan unsurlarining ma'no li unsurlar sathiga kirishini taqozo etadi. Bu jarayonda fonematik sath birligi fonema o'zining differensial belgilari orqali morfemaning tovush qobig'ini tashkil etadi va bu bilan ma'no ifodalanishi uchun xizmat qiladi.

Fonemalarning real qo'llanishida bo'g'in tushunchasining ham o'z o'rnini bor. Biroq bo'g'inni til sathi yoki fonematik sath ichidagi mikrosath sifatida talqin etishni maqsadga muvofiq emas, deb biladilar. Bo'g'in morfemalar va so'zlar sathida o'z maqomiga ega bo'luvchi fonetik hodisadir. Uning ba'zi paytlarda morfemalar bilan shaklan bir xil bo'lib kelishi ham til birliklarining pog'onali munosabatiga daxldor emas. Pog'onalilik (sathlararo tovush beruvchi) munosabati tilning quyi sathi bilan morfematik sathi o'rtasida boshlanadi. Fikr dalili uchun quyidagi morfemalarning tovush jihatlariga ahamiyat beraylik: **-ning, -ni, -da, -dan.**

Ayni paytda kelishik qo'shimchalari grammatik ma'nosiga ega bo'lgan affiksial morfemalarni ko'ramiz. Birinchi morfema tarkibida *n*,

<sup>75</sup>Каранг: Баранникова Л.И. Основные сведения о языке. - М., 1982. - С. 60.

<sup>76</sup>Каранг: Бабаев И.А. Фонетические единицы и их терминологическое обозначение // И.А. Бодуэн де Куртене и в современной лингвистике // Бодуэн де Куртене и современная лингвистика. - М., 1989. - С. 41.

*i*, *ng* fonemalari, ikkinchisida *n*, *i*, uchinchisida *d*. *a* va to'rtinchisida *d*, *a*, *n* fonemalarining sintagmatik munosabati shakllanib, ularning barchasi fonemadan katta til birligi – morfemaning tovush qobig'i vositasida berilgan morfemalarni bir-biridan farqlamoqda. Bundan tashqari, mazkur fonemalar shu morfemalarning ma'no xususiyatlari shakllanishi uchun ham faol xizmat qilmoqda. Demak, bu o'rinda fonematik va morfematik sathlar birliklari o'rtasida vujudga kelayotgan pog'onali munosabat fonemalarning differensial belgilari (unli-un-dosh), ma'no farqlovchi tovush qobig'ini shakllantirishida ko'zga tashlanadigan funksional qiymati hamda ma'no hosil qiluvchi sintagmatik bog'lanishi orqali voqelanmoqda. Shu narsa xarakterliki, fonematik sath birliklari morfematik sath doirasida qo'llanishi jarayonida o'zaro bog'lanishi barobarida ana shu morfematik sath birligini shakllantiradi. Boshqacha aytganda, quyi sath birliklari yuqori sath birligi vujudga kelishi uchun asosiy material bo'lib keladi<sup>77</sup>.

Tilga tizim sifatida yondashib, til qurilishining asosiy birliklarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. Til qurilishining asosida yotuvchi birliklar sifatida *til tovushlari* ta'kidlanadi. Til tovushi birlamchi qurilish birligi sifatida til birliklaridan tub leksemaga, tub morfemaga ifoda jihati sifatida xizmat qiladi. Faqat ifoda jihati bo'lishini nazarda tutib til tovushi bir jihatli birlik deyiladi.

Til tovushining ikki holati – lisoniy birlik holati va nutqiy birlik holati farqlanadi.

Til tovushlari inson a'zolarining ijtimoiy-biologik taraqqiyot jarayonida ma'lum bir funksiyaga xoslanishi natijasida yuzaga keldi. Inson tana a'zolarining muayyan qismi nutq tovushlarini hosil qilishga yo'naltirildi. Nutq apparati shakllandi. Nutq tovushlari ayrim xususiyatlariga ko'ra tabiiy tovushlarga, jonzotlar tovushlariga o'xshash jihatlariga ega. Ammo ulardan funksional xoslangani, muayyan tushunchalarni, lug'aviy ma'nolarni, kengaygan ma'nolarni, fikrni ifodalashga xizmat qilishi bilan farqlanadi. Nutq tovushlari og'zaki ifoda va harf ko'rinishida ma'lum bir semantik qiymatga ega bo'ladi. Nutq tovushlarining bu

<sup>77</sup>Карагн Демьянков В.З. Теория языка и динамика американской лингвистики на страницах журнала «Language» (К 65-летию основания журнала) // Вопросы языкознания. №4, 1989. – С 143



qiymati miya faoliyati, nutq mexanizmining tizimli ravishda namoyon bo'lishi orqali reallashadi.

Miyadagi til xotirasi qismida shu tildagi barcha til tovushlarining ramzi bo'ladi, bu ramzlar shu tildagi tovushlarning artikulyatsion bazasini (nutq a'zolarini tovush hosil qilishga jalb etish ko'nikmalari yig'indisini) tashkil etadi. Boshqa tilga mansub tovushning noto'g'ri talaffuz qilinishi bunday tovush uchun miyaning til xotirasi qismida maxsus ramzning yo'qligi bilan izohlanadi. Bunday begona tovush uchun miyaning til xotirasi qismida ramz paydo bo'lsa, shundan keyingina bu tovushni to'g'ri talaffuz qilishga erishiladi. Masalan, o'zbek tili tovushlar tizimiga sirg'aluvchi *j* tovushi xos bo'lmagan, eroniy til egalari bilan uzoq muddat birga yashash, doimiy muloqotda bo'lish natijasida bu tovush *ajdar*, *mujda*, *gijda* kabi til birliklari tarkibida o'zbek tiliga qabul qilingan, natijada bu tovush uchun miyaning til xotirasi qismida alohida ramz paydo bo'lgan.

Til tovushi o'zicha ma'no bildirmaydi, ma'no bildiradigan til birliklariga ifoda jihati bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy, birlamchi til birliklari – *leksema* va *morfema*. Bulardan leksema yetakchi, morfemani o'ziga qo'shib oluvchi birlik, morfema esa tobe, leksemaga qo'shib keluvchi birlik.

Til birligi bo'lish uchun bir butunni tashkil qiluvchi ikki jihat – ifoda jihati va mazmun jihati mavjud bo'lishi lozim. Leksemaning, morfemaning ifoda jihati bo'lib til tovushi xizmat qiladi, shunga ko'ra bu til birliklari segment til birliklari deyiladi (lot. *segmentum* – 'qism', 'parcha'). Leksema va morfemaning mazmun jihati asosini ma'no (leksik ma'no va grammatik ma'no) tashkil etadi. Masalan, *qo'l* leksemasining ifoda jihati bo'lib *q*, *o*, *l* tovushlarining shunday tartibda joylashgan qatori xizmat qiladi; mazmun jihati asosini 'gavdaning yelkadan boshlanib, barmoq uchigacha davom etadigan qismi' ma'nosi tashkil etadi; *-di* morfemasining ifoda jihati bo'lib *d*, *i* tovushlarining shunday tartibda joylashgan qatori xizmat qiladi, mazmun jihatini 'aniq yaqin o'tgan zamon' ma'nosi tashkil etadi.

Leksemaning, morfemaning til birligi sifatida ikki holati – lisoniy birlik va nutqiy birlik holati farqlanadi. Lisoniy birlik sifatida leksema va morfema mavhum birlik hisoblanadi. Miyaning til xotirasi qismida har bir leksemaning, morfemaning alohida

ramzi bo'lib, ana shu ramzdagi axborotdan foydalanish qoidalari ham mavjud; har ikkisi asosida leksemalarning, morfemalarning talaffuz birligi holati yuzaga keltiriladi; leksema va morfema ana shunday nutqiy birlik holatida moddiy birlik, segment birlik sifatida namoyon bo'ladi.

Til tovushi leksema uchun, morfema uchun qurilish ashyosi bo'lib xizmat qiladi, lekin til tovushi bilan leksema, morfema orasidagi munosabatni iyerarxik (pog'onali) munosabat deb bo'lmaydi, chunki leksema, morfema til tovushlarini bir-biriga qo'shish yo'li bilan emas, balki ma'lum bir tovushga, tovushlar qatoriga ma'lum bir mazmunni birkiritish yo'li bilan hosil qilingan.

Tom ma'nodagi pog'onali munosabat leksema va morfema bilan ularni qo'shib tuziladigan birlik – *leksemashakl* orasida mavjud. Leksemashakl – birlamchi tuzma birlik. Leksemashakl lisoniy birlik sifatida modeldan (qolipdan) iborat; bu qolip leksema va morfema bilan to'ldiriladi, natijada leksemashakl talaffuz birligi – nutqiy birlik sifatida namoyon bo'ladi, ana shu holatida moddiy birlikka, segment birlikka aylanadi. Masalan, ot leksemashakl tuzish qoliplaridan biri "leksema+sonlovchi+turlovchi" shakliga ega; ana shu qolipda *bola-* leksemasini *-lar, -ni* morfemalari bilan to'ldirib, *bolalarni* leksemashakli tuziladi. Demak, leksemashakl lisoniy birlik sifatida supersegment birlik bo'lib, nutqiy birlik holatida segment birlikka aylanadi.

Leksemashakl qaysi leksema asosida tuzilsa, o'sha leksema mansub turkum nuqtayi nazaridan biror sintaktik vazifa bajarish uchun yetarli darajada grammatik shakllangan bo'ladi, shunga ko'ra leksemashakl birlamchi sintaktik birlik deyiladi.

Navbatdagi pog'onali munosabat leksemashakl va leksema bilan ularning sintaktik bog'lanishi natijasida tarkib topadigan birikma orasida voqe bo'ladi. Birikma ikki a'zoli bo'lib, o'zbek tilida tobe a'zo leksemashakl bilan, hokim a'zo esa leksema bilan ifodalanadi. Birikma tushuncha anglatish uchun xizmat qiluvchi sintaktik birlik bo'lib, shunga ko'ra nominativ birlik deyiladi, shu jihati bilan leksemaga o'xshaydi. Birikmaning asosiy vazifasi – predmetni, predmetning harakat-holatini ma'lum bir belgisi bilan birgalikda anglatish: *sifatli mato-, derazaning ko'zi-, tez yugur-* kabi.

Birikma – tuzma birlik; lisoniy birlik sifatida miyaning til xotirasi qismidagi qolipga teng, ana shu qolip leksemashakl va leksema bilan to'ldirilganidan keyin segment birlik holatiga o'tadi, o'z tabiati va sintaktik vazifasiga binoan ma'lum grammatik shakl olib, birik-mashaklga aylanganidan keyin talaffuz birligi sifatida nutqiy birlik bo'ladi.

Tilning eng muhim birligi – *gapshakl*, chunki fikr gapshakl bilan anglatiladi. Lisoniy birlik sifatida gapshakl miyaning til xotirasi qismida qolip holatida mavjud; ana shu qolipdagi axborotga binoan talaffuz birligi sifatida hosil qilingan nutqiy birlikka *jumla* deyiladi.

Gap uchun qurilish ashyosi bo'lib leksemashakl ham, birikmashakl ham xizmat qiladi, lekin bu yerda pog'onali munosabat yo'q: predikativlik ko'rsatkichlari bor leksemashakl, birikmashakl gaplik (predikativ) intonatsiyasi bilan talaffuz qilinsa, gapga teng holatga o'tadi. Masalan, *ketdi* – fe'l leksemashaklga teng; predikativ ko'rsatkichlarga ega ushbu leksemashakl gaplik intonatsiyasi bilan talaffuz qilinsa, gapshakl holatiga o'tadi. Demak, gap lisoniy birlik sifatida supersegment birlik bo'lib, nutqiy birlik sifatida segment birlikka aylanadi.

*Frazema* – tabiati murakkab til birligi. Mazmun jihati bilan leksemaga tenglashsa, tuzilishi jihatidan birikmaga, gapshaklga teng. Lekin til birligi sifatida birikmadan, gapshakldan farqli holda qolipning o'zidan iborat emas, balki aniq leksemashakl, leksema bilan to'ldirilgan bo'ladi, shunga ko'ra frazema segment birlik deyiladi.

Asli frazema mazmun jihati bilan ham leksemadan jiddiy farqlanadi: *ammanning buzog'i – lapashang, oshig'i olchi – ishi yurishib turmoq* kabi.

Assosiatsiya – til birliklarining shakli yoki mantiqiy-semantik belgisiga ko'ra o'zaro birlashuvi. So'z sintagmatik munosabatga kirishishi bilan birga nutqiy jarayondan tashqarida boshqa so'zlar bilan umumiylik belgisiga ko'ra so'zlovchi til xotirasida assotsiatsiyalanadi va bu assotsiatsiyalangan birliklar xotirada muayyan guruhlarini hosil qiladi. Assosiativ munosabat sintagmatik munosabatlardan farqli ravishda ketma-ketlikka

asoslanmaydi. Balki soʻzlovchi xotirasida oʻzaro bogʻlangan holda joylashadi<sup>78</sup>.

### Savol va topshiriqlar

1. Lingvistik munosabatlar haqida maʼlumot.
2. Paradigmatik munosabat xususiyatlarini tavsiflang.
3. Sintagmatik munosabatni misollar asosida tushuntiring.
4. Iyerarxik munosabatni misollar asosida tahlil qiling.
5. Fonematik sath unsurlarining pogʻonali munosabat doirasidagi oʻrni haqida bilganlaringizni ayting.
6. Til birliklari aranjirovkasi (tartibi)ning maʼlum meʼyorlarga asoslanishini misollar asosida tushuntiring.
7. Til birliklarini tavsiflang.
8. Segment til birliklari haqida maʼlumot bering.
9. Supersegment til birliklari xususiyatini yoritng.
10. Assotsiativ munosabatni misollar asosida tavsiflang.

### Asosiy tushunchalar glossariysi

**Frazema** – mazmun jihati bilan leksemaga, tuzilishi jihatidan birikmaga, gapshaklga teng boʻlgan murakkab til birligi.

**Gapshakl** – tilning kommunikatsiyani taʼminlaydigan eng muhim birligi.

**Jumla** – miyaning til xotirasi qismidagi qolip axborotga binoan talaffuz birligi sifatida hosil qilingan nutqiy birlik.

**Leksema va morfema** – birlamchi til birliklari

**Leksemashakl** – birlamchi tuzma birlik.

**Paradigma** (yunoncha “misol, namuna”) – fan obyektini, uning muayyan davrda hokim boʻlgan nazariy tushunchalarini oʻrganishga yoʻnaltirilgan va shu asosda fanning turli boʻlimlarida oʻxshash boʻlgan, oʻzaro bogʻlangan muayyan tadqiqot metodlari majmuyi.

<sup>78</sup> Paradigmatik, sintaktik, assotsiativ munosabat taʼriflari quyidagi manba asosida keltirildi: Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. -Т., 2002.

**Paradigmatika** – til birliklarini til tizimiga mansub paradigma-larning unsuri sifatida tekshirish aspekti.

**Paradigmatik munosabat** – bir paradigmaga birlashuvchi til birliklarining o‘zaro munosabati.

**Paradigmatik qator** – ma’lum umumiylik xususiyati asosida birlashib, ayrim farqli (o‘ziga xos) xususiyati bilan qarama-qarshi turadigan va nutqiy aloqa talablarig‘a ko‘ra biri ikkinchisi bilan almasha oladigan birliklar (unsurlar).

**Segment** (lot. *segmentum* - 'qism', 'parcha') **til birliklari** – lek-semaning, morfemaning ifoda jihati sifatida xizmat qiladigan til tovushlari.

**Til tovushlari**– til qurilishining asosida yotuvchi birliklar.

## 7-§. TILLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

### **Reja:**

1. Tillarning shakllanishiga doir nazariyalar.
2. Sharq ilmida tilning shakllanishiga oid qarashlar.
3. Tillarning shakllanish omillari.

**Asosiy tushunchalar:** *til va jamiyat, til tarixi, madaniyat tarixi, tilning paydo bo‘lishi, analogistlar, anomalistlar, tovushga taqlid nazariyasi, undovlar nazariyasi, mehmət hayqiriqlari nazariyasi, ijtimoiy kelishuv nazariyasi, “asil va mo‘tabar” tillar, milliy til, “tillarning manshayi”, “Abut-turk”, “Abul -furs”, “Abul -hind”.*

Til kishilar o‘rtasidagi munosabatning eng muhim quroli bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan umuminsoniy manfaatlarni ifoda etadi. Tilning paydo bo‘lishi va rivojlanishi kishilik jamiyati bilan mustahkam bog‘liq. Til insoniyat tarixi qadar qadimiydir .

Xalq qardosh qabilalar ittifoqi sifatida shakllangan murakkab tarixiy uyushmadir. Xalqning asosiy belgilari: umumiy til, umumiy hudud, madaniyat va ma’naviyat muhitining umumiyligidir. Xalqning asosiy belgilaridan biri bo‘lgan milliy til o‘zaro farqlanuvchi, yetakchi, iqtisodiy va madaniy markaz tili sifatida namoyon bo‘ladi.

Tilning paydo bo'lish masalasi insoniyatni qadimdanoq qiziqtirib keladi. Bu masala faqat tilshunoslikning emas, boshqa ko'p fanlarning: antropologiya, psixologiya va etnografiya kabi fanlarning ham o'rganish obyektidir. Ilmiy adabiyotlarda tilning paydo bo'lish masalasi – til qachon va qayerda paydo bo'lgan, dastlab nechta til bo'lgan, u yoki bu tillar qanday tuzilishda bo'lgan va shu kabi savolga ilmiy asoslangan javob berishga harakat qilingan. Ba'zi olimlarning fikricha, til taxminan besh yuz ming yillar ilgari paydo bo'lgan.

Ma'lumki, til boshqa narsa va hodisalar singari o'zgaruvchidir. Shunday ekan, besh yuz ming yil ichida tillarda qanday o'zgarish sodir bo'lganini tasavvur qilish, uni ilmiy, ham amaliy, ham nazariy nuqtayi nazardan o'rganish mushkul. Til taraqqiyotining yozuv paydo bo'lishidan avvalgi holati biz uchun qorong'idir. Biz faqat yozuv paydo bo'lgandan keyingi davrda ro'y bergan til taraqqiyoti to'g'risida yozma yodgorliklardan foydalanib, fikr yuritishimiz mumkin. Lekin yozuv tilni o'rganish, tilning paydo bo'lishi to'g'risidagi muammoni yoritishga to'liq imkon bermaydi. Shunday bo'lsa ham, ba'zi olimlar bu masalaga o'z munosabatlarini, fikrlarini bildirib o'tishgan.

Qadimgi Yunonistonda faylasuflar tilning qay tarzda kelib chiqqani ustida uzoq muddat qizg'in bahs olib borganlar. Tilshunoslik tarixidan ma'lumki, bu masalada grek faylasuflari bir-biriga zid ikki xil farazni o'rtaga tashlashgan. Bir guruh faylasuflar til tabiiy yo'l bilan paydo bo'lgan, ya'ni so'z va predmetlar o'rtasida to'g'ridan to'g'ri tabiiy bog'lanish bo'lganligi uchun kishilar predmet va narsalarni tabiiy holda bilib olishgan, deb isbotlamoqchi bo'lganlar. Platon boshliq bir guruh olimlar “narsa bilan uning nomi orasida muayyan bog'lanish bor. Bu bog'lanish narsalarning xususiyatlaridan, tabiatidan kelib chiqqan va ilohiy kuch tomonidan o'rnatilgan”, degan fikrni ilgari surishgan. Tarixda bu oqim *analogistlar* deb nom olgan.

Ba'zi faylasuflar til kishilarning bir-biri bilan o'zaro kelishishi natijasida vujudga kelgan, deb hisoblaganlar. Demokrit va boshqalar tilda narsa nomi bilan narsa orasida hech qanday bog'lanish yo'q, bu nomlar mazkur tilda gaplashuvchi odamlar tomonidan yaratilgan, demak, til inson tomonidan yaratilgan, degan fikrni ilgari surishgan. Bu guruhga mansub olimlar *anomalistlar* deb atalgan. Ana shu bir-biriga qarama-

qarshi ikki nazariyaning o‘zaro kurashishi natijasida yana bir qator nazariyalar vujudga kelgan.

Hozirgi tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaralsa, narsalar bilan ularning nomi orasida, umuman olganda, hech qanday bog‘lanish yo‘q. Bu ko‘pchilik olimlar tomonidan qayd etilgan. Chunki narsa bilan uning nomi orasida bog‘liqlik bo‘lganda tillarning soni 5000 dan ortib ketmasdi. Shuni aytib o‘tish kerakki, ayrim tillarning kelib chiqishini, masalan, o‘zbek, rus, hind, tojik va boshqa tillarning qachon paydo bo‘lganini, qanday tarkib topganligini aniq bilish mumkin. Ammo biror-bir aniq tilning kelib chiqish masalasini umuman tilning, insonlar nutqining paydo bo‘lish masalasi bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Hozir dunyoda mavjud bo‘lgan jonli tillarning ham, ba‘zi bir o‘lik tillarning ham kelib chiqish tarixini o‘rganish u qadar qiyin masala emas. Anchagina tillarning qachon paydo bo‘lgani, qachon tarkib topgani aniqlangan. Biroq yer yuzida umuman tilning qachon paydo bo‘lgani, dastlabki tillarda qanday so‘zlar bo‘lgani, uning grammatik xususiyatlari nimalardan iborat ekanligi aniqlangan emas. Bundan bir necha yuz ming yillar burun paydo bo‘lib, keyinchalik nom-nishonsiz yo‘qolib ketgan tillar ham mavjud bo‘lgan.

Qadimgi tillarning fonetik tizimi, so‘z boyligi, grammatikasi va boshqa muayyan xususiyatlaridan qat’i nazar, umuman tilning kelib chiqishi o‘rganilar ekan, eng avvalo, tilning kelib chiqishidagi shart-sharoitlarni tadqiq qilish, ya’ni insonlar qanday sharoitda so‘zlay boshlashganini o‘rganish va bu masalani umuman tilning kelib chiqish masalasi bilan bog‘lagan holda tahlil qilib, xulosa chiqarish lozim.

Tilning kelib chiqishi masalasini aniqlashdagi qiyinchilik shundan iboratki, birinchidan, hozirgi til tarixi fani dunyoda umuman tilning qanday paydo bo‘lganligi to‘g‘risida hech qanday dalillarga ega emas. Chunki hozir bizga ma’lum tillarning yozuv tarixi 10 – 15 ming yildan oshmaydi. Olimlarning faraz qilishicha, inson bundan bir necha yuz ming yil avval so‘zlasha boshlagan. Ammo o‘sha davrdagi tillar to‘g‘risida hozirgi vaqtda hech qanday ma’lumot yo‘q. Shuning uchun ham tilshunoslik fani bu masalani to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘rganish imkoniyatiga ega emas.

Umuman, tilning qanday sharoitlarda paydo bo‘lish masalasini ilmiy farazlarga asoslanib o‘rganish mumkin bo‘ladi. Tilshunoslik ilmi bir-biriga yaqin bo‘lgan psixologiya, fiziologiya, etnografiya, arxeolo-

giya, tarix va shu kabi fanlarning dalillariga suyanib, tilning kelib chiqishi masalasiga yondashishi mumkin.

Turli nutq tovushlarini birlashtirib, soʻzlar hosil qilish va soʻzlar vositasida gap tuzib, istak va maqsadni ifodalash kishilik jamiyatining boshlangʻich davrlarida yashagan odamlarni oʻylantirib kelgan. Shuning uchun tilning paydo boʻlishi toʻgʻrisida qadimgi kishilar turli rivoyatlarni toʻqiganlar. Bu rivoyatlarning baʼzilarida til maʼbudlar tomonidan yaratilib, kishilarga taqdim qilinganligi, ayrimlarida esa tilni ajoyib bir donishmand yaratganligi talqin qilingan.

Fanda tilning kelib chiqishi toʻgʻrisida bir qator nazariyalar mavjud. Bu nazariyalarning baʼzilarida til insonlarning bir-biri bilan munosabatda boʻlishi ehtiyoji natijasida kelib chiqqan, deb hisoblasa, boshqalari ayrim shaxslarning oʻz fikrini avval oʻzi uchun, keyin boshqalar uchun bildirishi natijasida kelib chiqqan, deb hisoblaydi. Shu tariqa tilning paydo boʻlishi va shakllanishi haqida turlicha qarashlar, nazariyalar, farazlar yaratildi. Ushbu nazariyalar tanqidiy tahlil asosida oʻrganiishi lozim. Bu nazariyalar, asosan, quyidagilar:

**Tovushga taqlid nazariyasi** kishilarning oʻz atrofidagi predmetlarning chiqargan ovoziga taqlid qilishi natijasida dastlabki soʻzlar, predmetlarning nomlari paydo boʻlgan, deb hisoblaydi. Bu nazariya qadimgi Yunonistonda – Demokrit va Platon davrida oʻrtaga tashlangan boʻlib, unga koʻra ibtidoiy odamlar ongli yoki ongsiz tarzda turli tuman tovushlar, yaʼni hayvonlarning baqiriqlari, qushlarning sayrashi, shamol va sharsharalarning ovozlari taqlid qilishga harakat qilishgan. Masalan, *chumchuq, kaklik, qargʻalarning tovushlari, shir-shir, taq-tuq, kuk-ku, gumbur-gumbur* kabilar. Ammo bu soʻzlar hamma til-da mavjud boʻlsa ham, ular juda kam miqdorni tashkil qiladi. Tabiatda tovush chiqarmaydigan narsalarga nisbatan tovush chiqaradiganlari kam. Shunday ekan, tovush chiqarmaydigan narsalarning nomi qanday shakllangan, degan savol tugʻiladi. Bu nazariya toʻgʻri boʻlsa, unda ibtidoiy jamiyatda yashagan qabilalar tilida bunday usulda yasalgan soʻzlar soni fan va texnikasi rivojlangan xalqlar tilidagiga nisbatan koʻproq boʻlishi kerak. Lekin soʻnggi yillarda Janubiy Amerika va Avstraliyadagi ibtidoiy tuzumni boshidan kechirayotgan qabilalar tilida oʻtkazilgan tajribalardan maʼlum boʻlishicha, bu tillarda tovushga taqlid qilish yoʻli bilan yasalgan soʻzlar rivojlangan tillardagi-



ga qaraganda birmuncha kam. Undan tashqari, tabiatdagi tovushlarga taqlid qilish uchun nutq organlarining o'ta rivojlangan bo'lishi ham aniqlangan. Shuning uchun taqlidiy so'zlar tilning paydo bo'lishi masalasini hal qilishda asosli ahamiyatga ega emas. Demak, ovozga taqlid nazariyasining o'zi tilning kelib chiqish masalasini to'g'ri hal qilib bera olmaydi.

**Undovlar nazariyasi** ham tilning paydo bo'lish masalasini talqin qiluvchi qarashlardan biri bo'lib, bu nazariya tarafdorlari tildagi barcha so'zlar kishilarning ichki tuyg'ulari, qahr-g'azablari, his-hayajonlari, ixtiyorsiz baqirishlari natijasida paydo bo'lgan, deb qaraydi. Bu nazariya ham qadimiy bo'lib, uning asosida ham hayvonlarning tovushlari yotadi. Mazkur nazariya asoschilarining fikricha, ibtidoiy odamlar hayvonlarning ovozlari o'rganib, ular orqali o'zlarining ichki kechinmalari, g'am-alamlarini ifodalashgan: *oh, uh, voy, ing* kabi so'zlar bunga misol qilib ko'rsatiladi. Tildagi boshqa so'zlar esa ana shunday so'zlarning birikuvidan kelib chiqqan, deb tushuntiriladi. Taniqli fransuz olimi J.J.Russo ham shu fikrni quvvatlagan.

Dunyodagi barcha tillarda bunday birliklar mavjud, lekin bunday so'zlarning miqdori shu qadar kamki, tildek murakkab hodisa ana shu yo'l bilan paydo bo'lgan, deyish bu masalani juda soddalashtirib yuborgan bo'lar edi.

Ma'lumki, tilning asosiy vazifasi kishilar orasida fikr almashuvini ta'minlashdir. Binobarin, mazkur nazariyani qabul qilish tilning asosiy vazifasini, tilning ijtimoiy hodisa ekanligini rad etishga olib keladi. Ichki kechinmalarni izhor qilish har doim ham jamiyatning bo'lishini taqozo qilmaydi. Tilning yashashi va rivojlanishi esa jamiyat bilan uzviy bog'liq: jamiyat bor joydagina til bor, til bor joyda jamiyat bor.

Demak, bu nazariya ham tilning kelib chiqish masalasini to'g'ri yoritishga o'zlik qiladi.

**Mehnat hayqiriqlari nazariyasi** vakillari tildagi barcha so'zlar ibtidoiy kishilarning birgalashib mehnat qilish jarayonida harakatga undaydigan ixtiyorsiz qiyqirishlari natijasida paydo bo'lgan, deb hisoblaydilar. Bu nazariyani XIX asrning 70-yillarida fransuz faylasufi L.Nuare yaratdi. Uning qayd qilishicha, til instinktiv hayqiriqlardan paydo bo'lgan. Nemis olimi Karl Byuxer ham ushbu

nazariyani quvvatlaydi. Bu nazariya bir qarashda haqiqatga birmuncha yaqin nazariyadek ko'rinisa ham, mantiq jihatdan asossizdir. Chunki mehnat qilishdagi qiyqiriqlar, hayqiriqlar mehnat jarayonini bir maromga, bir qolipga solish uchun vosita bo'lgan, xolos; *uh, oh, voh, viq, oho, ehe* kabi hayqiriqlar kishilar o'rtasida aloqa vositasi bo'lganligi ehtimol.

Mehnat hayqiriqlari undov nazariyasiga o'xshab ketadi. Lekin bu nazariya ham tilning kelib chiqish sabablarini, tilning shakllanishini jamiyatning paydo bo'lishi, so'zlash va fikr yuritish qobiliyatiga ega bo'lgan insoniyatning paydo bo'lishi bilan uzviy bog'lay olmaydi.

***Ijtimoiy kelishuv nazariyasi.*** Bu nazariya XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lib, uni ilgari suruvchi olimlar ba'zida bir-biriga zid xulosalarga kelishgan, ularning til shakllanishi to'g'risidagi asosiy fikrlari bir xil. Bu nazariyaga asosan, narsalarni qanday atashni odamlarning o'zlari kelishib olishgan. Biror narsani nomlashda kelishib olish uchun, tabiiyki, kelishuv vositasi, ya'ni til kerak bo'ladi. Ushbu nazariya tilning paydo bo'lishini emas, balki til rivojlanishining bir yo'nalishini yoritishi mumkin. Hozirgi vaqtga kelib, u yoki bu fanga taalluqli atamalar yoki so'zlar o'zaro kelishib qo'yiladi. Lekin buning til shakllanishiga aloqasi yo'q.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan nazariyalarning hammasi ham tilning kelib chiqish masalasini to'g'ri yoritishga ojizlik qiladi. Chunki bu nazariyalar tilning kelib chiqish masalasini insoniyatning paydo bo'lishi, dastabki kishilar jamoasining vujudga kelish masalasidan ajratib olgan holda baholashga harakat qilgan.

Qayd etilgan nazariyalarda, birinchidan, til go'yo jamiyat tarixi taraqqiyotidan chetda, o'z holicha taraqqiy etadigan hodisa, deb qaralgan. Shuning uchun ham tilning kelib chiqish masalasi ibtidoiy davrdagi kishilarning mehnat faoliyatidan ajratilgan holda qaralgan. Ikkinchidan, bu nazariyalarda tilning kelib chiqishi tafakkurning paydo bo'lishi bilan birgalikda, o'zaro aloqadorlikda emas, balki ajratilgan holda talqin qilingan. Uchinchidan, odamning paydo bo'lishidagi barcha biologik asoslar hisobga olinmagan.

Sharq tilshunosligida ham tilning paydo bo'lishiga oid mulohazalar bildirilgan. Jumladan, Alisher Navoiyning "Muhokamat-

ul lug‘atayn” asari muqaddimasida tilning paydo bo‘lishiga doir o‘sha davr mafkurasiga mos bo‘lgan qarashlar bayon qilingan. Alisher Navoiy tilning paydo bo‘lishini Nuh alayhissalom avlodlariga bog‘laydi:

*“Mundin so‘ngra uch nav tildurki, asil va mo‘tabardur va ul tillar iborati gavhari bila koyilining (ay tuvchi, so‘zlovchi) adosig‘a zavar va har qaysining furu‘i (shox, dara tning shoxi) bag‘oyat ko‘ptur. Ammo turkiy va forsiy va hindiy asl tillarning manshaidurki (bir narsaning kelib chiqish o‘rni, kelib chiqish joyi, boshlanishi), Nuh payg‘ambar... ning uch o‘g‘lig‘akim, Yofas va Som va Homdur, yetishur. Va bu mujmal tafsili budurki, Nuh... to‘fon tashviridin (to‘lqin, falokat) najot va aning mahlakasidin (xavf-xatar joyi va vaqti, halokat) hayot topti, olam ma‘murasida bashar jinsidin osor va inson navidin namudor qolmaydur erdi. Yofasniki, tavorix ahli Abut-turk bitirlar, Xito mulkiga yibordi va Somniki, Abul - furs bitirlar, Eron va Turon mamolikining vasatida (o‘rta, o‘rtaliq) voliy (hokim, hukumdor, podshoh) qildi va Homniki, Abul -hind depturlar, Hindiston bilodig‘a (shaharlar, mamlakatlar) uzatti. Va bu uch payg‘ambarzoda avlod va atbo‘i (tobelar, fuqarolar, qaramlar, izdoshlar) mazkur bo‘lg‘an mamolikka yoyildilar va qalin bo‘ldilar. Va Yofas o‘g‘i oniki, Abut-turkdur, tarix ahli ittifoqi (“bir fikrga kelish, hammasi” degan ma‘nodagi) depturlarki, nubuvvat (payg‘ambarlik) toji bila sarafroz va risolat (payg‘ambarlik, rasullik) mansabi bila qarindoshlaridin muntoz (saralangan, ajratilgan) bo‘ldi. Va uch tilki, turkiy va forsiy va hindiy bo‘lg‘ay. Bu uchovning avlod va atbo‘i orasida shoe bo‘ldi (“Muhokamat ul-lug‘atayn”dan)<sup>79</sup>.*

O‘zbek tilshunos olimi A.Nurmonovning etirof etishicha, “otabobolarimiz qoldirgan yozma yodgorliklarni sinchiklab o‘rgansak, bu asarlarda tilshunoslikning bir qancha masalalari Yevropa olimlaridan ancha oldin bayon qilinganiga guvoh bo‘lamiz”<sup>80</sup>. Olim tomonidan Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Bobur kabi ajdodlarimizning lingvistik qarashlari talqin etilgan<sup>81</sup>.

<sup>79</sup> Alisher Navoiy. Muhokamat –ul lug‘atayn. –T.2011. –B.7

<sup>80</sup> Nurmonov A. Tanlangan asarlar. I jild. –T.: Akademnatir, 2012. –B. 1.

<sup>81</sup> Nurmonov A. Tanlangan asarlar. I jild. –T.: Akademnatir, 2012. –B. 15

Olimlarning faraz qilishicha, ibtidoiy mehnat qurollarini yasash odam a'zolarini asta-sekin juda uzoq davrlar davomida takomillashtirib, til hamda tafakkurning rivoj topishida beqiyos rol o'ynagan. Demak, mehnat qilish, mehnat qurollarini yasash jarayonida odamlar borgan sari uyushib bordi, natijada kishilik jamiyati vujudga keldi. Hayvonot dunyosidan ajralib chiqqan odamlarda jamoa bo'lib mehnat qilish jarayonida bir-biriga fikrini ifodalash ehtiyoji tug'ildi. Bu zaruriy ehtiyoj esa tilni yaratdi. Til bilan ayni bir vaqtda tafakkur paydo bo'ldi. Mehnat bilan bir vaqtda muhim ehtiyoj talabi bilan til va tafakkurning paydo bo'lishi natijasida bu uch omil bir-biriga ta'sir qilib, rivojlanish imkoniyati yuzaga kelgan. Buning natijasida mehnat qilish yo'llari, mehnat qurollari, til va ong asta-sekin takomillasha boshladi. Ilgari tosh hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagan bo'lsa, keyinchalik, kishilar undan foydalanishni o'rgana boshladilar va uning xususiyatlarini bilib oldilar. Odam toshni yorib yoki sindirib, undan har xil shakldagi turli mehnat qurollari yasadi va ana shu mehnat qurollaridan foydalanish jarayonida boshqa narsalarning ham turli xususiyatlarini bila bordi. Bu esa narsalarni bir-biriga solishtirib, ularning xususiyatlarini aniqlashni o'rgatdi. Oqibatda tafakkurning rivoj topishiga imkoniyat tug'ildi. Odamlar mehnat qilishni bilganlaridan keyin, oziq-ovqat topish uchun zarur narsalar haqida, ya'ni mehnat qurollari tayyorlash, undan qanday foydalanish, qaysi tarafga borish, oziq-ovqat topish harakatini jamoa bo'lib bajarish va boshqalar to'g'risida ozmi-ko'pmi fikr yurgizadigan bo'ldilar. Ular guruh-guruh bo'lib, birgalikda harakat qila boshladilar. Bu esa insonlar tili va tafakkurining borgan sari o'sishiga, ularda mavhum tushunchalarning paydo bo'lishiga asos bo'ldi.

Mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan, ibtidoiy mehnat qurollarini yasashni o'rgana boshlagan odamlardan bir necha bosqich yuqori darajada yashayotgan Afrikadagi qabila jamoasi holatidagi xalq tillarining so'z boyligi, grammatik tuzilishi hamda tafakkurining rivojlanish farqlari qiyoslab bo'lmaydigan darajada ekanligini, rivoj topganini ko'rish mumkin. Shu tariqa, Afrika, Amerika qit'alarida qabila bo'lib yashayotgan xalqlarning rivojlanish darajasi, tafakkur qilish qobiliyati, tili, tilining grammatik tuzilishi, so'z boyligi, eng taraqqiy topgan ingliz, rus, nemis, arab kabi xalqlar tillarining so'z boyligi, grammatik

tuzilishi va boshqa til hodisalaridan, tafakkur etish darajasidan juda katta farq qiladi. Yuqoridagi fikrlar til va tafakkurning rivojlanib borishi kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan uzviy bogʻlanganining yorqin dalilidir.

Jamiyat tarixida tillarning keyingi taraqqiyoti milliy tillarning vujudga kelishi bilan bogʻliq. Milliy til mahalliy shevalar bilan oʻzaro bogʻlangan holda taraqqiy qilib boradi. Bu jarayonda baʼzi shevalar milliy tilga qoʻshilib, uni boyitadi.

Milliy tilning yagonaligi shu millatning barcha tabaqalari, guruhlariga tushunarli va teng xizmat qilishi, birdan bir aloqa vositasi boʻlishida namoyon boʻladi. Chunki il ayrim tabaqa, ayrim guruh tomonidan yaratilmagan, balki jamiyatning barcha aʼzolari – umumxalq tomonidan shakllantirilgan.

Til birligi, uning erkin rivojlanishi millatning asosiy belgilaridan biridir. Milliy tilning xalq tilidagi farqi – uning adabiy yozuv shakliga egaligidir. Milliy tilning bu shakli mazkur millatning har bir aʼzosi, har bir shevasi uchun umumiydir. Har bir millatning madaniy merosi ana shu tilda oʻz aksini topadi.

### Savol va topshiriqlar

1. Tilning shakllanishi va rivojlanishi haqidagi mulohazalaringizni mustaqil ravishda bayon eting.

2. Tillarning paydo boʻlishi haqidagi anomalistlar qarashlari mazmunini yoriting.

3. Tillarning paydo boʻlishi haqidagi analogistlar qarashlari mazmunini yoriting.

4. Tilning paydo boʻlishi haqidagi qarashlarni umumlashtiring.

5. "Mehnat haqiqiqlari" nazariyasi asosini izohlang.

6. "Tovushga aqlid" nazariyasi mohiyatini yoriting.

7. Sharq ilmidagi tilning paydo boʻlishiga doir qarashlarni bayon eting.

8. Milliy tilning yuzaga kelish jarayoni haqida mulohazalaringizni bildiring.

9. Tilning shakllanishi va rivojlanishida jamiyatning oʻrnini asoslang.

10. Tilning shakllanishi va rivojlanishiga doir qarashlarni “T-sxe-ma” asosida tahlil qiling

### **Asosiy tushunchalar glossariysi**

**Til va jamiyat** – o‘zaro ta’sir qilib, biri ikkinchisining taraqqiyotiga zamin yaratadigan ijtimoiy voqelik.

**Analogistlar** – “narsa bilan uning nomi orasida muayyan bog‘lanish bor. Bu bog‘lanish narsalarning xususiyatlaridan, tabiatidan kelib chiqadi va ilohiy kuch tomonidan o‘rnatilgan”, degan fikr tarafdorlari.

**Anomalistlar** – tilda narsa nomi bilan narsa orasida hech qanday bog‘lanish yo‘q, bu nomlar mazkur tilda gaplashuvchi odamlar tomonidan yaratilgan, demak, til inson tomonidan yaratilgan, degan fikr tarafdorlari.

**Tovushga taqlid nazariyasi** – kishilarning o‘z atrofidagi predmetlar chiqargan ovoziga taqlid qilishi natijasida dastlabki so‘zlar, predmetlarning nomlari paydo bo‘lgan, degan qarash.

**Undovlar nazariyasi** – tildagi barcha so‘zlar ibtidoiy kishilarning his-hayajon so‘zlari ta’sirida paydo bo‘lgan, degan qarash.

**Mehnat hayqiriqlari nazariyasi** – tildagi barcha so‘zlar ibtidoiy kishilarning birgalashib mehnat qilish jarayonida harakatga undaydigan ixtiyorsiz qiyqirishlari natijasida paydo bo‘lgan, degan qarash.

**Ijtimoiy kelishuv nazariyasi** – narsalarni qanday atashni odamlarining o‘zlari kelishib olishgan, degan qarash.

**Milliy til** – tillarning eng mukammal, taraqqiyot bosqichlarini o‘tgan, rivojlangan ko‘rinishi.

## Test

1. "Narsa bilan uning nomi orasida muayyan bog'lanish bor. Bu bog'anish narsalarning xususiyatlaridan, tabiatidan kelib chiqadi va ilohiy kuch tomonidan o'rnatilgan", degan fikr tarafdorlari...

- A) analogistlar
- B) anomalistlar
- S) "undovlar nazariyasi" tarafdorlari
- D) "ijtimoiy kelishuv nazariyasi" tarafdorlari

2. "Tilda narsa nomi bilan narsa orasida hech qanday bog'lanish yo'q, bu nomlar mazkur tilda gaplashuvchi odamlar tomonidan yaratilgan, demak, til inson tomonidan yaratilgan", degan fikr tarafdorlari...

- A) analogistlar
- B) anomalistlar
- S) "undovlar nazariyasi" tarafdorlari
- D) "ijtimoiy kelishuv nazariyasi" tarafdorlari

3. Tilning shakllanishi va rivojlanishiga doir nazariyalarni belgilang.

- A) mehnat hayqiriqlari, tovushga taqlid, ijtimoiy kelishuv nazariyalari
- B) mehnat hayqiriqlari, undov, holatga taqlid, ijtimoiy kelishuv nazariyalari
- S) mehnat hayqiriqlari, undov, tovushga taqlid, ijtimoiy vazifa nazariyalari
- D) mehnat hayqiriqlari, undov, tovushga taqlid, ijtimoiy kelishuv nazariyalari

4. Milliy tilni boyituvchi ichki manbani ko'rsating.

- A) terminlar, chetdan so'z olish, so'z yasalishi
- B) shevalar, so'z o'z'ashtirish, so'z yasalishi
- S) shevalar, chetdan so'z olish, so'z yasalishi
- D) shevalar, eski so'zlarni tiklash, so'z yasalishi

5. Milliy tilni boyituvchi tashqi manbani ko'rsating.

- A) terminlar, chetdan so'z olish, so'z yasalishi
- B) so'z o'zlashtirish, chetdan so'z olish
- S) shevalar, chetdan so'z olish, so'z yasalishi
- D) shevalar, chetdan o'tgan so'zdan so'z yasash, so'z yasalishi

6. Alisher Navoiy *asl tillarning manshaidurki...* deganda qaysi tillarni nazarda tutgan?

- A) turkiy, forsiy, hindiy
- B) turkiy, arabiy, forsiy
- S) turkiy, hindiy, arabiy
- D) arabiy, forsiy, hindiy

7. Alisher Navoiy ma'lumotiga ko'ra, Nuh alayhissalomning **Abut-turk** deb sifatlangan, turkiy tillarning shakllanishiga asos solgan o'g'illari kim edi?

- A) Xom
- B) Som
- S) Yofas
- D) Yusuf

8. Alisher Navoiy ma'lumotiga ko'ra, Nuh alayhissalomning **Abul - furs** deb sifatlangan, eroniy tillarning shakllanishiga asos solgan o'g'illari kim edi?

- A) Xom
- B) Som
- S) Yofas
- D) Yusuf

9. Alisher Navoiy ma'lumotiga ko'ra, Nuh alayhissalomning **Abul - hind** deb sifatlangan, hind tillarining shakllanishiga asos solgan o'g'illari kim edi?

- A) Xom
- B) Som
- S) Yofas
- D) Yusuf

10. Demokrit tilning paydo bo'lishiga doir qarashiga ko'ra qaysi guruhga mansub bo'lgan?

- A) analogistlarga
- B) anomalistlarga
- S) "undovlar nazariyasi" tarafdorlariga
- D) "ijtimoiy kelishuv nazariyasi" tarafdorlariga



## 8-§. TILNING TARIXIY TARAQQIYOTI VA O'ZGARUVCHANLIGI

### Reja

1. Til taraqqiyotidagi tarixiy-fonetik o'zgarishlar.
2. Til taraqqiyotidagi fonetik o'zgarishlarni tahlil etuvchi fonetik-fonologik qonuniyatlar.
3. Kombinator va pozitsion tovush o'zgarishlari.

**Asosiy tushunchalar:** *assimilyatsiya, diereza, metateza, reduksiya, singarmonizm, divergensiya, konvergensiya, gaplogiya, alternatsiya, alternant, qiyosiy-tarixiy fonetika, qiyosiy-tipologik fonetika, fonologiya, fonetik-fonologik qonuniyatlar, fonologik oppozitsiyalar, umumiy fonetik qonuniyatlar, x1 susiy fonetik qonuniyatlar.*

Til taraqqiyoti va rivoji ma'um qonuniyatlar asosida yuzaga keladi. Til mural kab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa bo'lib, undagi birliklar barcha jihatdan uzviy bog'langan. Ushbu birliklarga aloqador qonuniyatlar ham o'zaro bog'liq. Tildagi tarixiy fonetik o'zgarishlar ma'lum tarixiy fonetik qonuniyatlar asosida ro'y beradi. Fonetik-fonologik o'zgarishlar tilning ichki qonuniyatlari bilan bog'liq hodisadir. Tildagi tarixiy-fonetik o'zgarishlarni qandaydir fiziologik yoki fizik qonunlar asosida tushuntirish mumkin emas. Fonetik-fonologik qonuniyatlar tilning ichki qonuniyatlari asosida yuz beradi va faqat lingvistik aspektda ilmiy tadqiq qilish orqali izohlanadi.

Tildagi tarixiy-fonetik o'zgarishlarni o'rganuvchi soha qiyosiy-tarixiy fonetikadir. Qardosh tillaragi etimologik va genealogik, ya'ni kelib chiqish jihatdan o'xshash va farqli tomonlarni qiyosiy fonetika aniqlab beradi. Qardosh va qirdosh bo'lmagan tillardagi tarixiy-fonetik o'zgarishlarni tahlil qilish natijasida tipologik, qiyosiy-tipologik fonetika, fonologiya sohalari shakllandi.

Til taraqqiyotidagi fonetik o'zgarishlarni tahlil etuvchi fonetik-fonologik qonuniyatlar quyidagilar:

1. Umumiy fonetik qonuniyatlar barcha tillarga xos tartib va qoidalarni tilning bosma qonuniyatlari bilan bog'liqlikda aks ettiradi.

Masalan, barcha turkiy tillarda singarmonizm (unlilarning uyg'unlashuvi yoki unlilar garmoniyasi) qonuniyati mavjud bo'lib, so'z o'zagidagi unlining affiksdagi unli bilan uyg'unlashuvida ko'rinadi. Bunday singarmonizm hodisasi unlilarning til va labning holatiga ko'ra uyg'unlashuvi bilan izohlanadi. Masalan, qozoq tilida: *attar, bashtar*; turkman tilida: *barar, dashar*; qirg'iz tilida: *ottuz, moyun, tundu* kabilar. Barcha turkiy tillarda jarangsiz undoshlar ikki unli tovush oralig'ida jaranglilashishi mumkin.

2. Xususiy fonetik qonuniyatlar muayyan til uchun xos bo'lgan qonuniyatlarni ifodalaydi. Masalan, turkiy tillarga mansub o'zbek tilining keyingi taraqqiyotidagi ichki o'zgarishlar hamda yondosh tillar ta'sirida yuzaga kelgan hodisalar shu tilning o'ziga xos rivojlanish omillari bilan bog'liqdir. Boshqa turkiy tillarga xos bo'lgan singarmonizm o'zbek tili tarixida ham bor bo'lib, unli fonemalar bu tilda 8-9 ta bo'lgan. Tarixiy-fonetik o'zgarishlar o'zbek tilining ichki fonetik qonuniyatlari va tashqi ta'sir natijasida, ya'ni boshqa tillar bilan aloqasi natijasida yuzaga kelgan. Tildagi ma'nodor birliklar – so'z va morfemalarni tashkil etish va ularni farqlash uchun fonemalar til sistemasida bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishi zarur. Fonemalar o'rtasidagi bunday qarama-qarshiliklar *fonologik oppozitsiyalar* deb yuritiladi<sup>82</sup>.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida oltita unli fonema bo'lib, ular tilning ko'tarilish (yuqori, o'rta, quyi) va labning holatiga ko'ra fonologik oppozitsiyani tashkil qiladi: i – u; e – o'; a – o. Bu fonetik va fonologik belgilar boshqa turkiy tillar uchun xos emas.

Shevalar orfoepik, grammatik va leksik normalardan tashqarida bo'lgani tufayli ularda turli o'zgarishlar saqlanib qoladi va asta-sekin adabiy tilga ham ta'sir qiladi.

Fonetik qonuniyatlar davr nuqtayi nazaridan ikkiga bo'linadi.

1. Tarixiy (diaxronik) fonetik qonuniyatlar tillar yoki muayyan bir tilning tarixiy taraqqiyotida yuzaga kelgan tarixiy-fonologik o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Til tarixining tarixiy tovush o'zgarishlarini o'ranuvchi bo'limi tarixiy fonetika va fonologiya deb yuritiladi.

2. Davriy (sinxronik) fonetik qonuniyatlar muayyan til doirasida hozirgi davrda sodir bo'layotgan fonetik o'zgarishlarni izohlaydi.

<sup>82</sup> Абдуазизов А. Ўзбек тилининг фонологияси ва морфонологияси. -Т., 1992. -Б. 6

Bunda hozirgi tillardagi yangi talaffuz tendensiyalari ham o'rganiladi. Masalan, hozirgi o'zbek tilida unlilar til oldi undoshlaridan keyin *til oldi* va til orqa undoshlardan keyin *til orqa* variantlarga ega bo'ladi.

Tarixiy-fonetik va fonologik o'zgarishlar turli murakkab jarayonlarni ifoda etadi. Masalan, turkiy tillar va shevalariga xos bo'lgan *o-lashish, ya-lashish, ja-lashish, yo-lashish* kabi hodisalar, german tillari tarixidagi *umlaut*, ya'ni til orqa lablangan unlilarning va keyingi bo'g'indagi tovush ta'sirida til oldi holatiga o'tishi, *ablaut*, ya'ni ichki fleksiyadagi tovush almashuvi kabilar ana shunday hodisalarga kiradi.

Fonetik va fonologik o'zgarishlar natijasida tildagi fonemalar soni kamayishi yoki ko'payishi mumkin, bunda ikki hodisa ro'y beradi.

1) ikki fonemaning yaxlit bir fonema sifatida birlashishi *konvergenziya* deyiladi. O'zbek tili tarixida ma'lum bo'lgan til oldi va til orqa, qisqa va cho'ziq fonemalar keyinchalik birlashib, o'rta cho'ziqlikka ega bo'lgan 6 ta unli fonemani hosil qilgan;

2) bir fonemaning ikki mustaqil fonemaga ajralishi *divergenziya* deyiladi. Masalan, qadimgi turkiy tilda bitta *a* fonemasi keyinchalik ikki fonemaga ajralgan: *a* va *o*. Fonetik va fonologik qonuniyatlar tildagi ichki va boshqa tillar bilan aloqa natijasida –tashqi faktorlar ta'sirida bo'lishi mumkin. Ba'zan esa har ikki faktor ham bir yo'la ta'sir qilishi mumkin. Masalan, o'zbek tilida /o fonemasining hosil bo'lishida ikki fikr mavjud. O'zbek tilidagi ichki fonetik faktorga asoslangan qarash /o fonemasi /a/ fonemasining lab va chuqur til orqa undoshlaridan keyin kelib, /o -lashganini ko'rsatadi. Tashqi faktorga asoslangan qarash o'zbek tilidagi /o/ fonemasi fors-tojik tilining ta'siri ostida hosil bo'lgan, deb hisoblaydi. Bunda, albatta, /o/ fonemasining ichki fonetik imkoniyatlar asosida shakllangani haqiqatga yaqin.

Umuman, fonetik qonuniyatlarni boshqa yondosh hodisalar ta'sirida o'rganish tilshunoslik fani uchun ilmiy qiymatga ega.

“XIX asrda paydo bo'lgan yangi maktab “Yosh grammatikachilar” deb atalib, ular birinchi marta tillarda doimiy o'zgarishlar bo'lib turishini kashf etganlar. Ular tovush o'zgarishlarining ma'lum turi tasodifiy emasligini qayd etishadi, bu o'zgarishlar juda ko'p so'zlarda namoyon bo'ladi ( masalan, /p/ > /f/). Shuningdek, bugungi kundagi ayrim shakllarni til taraqqiyotining

ma'lum bir davridagi tovush o'zgarishlarini aniqlash orqali dastlabki holatidan ajratib olish mumkin. "Yosh grammatikachilar" tomonidan analogiya konsepsiyasi ishlab chiqildi: tillar barqarorligiga yordam beruvchi va undagi tartibsizliklarni chetlashtiruvchi jarayon – muhim mexanizm bo'lib, biz tildagi odatiy tovush o'zgarishlari bilan noodatiy (morfologiyada qayd etilgan) tovush o'zgarishlarini bilishimiz kerak. Yosh grammatikachilar tovush o'zgarishlarini tabiat qonunlariga ko'ra izohlashgan. Keyinchalik ba'zi tilshunoslar tilning o'zgaruvchanligini izohlashning boshqa yo'llarini topadilar. Tilshunoslikning strukturalizm maktabi (XX asr boshlari) tildagi barcha elementlarni o'z o'rnida tizim holatida o'rganishni boshlab beradilar. Tildagi bir elementning o'zgarishi butun tizimga ham ta'sir qiladi.

Strukturalistlarni til tizimida sodir bo'ladigan alternativ o'zgarishlar ko'proq qiziqtirgan. Shunday tovush o'zgarishlaridan biri ikki fonemaning bir fonemaga o'tishi yoki bir fonemaning xuddi shunday o'zgarish bilan tilda mavjud bo'lgan boshqa fonemaga o'tishidir. Masalan, wh (which) tovush kombinatsiyasi ingliz tilida /hw/ tovushini ifodalashga xizmat qiladi va w/w/ (witch) tovushi talaffuzidan farq qiladi. Yozuvda ikki tovush bilan ifodalanadi. Jiddiy o'zgarishlar kommunikativ muammolar tufayli ham ro'y berishi mumkin va u boshqa fonemalardagi o'zgarishlarni ham boshlab beradi.

Tilning generativ nazariyasi (XX asrning 2-yarmida kashf etilgan) tildagi o'zgarishlarni uning grammatikasidagi o'zgarishlar sifatida baholaydi. Grammatika bu qonuniyatlarning o'rnatilishi, tilda ma'lum bir o'zgarishlarning sodir bo'lishi va qonuniyatlarning o'zgarishidir: mavjud qonuniyatlar ma'lum bir yo'l bilan o'zgaradi, yangi qoidalar yuzaga keladi, ba'zilarining jarayonda bartaraf bo'lishi kuzatiladi<sup>83</sup>.

Nutqdagi turli faktorlar natijasida tovushlar bir-biriga ta'sir qiladi. Bunday faktorlardan biri tovushning o'rni, uning boshqa tovushga yonma-yon holatda bo'lishi, tovushlarning birikuvi va urg'uning tabiatiga bog'liq. Tovushlarning pozitsion va kombinator o'zgarishlari farqlanadi.

Ma'lum holatda ro'y beruvchi tovushlarning o'zgarishi pozitsion o'zgarishlar deb ataladi. Pozitsion o'zgarishlar uch turga bo'linadi: 1) urg'uga nisbatan urg'uli va urg'usiz unlilar farqlanadi; 2) bo'g'in va

<sup>83</sup> Richter B. First steps in theoretical and applied linguistics. -Budapest. 2006.-P.91

uning tabiatiga ko'ra ochiq va yopiq hamda berkitilgan va berkitilmagan bo'g'inlar farqlanadi; 3) so'zdagi o'rninga ko'ra so'z boshi, o'rtasi va oxiridagi tovushlar va ularning birikmalari farqlanadi.

Unli tovushlarning urg'usiz bo'g'inlarda kuchsizlanishi yoki o'zgarishi *reduksiya* deyiladi. Odatda miqdor va sifat reduksiyasi farqlanadi. Urg'usiz yopiq bo'g'inlarda unli cho'ziqligining qisqarishi va kuchli artikulyatsiya qilinishing yo'qolishi *miqdor reduksiyasi* deb ataladi. Masalan, *sanash* so'zining boshidagi urg'usiz /a/, oxiridagi /a/ ga qaraganda ancha kuchsiz va qisqa talaffuz etiladi. Rus tili orqali o'zlashgan *direktor, rektor* so'zlaridagi o unlisi urg'usizdir.

*Akkomodatsiya* tovushlarning hosil bo'lish o'ri va usuli, labning holati va tovush paxchalarining tebranishiga ko'ra moslashuvi orqali amalga oshiriladi. Nutqdagi barcha tovushlar bir-biri bilan artikulyatsiya fazalari orqali bog'lanadi va bu artikulyatsiya strukturasi tashkil etadi. Tovushlar o'rtasidagi bog'lanishning artikulyatsiya strukturasi chuqur o'rganish yordamida fonetik hodisalar izohlanadi.

*Assimilyatsiya* hodisasi ham talaffuzni iqtisod qilishning bir turi hisoblanadi. Assimilyatsiya natijasida so'zlar qisqarishi, undagi tovushlarning artikulyatsiyasi o'xshash bo'lib qolishi talaffuzni osonlashtirishga yordam beradi. Turli tillarda assimilyatsiyaning tabiati o'ziga xos xususiyatlarga ega. Xususan, nemis tilida jaranglilik belgisi bo'yicha assimilyatsiya uchramaydi. Bunday assimilyatsiya rus va o'zbek tillariga xosdir.

Distant assimilyatsiya ko'proq unliarning o'zaro ta'siri natijasida ro'y beradi va turkiy, fin-ugor, ba'zi german tillarida uchraydi. Masalan, nemis tilida otlarning ko'plik qo'shimchasidagi unli so'z o'zagidagi unliga o'xshash belgilarga ega bo'ladi. Bu hodisa *umlaut* deyiladi: *Buch* "kitob" – *biicher* "kitoblar", *sohn* "o'g'il" – *sohne* "o'g'illar" kabi.

Assimilyatsiya sinxronik (davriy yuzaga kelgan) va diaxronik (tarixiy shakllangan) bo'lishi mumkin. Yuqorida ko'rsatilgan umlaut va singarmonizm hodisalari tovushlarning tarixiy assimilyatsiyasi natijasida kelib chiqqan.

Assimilyatsiya natijasida nutq tovushlari o'rtasidagi farqlar yo'qolib, ular bir yoki bir necha belgilari bilan o'xshash bo'ladi yoki uyg'unlashadi. Biroq bu hodisaga teskari bo'lgan ta'sir ham borki, bunda

tovushlarning oʻxshashlik xususiyati yoʻqoladi. Agar soʻzdagi ikki bir-biriga oʻxshash tovushlardan biri oʻzgarib, natijada ular biror artikulyatsion-akustik belgisi yoki bir necha belgilari bilan farqlanib qolsa, *dissimilyatsiya* (lotincha *dissimilatio* – “oʻxshamaslik”) deyiladi. Masalan, rus va oʻzbek ogʻzaki nutqida *dissimilyatsiya* koʻp uchraydi: *tumba* (tunba), *Tambov* (tanbov), *tramvay* (tranvay), *kombayn* (konbayn), *djemper* (djenper), *ambar* (anbar). Ingliz tilida *marble* – “mramor” soʻzi fransuz tilidagi *marbre* – soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, soʻz oxiridagi (r) tovushi *dissimilyatsiya* natijasida (l) ga oʻzgargan.

Progressiv *assimilyatsiya*ning yana bir turi *singarmonizm* yoki unililarning uygʻunlashuvi deb atalib, u soʻzlarda (oʻzak va affiksda) unililarning oʻxshash artikulyatsion-akustik belgilarga ega boʻlishi bilan izohlanadi. Baʼzi afrika tillarida unililar bir soʻz yoki soʻzlar birikmasi doirasida uygʻunlashadi. Koʻpgina urol va oltoy tillarida unililar til oldi va til orqa, hamda lablangan-lablanmagan belgilari boʻyicha uygʻunlashadi. Turkiy tillarda, xususan, turkman, qozoq, qirgʻiz, turk, qoraqalpoq tillaridagi soʻzlarda til oldi yoki til orqa, lablangan yoki lablanmagan unililar oʻxshash holatda uchraydi. Bunda soʻz oʻzagidagi unli bilan affiksdagi unli uygʻunlashadi. Masalan, turkman tilida: *galamlar* “qalamlar”, *gelinlar* – “kelinlar” qozoq tilida: *bashtar* – “boshlar”, *koldor* – “qoʻllar”, turk tilida: *gollar* – “qoʻllar”, *gozlar* – “koʻzlar” kabi.

*Singarmonizm* oldingi boʻgʻin (yoki oʻzak)dagi unliga keyingi boʻgʻin (yoki boʻgʻinlar)dagi unililar, baʼzan undoshlarning artikulyatsiya oʻrni va usuliga koʻra moslashuvdir. A.M. Sherbak taʼkidlaganidek, bir boʻgʻinli soʻzlardagi unli sifat jihatidan doimiy va mustaqil boʻlib, koʻp boʻgʻinli soʻzlardagi keyingi unililar esa birinchi boʻgʻinga muvofiqlashadi. Masalan, *bar-gan-lar*, *kol-ga* (oʻzbek tili qipchoq shevalari), *yüksältmāk* (ozarbayjon tili). *Singarmonizm*ning bu koʻrinishi – palatal yoki tanglay *singarmonizm*da birinchi boʻgʻin unlisi mustaqil boʻlib, keyingi boʻgʻindagi unililar unga tobe boʻladi, yaʼni birinchisiga moslashadi. Palatal yoki tanglay *singarmonizm*ni qadimiy boʻlib, turkiy bobo til davriga oiddir.

Turkiy tillar oilasiga mansub boʻlgan hozirgi uygʻur tilida *singarmonizm*ning boshqa koʻrinishi ham mavjud. Bu tilning oʻziga xos xususiyati asl turkiy bir boʻgʻinli soʻzlarda (baʼzan koʻp boʻgʻinli soʻz-

larda ham) keyingi bo‘g‘indagi tor **i** unlisi ta‘sirida undan oldingi bo‘g‘indagi keng **a** unlisi torayadi va **e** tovushiga o‘tadi: *baš-beši*, *bala-belesi*. Bu hodisa *teskari singarmonizm* deb ataladi. Teskari singarmonizm, uyg‘ur tilidan tashqari, o‘zbek tilining Namangan va Uychi shevalarida ham uchraydi: *belik* “baliq”, *jeyim* “joyim”, *temiņ* “toming”, *yeni* “yangi”.

Turkiy tillarda dastlabki bo‘g‘indagi unililarning lablanishi natijasida keyingi bo‘g‘indagi unililar ham lablanadi: qirg‘. *köllärdä*, alt. *kalda*, yoq. *qorobun* “ko‘ryapman”; *turuoxput* “turamiz”, *oğolar* “bolalar”, qirg‘. *quldor* “qo‘llar”, turk. *kolu* “qo‘li”. Turkiy tillardagi labial singarmonizm unli hosil bo‘lishida labning ishtirokiga asoslanadi: **o**, **ö**, **u**, **ü** unililari lablangan, **a**, **ä**, **ı**, **i**, unililari lablanmagan unililardir. Labial singarmonizm, ayniqsa, qirg‘iz tilida yaqqol ifodalanadi: *duioloro* “tuyalarga”, *oglonloro* “o‘g‘illarga”, *qopoloq* “kapalak”, *tundo* “tunda”, *koldorumuzdun* “qo‘llaringizdan”. Singarmonizمنىning bu turi o‘g‘uz va qipchoq guruhiga mansub tillarda keng tarqalgan bo‘lib, o‘zbek va xakas tillarida kam kuzatiladi.

Singarmonizm urg‘u bilan ham bog‘liq bo‘lib, ularning har ikkisi so‘zning fonetik belgisi hisoblanadi.

*Metateza* (yoki inversiya) hodisasi tovushlar yoki bo‘g‘inlarning so‘z tarkibida o‘zaro o‘rin almashishi bilan izohlanadi. Ba‘zan so‘zda yonma-yon kelgan tovushlarning o‘zaro o‘rin almashuvi inversiya deb, aksincha, bir-biridan uzoq bo‘lgan tovushlarning o‘zaro almashinuvi metateza deb yuritiladi. Bu hodisa ko‘proq og‘zaki nutqda uchraydi: *mramor* (marmar), *tuproq* (turpoq), *yomg‘ir* (yog‘mir), *tuhfa* (tufha), *supra* (surpa) kabi.

*Diereza* (yoki tushurib qoldirmoq) hodisasi undosh tovushlarni talaffuzda tushurib qoldirish bilan izohlanadi: Toshkent shevasida: *go’sht* (go‘sh), *rost* (ros), *surtmoq* (surmoq), *tandir* (tanir) kabi.

Agar bir xil yoki o‘xshash bo‘g‘inlardan biri tushurib qoldirilsa, *gaplogiya* deyiladi. Masalan, *morfofonologiya* so‘zi o‘rnida *morfofonologiya*, *sarig‘yog‘* o‘rnida *saryog‘* kabi.

So‘zga tovushni qo‘shib aytish *epenteza* deyiladi: *ishqiboz*.

So‘zning boshlang‘ich qismiga tovushlar qo‘shib aytilsa, *proteza* deyiladi. Turkiy tillarda, xususan o‘zbek tilida (og‘zaki nutqda) rus tilidan

kirgan soʻz boshida kelgan undosh tovushlar birikmasi oldidan (i), (u) unlilarini qoʻshib aytish protezaga misoldir: *stol (ustol), stul (ustul)*.

Chet tilidan kirgan soʻzlardagi tovushlarni ona tilidagi tovushlar bilan almashtirib talaffuz qilish *substitutsiyaga* asoslanadi. Odatda, ona tilida boʻlmagan chet tilidagi tovush koʻproq almashtiriladi. Biroq chet tilidagi tovushga oʻxshashroq tovush ona tilida boʻlishiga qaramay, uni almashtirish hollari koʻp uchraydi. Chunki har bir til oʻzining alohida tovush tizimiga ega va undagi tovushlar boshqa tilda qaytarilishi mumkin emas. Bunday tovushlar substitutsiyasi atoqli otlarda koʻp uchraydi: nemischa: *Webster – Uebster, Isaak – Isaak*; lotincha: *Theodor – Feodor (Fyodr)*, inglizcha: *Thomas – Tomas* kabilar.

Yuqoridagi tovushlar almashuvi ikki yoki undan ortiq tillarda uchraydi. Bir tildagi soʻzlarning har xil formalarida ham tovushlar almashuvi roʻy beradi. Bunday tovushlar almashuvi *alternatsiya* deb ham yuritiladi. Almashuvchi tovushlar esa *alternantlar* deyiladi. Tovushlar almashuvining turli morfemalardagi xususiyatlarini morfonologiya oʻrganadi. Tovushlarning almashuvi ikki xil boʻladi: fonetik (pozitsion) va tarixiy.

Fonetik almashuv deb tilning hozirgi talaffuz normasiga asosan roʻy beruvchi alternatsiyaga aytiladi. Bunday almashuv tovushlarning oʻmiga bogʻliq boʻlib, maʼlum holatda uchraydi.

Masalan: sez – seskanmoq, uyqu – uygʻonmoq, sariq – sargʻaymoq, bilak – bilagi kabi.

Tovushlar almashuvi slavyan tillarida, ayniqsa rus tilida juda koʻp uchraydi. Masalan, rus tilidagi *ot* prefiksi har xil talaffuz qilinadi: *отпуск* (otpusk), *отзвѣт* (odzif), *отхот* (atxot), *охрана* (axrana), *отгадатъ* (adgadat). Ularning har biri fonetik holatiga bogʻliq: yumshoq (tʼ), (dʼ) undoshlaridan oldin keladi: affrikatlar (s) dan oldin (o) urgʻuli holatda, (a) urgʻusiz holatda va hokazo. Ingliz tilida ham yuqoridagiga oʻxshash tovushlar almashuvi kuzatiladi. Masalan, otlardagi koʻplik qoʻshimchasi -s otning birlik shaklida keladi va u soʻz oxiridagi undosh yoki unli tovushning artikulyatsion-akustik xususiyatiga koʻra har xil talaffuz etiladi: jarangsiz undoshdan keyin /s/, sirgʻaluvchi undoshlardan keyin /-iz/ va jarangli tovush bilan tugagan soʻzlarda /z/ tarzida talaffuz etiladi; *maps* /maeps/ – “xaritalar”, *box* /boksiz/ – “qutilar”, *beds* /bedz/ “krovatlar” kabi. Bu tovush almashuvlarida assimilyatsiya muhim ahamiyatga ega.



Ba'zi tovushlar almashuvi tarixiy jarayon asosida yuz beradi. Shu sababli bunday o'zgarishlar *tarixiy tovush almashuvlari* deyiladi. O'zbek tilidagi ba'zi affiksalar tarixiy jihatdan har xil bo'lgan: *-gil, -g'il, -qil, -kil, -gali, -g'ali, -kali, -qali* shaklida yozilgan va shunday talaffuz etilgan g – k – q tovushlari almashuvi ana shunday tarixiy jihatdan shakllangan alternatsiyaga kiradi.

Ingliz tilida so'zlarning o'zagida kelgan unililarning almashuvi bir qancha fe'l shakllarini yasashda qo'llanadi va tarixiy assimilyatsiyaga misol bo'la oladi: /i: /e/ e/ – *feed, fed, fed* – “boqmoq”, /i: /a/ /a/ – *win, won, won* – “yutmoq” (o'yinda) kabi.

Tovushlar almashuvi natijasida so'z turkumlari, so'zlarning grammatik shakllarini farqlash mumkin. Tovushlar almashuvi faqat adabiy tilga xos bo'lmay, balki shevalarda ham uchraydi. Xususan, a/ e, i /e tovushlar almashuvi turkiy tillar shevalarida otlarning ko'plik affiksalarida uchraydi. O'zbek tili va uning shevalarida bunday tovush almashuvi quyidagicha bo'ladi: adabiy tilda: *otlar – itlar*; o'zbek shevalarida: *atlar – iytlar / iytlar, atlar – itlar /itlar, etlar*; qozoq tilida: *attar – iyt- ter*.

Fonetik va tarixiy almashuvlar o'rtasidagi o'xshashlik ularning morfologik funksiyani bajarishida ko'rinadi. Biroq fonetik tovush almashuvi tilning hozirgi talaffuz me'yori bilan bog'liq bo'lsa, tarixiy tovush almashuvi bunday xususiyatga ega emas.

Til asta-sekin va mustaqil rivojlanib boradi. Tilning takomillashuvi va rivojlanishi ma'lum qonuniyatlar asosida sodir bo'ladi va bu qonuniyatlar ba'zi qonuniyatlardan, xususan, tabiat qonunlaridan farq qiladi.

Fonetik o'zgarishlar so'zlarni asl holatidan farq qiluvchi ko'rinishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun so'z etimologiyasini aniqlashda, avvalo, tarixiy taraqqiyot natijasidagi fonetik o'zgarishlarni e'tiborga olish lozim. Bunda muayyan so'zga o'zakdosh bo'lgan leksemalarning struktur-semantik xususiyatlari tahlil etiladi.

Fonetik o'zgarishlar, yuzaki qaraganda, ma'lum bir tillarda boshqa til belgilarining kuzatilishiga sabab bo'ladi. Masalan, turkiy tillarda, xususan, o'zbek tilida agglutinativ tillarga xos o'zak va qo'shimchalar chegarasining sezilmay qolishiga olib keladi: *uxlamoq* → *uyqu+la+moq; seskanmoq* → *sez+kan+moq*.

Fonetik qonuniyatlarga tovushlarning kombinator va pozitsion o'zgarishlari ham kiradi. Chunki tovushlar turli holatlarda har xil o'zgarishlarga uchraydi. Chunonchi, unililar ochiq urg'uli bo'g'inda cho'ziq va yopiq urg'usiz bo'g'inda esa qisqa talaffuz etilishi mumkin. Bunday holat ham ko'pgina tarixiy va hozirgi tovush o'zgarishlarini keltirib chiqaradi. Fonetik va fonologik qonuniyatlarni tilning boshqa bosqichidagi o'zgarishlar bilan bog'liq holda o'rganish asosli xuloslar beradi.

Tillarning rivojlanishi natijasida leksemalarning semantik mundarijasida ham o'zgarishlar kuzatiladi. Masalan, bir-biriga aloqasi bo'lmagandek tuyulgan turli denotatlarni ifodalovchi *akvarium* va *akvarel* so'zlarini lotincha "suv" ma'nosidagi *akva* yoki o'zbek tilidagi *ilik*, *yil*, *ilon*, *jilmoq*, *jilmaymoq*, *ildiz* so'zlarini "sezilar-sezilmas darajada amalga osirilgan harakat" semasi bog'lab turadi.

Ko'rinadiki, to'tiyo, dastavval, ko'zga malham bo'ladigan surgini ifodalagan, denotativ ma'noda qo'llangan. Muayyan davrdan so'ng leksema semantikasida "ko'zga surtish" asosiy e'tibor nuqtasiga ko'tarilgan. "Ko'zga surtmoq" ma'nosidagi *to'tiyo qilmoq* qo'shma fe'li shakllangan. *To'tiyo* leksemasida "ko'k rang", "kukun", "malham", "surg" semalari mavjud bo'lgan. Semantik kengayish natijasida "aziz qilmoq", "e'zozlamoq" semalari shakllangan, *to'tiyo qilmoq* tipidagi yangi leksema yuzaga kelgan. To'tiyo semantikasida ko'zga suriladigan moddiy ashyodan "e'zozlash", "muqaddas bilish", "qadrlash" semalari yuzaga kelgan. *To'tiyo qilmoq* sharq xalqlariga, jumladan, turkiy xalqlar, xususan, o'zbek xalqiga xos qadriyat ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Non ushog'ining ko'zga surtilishi, muqaddas kitobni tavof qilish an'anasi shu semantik xususiyat bilan bog'lanadi.

### Savol va topshiriqlar

1. Til taraqqiyotidagi qonuniyatlar haqida atroflicha ma'lumot bering.
2. Fonetik – fonologik o'zgarishlar tilning ichki qonuniyatlari bilan bog'liq hodisa ekanligini tushuntiring.
3. Til taraqqiyotidagi fonetik o'zgarishlarni tahlil etuvchi fonetik-fonologik qonuniyatlarni ayting.

5. Umumiy fonetik qonuniyatlar haqida ma'lumot bering.
6. Xususiy fonetik qonuniyatlarni tushuntiring.
7. Kombinator tovush o'zgarishlarini izohlang.
8. Pozitsion tovush o'zgarishlariga misollar keltiring.
9. Tilning lug'at sathidagi o'zgarishlarga misol keltiring.
10. Tovush o'zgarishlarini modellashtirish metodidan foydalangan holda tushuntiring.

### **Asosiy tushunchalar glossariysi**

**Assimilyatsiya** – yonma-yon yoki ketma-ket kelgan tovushlarning o'zaro moslashuvi.

**Diereza** – undosh tovushlarning talaffuzda tushirib qoldirilishi.

**Metateza** – tovushlarning o'rin almashuvi.

**Reduksiya** – unli tovushlarning urg'usiz bo'g'inlarda kuchsizlanishi yoki o'zgarishi.

**Singarmonizm** – tovushlarning o'zaro uyg'unlashuvi.

**Qiyosiy-tarixiy fonetika** – tildagi tarixiy-fonetik o'zgarishlarni o'rganuvchi qiyosiy-tarixiy tilshunoslik sohasi.

**Qiyosiy-tipologik fonetika** – qardosh va qardosh bo'lmagan tillardagi tarixiy-fonetik o'zgarishlarni tahlil qiluvchi soha.

**Fonetik-fonologik qonuniyatlar** – til taraqqiyotidagi fonetik o'zgarishlarni tahlil etuvchi qonuniyatlar.

**Umumiy fonetik qonuniyatlar** – barcha tillarga xos umumiy holdagi tartib va qoidalarni tilning boshqa qonuniyatlari bilan bog'liqlikda aks ettiruvchi qoidalar.

**Xususiy fonetik qonuniyatlar** – muayyan til uchun xos bo'lgan qonuniyatlar.

### **Test**

1. Bir xil yoki o'xshash bo'g'inlardan birining tushirib qoldirishi...deyiladi.

- A) diereza
- B) gaplogiya
- S) metateza

D) sinkopa

2. Til taraqqiyotidagi fonetik o'zgarishlar davriy nuqtayi nazardan qanday turlarga bo'linadi?

A) diaxronik, sinxronik

B) pozitsion, kombinator

S) davriy, zamonaviy

D) pozitsion, diaxronik

3. Unli tovushlarning urg'usiz bo'g'inlarda kuchsizlanishi yoki o'zgarishi nima deyiladi?

A) sinkopa

B) apakopa

S) reduksiya

D) diereza

4. Tarixiy taraqqiyot jarayonida bir fonemaning ikki mustaqil fonemaga ajralishi qanday nomlanadi?

A) assonans

B) divergensiya

S) alliteratsiya

D) konvergensiya

5. Tarixiy taraqqiyot jarayonida tildagi ikki mustaqil fonemaning bir fonemaga birlashuvi...deyiladi.

A) Integratsiya

B) divergensiya

S) alliteratsiya

D) konvergensiya

6. Tarixan metateza hodisasi ro'y bergan so'zlarni toping.

A) yomg'ir, ko'mir

B) yostiq, yomg'ir

S) uxlamoq, jilmaymoq

D) istamoq, tuproq

7. Semantik jihatdan aloqador so'zlarni belgilang.

A) ildiz, ilon

B) jilmaymoq, ilmoq

S) siljimoq, sirpanmoq

D) jilmaymoq, ilitmoq

8. Tovushlarning uyg'unlashuvi qanday nomlanadi?

- A) assimilyatsiya
- B) singarmonizm
- S) dissimilyatsiya
- D) prokopa

9. Bir til soʻzlaridagi tovushlar almashuvi...

- A) assimilyatsiya
- B) *alternatsiya*
- S) dissimilyatsiya
- D) singarmonizm

10. Metateza yana qanday nomlanishi mumkin?

- A) integratsiya
- B) konvergensiya
- S) inversiya
- D) divergensiya

## 9-§. DUNYO TILLARI VA TILLAR TASNIFI

### Reja:

1. Tillarni tasniflash mezonlari.
2. Tillarning genealogik tasnifi.
3. Tillarning morfologik tasnifi.

**Asosiy tushunchalar:** *dunyo tillari, tillar tavsifi, tillar tasnifi, sintetik (affiksli) tillar, analitik tillar (affikssiz) tillar, nostratik gipoteza, nostratik nazariya, genealogik tasnif, qardosh tillar, til oilasi, oltoy tillar oilasi, turkiy tillar guruhi, morfologik tasnif, agglutinatsiya, agglyutinativ tillar, amorf tillar, polisintetik tillar.*

Yer yuzida tillar ko'p. Olimlarning hisob-kitobiga ko'ra ularning miqdori 7000ga yaqin. 200ta tilda – 1milliondan ortiq, 70ta tilning har birida – 5 milliondan ortiq, 13ta tilning har birida – 50 milliondan ortiq, qolgan tillarning har birida 1 milliondan ortiq aholi so'zlashadi. Tillarning barchasi insonlar o'rtasidagi aloqa aralashuvni ta'minlash vazifasini bajaradi. Har bir til asrlar davomida rivojlanib, boyib boradi. Jamiyatdan uzilgan, insonlarning o'zaro aloqasiga xizmat qilmaydigan til o'lik tilga aylanadi. Demak, til jamiyatga, ya'ni insonlarning o'zaro munosabatiga xizmat qiladi, shuning uchun ijtimoiy hodisa sanaladi.

Dunyo tillari turli tamoyillar asosida tasnif qilinadi. Tillar tasnifi-da genealogik, morfologik, tipologik tamoyillarga asoslaniladi.

O'tmishda tillarni geografik prinsip jihatidan tasnif qilishga urinish ham bo'lgan. Masalan, I.X. Adelung (1732-1806) o'zining to'rt tomli "Mitridat" nomli asarida (III va IV tomlarini I. S. Fater (1771-1826) nashrga tayyorlagan) tillar tasnifiga geografik tamoyil asosida yondashadi. I.X. Adelung tillarda bo'lgan struktura o'xshashligini qadimiy qarindoshlik natijasi deb hisoblagan. U, masalan, shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, bir bo'g'inli ajratuvchi tillarni bir guruhga kiritadi.

Tillarni tasnif qilishga urinishning dastlabki namunalari o'rta asrlardan yangi davrga o'tishni boshlab bergan Uyg'onish (Renessans) davriga to'g'ri keladi. Lotin va grek tillari ("klassik tillar") qatorida Sharq tillari, xususan, semit tillari (qadimgi yahudiy, arab, suriya tillari va boshqalar) qizg'in ravishda o'rganila boshladi. Shu bilan birga boshqar

tillarga ham e'tibor kuchayadi, o'sha davrda ilm olamiga ma'lum bo'lgan barcha tillarning katologini tuzish va klassifikatsiya qilishga urinish fransuz gumanisti G.Postellusning "Tillarning qarindoshligi haqida" ("De finitffe linguarum" (1538) nomli traktati bilan boshlanadi. Uyg'onish davridagi mashhur olimlardan Iosif Yustus Skaliger (1540-1609) – Yuliy Sezar Skaligerning (1484 – 1558) o'g'li – Yevropa tillarini ayrim guruhlariga ajratishga uringan edi. Bu urinishi juda qisqa bayondan iborat bo'lgan. U Yevropa tillarini o'n bitta asosiy tilga ajratadi. Bulardan to'rttasi katta guruhni – til oilalarini tashkil qiladi. Bular: lotin tili, grek tili, tevton tili, slavyan tili. Ana shu til oilalarini Deus, Oeos, Godt nomlari bilan ataydi. Qolgan yetti til oilasi yuqoridagilarga nisbatan kichik guruhlar hisoblanadi. Bular alban (epirot) tili, tatar tili, venger tili, fin tili (lopar tili bilan birga), irland tili, kimr (britt) tili (breton tili bilan birga), bask tili.

Genealogik tasnif tillarni kelib chiqishiga ko'ra muayyan guruhlariga ajratadi.

"Tillarning boshqa tillar bilan aloqasi natijasida ularning leksikasida, strukturasi o'zgarishlar bo'lishi tabiiy hol va bu aloqada tillar genetik bog'langan yoki bog'lanmagan bo'ladi. Bir tomondan, genetik jihatdan bog'lanmagan bo'lsa-da, tillarning tarixiy taraqqiyotidagi o'zaro aloqalari natijasida o'xshashliklarga ega ekanligini ko'rish mumkin, boshqa tomondan esa, genetik jihatdan o'zaro bog'langan tillarning vaqt o'tishi bilan ajralishi natijasida o'zlashtirishlarning turli darajada ekanligini, lug'at boyligi, strukturasi umumiylikni ko'rish mumkin. O'zaro bog'lanmagan va geografik jihatdan ma'lum bir masofada joylashgan tillarda o'zaro o'xshashliklar namoyon bo'lishi mumkin va bu tabiiy hol, chunki tillarning tanlovidagi struktural ko'rsatkichlar sanoqli. Masalan, ega, kesim, to'ldiruvchining tartibi dunyoning juda ko'p tillari qiyosida cheklangan ko'rinishda, bu bir-biridan butunlay mustaqil bo'lgan tillar bir xil tartibga ega ekanligini bildiradi. Tillarning dastlabki shaklida yozilgan matnlarni asoslash mas'uliyat talab qiladi, o'zaro aloqador bo'lgan tillarning yoki dialektlarning qiyosi, o'zlashtirilgan elementlarni o'rganish, tillarning bugungi kundagi alternatsiyalari tadqiqi, tillarda sodir bo'lgan o'xshash yoki o'xshash bo'lmagan holatlar haqidagi umumiy bilimlardir."<sup>34</sup>

<sup>34</sup> Richter B. First steps in theoretical and applied linguistics. -- Budapest, 2006.-P.89.

Hozirgi tilshunoslik fanida tillar o'rtasida genetik aloqadorlikning yangi qirralari ochilmoqda. Taxminan 200 til oilasidan 22tasi Yevrosiyoga, 20ga yaqini Afrikaga, qolganlari Amerika, Avstraliya, Yangi Gvineyaga to'g'ri keladi. XIX asr oxirida, asosan, 4 ta til oilasi ajratilgan: turkiy, mo'g'ul, tungus-manchjur, koreys tillari. XX asrda mazkur tillarning qardosh ekanligi ta'kidlandi va umumlashtirilib, *oltoy tillar oilasi* deb nomlandi. Bu kabi an'anaviy til oilalaridan kengroq bo'lgan, bir-biriga qardoshligi to'la asoslanmagan til oilalarini "makro til oilalari" deb nomlash taklif qilingan. V.M.Ilyich-Svitich tadqiqotlarida aks etgan nostratik gipoteza (lotin tilida *noster* "bizniki" ma'nosini beradi) til oilalarini yanada kengroq doiradagi genetik asosga birlashtirishni nazarda tutadi. Nostratik makro til oilasiga hind-yevropa, ural, oltoy, kartvel, dravid tillari kiritilgan. Bu tillar o'rtasidagi o'xshashlik, asosan, olmoshlarda kuzatiladi:

- tatar. *мин*, mord. *мон*, "men"; zansk. *munens*, rus. *мне*;
- mar. *мый*, mo'g'. *ci* (><sup>x</sup> ti), rus. *мы*;
- udm. *ми*, teleut *теми*, хауса *ми*, rus. *мы*;
- komi *майо*, mo'g'. *tere*, rus. *том*;
- o'zb. *ким*, fin. *кеп*, somali *кима* "kim".

O'zaro o'xshashlik bir qator leksik asoslarda ham kuzatiladi:

- turkiy *qulaq*, gruz. *quri* "quloq", fin. *kuule*. yun. *klyo* "eshitmoq";
- turkiy *qaryn* "qorin", arab. *qurb*, tamil *karuppai*, lat. *corpus* "tana";
- mo'g'. *moren* "daryo", tamil *marai* "yomg'ir", rus *море* ;
- turkiy *tuman*, rus. *темный*;
- turkiy *kelin*, lat. *glos*, rus. *золовка*, fin. *kaly* "ukaning xotini";
- turkiy *qara*, teleut. *kari*.

Nostratik gipoteza muayyan faktik materiallarga ega bo'lsa-da, hali ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan emas.

Oltoy tillari o'rtasida ko'plab o'xshashliklar kuzatiladi. Masalan:

- turkiy *qol*, mo'g'. xalxa – *гол* (geografik nom), manchj. *dolo*, kor. *кол* "vodiy";
- turkiy *baj*, mo'g'. *bajan*, tung.-manchj. *bajan* "boy";
- turkiy *bek*, *beki*, tung.-manchj. *beki* "berk";



- turkiy *san* “sana”, mo‘g‘. *sana-* “bilmoq”, tung.-manchj. *sa-* “bilmoq”;
- mo‘g‘. *moren* “daryo”, evenk. *му*, kor. *물* “suv”;
- mo‘g‘. *modun*, tung.-manchj. *mo* “daraxt”, kor. *모* “o‘rmon, tog”.

O‘zbek tilidagi *мен* mo‘g‘ul tilidagi *мину* “menga”, evenk tilida gi *мунду* “menga” so‘zlariga mos keladi. O‘rin-payt kelishigi turkiy tillarda-*da*, mo‘g‘ul tilida -*da*, tungus-manchjur tilida -*de*<sup>85</sup>.

Turk, mo‘g‘ul, tungus-manchjur, koreys tillarida aksariyat o‘rinlarda fonetik moslik kuzatiladi.

Oltoy oilasidagi tillarning o‘xshashligi, ayniqsa, so‘z yasalishi tizimida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Til oilalarini o‘rganish tilshunoslarning doimiy e‘tiborida bo‘lgan. Jumladan, oltoy tillari oilasiga kiruvchi tillar xususida tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, N.A.Baskakovning “Алтайская семья языков и ее изучение”; V.Kotvichning “Исследование алтайских языков”, N.P.Direnkovaning “Грамматика алтайского языка” kabi izlanishlari shular jumlasidandir.

Tillarni bir-biriga muqoyasa qilib, taqqoslab o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ba‘zi tillardagi so‘zlarning ma‘nolari, shakllari, grammatik xususiyatlari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Albatta, bunday tillar bir-biriga yaqin, qardosh tillar bo‘la olmaydi. Ammo ba‘zi tillarning tuzilishi, grammatik xususiyatlari, shu tillardagi so‘zlarning paydo bo‘lish manbai, so‘z shakllari va ma‘nolari bir-biriga ancha yaqin bo‘ladi. Bunday tillar bir umumiy bobotildan kelib chiqqan bo‘lib, *qardosh tillar* deyiladi. Grammatik tuzilishi va boshqa xususiyatlari jihatidan bir-birlariga yaqin bo‘lgan tillar guruhi *til oilasi* deb ataladi. Chunonchi, o‘zbek, uyg‘ur, qozoq, qirg‘iz, tatar, boshqird, ozarbayjon, yoqut, turkman, qoraqalpoq, turk, chuvash tillari kabilar turkiy tillar oilasiga kiradi. Bu qardosh tillardagi o‘xshashlik, yaqinlik ularning so‘z boyligi, grammatik qurilishi va nutq tovushlarida ifodalanadi.

Shuni ham ko‘rsatib o‘tish kerakki, qardosh bo‘lmagan ba‘zi tillarning so‘z boyligida alohida so‘zlarning ma‘no jihatidan o‘xshashlik hodisalari uchrashi mumkin. Bunday hodisa bir tilga qa-

<sup>85</sup> Шайкеевич А.Я., Абдураезов А.А., Гурджигова Е.А. Введение в языковедение. —Т.: Укитувчи, 1989.—С.228.

rindosh bo'lmagan boshqa bir tildan kirgan so'zlarda uchraydi. Masalan, o'zbek tiliga arab tilidan: *oila, maktab, lug'at, kitob* singari, rus tilidan *samovar, mashina, stol, stul, choynak* kabi anchagina so'zlar o'zlashgan.

Rus, bulg'or, chex, polyak tillari ham bir oilaga mansub bo'lgani uchun so'z ma'nolari, grammatik tuzilishi jihatidan birmuncha o'xshashlik, yaqinlik bor. Bu misollar shuni ko'rsatadiki, qardosh tillarda so'z o'zklari grammatik vositalar jihatidan farq qilsa ham, ularning manbai bir bo'lib, bir asosli bobotildan kelib chiqqan. Biror so'z yoki grammatik vositalardagi tovush o'zgarishlari ma'lum bir fonetik qonuniyat asosida yuz bergan. Bir qardosh tilga, bir tovushga ikkinchi bir qardosh tildagi shunga muvofiq tovush to'g'ri keladi. Masalan, o'zbek tilidagi **g** tovushiga qozoq tilidagi **v (w)** tovushi muvofiq keladi: *bog – bav (baw), tog – tau (taw)*; bu xususiyat o'zbek tilining qipchoq shevalarida saqlanib qolgan. O'zbek tilidagi **t** tovushiga ozarbayjon tilidagi **d** tovushi muvofiq keladi: *temir – demir, til – dil*. Qardosh tillardagi tovushlarning bir-biriga muvofiq kelishi fonetik qonunga asoslangan hamda qardosh tillardagi so'zlarning ma'nolari va grammatik qurilishi bilan bog'liq.

Demak, qardosh tillar oilasiga kiradigan tillarda ba'zi tovushlar bir-biridan farq qilsa ham, grammatik vositalar, so'zlarning ma'nolari o'zaro yaqin bo'ladi.

Dunyoda yigirmadan ortiq til oilasi bor. Hozirgi vaqtda tarixi o'rganilib, qardoshligiga, yaqinligiga ko'ra ajratilgan til oilalari quyidagilardan iborat.

**I. Hind-yevropa tillari oilasiga hindiston, eron, slavyan, boltiq, german, roman, kelt, grek (yunon), alban, arman tillari** kabi til guruhlari kiradi.

**1. Hindiston tillari guruhiga** quyidagi tillar kiradi: *hind tili, urdu tili, bengal tili, maratxi tili, panjob tili, rajastoni tili, gujarati tili*. Hind tillari guruhiga *lo'li, sindxi tillari*, shuningdek, o'lik tillardan *sanskrit, pali, prokrit* tillari ham kiradi. Sanskrit tili qadimgi hind mumtoz adabiy tili bo'lib, bu tilda «*Mahabxarata*» («Bxaratlarning buyuk jangi haqida doston») hamda «*Xito padasha*» («Yaxshi nasihat») kabi epik asarlar yaratilgan. Eramizdan oldingi IV asrda hind

olimi Panini o'zining mashhur «Sanskrit grammatikasi» asarini yaratgan.

2. **Eron tillari guruhiga** quyidagi tillar kiradi: *fors tili, pushtu-dari tillari, kurd tili, tojik tili, osetin tili, baluchi tili.*

3. **Slavyan tillari guruhiga** quyidagi tillar kiradi: *rus tili, ukrain tili, belorus tili, bulg'or tili, serb-xorvat tillari, chex tili, slovak tili, polyak tili, serboluj tillari;* o'lik tillardan qadimgi *slavyan, polab, pomor* tillari.

4. **Boltiqa tillari guruhi:** *litva tili, latish tili;* o'lik tillardan *prus tili.*

5. **German tillari guruhi:** *ingliz tili, nemis tili, daniya tili, shved tili, norveg tili, golland tili, island tili;* o'lik tillardan *vesgot va ostgot* tillari.

6. **Roman tillari guruhi:** *fransuz tili, italyan, ispan tili, portugal tili, rumin tili, moldova tili, provansal tili, sardin tili, reto-roman tili;* o'lik tillardan *lotin, osk, umbr* tillari;

7. **Kelt tillari guruhi:** *irland tili, shotland tili, breton tili, uels (valli) tili;* o'lik tillardan *gal va kornoul* tillari ham kelt tillari guruhiga kiradi.

8. **Grek (yunon) tili.** O'lik tillardan qadimgi yunon, o'rta yunon yoki Vizantiya tillari ham grek tili guruhiga kiradi.

9. **Alban tili guruhi.**

10. **Arman tili guruhi.**

Hind-Yevropa tillari oilasiga, yuqorida ko'rsatib o'tilganlardan tashqari, *xett, toxar* singari o'lik tillar ham kiradi.

II. **Xom-som tillari oilasi.** Bu tillar oilasi ikki katta guruhga: som tillari va xom tillari guruhiga bo'linadi.

1. **Som tillari guruhi:** *arab tili;* shuningdek, *janubiy arab tili, amxar tili, aysar* tili hamda o'lik tillardan *ossuriya, vavilon, xonaney, qadimgi yahudiy va oromiy* tillari.

2. **Xom tillari guruhi:** *shilx, tuareg, kabil, amazirt* tillari; o'lik tillardan *liviya, numid, shtul, qadimgi misr* tillari.

III. **Kavkaz tillari oilasi.** Kavkaz tillari yana bir qancha guruhlarga, chunonchi, g'arbiy guruhga, veynax guruhiga, Dog'iston guruhiga bo'linadi.

1. **G'arbiy guruh:** *abxaz tili, abazin tili, adigey tili, kabardin-cherkes tili.*

2. **Veynax guruhi:** *chechen tili, ingush tili, basbi tili.*

3. **Dog‘iston guruhiga** Dog‘iston respublikasida yashovchi xalqlarning tillari kiradi: *avar tili, dargin tili, lazgin tili, lak tili, tabassaran tili*.

4. **Janubiy guruh:** *guzin tili*. Shuningdek, 110 ming kishi so‘zlashadigan chan tili, 290 ming kishi so‘zlashadigan migrel tili va 15 ming kishi so‘zlashadigan svan tili ham janubiy guruhga mabsub.

IV. **Ugor-fin tillari oilasi** ikki guruhga: 1) ugor tillari; 2) fin tillari guruhiga bo‘linadi.

1. **Ugor tillari:** *venger (major) tili, mansi tili, xanti tili*.

2. **Fin tillari:** *fin tili, eston tili, komi-permyak tili, komi-ziryan tili, udmurd tili, mari tili*. Bulardan tashqari, erzya va moksha-ijor tillari ham fin tillari guruhiga kiradi.

V. **Oltoy tillari oilasi:**

1. **Turkiy tillar:** *ozarbayjon tili, turk (usmonli turk) tili, turkman tili, o‘zbek tili, qozoq tili, qirg‘iz tili, tatar (Qozon tatarlari) tili, uyg‘ur tili, chuvash tili, boshqird tili, yoqut tili, qoraqalpoq tili, tuva tili*.

Shuningdek, qumiq tili (310 ming kishi so‘zlashadi), qorachoy tili (100 mingcha kishi so‘zlashadi), balqar tili (50 ming kishi so‘zlashadi), xakas tili (60 ming kishi so‘zlashadi) va yana bir qancha boshqa tillar hamda o‘lik tillardan urxun, pechena, qipchoq, qadimgi uyg‘ur, bulg‘or va xazar tillari ham turkiy tillar oilasiga kiradi.

2. **Mo‘g‘ul tillari:** *xalxa-mo‘g‘ul tili, buryat tili, qalmiq tili*.

3. **Tungus-manchjur tillari**

**Tungus guruhi:** *evenk tili, even tili*.

**Manchjur guruhi:** *manchjur tili, nanay tili, udey, ulq, oroch* tillari.

VI. **Xitoy -tibet tillari oilasiga** tay-xitoy va tibet tillari guruhlarini kiradi.

1. **Tay-xitoy guruhi:** *xitoy tili, dungan tili, vyetnam tili, tay (siam) tili*.

2. **Tibet tillari:** *birma tili, assam tillari*.

VII. **Dravid tillari:** *tamil tili, malayalam tili, kannara tili, teleut tili, braxun tili*.

VIII. **Malay-polineziya tillari.** Bu tillarga *malay* yoki *indoneziya* tili kiradi.

**IX. Avstraliya guruhi tillari.** Bu tillar oilasiga juda ko'p tillar kiradi, lekin ular yaxshi o'rganilmagan.

**X. Papua tillari.** Bu tillarda so'zlashuvchilar Yangi Gvineya orolida yashaydi.

**XI. Sudan tillari.** Sudan tillarida so'zlashuvchilar Afrikada yashaydi. Bu tillar bir necha guruhlariga bo'linadi: chunonchi: *nil-chad, nil-abissan, nil-ekvator, kardofan, nil-kongo, ubang, shor, niger-chad, niger-kamerun, quyi-niger, dagomey, niger-latgal, liberi va senegal-gviney* guruhlari kabi.

**XII. Bantu tillari.** Bu tillarda so'zlashuvchilar markaziy va Janubiy Afrikada yashaydi. Bu tillar: *teke, songo, suaxeln, konde, makua* va *sotko* kabi bir necha guruhlariga bo'linadi.

**XIII. Paleoafrika tillari.** Bu tillarda so'zlashuvchilar ham Afrika-da yashaydi. Ular ikki guruhga, ya'ni bushmen va gottentog tillari guruhiga bo'linadi.

**XIV. Paleoosiyo tillari.** Paleoosiyo tillari ikki guruhga: *chukot guruhi* va *sibir guruhiga* bo'linadi.


**XV. Eskimos tillari guruhi.** Bu tillar guruhiga: eskimos va aleut tili kiradi.

**XVI. Amerika hindularining tillari.** Amerika hindularining tillari 200 dan oshiq bo'lib, ular uch guruhga: 1) *Shimoliy Amerika*; 2) *Markaziy Amerika*; 3) *Janubiy Amerika* guruhlariga bo'linadi.

**XVII. Austr-Osiyo tillari.** Bu tillarga: mon-kxmer, bunda, malakk, markaziy va janubi-sharqiy tillar guruhi kiradi.

Burjaski tili hech qanday guruhga kirmaydi. Bu tilda so'zlashuvchilar 30 mingga yaqin kishi bo'lib, ular Hindistonning shimolida yashaydi. Quyidagi tillar ham hech qaysi guruhga kirmaydi. Bular Uzoq Sharq tillaridir: *ryukyu tili, ayn tili*.

## Til oilalari



Keyingi davrdagi manbalarga ko'ra yaponiya, koreya tillarining oltoy tillari oiasiga mansubligi qayd etilgan. Bu tillarning so'z tuzilishi, tarkibi, grammatik ma'noni hosil qilish, so'z yasaliş usullari oltoy tillari xususiyatlariga o'xshashdir. Birikma hosil qilish, gap bo'laklari, gap bo'laklari tartibi, predikativ munosabat ham yapon, koreys tillari hamda yapon tillari o'rtasida yaqinlik borligini ko'rsatadi.

Dunyo tillarining aksariyati bir necha dialekt ko'rinishida ijtimoiy vazifa bajarib kelmoqda.

"Bir tilning turli ko'rinishlarga ega bo'lgan dilaleklari yoki ularning alohida tillarga aylanishiga nima sabab bo'lishi haqida savol paydo bo'lishi mumkin. Dialektal farqlarni ajratishdagi chegara chizig'i alohida tillar o'rtasidagi farqlarni ajratish kabi oson emas. Dialektal farqlar o'xshashliklarning chegaralanishini, yangi, mustaqil tillarning paydo bo'lishini ta'minlaydi. Bu tillar ular o'rtasida o'zaro farq bo'lishiga qaramasdan, o'zaro o'xshash xarakterga ega ekanligi ham ma'lum. Ular bobotil (prototil)dan ajralib chiqqandan buyon genetik bog'langan tillar deb ataladi. Bu kabi tillar, masalan, Skandinaviya tillari tarkibiga kiruvchi *shved*, *norveg*, *daniya* tillari o'rta asrlarda

ajralib chiqqan va ular o'rtasidagi o'xshashliklar hozir ham aniq sezilib turadi. Skandinaviya tillari German guruhining shimoliy tarmog'idir. German tillari til oilasining Hind-Yevropa guruhiga kiruvchi juda ko'p tillar bilan o'zaro aloqador"<sup>86</sup>.

Bir qator turkologlar tadqiqotlarida oltoy tillarining genetik jihatdan qarindosh ekanligi asoslangan. J.Deni "Dunyo tillari" kitobida turkiy, mo'g'ul, tungus-manchjur guruhiga kiruvchi tillarning quyidagi umumiy belgilarini ko'rsatadi:

1. Fonetik sathda: unlilar uyg'unligi, so'z boshida sonor tovushlarning ishlatilmasligi, so'zda undosh tovushlarning yonma-yon kelmasligi, so'z oxiridagi n tovushining beqarorligi;

2. Morfologik sathda: grammatik rodning yo'qligi, o'zakning mustaqil ma'no anglatishi, agglyutinativ xususiyatga egaligi; suffiksalar xarakterdaligi, ya'ni prefikslarning yo'qligi, predloglar o'rnida ko'makchilarning qo'llanishi, grammatik son – birlik va ko'plikning mavjudligi.

3.Sintaktik sathda: gapning muayyan qurilishga egaligi, son bilan ifodalangan aniqlovchilarda sonda moslashuvning uchramasligi, so'roq ma'nosining ifodalanishida yuklamalarning qatnashishi, aniqlovchi vazifasida keluvchi sifat, son, olmoshlarning aniqlanishga muvofiq o'zgarmasligi va h.k.

4. Leksik sathda: lug'at tarkibida umumiy qatlamning mavjudligi, bir bo'g'inli so'zlarda mushtaraklikning yaqqol sezilishi, siyosiy-ijtimoiy muhit ta'sirida hukmron til leksikasining o'zlashganligi va shu kabilar.

Oltoy tillariga mansub bo'lgan turk, mo'g'ul, tungus-manchjur va koreys tillarining genetik aloqalarini o'rganish davom etmoqda. Bu borada tadqiqotlar yaratilmoqda.<sup>87</sup>

Pyotr I zamonidan boshlab, ayniqsa, 1725-yilda Fanlar akademiyasiga asos solinganidan keyin, rus fani jahon madaniyatida muhim o'rin tuta boshladi. Kavkaz va Sibir xalqlarining tillari yozib olinib, olimlar tomonidan o'rganishga kirishildi. Bu borada, ayniqsa, Stralenbergning xizmatlarini ta'kidlash joiz. U shimoliy-sharqiy Yevropa va Osiyo tillarini klassifikatsiya qilishga harakat qildi.

<sup>86</sup> Richter B. First steps in theoretical and applied linguistics. — Budapest, 2006. -P.85-86

<sup>87</sup> Усманова Ш. Олтой тилларида муштарак маиший лексика. Филол. фан. д-ри... дисс.-я.-Т., 2011.-324 б.; shu muallif. Олтой тилларида муштарак маиший лексика.-Т.:Фан, 2010.

Filipp fon Stralenberg turkologiya sohasidagi ilk tadqiqotchilardan biridir. U o'n uch yil davomida Sibirdagi qavmlarning ijtimoiy hayoti va tillariga doir "Tatar tillari" nomli asar yaratdi. Bu asari bilan Ural-oltoy maktabiga asos soldi. Stralenberg turkiy qavmlarni "Kichik Tatariston" va "Katta Tatariston" kabi nomlar ostida ikki hududiy guruhga ajratgan. Asarga ilova qilingan "Poliglotta tabulasi" jadvalida qalmiq, tatar tillariga oid so'zlar bilan bir qatorda mo'g'ul, tungus so'zlari ham keltirilgan. "Tabula" o'ttiz ikki "Tatar" (bu ta'bir Stralenbergniki) sheva va lahjalari haqida bahs yuritadi. Bu jadvalda har lahja va shevaga doir hisob raqamlari bilan bir qatorda "tejri", "gök" kabi o'ttiz beshta turkiy so'z ham berilgan.

Stralenberg asaridagi turkiy so'zlar qadimgi davr manbalarida ham qayd etilgani bilan e'tiborga molikdir. O'rxun-yenisey yozuv yodgorliklari matnida uchraydigan lug'aviy birliklar Sibir aholisi nutqida saqlanib qolgan.

"Tabula"da qayd etilgan o'ttiz ikki til, dastavval, olti guruhga ajratilgan:

1. Fin-ugor (muallif izohiga ko'ra "uyg'ur"): majar, fin, vogul, cheremis, permyak, votyak, ostyak.

2. Turk-tatar: tatar, yoqut, chuvash.

3. Samodiy.

4. Mo'g'ul-manchjur: qalmiq, manchjur, tangut.

5. Tungus: tungus, kamasin, arin, koryak, kuril.

6. Qoradengiz va Xazar dengizi o'rtasidagi xalqlar tili.

Stralenberg asarida turkiy xalqlar: chuvash, tatar, boshqird, yoqut, turkman, qoraqalpoq, baraba va xon turklari tillari haqida fikr bildirilgan. Stralenberg yaratgan Ural-Oltoy nazariyasi XIX asr boshlariga qadar bu sohadagi yagona manbalardan biri bo'lib keldi<sup>88</sup>.

Olimlar oltoy tillarini o'rganar ekanlar, birinchi navbatda, ularning tasnifi masalasini hal qilishga kirishdilar. Ko'plab olimlar tasnifida, xususan, V.Shotta va N. Baskakov ishlarida oltoy tili uch guruhga bo'linadi:

<sup>88</sup> Stralenberg D.Messersluidt bilan birgalikda Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarayi tarokima" asarini ham fanga ma'jum qildi. Qarnag: Caferoglu A. Turk dili taribi. I, II. 3-baski. -Istanbul: Enderun kitabevi, 1969. -S.11.



1. **Turkiy tillar guruhi.** Bu guruhga o'ttizdan ortiq tillarni kirish mumkin. Shuning uchun ham N.A. Baskakov turkiy tillar oltoy oilasining katta qismini tashkil qilishini ta'kidlagan.

2. **Mo'g'ul tillari guruhi.** Bu guruhga *qalmaq, xalxa, buryat, mo'g'ul, dunsyan* kabi tillar kiradi.

3. **Tungus-manchjur tillari.** Bu guruh boshqalarga qaraganda kichikroq bo'lib, *evenk, nigedal, xumari, solon, nanay, manchjur, sibir, jurjen* tillarini o'z ichiga oladi.

**Turkiy tillar.** Turkiy xalqlar ijtimoiy turmush taqozosi tufayli ko'p hollarda ko'chmanchilik bilan kun kechirgan. Ko'chmanchi qabila va o'troq xalqlarning aralash holda hayot kechirishi aniq lingvistik chegarani aniqlashga monelik qiladi.

Turkiy qabilalarning dastlabki maskani Janubiy Sibir va Shimoliy Mo'g'uliston (Oltoydan Amurgacha) hududlariga to'g'ri kelgan. Eramizdan avvalgi 206-yilda turkiy qabila (xun)larning birinchi zafarli yurishi boshlandi. Miloddan avvalgi I asrda xunlar ittifoqi ikkiga bo'lindi: biri Mo'g'uliston cho'llarida qoldi; ikkinchisi Sharqiy Qozog'iston tomon siljidi. Shu davrdan turkiy qabilalarning g'arbga yurishi boshlandi. Eramizning IV asrida turkiy qabilalar alan (skif, ostgot-sharqiy got), daklarni mag'lubiyatga uchratib, ularni o'zlariga qo'shib oldi va Dunayga chiqdi. Ushbu yurishning eng rivojlangan davri V asr o'rtalaridagi Attila hukmdorligiga to'g'ri keladi. II – VI asrlarda Yevropaga kelgan turkiylardan yozma yodgorliklar saqlanib qolmagan.

Keyinchalik turkiy dialektlar bulg'or guruhiga birlashdi. Eramizning V asrida turkiylar yanada kuchli, xitoy manbalarida *tyukyu* deb nomlangan ittifoqni tashkil qildilar. Bu davrdan o'rxun-ena-soy yozuvida bitilgan qoyatosh yozuvlari, qabrtoshlar, kumush va sopol idishlardagi bitiglar yetib kelgan.

VII asr oxirlarida Bolqon bo'ylaridagi slavyanlarni mag'lubiyatga uchratgan bulg'orlar turkiylar hisoblanadi. Bulg'or guruhiga kiruvchi chuvash tili boshqa turkiy tillardan keskin farqlanadi va bu til, hatto, qo'shni tatarlarga ham mutlaqo tushunarsiz. Bu holat chuvash tilining qadimiy xususiyatlarni saqlab qolganligi bilan izohlanadi.

Chorvador turkiy qabilalar, dastlab, Mo'g'uliston va Yuqori Enasoy daryosi bo'ylarida turkiy tillarning ijtimoiy-siyosiy guruhini tashkil qilgan. Tuva tili shu guruhga mansub bo'lib, mo'g'ul tilining kuchli ta'siriga uchragan. Tofalar (karagas) tili ham shu guruhga mansub bo'lgan. Tuvadan shimoliy g'arb tomongacha bo'lgan hududda yashagan qizil, qavchin, sagay kabi turkiy qabilalardan xakas xalqi va xakas tili shakllandi. Xakasiyada shor tili, Polsk viloyati sharqida – chulim tili, Sharqiy Sayanda kamasin tili yuzaga keldi.

Shimoli-sharqiy turkiy tillar guruhidan yoqut tili ajralib chiqqan. Yoqut tili shevalaridan dolgan tili rivojlandi. Yettisuv va Shinjon bo'ylaridagi o'troq aholidan janubi-sharqiy (qarluq) guruhi paydo bo'ldi. X asrda markazi Bolosog'un bo'lgan qoraxoniylar davlati yuzaga keldi. Qoraxoniylar poytaxti Koshg'arga ko'chirildi.

Sharqiy Turkistonda hukmdorlik uyg'urlarga o'tgach, ko'pgina qabilalar Orol dengizi tomon siljidilar va o'g'uz qabilalari ittifoqini tashkil etdilar (VIII asrlar). Buning oqibatida janubi-g'arbiy dialekt (o'g'uz dialekti) shakllandi.

Shimoli-g'arbiy Erondagi saljuqiylar mahalliy fors aholisi tili bilan moslashgan holda ozarbayjon tilining shakllanishiga zamin yaratdilar. Turk tili XIX asrdan boshlab adabiy til sifatida shakllandi.

O'rta Osiyoda qolgan o'g'uzlar tili turkman tilining shakllanishiga asos bo'ldi. Janubi-g'arbiy turkiy tillar guruhiga gagauz tili ham kiradi.

Quman (polovets) tilining davomi sifatida qumiq tili yuzaga keldi (Dog'iston shimolida), qorachoy-balqar, qrim-tatar, qaraim tillari shakllandi.

XIX asr ikkinchi yarmida tatar adabiy tili me'yorlari ishlab chiqildi. O'tgan asrning 30-yillarida tatar tiliga yaqin bo'lgan boshqird adabiy tili yuzaga keldi.

No'g'ay va qozoq dialektlari ta'sirida no'g'ay, qoraqalpoq, qozoq tillari shakllandi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili janubi-sharqiy (qarluq) guruhi negizida yuzaga keldi. Qipchoq dialektlari eng qadimiy bo'lib, ularda singarmonizm, 8 fonemali unlilar tizimi saqlanib qolgan. Aksincha, qarluq dialektlari asosida shakllangan o'zbek adabiy tili tovush tizi-

mi eroniy tillar ta'sirida muayyan o'zgarishlarga uchradi, unli fonemalar soni qisqarib, 6 taga tushib qoldi.

Keyingi davrlarga kelib mo'g'ul guruhidagi turkiy tillar – uyrot, qalmaq, buryat tillari shakllandi. Amur bo'ylarida tungus-manchjur guruhiga mansub nanay, ulch, udegey tillari yuzaga keldi.

Sibir guruhiga evenk (tungus) tili taalluqlidir. Ural tillari oilasi fin-ugor va samodiy tillaridan iborat.<sup>89</sup>

Til oilalarining har biri o'z ichida kichik guruhlariga bo'linadi. Xususan, turkiy tillar oilasi *qipchoq tillari guruhi*, *og'uz tillari guruhi*, *qarluq tillari guruhiga* bo'linadi. O'zbek va uyg'ur tillari qarluq guruhiga; qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, tatar, boshqird, xakas, yoqut, chuvash kabi tillar qipchoq guruhiga; ozarbayjon, turkman, usmonli turk tillari esa og'uz guruhiga kiradi. Turkiy tillar *qipchoq tarmog'i*, *og'uz tarmog'i*, *qarluq tarmog'i* singari til tarmoqlarini o'z ichiga oladi. Turkiy tillarning eng qadimgi davrlaridan hech qanday yozma yodgorliklar saqlanib qolmagan, lekin qadimgi turk tili davriga oid bir qator yozma manbalarga egamiz. Ular turkiy run yoki o'rxun-enasoy, uyg'ur va qisman moniy, sug'd yozuvlarida bitilgan manbalardir. Bu davrga doir obidalar tili hozirgi barcha turkiy tillar uchun umumiydir.

Mahmud Koshg'ariy tilshunoslik tarixida ilk bor barcha turkiy tillarning bir necha guruhlarini tasniflab, ular o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlagan holda “qiyosiy-tarixiy tilshunoslik” deb nomlanuvchi yo'nalishga asos soldi.

Qoraxoniylar davri adabiy tili hozirgi Markaziy Osiyodagi barcha turkiy tillarning shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo'lgan til sanaladi va shuning uchun bu davr tili ko'pchilik turkiyshunoslar tomonidan *eski turkiy til* deb yuritaladi.

«Devonu lug'otit-turk»dagi ma'lumotlarga qaraganda, o'sha davrda *bajanak*, *qipchoq*, *og'uz*, *boshqird*, *basmil*, *yabaqu*, *tatar*, *qirg'iz*, *chigil*, *tuxsi*, *yag'mo*, *ig'arak*, *uyg'ur* kabi turkiy qabilalar tili umumturkiy adabiy tilni tashkil qilgan. Ulardan «eng yengili – og'uz, eng to'g'risi, yaxshisi – yag'mo, tuxsi, eng ochiq, ravon til – xoqoniy o'lkasida yashovchilarning tili» ekanligi ta'kidlangan.

<sup>89</sup> Шайкеевич А.Я., Абдуазизов А.А., Гуржиева Е.А. Введение в языковедение.-Т. Укитувчи, 1989 - С.228.

Sharq ilmida ham tillar tasnifiga oid, tillarning muhim jihatlarini yorituvchi qarashlar mavjud. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari bu boradagi muhim manbadir.

Mahmud Koshg'ariy turkiy tillar qurilishini tasvirlashda qiyosiy metoddan foydalandi. U turkiy tillarning leksikasini, morfologiyasini va fonetikasini bir-biriga qiyoslab, ular orasidagi o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsatdi. Lug'atda turkiy tillar leksikasiga mansub 7500 so'z izohlangan.

Mahmud Koshg'ariy turkiy tillar fonetik qonuniyatini birinchilardan bo'lib aks ettirgan olimdir. U "Devonu lug'otit turk"da fonetik qonuniyatlarning tovush almashuvi, tovush tushishi, tovush ortishi kabi ko'rinishlarini batafsil izohlagan.

Uning tasnifi ikki prinsipga tayanadi:

1. Tilning sofligi prinsipi.
2. Fonetik-morfologik prinsip.

Mahmud Koshg'ariy XI asrda yashagan turkiy xalqlarning tillarini ikki qismga ajratadi:

1. Sharqiy turkiylar tili.
2. G'arbiy turkiylar tili.

Mahmud Koshg'ariy birinchi guruhga Bolosog'un, Koshg'ar atrofida yashaydigan xalqlarning tillarini kiritdi. Bular chigil, qarluq, uyg'ur, tuxsi, yag'mo kabi xalq va qabilalarning tillaridan iborat edi.

Sharqiy va g'arbiy guruh tillari qator xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farqlanadi.

Mahmud Koshg'ariy qadimda boshqa joylardan kelgan xalqlar hayotini ham sinchiklab o'rgandi. U tubutlar haqida shunday ma'lumot beradi: "Tubutlar turk diyorida yashovchi bir qavm. Kiyik mushki (kiyikning kindigidan kesib olib hozirlanadigan atir) tubutlarda bo'ladi. Tubutlar bir jinoyat qilib Yamandan qochib, dengiz yo'li bilan Chinga borib o'rtnashib qolgan Bani sobit avlodlaridir. Hozir ular bir ming besh yuz farsah yerda yashaydilar. Sharq tomoni Chin, g'arb tomoni Kashmir, shimol tomoni Uyg'ur, janub tomoni Hind dengizidir. Ular o'z tillarini yo'qotib, turkiy tilni o'zlashtirgan bo'lsalar ham, hanuz ularning so'zlarida o'z tillariga moslashtirish farqi sezilib turadi. Chunchi, onani "uma" deydilar, otani "aba" deydilar". Bu qabilalar leksikasi haqidagi ma'lumotlar tarixiy jihatdan katta ahamiyatga egadir.

Mahmud Koshg'ariy ayrim shevalargagina xos bo'lgan til hodisalarini ham, ko'pchilik qabilalarning umumlashgan til xususiyatlarini ham izchil ravishda ko'rsatib berdi. Bu xil ma'lumotlar O'rta Osiyo xalqlari tillarining, shu jumladan, o'zbek tilining shakllanishida asos bo'lgan qabilalar tillarini aniqlashda muhim material bo'lib xizmat qiladi. Uning asarida qabilalar tilida so'z yasalish masalasi ham to'la yoritildi. U til faktlari asosida qabilalarning bir-biriga bo'lgan munosabatini ko'rsatdi va nihoyat u davrdagi iqtisodiy, ijtimoiy sharoitlar asosida qabilalarning bir-birlari bilan birika boshlashi natijasida yuzaga kelgan boshlang'ich xalq tili namunalarini ham yaqqol ifodalab berdi. Mahmud Koshg'ariy asarida o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, uyg'urlar, tatar va boshqa xalqlarning qadimgi qabilalarini va bu xalqlarning qadimgi sodda tillarining namunalarini mukammal izohlab berdi. Bu xalqlar devon materiallari asosida o'zlarining tillari qaysi qabila tili asosida shakllanganini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida davrining mukammal dialektologiyasini yaratib berdi.

"Devonu lug'otit turk"da tilning ijtimoiy vazifasi, til va jamiyat munosabatiga oid masalalar ham o'z ifodasini topgan. Mahmud Koshg'ariy turkiy tillar sohiblari haqida so'z yuritir ekan, ularning o'z tillarini qadrlashini ta'kidlaydi. Turkiy tilda gapiruvchi boshqa til sohiblarining aybdor bo'lsa, gunohidan kechishlari, bandi bo'lsa, ozod etishlari haqida muhim ma'lumotlarni yozib qoldirganki, bu qaydlar ona tilini qadrlash masalalarini o'rganishda, ajdodlarimizning milliy tilga munosabatini belgilashda ahamiyatlidir.

Mahmud Zamahshariyning "Muqaddimat ul-adab", Abu Hayyoning "Ad-durrat -ul mudi'ye fi-l-lug'atit-turkiy", "Kitob ul-idrok li-lison ul -atrok", Faxriddin Muhammad ibn Mustafoning "Qavoyid ul-lisani turk", Jamoliddin Ibn Muxannaning "Xiliat ul-inson va xalibat ul-lison", Jamoliddin at-Turkiyning "Kitobi ul-lug'ot al-mushtoq fi-l-lug'ati at-turk val-qipchoq", muallifi noma'lum "Kitob-i-majmu-u-tarjimon turki va ajamiy va mo'g'uliy", "Kitob-at-tuhfat-uz-zakiyatu fi-l-lug'at-it-turkiy" asarlarida ham turkiy tillar grammatikasi, leksikasiga doir ma'lumotlar berilgan.

Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida o'zbek xalqini turk, uning tilini turk tili deb amalda *turk, turkiy, turk ulusi, turk tili, turkiy til, turkiy alfoz* kabi so'z va iboralarni keng qo'llagan.

Genealogik tasnif qardosh tillarning tarixiy taraqqiyot jarayonida bir o'zak tilidan tarqalganligini va ularning o'zaro munosabatini, so'z ma'nolari va grammatik shakllarini, nutq tovushlarining bir-biriga yaqinligini, o'xshashligini nazarda tutib, tillarni guruhlariga ajratadi.

Turkiy tillar tasnifi bir qator mezonlarga asosan amalga oshirilgan.

N.A.Baskakov turkiy bobo tilni ikki guruhga ajratgan: **g'arbiy turkiy tillar:** *bulg'or, o'g'uz, qipchoq, quman, saljuqiy, usmonli turk, turkman, chuvash, gagauz, ozarbayjon, qaraim, qumiq* tillari; **sharqiy turkiy tillar:** *o'rxun-enasoy, qadimgi uyg'ur, uyg'ur, qarluq, tatar, boshqird, qozoq, no'g'ay, qoraqalpoq, o'zbek, qirg'iz, oltoy, tuva, xakas, shor, yoqut* tillari.<sup>90</sup> Har bir guruh o'z ichida yana kichik guruhlariga ajratilgan:

#### 1. *G'arbiy xun tarmog'i* (g'arbiy hudud).

##### 1. **Bulg'or guruhi** (shimoli-g'arbiy areal):

a) qadimgi tillar – *bulg'or, xazar, avar, sabir (suvarlar) tili*; b) hozirgi tillar – *chuvash tili*.

##### 2. **O'g'uz guruhi** (janubi-g'arbiy areal):

1) og'uz-turkman guruhi: a) qadimgi tillar – *X–XI asrlardagi o'g'uzlar tili*; b) hozirgi tillar – *turkman tili, truxman dialekti*;

2) o'g'uz-bulg'or guruhi: a) qadimgi tillar – *pecheneglar, uzlar (qora klobuklar) tili*; b) hozirgi tillar – *gagauz tili, bolqon turklari tili va dialekti*;

3) o'g'uz-saljuq guruhi: a) qadimgi tillar – *saljuqiylar, eski usmon tillari*;

b) hozirgi tillar – *ozarbayjon, turk tillari*.

##### 3. **Qipchoq guruhi** (shimoli-sharqiy areal):

1) qipchoq-palovets guruhi:

a) qadimgi tillar – *polovets tillari (qipchoq yoki kumanlar tili)*;

b) hozirgi tillar – *qaraim, qumiq, qorachoy-balqar, qrim-tatar tillari*;

<sup>90</sup> Баскаков Н.А. Тюркские языки -М., 1960.

2) qipchoq-bulg'or guruhi: a) qadimgi tillar – *g'arbiy oltino'rda tili*; b) hozirgi tillar – *tatar, boshqird tillari*;

3) qipchoq-no'g'ay guruhi: a) qadimgi tillar – *eski qozoq, eski qoraqalpoq tillari*; b) hozirgi tillar – *no'g'ay, qoraqalpoq, qozoq tillari*.

#### 4. Qarluq guruhi (janubi-sharqiy areal):

1) qarluq-uyg'ur guruhi: qadimgi tillar – *qoraxoniy uyg'ur va qoraxoniylar davridan keyingi tillar*;

2) qarluq-xorazm guruhi: a) qadimgi tillar – *qarluq-xorazm, sharqiy oltin o'rda, chig'atoy, eski o'zbek, eski uyg'ur tillari*; b) hozirgi tillar – *o'zbek va uyg'ur tillari*.

### II. Sharqiy xun tarmog'i (sharqiy hudud).

#### 1. Uyg'ur-o'g'uz guruhi (shimoliy areal):

1) uyg'ur-tukyu guruhi: a) qadimgi tillar – *qadimgi o'g'uz, qadimgi uyg'ur tillari*; b) hozirgi tillar – *tuva tili, tofalar dialekti*;

2) yoqut guruhi: *hozirgi yoqut tili*;

3) xakas guruhi: hozirgi tillar – *xakas, shor, chulim tillari, kamasin dialekti*.

2. Qirg'iz-qipchoq guruhi: a) qadimgi til – *qadimgi qirg'iz tili*; b) hozirgi tillar – *qirg'iz, oltoy tillari*.<sup>91</sup>

V.V Radlov turkiy tillarni geografik o'rniga ko'ra to'rt guruhga bo'lgan:

1. Sharqiy guruh: *oltoy, chulum turklari, karagas, xakas, shor, tuva va enasoy turklari tillari*.

2. G'arbiy guruh: *Sibir tatarlari, qirg'iz, qozoq, boshqird, tatar, qoraqalpoq tillari*.

3. O'rta Osiyo guruhi: *uyg'ur va o'zbek tillari*.

4. Janubiy guruh: *turkman, ozar, turk tillari*.

Bu tasnifga ko'ra *yoqut tili* alohida guruhni tashkil etadi.

F.Korsh, I.Bensig, K.Menges, V.A.Bogoroditskiy, G.Ramstedtlar ham turkiy tillarni geografik joylashish o'rniga ko'ra tasniflagan.

A.Samoylovich turkiy tillarni fonetik xususiyatlariga ko'ra tasnif qilgan:

1. R guruhi: *bulg'or, chuvash tillari*.

<sup>91</sup> Баскаков Н.А. Историко-типологическая фонология тюркских языков.-М.:Наука, 1983.-С.111-112

2. **D** guruhi: *uyg'ur, shimoli-sharqiy turkiy tillar.*

3. **Tau** guruhi: *oltoy, qirg'iz, qumuq, qorachoy-balqar, qaraim, tatar, boshqird, qozoq, no'g'ay tillari.*

4. **Tag'liq** guruhi: *eski o'zbek tili, hozirgi uyg'ur va hozirgi o'zbek tili.*

5. **Tag'li** guruhi: *Xorazm o'zbeklari, turkman-qipchoq tily lari.*

6. **O'l (bo'l-o'l)** guruhi: *janubi-g'arbiy turkiy tillar (ozar, turk, gagauz tillari).*

A.Samoylovich tasnifida turkiy tillarning fonetik jihatdan o'zaro farqlanishi ham ko'zga tashlanadi.<sup>92</sup>

Tabbert-Stralenbergni Paltava guberniyasi va Sibirda yashagan turkiy qabilalar tilidagi yaqinlik qiziqtirgan bo'lsa, 1733-1743-yillarda tarixchi va etnograf olim G.F.Myuller Sibirda yashaydigan elatlarning til xususiyatlari haqida boy material to'pladi, "Tatar tili va boshqa Sibir dialektal so'zlari to'plami" nomli lug'atini tuzdi. Mazkur lug'atdan boshqird, chulim tatarlari, teleut, shor tillari, Abakandagi xakas, Sibirdagi buxoroliklar va yoqut tiliga mansub so'zlar o'rin olgan. Lug'atda yuzdan ortiq turkiy so'zlarning qiyosiy jadvali berilgan. Masalan, *qor* so'zining 12 turkiy tildagi varianti keltirilgan: qangli. *buran*, boshq. *kar*, tuv. *kar*, tobol. *kar*, chat. *kar*, tomck. *kar*, teleut. *kar*, kuznetsk. *kar*, xakas. *xar*, buxor. *qar*, yoq. *çarr*.

1868-1877-yillarda Sankt-Peterburgda L.Budagovning ikki jildlik "Turk lahjalari qiyosiy lug'ati" nashr etildi.<sup>93</sup>

V.V. Radlov 1859-yildan boshlab turkiy til va lahjalarni o'rganishga kirishdi va to'rt jild, sakkiz qismdan lug'at nashr qildirdi.<sup>94</sup>

Turkiy tillarning nisbatan mukammal qiyosiy grammatikasi, asosan, XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya fanlar akademiyasi hamda Sankt-Peterburg tilshunoslik instituti olimlari tomonidan yaratildi. Mahmud Koshg'ariy, N.A. Baskakov, B.A. Serebrennikov, N.Z. Gadjiyeva, A.M. Sherbak, E.R. Tenishev, L.S.Levitskaya,

<sup>92</sup>Samoylovich A. Türk dillerinin sınıflandırılmasına dair bazı eklemeler (A.Samoylovichning 1922 йилда Петроградда нашр этилган «Некоторые дополнения к классификации тюркских языков» номли мақоласини проф. др. Мехман Муса ўғли таржима қилган) // Dil aʼraʼstirmalari. Uluslararası hakemli dergi.-Ankara. 2007.-S.184.

<sup>93</sup>Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Том I.-СПб.1869/1960. -820 с.; Том II.-СПб. 1871.- 417 с.

<sup>94</sup>Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Том I.-СПб.1869/1960. -820 с.; Том II.-СПб. 1871.- 417 с.



L.A.Pokrovskaya kabi olimlarning izlanishlari natijasida turkiy tillarning mukammal qiyosiy-tarixiy grammatikasi shakllandi.

Hozirgi turkiy tillarning tarqalish doirasini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. O'zbek tili. Bu til O'zbekiston Respublikasining (poytaxti – Toshkent) davlat tili bo'lib, bu tilda 21 milliondan ortiq kishi (O'zbekiston, Afg'oniston, Pokiston, Tojikiston) so'zlashadi.

2. Turk (usmonli turk) tili. Bu til Turkiyaning (poytaxti – Anqara) davlat tili bo'lib, unda 72 milliondan ortiq kishi (Turkiya, Kipr, Iroq, Suriya, Yunoniston, Bolgariya) so'zlashadi.

3. Turkman tili. Bu til Turkmaniston Respublikasining (poytaxti – Ashxobod) davlat tili bo'lib, bu tilda 4 milliondan ortiq kishi (Turkmaniston, Afg'oniston, Xuroson, Pokiston) so'zlashadi.

4. Ozarbayjon tili. Bu tilda so'zlashuvchi aholining soni 31 milliondan oshadi (Ozarbayjon, Gruziya, Eron). Bulardan 20 milliondan ko'prog'i Eronda, 10 milliondan ziyodi esa Ozarbayjonda yashaydi. Bu til Ozarbayjon Respublikasining (poytaxti – Boku) davlat tilidir.

5. Qozoq tili. Bu til Qozog'iston Respublikasining (poytaxti – Astana) davlat tili bo'lib, unda 11 millionga yaqin kishi (Qozog'iston, Xitoy) so'zlashadi.

6. Qirg'iz tili. Bu til Qirg'iziston Respublikasining (poytaxti Bishkek) davlat tili bo'lib, bu tilda 3,3 milliondan ortiq kishi so'zlashadi (Qirg'iziston, Xitoy).

7. Tatar (Qozon tatarlari) tili. Bu til Tatariston Respublikasining asosiy davlat tili bo'lib, bu tilda so'zlashuvchilar 7,5 milliondan ortiqdir (Tatariston-Rossiya, Qrim-Ukraina).

8. Uyg'ur tili. Bu tilda so'zlashuvchilar 17 milliondan ortiqroq bo'lib (Xitoy, Qozog'iston, Rossiya), ular, asosan, Xitoy Xalq Respublikasining Shinjon-uyg'ur avtonom hududida yashaydilar.

9. Chuvash tili. Mazkur til Chuvash Respublikasida yashovchi xalq tili bo'lib, unda 2 milliondan ko'proq kishi gaplashadi.

10. Boshqird tili. Ushbu til Boshqirdiston Respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili bo'lib, unda 2,5 millionga yaqin kishi so'zlashadi.

11. Qoraqalpoq tili. Qoraqalpog‘istonda yashovchi xalqlar tili bo‘lib, bu tilda 600 mingdan ortiq kishi so‘zlashadi.

12. Yoqut (Saxa) tili. Bu til Yoqutiston Respublikasida yashovchi xalqning tili bo‘lib, 400 mingdan ko‘p kishi so‘zlashadi.

13. Qorachoy tili. 400 ming kishi so‘zlashadi (Kavkaz – Rossiya).

14. Tuva tili. Tuva Respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili bo‘lib, bu tilda 300 mingdan ko‘proq kishi muloqotga kirishadi (Tuva – Rossiya, Mo‘g‘uliston).

15. No‘g‘ay tili. 300 ming kishi so‘zlashadi (Kavkaz – Rossiya)

16. Qumiq tili. 283 ming kishi so‘zlashadi (Kavkaz – Rossiya).

17. Gagauz tili. 247 ming kishi muloqot qiladi (Moldaviya, Ruminiya, Bolgariya)

18. Balqar tili. 200 ming kishi so‘zlashadi (Kavkaz – Rossiya).

19. Oltoy (uyrot) tili. 180 ming kishi so‘zlashadi (Oltoy o‘lkasi – Rossiya).

20. Xakas tili. 150 ming kishi gaplashadi (Xakasiya – Rossiya, Kanzu viloyati –Xitoy).

21. Xalach tili. 30 000 ming kishi so‘zlashadi (Eron).

22. Qaraim tili. 10 000 kishi so‘zlashadi (Litva, Ukraina, Polsha, Qrim).<sup>95</sup>

Bulardan tashqari shor, karagas (tofalar) tillari ham turkiy tillarga mansubdir.

O‘rxun, pechena, qipchoq, qadimgi uyg‘ur, bulg‘or va xazar kabi turkiy tillar o‘lik tilga aylangan.

Ba‘zi adabiyotlarda turkiy xalqlar miqdori 42ta deb ko‘rsatiladi: o‘zbeklar, turklar, bolqon turklari, gagauz turklari, Karay turklari, Qrim turklari, chulim turklari, Kumandi turklari, Kandak turklari, karagas turklari, Uranxay turklari, Iroq turklari, Suriya turklari, Kipr turklari, Stavropol turklari, Saxa (yoqut) turklari, oltoy turklari, tuva turklari, Dog‘iston turklari, mesxeti turklari, Yevropadagi turklar, qozoqlar, qirg‘izlar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, uyg‘urlar, sariq uyg‘urlar va salarlar, tatarlar, chuvashlar, boshqirdlar, qrimlar, ozarbayjonlar, qumiqlar, qorachoylar, balqarlar, no‘g‘aylar, xakaslar, To-

<sup>95</sup> Erdog‘an Boz, Yaman Ertug‘rul. Universitetler için türk dili (yazili ve sözlü anlatim).-Ankara, Savaş yayinevi, 2011.-S.73-74.

bol tatarlari, barabalar, shorlar, kashgaylar, Hamza turkmanlari tillari.

Turkiy tillarda soʻzlashuvchi xalqlar Afgʻoniston, Eron, Yugoslaviya, Albaniya, Gretsiya (Yunoniston) va boshqa mamlakatlarda ham yashaydi.

Turkiy tillarda soʻzlashuvchi yana shunday elatlar mavjudki, ularda ona tilidan, asosan, maishiy hayotda foydalaniladi, bu tillarning ijtimoiy vazifasi juda chegaralangan. Ular oʻzlarining rasmiy yozuvlariga ega emas. Zarurat tugʻilganda, eski alifbodan foydalana-dilar. Bunga qaraim, shor, chulim tillari kiradi. Ushbu tillar boʻyicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

**Tillarning morfologik tasnifi.** Tillarni morfologik tasnif qilishda soʻzlarning tuzilishi eng muhim belgi sifatida olinadi. Bu usulda soʻzlarning kelib chiqishi ahamiyatga ega emas. Morfologik tasnif, eng avvalo, har bir tilning grammatik qurilishini nazarda tutadi, yaʼni nutqda soʻz, turlovchi va tuslovchi qoʻshimchalarning mavjudligi, ularning xususiyatlari, soʻzning yasaliş tomonlarini hisobga oladi. Grammatik maʼnoning ifodalanishiga koʻra tillar sintetik (affiksli) va analitik (affikssiz) tillarga boʻlinadi.

1. *Sintetik (affiksli) tillar.* Sintetik tillarda grammatik maʼno affiksatsiya (prefikslar, suffikslar), ichki fleksiya, suppletiv usul yordamida ifodalanadi. Sintetik tillarga hind-yevropa tillari oilasiga mansub tillar (rus, nemis va boshqalar) kiradi. Bunday tillarda nutqdagi soʻzlarning bir-biriga bogʻlanishi soʻz tarkibiga bogʻliq boʻladi. Bu tillardagi qoʻshimchalarning xarakteri va soʻzlarga ulanish, bogʻlanish xususiyatlari bir-biridan farq qiladi. Affiksal morfemalar oʻzak morfemaga birikish xususiyatiga koʻra muayyan tilning oʻziga xos jihatlarni namoyon qiladi. Oʻzakka nisbatan oʻrniga qarab qoʻshimchalar *affikslar, suffikslar, prefikslar, postfikslar, infikslarga* boʻlinadi.

Soʻz yasovchi va shakl yasovchi affikslar soʻzning leksik maʼnosi bilan bogʻliqdir. Bu hodisa leksika bilan morfologiyaning bir-biriga bogʻliq ekanini isbotlaydi.

2. *Analitik tillar (affikssiz) tillar.* Bunday tillarda gap tarkibidagi soʻzlarning bir-biri bilan munosabati, asosan, soʻz tarkibi orqali ifodalanadi. Soʻzlarning shakli oʻzgarmaydi (soʻzlar turlanmaydi, tus-

lanmaydi), soʻz negiziga qoʻshimcha qoʻshilmaydi. Analitik tillarda grammatik maʼno yordamchi soʻzlar, soʻz tartibi, takror, ohang orqali ifodalanadi. Analitik tillarga hind-yevropa tillari oilasiga mansub boʻlgan ingliz, fransuz tillari kiradi.

Analitik tillarda grammatik munosabatlar sintaktik yoʻl bilan ifodalanadi. Yordamchi soʻzlar va soʻz yasovchi elementlar grammatik munosabatni taʼminlaydi.

Koʻpgina tillarda bir vaqtning oʻzida ham analitik, ham sintetik vositalardan foydalaniladi. Lekin bu vositalar nisbat nuqtayi nazaridan bir xil emas: baʼzi tillarda soʻzning grammatik shaklini oʻzgartirishda, yaʼni gapda soʻzlarni bir-biri bilan bogʻlashda koʻproq sintetik vositalardan, baʼzi tillarda esa analitik vositalardan foydalaniladi. Sintetik tillarda grammatik affikslar bajaradigan vazifalarni analitik tillarda soʻz tartibi, yordamchi soʻzlar kabi vositalar bajaradi.

Tillarning morfologik tasnifi boʻyicha bir qator olimlar ish olib bordilar. 1818-yilda F. Shlegelning ukasi Avgust Shlegel «Provansal tili va adabiyoti toʻgʻrisida xotiralar» degan asarida tillarni *flektiv*, *affiksal* va *amorf* tillarga ajratdi. U amorf tillarga xitoy-tibet tillarini kiritib, ularning xususiyatlari toʻgʻrisida batafsil maʼlumot berdi, flektiv tillarni esa sintetik flektiv tillar va analitik flektiv tillarga ajratishni tavsiya etdi.

A. Shlegel flektiv tillarda grammatik aloqani ifodalashning ikki usuli – sintetik va analitik usullari borligini koʻrsatadi. Aka-uka Shlegellarning tipologik klassifikatsiyasi oz sonli tillarnigina oʻz ichiga oldi. Juda koʻp yirik tillar bu klassifikatsiyadan oʻz oʻrnini topmadi. Shunga qaramay, Shlegellarning klassifikatsiyasi hozirgacha morfologik klassifikatsiyaning asosi boʻlib qoldi. Tillarni morfologik jihatdan ajratuvchi, agglyutinativ va flektiv tiplarga boʻlishning birinchi manbasi Shlegellarning tipologik tasnifidir.

Aka-uka Shlegellardan keyin bu masala taniqli nemis olimi, tilshunoslik fanining asoschilaridan biri Vilgelm Fon Gumboldt tomonidan har tomonlama koʻrib chiqildi. Vilgelm Fon Gumboldt tillarni flektiv, agglyutinativ, ajratuvchi (amorf), polisintetik (mujassamlantiruvchi) tarzida toʻrt turga ajratdi.

V. Fon Gumboldt tillarning «flektiv» turiga qoʻshimchali tillarni kiritdi. Xususan, bunday tillarga faqat oʻzakda oʻzgarish sodir

bo'ladigan tillar emas, balki ba'zi affiksallik tillar ham kirishini tushuntirdi. Lekin bu affikslar agglyutinativ tillardagilardan tubdan farq qiladi.

Aka-uka Shlegellar affiksallik deb atagan tillar guruhini V.Fon Gumboldt *agglyutinativ* atamasi bilan nomladi. Bu bilan u affiksallik flektiv tillarning affiksallik agglyutinativ tillardan farq qilishini nazarda tutdi.

V. Fon Gumboldt amorf tillarni *ajratuvchi tillar* deb atadi, chunki amorf so'zi "shaklsiz" degan ma'noni anglatadi. Xitoy-tibet tillari boshqa tillar kabi o'z shakliga ega, lekin ularning grammatik shakllari boshqa tillardan farqli ravishda so'z shakllarini o'zgartirish yo'li bilan emas, balki so'z tartibi va ohang orqali o'zgaradi.

Gumboldt mavjud tasnifga yana bir tillar guruhini kiritish maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlab, uni polisintetik (mujassamlantiruvchi) tillar deb atadi.

Tillar tasnifi bilan Avgust Shleyxer, F.Misteli, N.Fink, F.F. Fortunatov, E.Sepir va boshqa bir qancha tilshunolar ham shug'ullanishgan.

Taniqli rus olimi F.F. Fortunatov tillar tipologiyasi mutlaq emas, balki nisbiy ekanini ta'kidladi. U tillarni agglyutinativ, agglyutinativ-flektiv, flektiv, qo'shimchasiz tillarga ajratadi. Agglyutinativ tillarning morfologik xususiyatini shunday ta'riflaydi: "Ayrim so'z formalariga ega bo'lgan til oilalarining ko'pida bu shakllar so'zlarda negiz va affiksning shunday ajralish vositasi orqali yasaladiki, bunda negiz yo fleksiyaga ega bo'lmaydi yoki negizda bunday fleksiya yuz bersa ham, u so'z shakli uchun ahamiyatga ega bo'lmaydi. Bunday tillarni morfologik klassifikatsiyada, garchi noaniq ravishda bo'lsa ham, agglyutinativ, ya'ni "yopishtiruvchi" tillar termini bilan atash odat bo'lib qolgan. Bunda so'z shakllaridagi negiz va affiks o'z ma'nolariga ko'ra so'zning bir-biriga yopishtirilgan ayrim qismlari sifatida kelaveradi". Ikkinchi guruhga semit tillarini kiritadi. Bu tillarda so'z negizlari zarur shaklga ega bo'lib, bu shakllar negiz fleksiyasi bilan, ya'ni tovush tomonining o'zgarishi bilan yasaladi. Shu bilan birga, semit tillarida negiz bilan affiks orasidagi munosabat xuddi agglyutinativ tillardagi singaridir. Demak, bu tillarda negiz fleksiyasi affiks bilan birgalikda so'zning ma'lum shaklini hosil qiladi.

Shuning uchun semit tillarini agglyutinativ-flektiv tillar deb ataydi. Uchinchi guruhga hind-yevropa tillari kiritiladi. Bu tillarda soʻz formasi negiz va affikslarning shunday aloqaga kirishidan tuziladiki, bunday aloqa na agglyutinativ tillarda va na flektiv-agglyutinativ tillarda mavjud emas. Ana shunday tillarga nisbatan flektiv tillar degan nom saqlab qolinadi. “Nihoyat, shunday tillar borki, bularda affikslar bilan yasaladigan soʻz shakllari yoʻq. Bularda, umuman, ayrim soʻz shakllari mavjud emas” (xitoy, siam tillari). Demak, bu tillar toʻrtinchi guruhni tashkil qiladi.

Amerika tilshunosi E.Sepir morfologik tipologiyaning yangi sistemasini yaratishga urindi. U tillarni 15 dan ortiq turga ajratdi. Bu tasnif qator kamchiliklari tufayli koʻpchilikka manzur boʻlmadi.

Hozirgi zamon tilshunosligida V.Fon Gumboldt yaratgan morfologik tipologiya koʻpchilik tomonidan eʼtirof etilib, tillarni toʻrt turga ajratish anʼanaga aylangan. Bu tasnif asosida Gumboldt sistemasi yotgan boʻlsa ham, uning uzoq vaqt saqlanib qolishiga Gumboltdan keyin yashab ijod etgan tilshunoslar oʻz hissalarini qoʻshdilar. Demak, dunyo tillari morfologik jihatdan toʻrt asosiy guruhga ajraladi:

**Flektiv tillar.** Flektiv tillar (*flexio* lotincha soʻz boʻlib, “egilmoq”, “bukilmoq” degan maʼnoni bildiradi) tipiga hind-yevropa va xom-som tillar oilasiga mansub boʻlgan tillar kiradi. Bu tillar *sintetik flektiv tillar* va *analitik flektiv* tillarga ajratiladi.

*Sintetik flektiv tillarga* nemis, rus tillar kabi fleksiyalarga boy tillar kiritiladi.

Nutqda soʻzlar orasidagi sintaktik munosabatlar asosan fleksiyalar asosida amalga oshiriladi. *Analitik flektiv* tillarda, garchi fleksiyalar boʻlsa ham, ularning miqdori katta emas, gapdagi soʻzlar orasidagi sintaktik munosabat koʻproq soʻz tartibi va yordamchi soʻzlar vositasida amalga oshiriladi. Shuning uchun antik tillarda soʻz tartibi qatʼiy, har bir gap boʻlagi oʻz oʻmida turishi shart boʻlgan. Analitik flektiv tillarga ingliz, fransuz tillari kabi tillar kiradi. Bu tillarda odatda gapning egasi birinchi oʻrinda (kesimdan oldingi oʻrinda), kesim ikkinchi oʻrinda (egadan keyingi oʻrinda), agar kesim oʻtimli feʼl bilan ifodalangan boʻlsa, unda uchinchi oʻrinda (kesimdan keyin) toʻldiruvchi turadi. Aniqlovchining oʻrnini oldindan belgilab boʻlmaydi. U doimo ot bilan bogʻlangan boʻladi; aniqlanmish qayerda

bo'lsa, aniqlovchi ham shu yerda bo'ladi; u ega vazifasini bajarayotgan so'zdan oldin ham, ot kesimdan oldin ham turishi mumkin. Hol esa ma'nosiga ko'ra gapda turli o'rnlarni egallaydi. So'z tartibi to'g'risida gap borganda ega, kesim va to'ldiruvchining gapdagi o'mi nazarda tutiladi. Sintetik flektiv tillarda so'z tartibi nisbatan erkin.

Flektiv tillarga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar quyidagilar:

bir fleksiya elementi bir nechta ma'no anglatishi mumkin. Masalan, rus tilidagi *хожу* so'ziga qo'shilgan *-y* fleksiyasi bir vaqtning o'zida shaxs, son, zamonni ko'rsatadi.

Bir fleksiya bir nechta variantga ega bo'lishi mumkin. Masalan, rus tilida otlarda ko'plik *-u, -ы, -а* kabi qo'shimchalar yordamida hosil bo'ladi: *статья, фрукты, дома*.

O'zak va negiz, negiz va grammatik fleksiyalar o'rtasidagi chegarani aniqlash ko'p qiyinchiliklar tug'diradi: *hukm-mahkama-hokim-hakam-mahkum; fikr-tafakkur-mutafakkir; zulm-zolim-mazlum; hol-ahvol; xulq-axloq; she'r-ash'or*; rus tilida: *videt-viju; xodit-xoju*.

Flektiv tillarda grammatik ma'noni ifodalovchi affikslar so'z o'zagi bilan vositalarsiz birikadi. Bu hodisa *fuziya* deyiladi. Masalan: kelishik qo'shimchalarini qo'shsak, *парта, парты, парте* tarzida bo'ladi va so'z kelishik qo'shimchasisiz to'la ma'noli so'z bo'lolmaydi. Qo'shimcha ba'zan o'zakni ham o'zgartiradi: *уча - учух, друг - друзья*. Rus tilida fleksiya hodisasi tufayli bitta qo'shimcha bir necha grammatik ma'no bildirishi mumkin. Masalan: *У детях* dagi *-ях* qo'shimchasi ko'plik son va kelishikni ifodalab keladi. Flektiv tillarda so'zlarning o'zagi qo'shimchalarsiz yakka holda ishlatilmaydi<sup>96</sup>.

**Agglyutinativ tillar** (*agglutinate* lotincha so'z bo'lib, "ulash", "yopishtirish", "ketma-ketlik" demakdir). Agglyutinativ tillarga turkiy, fin-ugor, yapon, koreys, dravid, bantu tillari kiradi. Bu tillarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

affikslarga boy bo'ladi, gapda so'zlarni bir-biriga bog'lash uchun asosan qo'shimchalardan foydalaniladi;

bir affiks bir grammatik ma'no ifodalaydi, shu xususiyati bilan agglyutinativ tildagi affikslar fleksiyalardan farq qiladi: *муууу - yoz -*

<sup>96</sup> *Rahimov A. Fuziya lisoniy tipini kvantitativ va sinergetik yondashuv asosida tadqiq etish (o'zbek tili misolida). Filel. E. u. lo'q. diss. - T.: 2009.*

*yap* – *man*. Bunda *-yap* – zamon ko‘rsatkichi, *-man* – shaxs ko‘rsatkichidir; *man* qo‘shimchasi tarixan *m+an* shakllaridan iborat bo‘lib, *-m* – shaxs, *-an* – *son* ko‘rsatkichidir. Rus tilida bu ko‘rsatkichlar birgina *-y* bilan ifoda etiladi;

affikslar, asosan, bir xil ko‘rinishga ega bo‘lib, variantlari, deyarli, yo‘q. Masalan: o‘zbek tilida ko‘plik faqat *-lar* qo‘shimchasi orqali yasaladi; mazkur qo‘shimchani boshqa hollarda ifodalagan hurmat, kesatq, kinoyani bildiruvchi grammatik ma‘nolari uslubiy jihatlari hisoblanadi; kelishik qo‘shimchalarining, deyarli, hammasi o‘z ko‘rinishiga ega; variantlari bor qo‘shimchalar esa (masalan: *-m*, *-im*, *-ng*, *-ing*, *-ka*, *-ga*, *-qa* kabilar), so‘zlarning fonetik tuzilishi bilan bog‘liq (pozitsion o‘zgarishlarga kiradi);

o‘zak, negiz, grammatik affikslar orasidagi chegara aniq sezilib turadi: *ter– im – chi–lar– ni*, *dars – lik – lar – ni*.

So‘zlarning grammatik shakllarini yasashda suppletiv hodisasi, deyarli, uchramaydi.

Ko‘pgina agglyutinativ tillarda so‘z tartibi nisbatan qat‘iy. Lekin bu qat‘iylik analitik flektiv tillardagi sabablar bilan tushuntirilmaydi. So‘z tartibining buzilishi hamma vaqt ham so‘z funksiyasining o‘zgarishiga olib kelmaydi; qat‘iy so‘z tartibi ko‘proq til an‘anasi bilan bog‘liq. O‘zbek tilida oddiy gaplardagi so‘z tartibi quyidagicha: *ega – to‘ldiruvchi – kesim*.

So‘zlarga qo‘shiladigan affikslar o‘zakka ma‘lum tartib asosida qo‘shiladi.

Agglyutinativ tillar affikslarning o‘zakdan oldin yoki keyin turishiga ko‘ra *prefiksial agglyutinativ tillar* va *postfiksial agglyutinativ tillarga* bo‘linadi. Turkiy tillar postfiksial agglyutinativ tillardir. Afrikadagi suaxili tili prefiksial tildir. Masalan: *anamataka* so‘zida uchta prefiksdan keyin o‘zak o‘rin olgan, ya‘ni *a - na-m - ataka* (u buni xohladi).

Turkiy tillar faqat genetik jihatdan qarindosh tillar bo‘lib qolmasdan, ayni paytda tipologik jihatdan ham o‘xshashdir. Turkiy agglyutinativ tillarning o‘ziga xos xususiyati quyidagilardan iborat:

1. So‘z doimo o‘zakdan boshlanadi.

2. O‘zak, asosan, o‘zgarmasdir. O‘zakdan keyin qo‘shilgan har qanday affiks o‘zakni fonetik jihatdan, deyarli, o‘zgartirmaydi.



3. Soʻz formalari, asosan, affikslar vositasida hosil qilinadi.

4. Oʻzak va affikslar organik birikib ketmaydi, ular orasidagi chegara, aksariyat hollarda, aniq va ravshan boʻladi. Masalan, *boshlandi* soʻz shaklida *bosh* – oʻzak, *-la feʻl* yasovchi affiks, *-n*–majhul nisbat qoʻshimchasi, *-di* zamon hosil qiluvchi.

5. Har bir grammatik maʼnoni ifoda etishda alohida affiks qoʻshiladi, shuning uchun bir soʻz shaklida bir necha affiks ketma-ket keladi.

6. Turkiy tillarda soʻz oʻzak va affikslarga ajratiladi. Oʻzak turkiy tillarda fonetik jihatdan quyidagi koʻrinishlarga ega (v–unli, c–undosh):

**v** – u;

**vc**– ol, ot,

**cv**–na, ma;

**cvc**– bosh, goʻl, yoz;

**vcc** –ont, ust.

Turkiy tillarda oʻzakka dastavval, soʻz yasovchi qoʻshimchalar (morfemalar), keyin shakl yasovchi va oxirida sintaktik shakl yasovchi (soʻz oʻzgartuvchi) qoʻshimchalar birikadi: *tila-k-lar-imiz-ni*. Bu qatʼiy qoida morfem tahlilda, yaʼni soʻzlarni maʼnoli qismlarga ajratishda ham muhim. Masalan, *oʻrtoqlarcha*, *mardlarcha* soʻzlari *oʻrtoq-lar-cha*, *mard-lar-cha* koʻrinishida emas, balki *oʻrtoq-larcha*, *mard-larcha* tarzida maʼnoli qismlarga ajratiladi.

Oʻzbek tilidagi affiksial morfemalar oʻzak morfemadan keyin qoʻshilish xususiyatiga ega. Shu jihatdan, old qoʻshimchalar oʻzbek tili tabiatiga xos emas. Oʻzbek tilidagi *ser-* (*sersuv*), *no-* (*nomard*), *be-* (*begunoh*), *ba-* (*badavlat*) kabi old qoʻshimchalar fors-tojik tiliga xos boʻlib, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maʼrifiy omillar taʼsirida oʻzlashib ketgan. Old qoʻshimchalar rus-baynalmilal soʻzlarida ham uchraydi.

Agglyutinatsiya tushunchasi tillarning morfologik strukturasi oʻid boʻlib, u jahon tillarini morfologik jihatdan klassifikatsiya qilishga intilish bilan bogʻlangan holda yuzaga keldi.

Agglyutinativ tillarning muhim belgilari til taraqqiyoti davomida maʼlum darajada oʻzgarishi mumkin. Boshqa tildan oʻzlashgan soʻzlar taʼsirida gʻayri til oilasiga xos lingvistik xususiyatlar kuzatiladi. Tillar oʻrtasidagi munosabat natijasida

agglutinativ tillarda flektiv tillarga xos elementlar uchraydi va aksincha. Bu holat tillarning tarixiy taraqqiyoti davomidagi fonetik, leksik, grammatik o'zgarishlarning ma'lum bir ichki qonuniyatga asoslanishini ko'rsatadi.

**Amorf (shaklsiz) tillar** (V. Fon Gumboldt tasnifiga ko'ra *ajratuvchi tillar*). Bu tillarga, asosan, xitoy-tibet tillari (xitoy, tibet, tay, vyetnam va boshqalar) kiradi. Ularning asosiy xususiyatlari so'zlari ko'proq bir bo'g'inli ekanligi, affikslar, fleksiyaning uchramasligi, gap-da so'zlar orasidagi sintaktik bog'lanish, asosan, so'z tartibi va ohang orqali amalga oshirilishidir. So'zning gapda tutgan o'rni uning qaysi gap bo'lagi vazifasini bajarayotganini va qaysi so'z turkumiga taalluqli ekanini ko'rsatadi.

Grammatik shakl tillarda bir xil namoyon bo'lmaydi. Yuqorida ko'rganimizdek, ba'zi tillarda shakl affiks va fleksiya yordamida, ba'zilarida esa ichki fleksiya orqali, uchinchilarida yordamchi so'zlar yoki suppletiv yo'llar bilan ifodalanadi. Umuman olganda, shaklsiz til yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. O'zak tillarning shakli o'ziga xos ravishda yasaladi. So'zlardagi grammatik ma'no gapdagi o'rniga ko'ra yoki ohang yordamida amalga oshadi. Masalan: qo'shimchasiz tillar qatoriga kiruvchi xitoy tilidagi *-chje shi xao shen* – Bu yaxshi odam; *-ta tszade xao* – Bu yaxshi ishlagan; *xao* so'zi gapdagi o'rniga qarab aniqlovchi, ravish va kesim bo'lib keladi.

**Polisintetik (mujassamlantiruvchi tillar)**. Bu tillarga amerikalik hindular va Rossiyadagi chukot, koryak tillari kiradi. Polisintetik tillar ko'p jihatdan hali o'rganilmagan. Hozirgi kunda ma'lum bo'lgan manbalarga qaraganda, bu tillarda so'z tushunchasi nisbiydir. Chunki bu tillardagi so'z boshqa tillardagi ayrim tovushlarga to'g'ri kelib, o'zining uzil-kesil ma'nosini faqat gap tarkibidagina namoyon etadi. Odatda, bu so'z-gapda elementlar bir-biriga qo'shilib yoziladi. Bu tillardagi gaplar boshqa tillardagi so'zga to'g'ri keladi. Masalan, naxuati tilidagi *qanivatcar canivinju* gapning ma'nosi «*men uyning oldida ichdimmi?*», ya'ni «*uy+oldida + o'tgan zamon +ichmoq+savol shakli+men*».

Chinuk tilidan yana bir misol: *inialudam* – «men buni unga bergani keldim». Bu gapda «d» elementi «bermoq» fe'li bo'lib, gapning o'zagini tashkil etadi.

*i*– yaqin o'tgan zamon *n*–men *i*–bu

*a*– unga (*l*–vositasiz to'ldiruvchi ko'rsatkichi *u* – so'zlovchi tomonidan bajariladigan ish-harakat, *am* – «kelmoq»).

Shunday qilib, mujassamlantiruvchi tillardagi bir so'z-gap boshqa tillarda bir nechta so'zlar orqali ifoda qil nadi.

Tillarning morfologik (tipologik) ta'rifini to'g'risida gap borganda hech bir til o'z xususiyatlari bilan boshqa tilga to'liq mos kelmasligini aytib o'tish o'rinlidir, demak, tipologiya mutlaq, ya'ni absolyut emas, nisbiydir. Tillar o'zlarining ko'proq xususiyatlari bilan u yoki bu turga mansub bo'lishi mumkin. Har bir tilda flektiv, agglyutinativ va boshqa elementlar bo'lishi tabiiy. Masalan, o'zbek tili agglyutinativ til, lekin unda fleksiya elementlari uchrashi mumkin: *keldik* so'zidagi *-k* bir vaqtning o'zida ham shaxsni, ham sonni ko'rsatadi. Ingliz tili garchi analitik flektiv til bo'lsa ham, shunga o'xshagan agglyutinativ vositalari bor. Demak, tillarni u yoki bu turga kiritishda ularning qaysi xususiyatlari asosiy ekanligiga asoslaniladi.

“Tillarni guruhlarga ajratishda bir qancha mezonlar mavjud: so'zlar tartibi yoki tarixi asos qilib olinishi mumkin. Biz ikki narsani oldindan belgilab olishimiz kerak. Avvalo, tillar qiyosida ikki til elementlari o'zaro ziddi nadi, ikkinchidan, ayrim tillarda o'xshashlik mavjud. Masalan, vengr tilidagi bir so'z ingliz tilidagi bir necha so'zga o'xshab ketadi. Ingliz tilidagi so'zlar o'zaro morfemalarsiz bog'lanadi. Vengr tilidagi morfologik kompleksli so'zlar ingliz tilida alohida morfemalarga ajratiladi. Vengr tili agglyutinativ til bo'lganligi uchun so'z bir necha morfemalardan iborat bo'ladi, ular o'zaro ajraladi, ularning hammasida ma'lum bir ma'no ifodalalanadi, ingliz tilida har bir morfema yangi so'zga o'xshaydi. Masalan, *elallatiasodottsagaban* (15) so'zi *el+allat+i+as+od+ott+sag+a+ban* ma'noli qismlaridan iborat. Ingliz tilidagi ko'pgina so'zlar morfemalardan tashkil topgan: *egyiink*, *evett*, *enni* kabi so'zlar *e* asosidan hosil qilingan. Bu kabi so'zlar flektiv tillarga xosdir. Flektiv tillarda so'zlarning qaysi morfema bilan boshlanishi yoki tugashi aniq emas<sup>97</sup>.

<sup>97</sup>Richter B. First steps in theoretical and applied linguistics. – Budapest, 2006 -B.42.

Morfologik tasnif tilning qurilishi va uning tuzilishini o'rganishga, bilishga yordam beradi. Shuningdek, har qaysi tilning grammatikasini izohlab berishda morfologik tasnifning ma'lum darajada ahamiyati bor. Biroq morfologik tasnifning ham cheklangan tomonlari bor. Birinchidan, morfologik tasnif tuzilishi jihatidan xilma-xil bo'lgan barcha tillarni qamrab ololmagan. U faqat grammatik tuzilishi jihatidan bir-biridan uncha farq qilmaydigan tillarnigina o'z ichiga oladi. Ikkinchidan, morfologik belgilarga qarab til turlarini guruhlarga ajratish, tasnif qilish qiyin masala.

Tillarning morfologik (tipologik yoki struktural) tasnifi – umuman, til tiplarini ajratish, dastlavval, tillarning strukturasini aniqlash natijasida kelib chiqdi.

Tillarni struktur jihatidan ayrim guruhlarga ajratish tilning fonetik sistemasini, lug'at tarkibini va grammatik qurilishini ko'zda tutadi. Biroq tillarning klassifikatsiyasini yaratishda asosiy e'tibor ko'proq grammatik tuzilishga qaratiladi. Bu o'z-o'zidan tushunarli: so'zlarning gap qurilishidagi ishtiroki, o'zaro bog'lanishi so'z strukturasida mavjud bo'lgan elementlar yordamida amalga oshadi<sup>98</sup>.

Hozirgi davr tilshunosligida tillarning morfologik tasnifiga yangi-chqa qarashlar yuzaga kelgan. Bunda sinergetika qonuniyatlaridan kelib chiqib yondashilmoqda. Masalan, an'anaviy tasnif bo'yicha o'zbek tili agglyutinativ til hisoblanadi, ammo sinergetik qonuniyatga ko'ra unda ham fleksiya xususiyatlari borligi aniqlangan<sup>99</sup>. Bugungi kunda ingliz tilida agglyutinatsiya elementlari borligi kuzatilmoqda. Shunga ko'ra aytish mumkinki, dunyoda tipologik jihatdan sof holdagi biror bir til yo'q, ya'ni har bir tilda u yoki bu darajada agglyutinatsiya ham, fleksiya ham kuzatilishi mumkin. Faqat bir tilda agglyutinatsiya, bir tilda esa fleksiya belgilari yuqori darajada bo'lishi mumkin.


### Savol va topshiriqlar

1. Tillarni tasniflash mezonlari haqida bilganlaringizni ayting.
2. Tillarning morfologik tasnifini yoriting.
3. Nostratik nazariyaning mohiyatini tushuntiring.

<sup>98</sup> *Irisqulov M.* Tilshunoslikka kirish. -T., 2009. B.127-129.

<sup>99</sup> *Rahimov A.* Fuziya lisoniy tipini kvantitativ va sinergetik yondashuv asosida tadqiq etish (o'zbek tili misolida) Filol.fan nomz...diss av o'ref -T., 2009.

4. Tillarning genealogik tasnifi haqida ma'lumot bering.
5. Til oilalari va til guruhlarini tavsiflang.
6. Qardosh tillarning xususiyatlarini ayting.
7. Qardosh tillarning farqli jihatlarini misollar orqali tushuntiring.
8. Turkiy tillar oilasiga xos morfologik xususiyatlar haqida fikrlaringizni bayon eting.
9. Hozirda mavjud til oilalari haqidagi fikrlaringizni misollar bilan tushuntiring.
10. Klaster doiralarni to'ldiring.



### Asosiy tushunchalar glossariysi

**Agglyutinatsiya** – (lotincha «yopishtirish» ma'nosini anglatadi) o'zak va qo'shimchalarning muayyan ketma-ketlikda, ma'lum tartib asosida joylashuvi.

**Agglyutinativ tillar** – o'zak va qo'shimchalarning muayyan ketma-ketlikda, ma'lum tartib asosida joylashuviga asoslangan tillar.

**Genealogik tasnif** – tillarni qarindoshlik munosabatiga, kelib chiqish asoslariga ko'ra guruhlaydigan tasnif.

**Morfologik tasnif** – tillarni morfologik xususiyatlariga ko‘ra guruhlashga qaratilgan tasnif.

**Nostratik gipoteza yoki nostratik nazariya** – (lotin tilida *noster* “bizniki” ma’nosini beradi) til oilalarini yanada kengroq doiradagi genetik asosga birlashtirishni nazarda tutadigan qarash.

**Oltoy tillari oilasi** – turkiy, tungus-manchjur, mo‘g‘ul tillariga asos bo‘lgan qadimgi til.

**Qardosh tillar** – tuzilishi, grammatik xususiyatlari, shu tillardagi so‘zlarning paydo bo‘lish manbai, so‘z shakllari va ma’nolari bir-biriga yaqin tillar.

**Til oilasi** – grammatik tuzilishi va boshqa xususiyatlari jihatidan bir-birlariga yaqin bo‘lgan tillar.

**Turkiy tillar guruhi** – o‘zbek, uyg‘ur, qozoq, qirg‘iz, tatar, boshqird, ozarbayjon, yoqut, turkman, qoraqalpoq, turk, chuvash tillari guruhi.

**Flektiv tillar** (fleksiya «bukilish» ma’nosini anglatadi) – o‘zak morfema va affiksial morfema chegaralari sezilmaydigan, yangi so‘zlar o‘zak o‘zgarishi asosida yuzaga keladigan tillar.

### Test

1. Turkiy tillar oilasiga qaysi tillar kiradi?

- A) chuvash, boshqird, o‘zbek
- B) yoqut, xazar, rus
- S) ozarbayjon, qirg‘iz, tojik
- D) tatar, rus, boshqird

2. Quyida keltirilgan qaysi tillar bir oilaga mansub?

- A) rus, bulg‘or, chex, polyak
- B) tojik, turkman, qirg‘iz
- S) o‘zbek, ozarbayjon, tojik
- D) chex, polyak, tatar

3. Agglyutinativ tillarga qaysi tillar kiradi ?

- A) turkiy, fin-ugor, yapon, dravid, bantu
- B) fors, yapon, sanskrit
- S) nemis, rus, ozarbayjon
- D) tojik, turk, fors

4. Qardosh bo‘lmagan til oilasini belgilang?

A) hind-yevropa tillar oilasi

B) dravid tillari oilasi

S) turkiy tillar oilasi

D) rus tillari oilasi

5. Qaysi tasnif qardosh tillarning tarixiy taraqqiyot jarayonida bir asosli bobotilidan tarqalganligini va ularning o'xshashligini nazarda tutib, tillarni guruhlariga ajratadi?

A) Genealogik tasnif

B) tipologik tasnif

S) differensial tasnif

D) morfologik tasnif

6. Grammatik tuzilishi va boshqa xususiyatlari jihatidan bir-birlariga yaqin bo'lgan tillar guruhiga nima deyiladi?

A) til oilasi

B) tillar

S) tillar guruhi

D) bir xil tillar

7. Dunyoda necha xil til mavjud va ular qanday tavsiflanadi?

A) 6000, sof tillar

B) 7000, me'yorlashtirilgan tillar

S) 9000, aralash tillar

D) 3000, me'yorlashtirilgan tillar

8. Dunyo tillari necha til oilasiga bo'linadi?

A) 20 ga yaqin

B) 35 atrofida

S) 50 ga yaqin

D) 38 ga yaqin

9. Morfologik tasnifga ko'ra dunyo tillari nechta guruhga ajratiladi va ular qaysilar?

A) ikki xil: polisintetik, morfologik

B) ikki xil: agglyutinativ, amorf

S) uch xil: agglyutinativ, amorf, fonetik

D) to'rt xil: agglyutinativ, flektiv, amorf, polisintetik

10. Tillarning qarindoshligini qaysi tasnif o'rganadi?

A) tipologik

B) morfologik

- S) genealogik
- D) tipologik- morfologik

## 10-§. TIL VA YOZUV

### Reja:

1. Yozuvning shakllanishi va rivojlanishi.
2. Yozuv turlari.
3. Yozuvning tarixiy ahamiyati.

**Asosiy tushunchalar:** *yozuv, yozuv turlari, piktografik yozuv, ideografik (logografik) yozuv, logogramma, iyeroglifik yozuv, Misr ierogliflari, Xitoy ierogliflari, yozuvni soddalashtirish, fonetik yozuv, bo'g'in yozuvi, finikiya yozuvi, oromiy yozuvi, arab yozuvi, turkiy run yozuvi, kirill yozuvi, lotin yozuvi, Brayl yozuvi, Morze alifbosi.*

Tilning butun imkoniyatlari nutqda o'z ifodasini topadi. Nutqning og'zaki va yozma shakli bo'lib, yozma nutq yozuv orqali namoyon bo'ladi. Yozuv ma'lum bir tarixiy jarayon mobaynida aloqa-munosabatning muhim vositasi bo'lib shakllandi. Insoniyat bundan besh ming yil avval ixtiro qilgan yozuv jamiyatning rivojlanishi, uning tarixi, madaniyati, urf-odati va umumjahon sivilizatsiyasidan darak beruvchi eng nodir kashfiyotdir. Yozuvning tarixiy ahamiyati quyidagilarda aks etgan.

1. Yozuv ma'lum tarixiy jarayon natijasida shakllandi va kishilar orasidagi bavo-sita aloqa-munosabat vositasi sifatida ijtimoiy manfaatlar uchun xizmat qiladi.

2. Kishilik jamiyati erishgan barcha ma'naviy yutuqlar yozuv orqali avloddan avlodga yetkaziladi.

3. Yozuv uchun masofa va vaqt ahamiyatsizdir.

4. Yozuvning xabar yetkazish imkoniyati tufayli turli masofadagi axborotlar umumiy ma'lumotga aylanadi.

5. Yozuv kishilik jamiyati taraqqiyotining muayyan bosqichlarini, xalq tarixi, etnografiyasini, adabiyot va san'at tarixini, tilning tari-






xiy taraqqiyot bosqichlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvsiz tilning va xalqning tadrijiy taraqqiyotini o'rganib bo'lmaydi.

Dunyodagi aksariyat tillar o'z yozuviga ega. Yozuvning hozirgi ko'rinishlari dastlabki shakllarning takomillashib borishi natijasida paydo bo'ldi. Tadqiqotlardan ma'lumki, yozuvning dastlabki ko'rinishlari ramziy ifodalar tarzida yuzaga kelgan. Yozuvning piktografik, ideografik, logografik, iyeroglifik, fonografik kabi turlari bor.

**Piktografik yozuv.** Voqea-hodisalar haqidagi tafakkur ma'lumotlari jonli va jonsiz vositalar orqali ifodalangan yozuv piktografik yozuv hisoblanadi. Yozuvning bu turi ma'lumotlarning dastlabki qaydlarini yetkaza oladi va mavhum tushunchalarni ifodalash imkoniyatiga ega emas.


Eramizdan taxminan 120 asr oldin turli rasmlar, skulptura va grafikaga tegishli belgilar shartli ravishda narsalar, tushunchalar va biror jumlani ifodalash uchun qo'llangan va bu piktografik (lotincha *pictum* "rasm", *pingo* "chizaman") yozuvning yuzaga kelishiga asos bo'lgan.





Turli chizma – grafik vositalar yordamida axborot yetkazib berish bundan bir necha yuz yil avval ham keng qo‘llangan. Afrikadagi Togo mamlakatidagi eve elati piktogrammalar yordamida maqollarni ifodalaganlar. Ignaga ip taqilgan (piktogramma) “Igna qayerga borsa, ip ham o‘sha joyga boradi” degan maqolni ifodalaydi. “Dunyo bepoyon va keng” maqolini ifodalash uchun daraxt va aylana o‘rtasidagi odamning qo‘lini ochib turgani tasvirlanadi. Buning asl mazmuni: “O‘limdan qochib qutulib bo‘lmaydi” maqolini eslatadi. Uzun bo‘yli kishi to‘g‘ri chiziq va qanotli hayvon o‘limni anglatadi.

Piktografiya yozuv madaniyatining ilk ko‘rinishi sifatida tarix va-raqalarida muhrlanib qoldi. Ammo axborot berish funksiyasini davom ettirmoqda.



Piktografik yozuvning takomillashib borishi natijasida *ideografik* (grekcha *idea* – “tushuncha”, *grafo* – “yozaman”) yozuvi paydo bo‘ldi. Yozuvning bu turi *logografik yozuv* deb ham yuritiladi (*logos* – “so‘z”, *grafo* – “yozaman”). Negaki, bunday yozuvdagi ramzlar narsa-buyumlarni aks ettirib qolmay, hodisa, belgi, jarayonlarni ham ifodalaydi. Piktografik yozuvdan ideografik yozuvga o‘tilishiga mavhum fikrlarni ifodalash ehtiyoji sabab bo‘ldi. Masalan, «o‘tkir ko‘zlilik», «ziyraklik», «hushyorlik» tushunchalarini aynan rasmda ifodalab bo‘lmaydi, ularni shu holatlarni kuzatuvchi, ya‘ni ko‘zni tasvirlash orqali berish mumkin bo‘lgan. Bunda piktografik yozuvda ko‘z rasmi berilganda ko‘zning o‘zi nazarda tutilgan, ideografik yozuvda esa «o‘tkir ko‘zlilik», «ziyraklik», «hushyorlik» tushunilgan.

Logografik yozuvda ma‘lumot logogrammalar orqali yetkaziladi.

Logografik yozuvning piktografik yozuvdan quyidagi afzalliklari bor:

a) logografik yozuv xabar qilinishi lozim bo‘lgan mazmunni ancha mufassal aks ettiradi;

b) piktografik yozuvda so‘z tartibi va so‘z shakllari noaniq, logografik yozuvda esa aniq bo‘ladi;


d) piktografik yozuvda subyektivlikka, ixtiyoriylikka yo‘l qo‘yiladi, logografik yozuv esa barqaror logogrammalardan tashkil topgan.

Ideogrammalar axborot berish vazifasini to‘la bajarmaydi, ba‘zi g‘oyalarni ifodalashga xizmat qiladi. Xitoy yozuvidagi bir necha yuz ideogramma aslida narsalarni ifodalovchi rasmlardan kelib chiqqan. Xitoy yozuvidagi ideogrammalardan ba‘zilari narsalarning tasviriga o‘xshash alomatlarga ega: *quyosh*, *maydon*, *oy*, *yoy* va *nishon* va h.k. Ideografik yozuvga shumer (keyinchalik akkad) yozuvi (eramizdan avvalgi IV–I asrlar), elam yozuvi (eramizdan avvalgi XXIII –IV asrlar), misr yozuvi (eramizdan avvalgi XXX – V asrlar), xet yozuvi (eramizdan avvalgi XV –XII asrlar), maya yozuvi (IV–XVI asrlar) va atsek yozuvi (XVI asrgacha) ham kiradi.

Piktrogramma va ideogramma O‘rta Yer dengizining janubiy-sharqiy qirg‘og‘ida va Fors ko‘rfazi hududlarida qo‘llanmay qoldi va ular o‘rniga aniq so‘zlarni ifodalovchi belgilar – logogrammalar ixtiro qilindi. Bu yozuv grafik vositalar yordamida so‘zlarning ma‘nolarini

ifodalagan. Qadimiy shumer piktogrammalari va ideogrammalarining rivojlanishi natijasida mixsimon logogrammlar hosil bo'lgan.


Logografik yozuvning bir oz mukammallashgan shakli *iyeroglifik yozuv*dir. *Iyeroglif* grekcha "iyerogliv" so'zidan olingan bo'lib, "muqaddas yozuv" degan ma'noni anglatadi. Bu yozuv turida matn yozilmagan, balki suyak va boshqa materiallarga rasmlar o'yib bitilgan, ikkinchidan, bu yozuv «sirli» yozuv turi ham bo'lgan, chunki uni, asosan, kohinlar bilishgan. Bu yozuvdan qadimgi Arabistonda keng foydalanilgan. Ushbu yozuvlar ifoda etilayotgan narsa-buyum xususiyatlarini imkon qadar aks ettiradi.



Shu bilan bir qatorda umumlashtiruvchi hamda mavhum tushunchalarni ham aks ettiradi.



Qadimgi Misrda yozuv ilohiyashtirilgan, yozuvning paydo bo'lishi ham ilohiy kuchlarga bog'langan.



Iyerogliglar Misr yozuvida qoʻllanadigan belgilar sifatida ham mashhur boʻlgan.

### Qadimgi Misr yozuvi

Iyerogliflar – bu datlar, Misr va b. yozuvning belgilar toʻplamidir. Bir soʻz yoki bir nechta tovushni bildirgan.



### Misr yozuvida 700dan ortiq iyeroglif boʻlgan

- – qandaydir shaxs
- ◐ – qandaydir hayvon
- ◑ – qandaydir oʻsimlik
- ◒ – qandaydir mineral


Ular birgalikda harflar bilan shiforlashgan.



1789-yilning 18-iyulida Parij-Fransuz inqilabi davrida Parijda oʻtkazilgan konferentsiya natijasida qadimgi Misr yozuvida yozilgan uchta shaxs belgi



Jean-François Champollion 1792-yil 26-iyulda Fransiya Respublikasi shahri Rouen shahrida tugʻilgan. U qadimgi Misr iyerogliflarini oʻqishni oʻrgatgan.



Qadimgi Misr yozuvida harflar bilan shiforlashgan. Harflar, yozuv belgilarini oʻqishni oʻrgatgan. Harflar bilan shiforlashgan.



Yozuvning dastlabki ko‘rinishlari bo‘lgan piktografik, ideografik, iyeroglifik yozuvlardan keyin yozuvning yangi bosqichi – *fonografik* (yun. “phane” – *tovush*, “graphe” – *yozaman*) yozuvga, avvalo, ayrim bo‘g‘inlarni, keyinroq ayrim tovushlarni biror belgi bilan ifodalash usuliga o‘tildi. Davrlar o‘tishi bilan ba’zi grafik belgilar so‘zlarning ma’nosini emas, balki ularning ma’nosiz qismlarini, ya’ni bo‘g‘inlarni ham ifoda etgan. **Fonografik** yozuv turi jamiyat taraqqiyoti natijasida shakllandi.


Fonografik yozuv ikki turga bo‘linadi: *bo‘g‘in yozuvi* hamda *harf-tovush yozuvi*.

**Bo‘g‘in yozuvida** iyerogliflar bo‘g‘inlarni ifodalaydi. Yozuv tarixida bo‘g‘inli yozuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bo‘g‘inli yozuvda bir bo‘g‘inni, bir so‘zni, bir tovushni ifodalaydigan belgilar qo‘llangan. Ossuriya va Vavilon mix (qoziq) yozuvi ana shunday yozuvlardan hisoblangan. Bu yozuvda ayrim belgilar bir tovushni, butun bir bo‘g‘inni, ba’zi belgilar esa butun bir so‘zni ifodalagan. Bo‘g‘in yozuvi so‘zlarni mayda qismlarga ajratish yo‘li bilan paydo bo‘ldi. Bu mayda qismlar hozirgi vaqtdagi bo‘g‘inlarga to‘g‘ri keladi.


Eronliklar Vavilonni bosib olganlaridan keyin Ossuriya va Vavilon mix yozuvidan foydalanib, fonetik (tovushli) yozuvni, ya’ni har qaysi belgi bir tovushni ifodalaydigan yozuvni ixtiro etganlar. Mixsimon yozuvni shumerlardan Mesopotamiyaga kelgan akkadlar, ya’ni vavilonliklar va ossuriylarning vorislari qo‘llaganlar. Dunyodagi aksar tillarning fonetik xususiyatini ifodalovchi fonetik yozuvlar finikiyaliklar yozuvi asosida shakllangan.

Tovush elementlarining grafik belgilari (fonogrammalar deyiladi – grekcha *fon* – “tovush, nutq”) ossuriy – vavilon mixsimon yozuvida qo‘llaniladi va sillabogrammalar (grekcha *syllabal* – bo‘g‘in) deb ataladi. Fonografik va sillabografik yozuvlarda qo‘llangan grafemalar unli va undosh tovushlarni ham ifodalagan. Bu keyinchalik (konsonant grekcha “undosh”) yozuvining paydo bo‘lishiga olib keladi. Konsonant yozuvning rivojlanishi natijasida grek yozuvi va undan keyin lotin (Rim) yozuvi paydo bo‘ldi. Grek va lotin yozuvlari Bolqon va O‘rta Yer dengizi bo‘yidagi xalqlarga keng yoyildi va eramizdan avvalgi II asrdan boshlab xristian dini tarqalishi natijasida IV asrda gotlar (shar-

qiy germanlar), VI – V asrlarda efioplar, armanlar va gruzinlarga yetib keldi.




Qadimiy Vizantiya davlatidagi Saloniki shahrida yashovchi aka-uka Konstantin Kirill va Mefodiy grek yozuvi asosida slavyan yozuvinini (863-869-yillar) yaratdilar. Bundan yuz yil keyin slavyan xristian madaniyati yozuvi Rossiyaga tarqaldi. Hozirgi rus tilida qo'llanayotgan kirillitsa yozuvi aslida aka-uka Kiril va Mefodiyliklar taklif etgan alifboning qayta ishlangan nusxasidir.






Rus alifbosi tarixida “Glagolitsa” deb nomlangan qadimgi yozuv namunasi ham iste’moda bo’lgan.



Fonetik yozuvlarning finikiy (eramizdan avvalgi XX asrdan boshlab Suriya va Falastinda tarqalgan), oromiy (Yaqin Sharqda eramizdan oldin VIII asr) va undan kelib chiqqan qadimgi hind yozuvlari brahma (eramizdan avval III asr) va devanagari (eramizdan avvalgi VII asrdan boshlab) turlari mavjud. Devanagari yozuvi qadimiy sanskrit tilida qo’llangan va keyinchalik boshqa hindiy tillarida, jumladan, hindi, marathi, nepali, gondi, munda tillarida ishlatilgan. Hind alifbosi boshqa mamlakatlardagi tibet, kxmer, mon, birma, tai, loas, yaran va h.k. tillarda qo’llanadi. Devanagarida 50 ta belgi mavjud bo’lib, uning 13 tasi so’z yoki bo’g’in boshidagi unli tovushlarni ifodalagan, 33 tasi bo’g’inlarga tegishli belgilar, 4 tasi yordamchi belgilardan iborat edi.

*Harf-tovush* yozuvining shakllanishi butun yozuv taraqqiyoti tarixida inqilob bo’lgan. Bu yo’nalishdagi ilk yozuv turi *finikiy* yozuvi

edi. Finikiy alifbosining paydo bo'lishi insoniyat uchun yozuvni takomillashtirish borasida olg'aya qo'yilgan qadam bo'ldi. Birinchi marta sof tovush yozuvi sanoqli harflardan iborat mukammal alifboning yuzaga kelishi jamiyatdagi yozuvni biladigan kishilar doirasini kengaytirdi. Shuning uchun ham finikiy yozuvi juda tezlik bilan boshqa xalqlar orasida ham tarqaldi. Bu jarayon miloddan avvalgi IX asrdan boshlangan. Finikiyaliklar bilan iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lgan qo'shni xalqlar mazkur yozuv bilan tanishib, tez orada uni o'z tillariga moslashtirib olganlar. Hozirgi kunda bizga ma'lum bo'lgan harf-tovush tizimidagi yozuvlarning 4/5 qismidan ko'prog'i finikiy yozuvidan kelib chiqqan.



**Finikiya alifbosi**

⋆	1	⋆	10
⋆	2	⋆	11
⋆	3	⋆	12
⋆	4	⋆	13
⋆	5	⋆	14
⋆	6	⋆	15
⋆	7	⋆	16
⋆	8	⋆	17
⋆	9	⋆	18
⋆	10	⋆	19
⋆	11	⋆	20
⋆	12	⋆	21
⋆	13	⋆	22
⋆	14	⋆	23
⋆	15	⋆	24
⋆	16	⋆	25
⋆	17	⋆	26
⋆	18	⋆	27
⋆	19	⋆	28
⋆	20	⋆	29
⋆	21	⋆	30

“Til juda ko‘p avlodlarni qamrab olgani uchun inson o‘zi yashab o‘sayotgan muhitning tilini o‘rganmasdan ulg‘aya olmaydi. Ammo birorta bola ham o‘qish yoki yozishni shunchaki kuzatish orqali o‘rganmaydi: buning uchun batafsil ta‘lim zarur bo‘ladi.

Ingliz tilidagi o‘tgan zamon morfemasi shartli “t” va “d” allo-morflariga ega. Har bir tilda ma‘lum fonemalar borki, ular boshqa tillardan o‘zlashgan bo‘ladi. Har bir morfema fonemalar bilan ifodalanadi; nutqning har bir birligi morfemalardan, morfemalar esa fonemalardan tashkil topadi.

Yozuv ogʻzaki tildan bir qancha belgilarga koʻra farq qiladi.

Birinchiidan, yozuv tizimlari tillardan farqli oʻlaroq, turlicha qoʻllanadi. Turli yozuv tizimlari tovush tizimlariga oʻziga xos tarzda bogʻlangan.

Ikkinchiidan, Amerika strukturalistlari yozuvni tilning subtizimi (subtizim) sifatida talqin qilishga urinsalar-da, yozuv tizimlari til tizimi kabi vazifa bajarmaydi. Masalan, grafema fonemani aks ettiradi, deb qaralsa-da, aksariyat alfavitlar bosh harf va kichik harfdan foydalanadi. Mohiyatan olganda “a” grafemasi va “a” bitta fonemani aks ettiradigan allograf hisoblanadi.

Uchinchiidan, til doimo oʻzgarib turadi, yozuv esa anʼanalarga rioya qiladi.

Toʻrtinchiidan, yozuv tizimlari inson tomonidan oʻzgartirilishi mumkin. Kamol Otaturk Turkiyaning ozchilikni tashkil etuvchi aholisiga oʻz tillarida gapirishni toʻxtatib, faqat turk tilida soʻzlashishni buyura olmasdi. Ammo u 1928-yilning 3-noyabridan boshlab turk tili arab emas, roman alfavitida yozilishini belgilab berdi. Nux Vebstr amerikaliklarga infinitivlarni qoʻshmasdan soʻzlashni ayta olmadi, ammo u “colour” kabi soʻzlarda “u”ni tushirib qoldirishni tavsiya qildi.

Yozuv tizimlari ularning oʻz xususiyatlaridan kelib chiqib tahlil qilinishi lozim. Asrlar osha yozuvda roʻy bergan oʻzgarish juda koʻplab tadqiqotchilarni jalb etgan va bu holat boʻyicha tarixiy hujjatlar mavjud. Ayni oʻrinda yozuvning kelib chiqishi va grafik shakllarning fonologik shakllar bilan aloqasiga eʼtibor qaratiladi.

Odatda, yozuv tizimlarining uch xil koʻrinishi farqlanadi: logografik, boʻgʻinli (sillabari), alfavit. Bu ketma-ketlik yozuv tizimlarining rivojlanish tarixini ham aks ettiradi. Barcha yozuv tizimlari alfavit bosqichida tugaydi, chunki alfavit yozuvi “eng yaxshi” hisoblanadi.

Finikiya tili va boshqa shimoliy-gʻarbiy semit tillari boʻgʻinni aks ettiradi, degan qarash boʻlsa-da, finikiya tili aynan boʻgʻinni ifodalamaydi. Boʻgʻinlarni ifodalovchi hindu va efiopik yozuvlari esa aslida alfavit yozuvidan oʻsib chiqqan. Shimoliy-Gʻarbiy Semit yozuvlarini “boʻgʻinli yozuvlar” deyishning oʻzi notoʻgʻri va bitta yozuvning rivojlanishiga qarab tarixiy prinsip haqida gapirish oʻrinsizdir.

Yozuv taraqqiyoti muayyan tiplarda namoyon bo'lgan. Abigudani (abiguda undosh va unli ketma-ketligi bitta birlik sifatida ifodalanadigan yozuv) sillabarilardan (bo'g'inli yozuvdan) alohida tip sifatida farqlanadi<sup>100</sup>.

Yozuv nutqni ma'lum shakllar orqali ifodalash vositasidir.

Yozuv ijtimoiy ehtiyoj asosida kishilik tarixining muayyan davrida paydo bo'lgan va jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda mukammallasha borgan. Yozuv jamiyat tomonidan qo'lga kiritilgan eng katta madaniy yutuqlardan biri hisoblanadi. Yozuvning kelib chiqishi va taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan, madaniyat darajasi, siyosiy-huquqiy, estetik tuyg'ularni qayd qilish hamda keyingi davrga qoldirish ehtiyoji bilan belgilanadi. Yozuvning asosiy vazifasi nutqni uzoq masofaga yetkazish, keyingi avlodlarga qoldirishga xizmat qilishdan iborat.

Yozma nutq kommunikativ, emotsional-ekspressiv, akkumulyativ funktsiya bajaradi. Yozuv orqali kishilar o'z fikrlarini bir-birlariga bildiradilar. avlodlarga qoldiradilar, minglab yillar oldin o'tgan voqeahodisalar, shaxslar, urf-odat va dunyoqarash to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar. Yozuv orqali tarixiy ma'lumotlarni, ijtimoiy voqelik tasvirini, madaniy yodgorliklar hamda ma'naviy merosni keyingi avlodga yetkazish imkoniyati kengaydi. Grafik belgilar yozuvning asosiy ifoda shaklidir. Ana shunday qiymatga ega bo'lgan yozuv o'z rivojlantirish tarixiga ega.

Xalqlar fonetik yozuvning turli – lotin, arman, gruzin, slavyan, arab yozuvi ko'rinishlarini yaratganlar. Qadimgi yozuvlar tosh, suyak, yog'och, qamish kabi qattiq jismlarga, keyinchalik pergament va qog'ozga yozilgan. Yozuvlar o'ngdan chapga, chapdan o'ngga yoki yuqoridan pastga qarab o'qilishi mumkin bo'lgan.

Til va yozuvning o'zaro aloqadorligini tadqiq qilish tilshunoslik fanining muhim nazariy muammosi hisoblanib, hozirgi tilshunoslikda tovushlarni, tilning fonologik tizimini o'rganuvchi "Fonetika va fonologiya" hamda yozuv, alfavitlarning turli ko'rinishlari, yozuv tarixi masalalari bilan shug'ullanuvchi "Grammatologiya" yoki "Grafik lingvistika" deb nomlanadigan ikki lingvistik yo'nalish ajralib chiqdi.

<sup>100</sup> Daniels P. T. (2001). Writing and Language In The Handbook of Linguistics. Edited by Arnoff, M., Rees-Miller, J. P.65-68.

Dunyoda 7000 ga yaqin til mavjud bo'lib, bu tillarning barchasi ham o'z yozuviga ega emas. Ko'pgina tillar ifodasi sifatida bir necha yozuv ko'rinishlaridan foydalanilgan. Yozuvning o'zgarishi jamiyat taraqqiyotiga turli darajada ta'sir ko'rsatadi. Yozuvning o'zgarishi ob'ektiv va subyektiv omillar bilan belgilanadi.

O'rta Osiyoda eng qadimgi davrlarda yashagan qabilalar, ularning madaniy hayoti, tili, yozuvi haqidagi ma'lumotlar grek, eron, xitoy tarixchilari asarlari, toshlarda bitilgan matnlar orqali yetib kelgan.

Turk xoqonligining Buyuk ipak yo'li ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari markazida joylashgani bir tomondan, turkiy xalqlarni ilg'or madaniy an'analar bilan tanishtirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, turli xalqlarning madaniy jihatdan yaqinlashuvida asosiy vosita sifatida xizmat qildi. Ana shu madaniyat an'alarining muhim qirrasini Markaziy Osiyo xalqlarining yozuv madaniyatidir. Markaziy Osiyo hududi qadimdan jahon yozuv madaniyati tarixida o'ziga xos ma'rifiy markaz sifatida qarab kelingan. Markaziy Osiyo xalqlari Uzoq Sharqning iyeroglif yozuvlari izidan bormay, yozuvning yuksak bosqichiga xos alifboli, ya'ni har bir shartli harf belgisi inson nutqining ayrim olingan tovush birligini ifoda etadigan fonetik yozuv usulini tanladilar. Fonetik yozuv har qanday yozuvning ibtidoiy turlaridan taraqqiyot mahsuli sifatida ajralib turadi. Fonetik yozuv yo'lini tanlash ajdodlarimizning inson nutqini ilmiy va amaliy jihatdan chuqur tushunganliklaridan, yuksak darajadagi filologik bilimlaridan dalolat beradi.

Klinopis, misr va semit yozuvlari qadimgi Yaqin Sharqning dastlabki, asosiy yozuvlari sifatida qaralgan. Eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda O'rta Osiyoning Eronga yaqin hududlarida rasmiy yozuv sifatida klinopis, ya'ni mix yozuvi ishlatilgan.

Semit yozuvi nafaqat hind yozuviga, Markaziy Osiyoda keng yoyilgan oromiy yozuviga ham asos bo'ldi. Oromiy yozuvidan, asosan, forslarning idora hujjatlarini yozishda foydalanilgan. Ayrim joylarda xalqaro diplomatik munosabatlarda oromiy yozuvi qo'llangan. Oromiy yozuvi klinopisdan sodda va qulayroq edi.


Til yozma shaklda ham insoniyatga xizmat qiladi. Yozuv – kishilik aloqa-munosabatida zaruriy vositadir. Yozuvning eng afzal tomoni

– unga vaqt va masofaninig ahamiyatsizligidir. Yozuv jamiyatning madaniy taraqqiyoti omilidir.

Turli yodgorliklarda qayd etilishicha, eramizdan oldingi III – I asrlarda oromiy yozuvi bilan bir qatorda yunon va karoshta yozuvlari ham ishlatilgan.

XVII asr oxirlari va XVIII asr boshlarida Sharqiy Turkiston qazilmalari orqali bir qator turli (diniy-mistik) yo‘nalishdagi yozuv namunalari topilgan. Ayrim ro‘zg‘or buyumlarida toxar yozuvi, bu yozuv asosida shakllangan pahlaviy yozuviga oid namunalar ma‘lum bo‘ldi.

### Turkiy-run yozuvi



1956-yilda mo‘g‘ul arxeologi Dorj Suren Mo‘g‘ulistondagi Arxangay aymog‘iga qarashli Bug‘ut qishlog‘i yaqinida katta toshlavhaga bitilgan qabr bitigini topdi. Mo‘g‘ul olimi B.Rinchen bu lavhadagi yozuvni uyg‘urcha, deb taxmin qildi. Lekin Dorj Suren yuborgan fotonusxalar, keyinchalik S.Klyashtorniy tomonidan ko‘chirilgan nusxalar asosida V.A.Livshis bug‘ut yozuvining sug‘dcha ekanligini asosladi.

Sug‘dlar va turklar o‘rtasidagi aloqalar VI asrdan boshlangan, deyiladi. Lekin Bug‘ut bitiktoshi turk-sug‘d munosabatlari yanada qadimdan boshlanganidan dalolatdir. Sug‘d yozuvi namunalari, asosan, hujjatlar matnida saqlanib qolgan.

Sug‘d yozuvi eramizning II asridan boshlab qo‘llangan. Bu yozuv taxminan VI asrgacha davom etdi.

II asr oxiri III asr boshlarida Xorazm shohi xorazm yozuvida pul-lar chiqargan. Xorazm shohi tamg‘asida xorazm yozuvidagi bitiklar

**Qorin.** Xorazm yozuvi O'rta Osiyoda ancha keng tarqalgan bo'lib, **romly yozuviga** yaqin edi.


Qayd etilgan yozuvlar dunyo miqyosida yozma nutq madaniyatining alohida bosqichlari hisoblanib, kishilik jamiyatiga xizmat qildi. Har yozuv tipi o'z davri uchun buyuk ixtiro hisoblangan va ma'lum muddatgacha iste'molda bo'lgan.

Keyingi davrlarda yozuvning maxsus, kishilik jamiyatining ma'lum guruhari o'rtasidagi muloqotni ta'minlashga qaratilgan yozuv turlari yaratildi. "Morze", "Daktil", "Brayl" alifbolari ana shunday maxsus yozuv turlaridir.


Maxsus yaratilgan "Morze" alifbosi shartli belgilar orqali ma'lumot axborot almashishga asoslanadi.



Qo'l alifbesi va ko'zi ojizlar alifbesi imkoniyati cheklanganlar uchun aloqa-munosabat vositasidir. Qo'l yozuvi barmoqlar yordamida harflarni tasvirlash bo'lib, eshitish qobiliyatini yo'qotganlar uchun xizmat qiladi.



Ko'zi ojizlar alifbasi Lui Brayl tomonidan ishlangan, ko'rish qobiliyatini yo'qotganlar uchun mo'ljallangan. Bunda harflar 6 nuqtaning turli kombinatsiyasi orqali ko'rsatiladi.



Hozirda dunyo tillarida quyidagi yozuvlardan unumli foydalaniladi:

1. *Lotin yozuvi asosida shakllangan yozuv sictemalari.* Bu yozuvdan dunyo aholisining 30 % dan ortig'i foydalanadi.

2. *Slavyan-kirillitsa yozuvi.* Bu yozuv turidan foydalanuvchilar dunyo aholisining 10 % ini tashkil qiladi.

3. *Arab yozuvi.* Bu yozuvdan dunyo aholisining 10 % dan ortig'i foydalanadi.

4. *Hind bo'g'in yozuvi.* Bu yozuvdan dunyo aholisining 20 %i foydalanadi.

### Savol va topshiriqlar

1. Yozuvning paydo bo'lishi haqidagi ma'lumotlarni ayting.
2. Yozuvning takomillashish jarayoni haqidagi fikrlaringizni bildiring.



3. Piktografik yozuvga xos xususiyatlarni ayting.
4. Ideografik yozuvning oziga xos xususiyatlarini bayon eting.
5. Piktografik yozuv hamda ideografik yozuvning bir-biridan farqli jihatlarini tushuntiring.
6. Iyeroglifik yozuv haqida ma'lumot bering.
7. Bo'g'in yozuviga oid fikrlaringizni misollar bilan asoslang.
8. Yozuvni soddalashtirish yo'llari haqida ma'lumot bering.
9. *Yaxshi, yumshoq, yulduz, insoniyat, konsert, muxlis, hushyor* so'zlarini arab, kirill, lotin yozuvlarida ifodalang, yozuvlarning o'ziga xos xususiyatlarini izohlang.
10. Yozuv o'zgarishini "T-sxema" asosida tahlil qiling.

### Asosiy tushunchalar glossariysi

**Yozuv**– ma'lum bir tarixiy jarayon mobaynida aloqa-munosabatning muhim vositasi, ma'lum tarixiy jarayon natijasida shakllangan va ijtimoiy manfaatlar uchun xizmat qiladigan muloqot shakli.

**Piktografik yozuv** – voqea-hodisalar haqidagi tafakkur ma'lumotlari jonli va jonsiz vositalar orqali ifodalangan yozuv.

**Ideografik (logografik) yozuv** – ramzlar narsa-buyumlarni, tildagi so'zlarni ham ifodalagan, ma'lumot ma'nosi logogrammlar orqali yetkaziladigan yozuv.

**Iyeroglifik yozuv** – ifoda etilayotgan narsa-buyum xususiyatlarini aks ettirgan yozuv.

**Bo'g'in yozuvi** – bir bo'g'inni, bir so'zni, bir tovushni ifodalaydigan belgilarga asoslangan yozuv.

## Test

1. Nutqning qanday shakllari mavjud?

- A) og'zaki, monolog
- B) yozma, dialog
- S) og'zaki va yozma
- D) matn, abzas

2. Kishilik jamiyati taraqqiyotining muayyan bosqichlarini, xalq tarixi, etnografiyasini adabiyot va san'at tarixini, tilning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadigan nutq shakli?

- A) so'z
- B) matn
- S) yozuv
- D) nutq

3. Piktografik yozuvning takomillashib borishi natijasida qaysi yozuv shakllangan?

- A) ideografik yozuv
- B) fonetik yozuv
- S) bo'g'in yozuvi
- D) iyeroglifik yozuv

4. Qaysi yozuvda xabar qilinishi lozim bo'lgan mazmun ancha mufassal aks etadi?

- A) logografik yozuvda
- B) fonetik yozuvda
- S) bo'g'in yozuvida
- D) iyeroglifik yozuvda

5. Qaysi yozuvda so'z tartibi va so'zshakllari noaniq?

- A) logografik yozuvda
- B) piktografik yozuvda
- S) bo'g'in yozuvida
- D) iyeroglifik yozuvda

6. Qaysi yozuv barqaror logogrammalardan tashkil topgan?

- A) logografik yozuv
- B) piktografik yozuv
- S) bo'g'in yozuvi

D) iyeroglifik yozuv

7. Qaysi yozuvda subyektivlikka, ixtiyoriylikka yo‘l qo‘yiladi?

A) logografik yozuvda

B) piktografik yozuvda

S) bo‘g‘in yozuvida

D) iyeroglifik yozuvda

8. Qaysi yozuvda iyerogliflar bo‘g‘inlarni ifodalaydi?

A) bo‘g‘in yozuvida

B) logografik yozuvda

S) piktografik yozuvda

D) iyeroglifik yozuvda

9. Qaysi termin “muqaddas yozuv ” degan tushunchani anglatadi?

A) logografik yozuv

B) piktografik yozuv

S) bo‘g‘in yozuv

D) iyeroglifik yozuv

10. Ossuriya va Vavilon mix (qoziq) yozuvi qanday yozuv turiga mansub?

A) logografik yozuv

B) piktografik yozuv

S) bo‘g‘in yozuvi

D) iyeroglifik yozuv

## 11-§. LINGVISTIK TAHLIL METODLARI

### Reja:

1. Metodlarning fandagi oʻrni.
2. Umumiy va xususiy metodlar.
3. Tilshunoslikka oid metodlar.

**Asosiy tushunchalar:** *metod, metodika, metodologiya, umumiy metodlar, xususiy metodlar, lingvistik tahlil metodlari, transformatsion metod, komponent tahlil metodi, statistik metod, glottoxronlogiya metodi, substitutsiya metodi, distributiv metod, tavsifiy metod, bevosita tashkil etuvchilarga ajratish metodi, kvantitativ metod, struktur metod, oppozitsiya metodi, "maydon" metodi.*

Tilshunoslikda *metodologiya, metod, metodika* tushuncha va terminlari farqlanadi.

**Metod** – har bir fan uchun xususiy va barcha fanlar uchun umumiy boʻlgan, manbalarni toʻplash va tasnif qilish, ulardagi eng asosiy xususiyatlarni oʻrganish uchun tildagi barcha birliklar, sathlar, rivojlantirish jarayonlarini, oʻzgarishlarni bilish, aniqlash uchun qoʻllanadigan uslub hamda yoʻllar majmuyidir.

**Metodologiya** – (grekcha *methodos* – bilish yoʻllari, ilmi) belgilangan nazariya va prinsiplar asosida ilmiy tadqiq qilish poydevorini yaratishdir.

**Metodika** – ilmiy metod natijasida aniqlanganlarni amalda tatbiq etishdir. Shu mazmunda xorijiy tillarga oʻrgatish ham oʻz metodikasiga ega. Ular interaktiv metodika, tarjima vositasida tilga oʻrgatish metodikasi deb ataladi.

Tilshunoslik fanining oʻrganish sohasi boʻlgan tilni har tomonlama tahlil qilish fan taraqqiyotiga mos metodlarni taqozo etadi.

Har bir sohani tahlil etuvchi har qanday metod quyidagi talablarga javob berishi lozim.

1. Metod obyektiv boʻlmogʻi kerak. Metodning qoʻllanish vaqti va oʻrnidan qatʼi nazar, natija bir xil boʻlishi lozim. Subyektiv yondashuvlar metod qiymatiga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

2. Metod izchil bo'lishi, aniq tushunchalarga asoslanishi lozim.
3. Metod universal bo'lishi, ya'ni sohaning asosiy bo'limlarini (kamida to'rtta) tahlil qila olishi kerak.
4. Metod foydalanish mumkin bo'lgan darajada sodda bo'lishi lozim.

Tilning gnoseologik va ontologik tabiati, bilimlarning turlari, lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari – umumiy va xususiy metodlar, ilmiy tadqiqot tamoyillari va aspektlari, tilni o'rganishda qo'llanadigan tavsifiy, qiyosiy; tarixiy-genetik, glottoxronologik, kvantitativ, struktur, distributiv tahlil, bevosita ishtirokchilarga ajratish, transformatsiya, oppozitiv tahlil metodlari haqida ma'lumot berilgan<sup>101</sup>.

Tilshunoslikda talab darajasida bo'lgan bir necha metod qo'llanadi. Bu metodlar xarakteriga ko'ra ikki xil:

- a) umumiy metodlar;
- b) lingvistik tahlil metodlari.

Umumiy metodlar ijtimoiy sohaning barcha ko'rinishlari uchun amal qiladigan metodlardir. Jumladan, umumiydan xususiyyga, xususiyydan umumiyga, oddiydan murakkabga tomon tahlil qilish metodlari, analiz-sintez, deyarli, barcha sohalarda amal qiladi. Umumiy va xususiyy ilmiy metodlar o'zaro uzviy bog'liqdir. Xususiyy ilmiy metodlar umumiy metodlarga asoslanadi. Xususiyy metodlar faqat bir fan uchun xizmat qilsa, umumiy metodlar bir qancha fanlar doirasida qo'llana oluvchi metodlar hisoblanadi.

Lingvistik tahlil metodlari tilshunoslikning o'zi uchungina xos bo'lib, shu fanga doir ilmiy xulosalar berishga xizmat qiladi.

Hozirgi zamon tilshunosligida lingvistik tahlil uchun quyidagi metodlar qo'llanadi.

**Tarixiy-qiyosiy metod** qiyosiy-tarixiy tilshunoslik asoslanadigan birlamchi metod hisoblanadi. Bu metod dunyo tillarining rang-barangligi, ular o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni qiyoslash asosida shakllandi. Ushbu metod quyidagi masalalarni hal etadi:

<sup>101</sup>Нурмонов А. Лингвистик тадқиқот методологияси ва методлари. Танланган асарлар. I жилд. -- Т.: Академнашр, 2012. -Б. 31-82.

1. Tillarning o‘ziga xos xususiyatlarini va boshqa tillar bilan o‘xshash jihatlarini qiyoslash natijasida ularning qarindosh yoki qarindosh emasligi aniqlanadi.

2. Qarindosh deb topilgan tillarni o‘zaro qiyosan o‘rganib, ular uchun umumiy bo‘lgan genetik asos aniqlanadi; bu taxlit o‘rgani-shda retrospektiv qiyoslash usulidan foydalaniladi. Bunda tillarning hozirgi holatini qiyoslashdan tarixiy ko‘rinishlariga qarab boriladi.

3. Tillarning tadrijiy taraqqiyoti o‘rganiladi, ya’ni tilning hozirgi holatigacha bo‘lgan taraqqiyot yo‘lini qiyosan tahlil qilish mumkin. Bunday qiyoslash “prospektiv qiyoslash” deyiladi. Bunda tarixiy yozma yodgorliklar boshlang‘ich manba sifatida xizmat qiladi.

Bu metod tarixiy-genetik (genealogik) metodning shakllanishiga asos bo‘lgan. Tarixiy-genetik (genealogik) metod tillarning fonetik, leksik-grammatik birliklarini qiyoslab, ularning o‘xshash belgilarini aniqlash asosida muayyan til oilalariga birlashtirib o‘rganishga asoslanadi. Tarixiy-genetik metod asoschisi Mahmud Koshg‘ariy hisoblanadi. U turkiy tillarni xoqoniycha-turkcha, qipchoq, o‘g‘uz guruhlariga bo‘lgan holda, bu guruhlar o‘rtasidagi fonetik, leksik-grammatik farqlar haqida izchil ma’lumot beradi. Shu bilan birga mazkur tillarning bir umumiy manbadan kelib chiqqani haqida fikr bildiradi. Koshg‘ariyning asari ilmiy jamoatchilikka ma’lum bo‘lmaganligi sababli tarixiy-genetik metod (XIX asrga qadar) nemis olimi Avgust Shleyxer nomi bilan bog‘lanadi. U hind-yevropa til oilasini o‘rgangani holda, bu oilaga mansub tillar bir ajdoddan, ya’ni bir bobo tildan kelib chiqqan degan xulosaga keladi. U tilshunoslik tarixida ilk bor hind-yevropa tilini tiklashga va shajarasining tarixiy taraqqiyotini ko‘rsatishga erishdi.

**Glottoxronologiya metodi** – til doimo o‘shishda, rivojlanishda bo‘lgan dinamik hodisadir. Ana shunday o‘zgarishlar davrlar o‘tishi bilan yig‘ilib, miqdor o‘zgarishi sifat o‘zgarishiga olib keladi. Lingvistik vositalar yordamida tilning kelib chiqishi va tarixiy taraqqiyot davrlarini belgilash lingvostatistik yoki glottoxronologik metod asosida amalga oshiriladi. Bu metod Amerikalik olim Moris Svodesh tomonidan qo‘llangan. U biologiya fanlaridagi radiouglerod yordamida yoshni belgilash metodini tishunoslikka olib kirdi.

**Substitutsiya metodi** almashtirish usuliga asoslanadi. Nutqdagi ma'lum bir o'rinda turgan til birliklari boshqa muqobili bilan almashtirilib, hosil bo'lgan uslubiy o'zgarishlar tahlil qilinadi. Bu metod yordamida sinonim, antonim, omonim so'zlarning lug'aviy ma'no tizimida tutgan o'rni belgilanadi.

**Distributiv metod** til birliklarining nutq jarayonida boshqa birliklar bilan birika olish imkoniyatini tahlil etadi. Distributivsiyani "sintaktik imkoniyat" sifatida izohlash mumkin. Masalan, biror so'z, morfema, fonemaning boshqa so'z, morfema, fonema bilan munosabatga kirish imkoniyati shu birliklarning distributsiyasi, deyiladi.

Distributivsiyaning morfologik, sintaktik va leksik-semantik turlari mavjud.

**Morfologik distributsiya** bir turkumdagi so'zning boshqa turkumdagi so'z bilan munosabatga kira olishidir: sifat bilan ot, ravish bilan fe'l.

**Bevosita tashkil etuvchilarga ajratish metodi** tilshunoslik taraqqiyotining dastlabki davrlaridanoq amalda bo'lgan. Bu metodga ko'ra gaplar bo'laklarga ajratiladi. Bunda so'zning gapdagi vazifasiga asoslaniladi. Gap bo'laklari tahlili quyidagicha amalga oshiriladi.

1. Gapning bosh bo'laklari (ega va kesim), ikkinchi darajali bo'laklari (to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol) ajratiladi.

2. Gap bo'laklari vazifasida qaysi so'z turkumi keltirilayotganligi aniqlanadi.

3. Gap bo'lagi vazifasida kelayotgan so'zlarning grammatik shakllari (morfologik kategoriyalar) izohlanadi.

Bu metodni qo'llashdagi murakkabliklar, deyarli, barcha tillarda kuzatiladi.

Bevosita tashkil etuvchilarga ajratish metodi har qanday butunlikni, xususan, gapni hokim va tobelik munosabatida bo'lgan qismlardan iborat butunlik sifatida tahlil etadi. Bu metod grammatik sathda: morfologiya va sintaksisda amal qiladi.

**Tavsifiy metod** tilshunoslikdagi eng qadimiy va eng keng tarqalgan metod hisoblanadi. Ayniqsa, u til o'qitish tajribasi uchun katta ahamiyatga ega. Tavsif qilish metodi tildagi turli hodisa va ma'lumotlarni, uning sathi va birliklarini izohlab beradi. Bu metod yordamida turli tillarning fonetika va stilistikasi sharhlab beriladi.

Uning o'ziga xos jihati: obyektini bevosita sezgi a'zolari bergan ma'lumotga asoslanib o'rganadi. Uning o'rganish obyekti matn hisoblanadi. Matndan gaplar, gaplardan so'zlar, so'zlardan morfemalar, morfemalardan tovushlar ajratiladi va ular muayyan guruhlariga birlashtirilgan holda tavsiflanadi. Tavsifiy metod ma'lumotlari boshqa metodlar uchun tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi. Struktur metod tavsifiy metod xulosalariga tayangan holda ish ko'radi. Qiyosiy-tarixiy metod uchun ham qiyoslanayotgan obyekt haqidagi izohni tavsifiy metod beradi, u ham tavsifiy metod xulosalariga tayangan holda ish ko'radi.

**Kvantitativ metod** – tillarni belgilashda va oilalarga birlashtirishda kvantitativ va tarixiy-genetik metodlardan keng foydalaniladi. Kvantitativ metod, dastavval, Amerika tilshunosi E.Sepir tomonidan qo'llangan bo'lsa, uning shogirdi J.Grinberg tomonidan rivojlantirildi. E.Sepir va uning izdoshlari turli tillarni yaxlit holda qiyosiy-tipologik planda o'rganish uchun ushbu metoddan foydalangan. J.Grinberg esa ulardan farqli ravishda tillarni bir butun holda emas, ularning ayrim kategoriyalarini, muayyan qismlarini bir-biriga qiyoslashda ushbu metodni qo'llagan. Bu metod dunyo tillarini muayyan belgisi asosida ma'lum guruhlariga, tillarga birlashtirish uchun qo'llanadigan metoddir.

**Struktur metod va uning yo'nalishlari** – tilshunoslik tarixida strukturalizm XIX asrning 70 yillarida paydo bo'ldi. Struktur tilshunoslikning yuzaga kelishiga I.A.Boduen de Kurtene va F.de Sossyur qarashlari asos bo'lib xizmat qiladi. I.A.Boduen de Kurtene tilshunoslikka funkcionallik tamoyilini olib kirdi. Bunga ko'ra lingvistik vositalar nutq jarayonida bajaradigan vazifasiga qarab belgilanadi. Bunday tamoyil fonetika sohasida fonema tushunchasining paydo bo'lishiga olib keldi. Shveysariyalik tilshunos F.de Sossyurning tilshunoslik oldidagi buyuk xizmati shundaki, u sinxroniya bilan diaxroniyani aniq farqlab berdi.

**Oppozitsiya metodi** – qarama-qarshi qo'yish, zidlash metodi til-dagi birliklarning paradigmatic tasnifi uchun qo'llanadi. Tildagi barcha birliklar bir-biriga qarama-qarshi bo'lib, o'zaro so'z, morfema, so'z birlikmalari, turli grammatik konstruksiyalarni va gaplarni farqlaydi. Oppozitsiya metodi yordamida tildagi birliklar o'rtasidagi turli qarama-qarshiliklarning umumiy turlarini aniqlash mumkin (bir o'lchovli – a; b; ko'p o'lchovli – a: b: d: kabi).



**Transformatsiya metodi** – tildagi elementlar va birliklarni turli gaplarda boshqacha yo‘l bilan qayta tuzishda qo‘llanadi. Transformatsiyaning sintaksisdagi elementlarni o‘zgartirishda qo‘llanuvchi oddiy turlari: o‘rin almashtirish, qo‘shish, qisqartirish va tushirib qoldirishdir. Bu metodni AQSH olimi Z.Xarris taklif etgan va keyinchalik shogirdi N.Chomskiy alohida ilmiy asosda tadqiq etgan. Bu metod matematika hamda mantiqdagi ba’zi tushuncha va tamoyillardan foydalanadi.

Agar bir turdagi elementlarga ega bo‘lgan ikki va undan ortiq konstruksiyalar bir xil o‘rinda uchrasa, *transformalar* deyiladi. Masalan, *Quruvchilar Toshkentda juda ko‘p chiroyli binolar qurdilar* – gapida transformalar quyidagicha bo‘lishi mumkin: *Toshkentdagi juda ko‘p chiroyli binolar quruvchilar tomonidan qurildi* (passiv konstruksiya). *Juda ko‘p Toshkentdagi chiroyli binolarni quruvchilar qurdilar*. *Juda ko‘p chiroyli binolarni Toshkentda quruvchilar qurdilar* va h.k. Yuqoridagi transformalar gapning biror ma’nosini o‘zgartirishga ham xizmat qiladi.

Transformatsion metod zamonaviy usullar ichida eng mukammali hisoblanadi. Ushbu metod tildagi sintaktik jarayonni tushuntirish imkoniga egaligi bilan xarakterlidir.


**Statistik metod** tilning barcha sathlarida qo‘llanadi, shuning uchun universal hisoblanadi. Bu metod til birliklari va til hodisalarining nutqda ishlatilish darajasini aniq ko‘rsatib beradi.

**Komponent tahlil metodi** so‘zning lug‘aviy ma’no ko‘lamini alohida ma’no qirralariga ajratib tahlil etadi. Bu metod ko‘p ma’noli so‘zlar semantikasini yoritishda muhimdir.

**“Maydon” metodi.** Bu metod leksik-semantik maydon yoki grammatik-leksik maydon va ba’zan maydon nazariyasi deb yuritiladi. Leksemaning barcha ma’nolarini aniqlashda semantik maydon metodi qo‘llanadi. Grammatikada turli so‘z turkumlarining ma’nolari grammatik-leksik maydon metodi yordamida o‘rganiladi. Bunda eng ko‘p qo‘llanuvchi leksik-grammatik birlikning ma’nosi uning *yadrosi*, kam qo‘llanuvchilari *pereferiyasi* deb nomlanadi. Tilshunoslikda hali nomalum bo‘lgan tillarni ilmiy o‘rganishda qo‘llanuvchi “maydon tilshunosligi”ni *maydon metodi* bilan aralashtirmaslik kerak. Maydon tilshunosligi o‘rganilayotgan til ona tili bo‘lgan shaxs (uni odatda “in-

formant” deyiladi) turli anketa va test yordamida savolga javob olish yo‘li bilan material to‘playdi, fonetik transkripsiyani qo‘llaydi, tildagi asosiy fonologik, morfologik, sintaktik va leksik xususiyatlarni to‘plab tahlil qiladi, ba‘zi taxminiy fikrlarini keltiradi va, zarur bo‘lsa, tarjimadan foydalanadi. Maydon tilshunosligida qo‘llanuvchi tamoyil va vositalar tillarni qadimiy o‘rganish yo‘llarini eslatadi. Bu usullar qalam va qog‘oz yordamida tilni biluvchi shaxslarning talaffuziga quloq solib, ulardagi xususiyatlarni aniqlashni yodga soladi. Tilni o‘rganishda, umuman, kuzatish, tavsif qilish, qiyoslash, tajriba (eksperiment) o‘tkazish, distributsiya, transformatsiya, ma‘no maydonini aniqlash, xarita tuzish (til yoki shevaning tarqalgani, ya‘ni lingvogeografiya haqida), turli til birliklari, elementlari va vositalarini statistik tekshirish yordamida qancha va qayerda uchrashi aniqlanadi<sup>102</sup>.

Umuman, tilshunoslik sohasiga xos eng umumiy va xususiy qonuniyatlarni aniqlashda lingvistik metodlarning o‘rni ahamiyatlidir.



<sup>102</sup>Abduvazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. —T.: “Sharq” NMAK, 2010. —B 146-149.

## Savol va topshiriqlar

1. Metod haqida fikr-mulohazalaringizni bildiring.
2. Umumiy metodlarning xususiyati haqida ayting.
3. Xususiyl metodlarning o'ziga xos jihatlarini yoritng.
4. Hozirgi zamon tilshunosligidagi metodlarni sanang.
5. Bevosita tashkil etuvchilarga ajratish metodi haqida ma'lumot bering.
6. Transformatsion metodning funksiyasini tavsiflang.
7. Distributsiya metodini misollar orqali tushuntiring.
8. Umumiy va xususiyl qonuniyatlarni aniqlashda lingvistik metodlarning o'rni haqida o'z fikrlaringizni bayon eting.
9. Statistik metodning tilshunoslikdagi ahamiyatini yoritng.
10. Metodlarni "klaster" usulida tavsiflang.

## Asosiy tushunchalar glossariysi

**Komponent tahlil metodi**– semantik tahlilga, semalar talqiniga asoslanadigan usul.

**Lingvistik tahlil metodlari** – tilshunoslikning o'zi uchungina xos bo'lib, shu fanga doir ilmiyl xulosalar berishga xizmat qiladigan metodlar.

**Metod** – obyektiv, qo'llanish vaqti va o'rnidan qat'i nazar, natijasi bir xil bo'ladigan, izchil, aniq tushunchalarga asoslanadigan, fan uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallash vositasi.

**Metodologiya** – ilmiyl tadqiqotning ma'naviyl-mafkuraviyl asosi.

**Metodika** – ilmiyl metod natijasida aniqlanganlarni amalda tatbiql etish.

**Transformatsion metod**– ko'chirish usuli asosida x'ulosa qiluvchi metod.

**Statistik tahlil** – natijalarni matematik asosda hisoblas'ın usuli.

**Umumiy metodlar** – ijtimoiyl sohaning barcha ko'rinishlari uchun amal qiladigan metodlardir: analiz, sintez, statistik metodlar.

## Test

1. Metodlar xarakteriga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
  - A) umumiy va xususiy metodlar
  - B) soha va tarmoq metodlari
  - S) umumiy va tarmoq metodlari
  - D) soha va tarmoq metodlari
2. Qaysi metodlar ijtimoiy sohaning barcha ko'rinishlari uchun amal qiladigan metodlar hisoblanadi?
  - A) lingvistik tahlil metodlari
  - B) umumiy metodlar
  - S) xususiy metodlar
  - D) ijtimoiy metodlar
3. Qaysi metodlar tilshunoslikka doir ilmiy xulosalar berishga xizmat qiladi?
  - A) umumiy metodlar
  - B) xususiy metodlar
  - S) lingvistik tahlil metodlari
  - D) ijtimoiy metodlar
4. Qaysi lingvistik tahlil metodida gap bo'lagi vazifasida kelatgan so'zlarning grammatik shakllari (morfologik kategoriyalar) izohlanadi?
  - A) bevosita tashkil etuvchilarga ajratish metodi
  - B) transformatsion metod
  - S) substitutsiya metodi
  - D) qiyosiy-tarixiy metod
5. Qaysi metod orqali tillarning o'ziga xos xususiyatlarini va boshqa tillar bilan o'xshash jihatlarini qiyoslash natijasida qarindosh yoki qarindosh emasligi aniqlanadi?
  - A) statistik tahlil metodi
  - B) transformatsion metod
  - S) substitutsiya metodi
  - D) qiyosiy-tarixiy metod
6. "Bu metod orqali tillarning tadrijiy taraqqiyoti o'rganiladi, ya'ni tilning hozirgi holatigacha bo'lgan taraqqiyot yo'lini qiyosan tahlil qilish mumkin". Bu ta'rif qaysi metod haqida?

- A) prospektiv qiyoslash
- B) retrospektiv qiyoslash
- S) perspektiv qiyoslash
- D) analogik qiyoslash

7. Turkiy tillar nechta guruhga bo'linadi?

- A) 30 ga yaqin
- B) 30 dan ortiq
- S) 20 ga yaqin
- D) 20 dan ortiq

8. Qaysi metod almashtirish usuliga asoslanadi?

- A) komponent tahlil metodi
- B) transformatsion metod
- S) substitutsiya metodi
- D) qiyosiy-tarixiy metod

9. Qaysi metodni "sintaktik imkoniyat" sifatida izohlash mumkin?

- A) bevosita tashkil etuvchilarga ajratish metodi
- B) distributiv metod
- S) substitutsiya metodi
- D) qiyosiy-tarixiy metod

10. Qaysi metod zamonaviy usullar ichida eng mukammali hisoblanadi?

- A) gap bo'laklari metodi
- B) transformatsion metod
- S) substitutsiya metodi
- D) qiyosiy-tarixiy metod

## 12-§. "TILSHUNOSLIK VA BOSHQA FANLAR

### Reja:

1. Til – tilshunoslik va boshqa sohalar predmeti sifatida.
2. Tilshunoslik va ijtimoiy fanlar.
3. Tilshunoslik va tabiiy fanlar.

**Asosiy tushunchalar:** *tilshunoslik va informatika, kompyuter lingvistikasi, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, psixolingvistika, neyrolingvistika, tilshunoslik va biologiya, tilshunoslik va meditsina, tilshunoslik va tarix, antropologiya, paralingvistika.*

Til kishilik jamiyatida yaratilgan bo‘lib, aloqa vositasi sifatida xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir. Uning ijtimoiy tabiati ayrim shaxsga emas, balki jamiyat uchun xizmat qilishida namoyon bo‘ladi.

Til insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan barcha madaniy va ilmiy boyligini ifodalaydigan, avlodlarga meros qoladigan asosiy vositadir.

Tilshunoslik yoki lingvistika muayyan tilning ijtimoiy tabiati va jamiyatdagi vazifalari, uning ichki tuzilishi, faoliyati, tarixiy taraqqiyoti va tasnifiga oid fandir. *Lingvistika* so‘zi fransuzcha «Linguistique» so‘zidan olingan bo‘lib, tilshunoslik demakdir. Uning asosi lotincha «lingua» (til va nutq) bilan bog‘liqdir. Bu fan inson tilini o‘rganuvchi mustaqil fandir.

Ma’lumki, til insonlar o‘rtasidagi asosiy muomala vositasidir. Tilsiz kishilik jamiyati va xalq yashay olmaydi. Tilsiz insonning o‘zi ham mavjud bo‘la olmaydi. U inson uchun berilgan buyuk bir ne‘mat bo‘lib, jamiyat bilan birga taraqqiy etadi va shu jamiyat uchun xizmat qiladi.

Ta’kidlanishicha, hozirgi zamon fani uchta asosiy bo‘limdan iborat:

- tabiatshunoslik yoki tabiiy fanlar (tabiatning mavjudligi, uning taraqqiyoti haqidagi qonuniyat va hodisalar);
- ijtimoiy fanlar, ya’ni jamiyat haqidagi fanlar;

- falsafa – tabiat, jamiyat va tafakkurning umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi.

Tilshunoslik inson tili haqidagi fan sifatida ijtimoiy fanlar sirasiga kiradi. Umuman, tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlarning yaqinlashuvi natijasida texnik fanlar, xususan, qishloq xo‘jaligi va meditsina fanlari; tabiatshunoslik fanlari bilan falsafa (asosan, mantiq)ning yaqinlashuvidan matematik fanlar, xususan, matematik mantiq va kibernetika vujudga kelgan. Tilshunoslik fani hozirgi zamon fanlarining barchasi bilan ham juda yaqin aloqada bo‘ladi. Chunki, inson faoliyatining barcha ko‘rinishlarida, jumladan, idrok qilish va o‘zaro muloqot jarayonlarida til asosiy vazifani bajaradi. Bundan tashqari, tilshunoslik ham fanlar sistemasida boshqa bir qancha fanlar bilan uzviy aloqada bo‘ladi. «Bu aloqalarsiz tilshunoslikning o‘rganish obyekti bo‘lgan tilning o‘ziga xos tomonlarini ochib berish mumkin emas. Masalan, tilshunoslikning fonetika bo‘limida nutq tovushlarining akustik tomoni fizikaning akustika bo‘limi ma‘lumotlari asosida o‘rganiladi. Nutq tovushlarining paydo bo‘lishida ishtirok etadigan nutq organlarining vazifasini fiziologiya materiallarisiz bayon qilish mumkin emas. Yoki nutq patologiyasi muammolari tibbiyot fani bilan uzviy aloqada hal qilinadi. Tilshunoslikda lisoniy birliklarning boshqa lisoniy birliklar bilan birikish imkoniyatlari va ushbu imkoniyatning yuzaga chiqish masalalari bilan shug‘ullanuvchi valentlik nazariyasining vujudga kelishi bevosita kimyo fanining ta‘siri bilan bog‘liqdir».<sup>103</sup>

Til va til hodisalarining fanlar integratsiyasi asosida yoritilishi, ijtimoiy, aniq, tabiiy sohalar kesimida tahlil qilinishi mohiyatni teran anglashga xizmat qiladi.

Tilshunoslikda nutq tovushlari, ularning hosil bo‘lishi, tovushlarning sifat o‘zgarishlari kabi hodisalarning asosi fizikadagi akustika bilan bog‘liqligi, “har qanday tovush tebranish mahsuli” degan fizikaning oltin qoidasi nutq tovushlariga ham taalluqli ekani, nutq tovushlarining eksperimental tadqiqi usullari bevosita fizikadagi intonografik, rentgenografik usullar orqali amalga oshishi mumkinligi, tilshunoslikdagi maydon nazariyasining prototipi fizikadagi “biror fizik hodisa ro‘y beradigan yoki uning ta‘siri seziladigan fazo” degan

<sup>103</sup>Nurmonov A., Yo‘ldoshev B. Tilshunoslik varabiifanlar. –Toshkent, 2001, 3-b.

tezisga mos kelishi, bugungi kunda semantik maydon nazariyasi til sathlarini semantik aspektda tekshirishda asosiy tamoyil bo'lib qolgani ta'kidlangan. Har bir fanning avtonom holdagi tadqiqi uning rivojlanishini ta'minlab bermasligi, shu fan qoidalari qobig'idan chiqilmasa, boshqa fanlar bilan aloqadorlikda ish ko'rilmasa, muayyan muammoni to'laqonli hal etish mushkuldir<sup>104</sup>.

**Tilshunoslik va jamiyatshunoslik.** “Har bir til ijtimoiy hodisadir, shuningdek, til jamiyatga xizmat qiladi. Bu ikkalasining o'rtasidagi aloqani o'rganish murakkab ish bo'lib, tilning ham, jamiyatning ham asoslarini tushunishga yordam beradi.

Til va jamiyat, til va tafakkur (ong) o'rtasidagi bog'lanish eng murakkab va doimo dolzarb hisoblanadi. Sotsiolingvistika tilning jamiyatdagi o'rni va xizmati, jamiyatning turli tabaqalari va kasb egalari tomonidan qo'llanishidagi xususiyatlarni ilmiy jihatdan tadqiq qiladi. Sotsiolingvistikada tillarning jamiyatda qo'llanishiga ko'ra rasmiy, davlat, elat, qabila tillari farqlanadi. Odatda umummilliy tillar davlat va rasmiy tillar sifatida qabul qilinadi. Ba'zi davlatlarda ikki, uch va undan ortiq tillar rasmiy til deb e'lon qilingan. Hindistonda tillar ko'pligi tufayli 14ta til rasmiy deb e'lon qilingan va ikkinchi rasmiy til sifatida ingliz tili qabul qilingan.

Sotsiolingvistikani ijtimoiy vaziyatdagi “real hayot” tili qiziqtiradi. Formal tilshunoslik soddalashtirilgan, qanday o'zgarishi oldindan ma'lum bo'lgan til bilan ish ko'rsa, sotsiolingvistika tilning ijtimoiy fenomen sifatidagi murakkabligini tushunishga harakat qiladi. Ferdinand de Sossyur struktur tilshunoslik asoschisi sifatida tilshunoslikni alohida fan sifatida ajratgan va tilni ijtimoiy fakt deb atagan edi.

Tilshunoslikning bir qator fanlar bilan integratsiyasidan yangi sohalar shakllandi. Bu sohalar tilni yondosh sohalar hamkorligida tahlil qilishga xizmat qiladi. Tilshunoslik sotsiologiya bilan o'zaro bog'liq. Sotsiologiya jamiyatni, shaxsning taraqqiyot xususiyatlarini, ijtimoiy munosabatlarni tahlil qiladi. Tilshunoslikning sotsiologiya bilan integratsiyasidan sotsiolingvistika fani shakllandi. Sotsiolingvistika til va jamiyat munosabatlarini, tilning jamiyatdagi ko'rinishlarini, vazifalarini o'rganuvchi soha.

<sup>104</sup> Нурмонова А. Таълавланган асарлар. I жилд. –Т.: Академнашр, 2012. –Б. 15



Sotsiolingvistika – nisbatan yangi soha. Tilning ijtimoiy jihatlarini avvaldan eʼtiborni tortib kelgan boʻlsa-da, XX asrning oʻrtalaridagina sotsiolingvistika fan sifatida shakllangan.

Tilning zamon va makonga koʻra oʻzgarishi qadim davrlarda tan olingan. Tarixiy tilshunoslik va dialektologiya bu oʻzgarishlar tizimli va maʼlum qolipga egaligini koʻrsatib berishi bilan uning ilmiy tadqiqot uchun asos boʻlishini dalillagan. Keyinchalik til yana bir oʻlchamda oʻzgarishi oydinlashganda, bu oʻlcham na geografik kengayish, na tarixiy ildiz ekani maʼlum boʻlgach, tilshunoslik va sotsiologiya ijtimoiy jihatdan shartlangan til xilma-xilliklarini tushuntirish uchun zarur boʻlgan modellarni taklif qila olgan<sup>105</sup>.

**Kognitiv tilshunoslik** (inglizcha cognize “bilmoq”, “anglamoq”, “tushunmoq”) falsafadagi bilish nazariyasi bilan cheklanmay, balki tilni tafakkur (ong) bilan bogʻlab, uning hosil boʻlishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarining ijtimoiy, madaniy, lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini chuqur ilmiy tadqiq etadi. Kognitiv tilshunoslik psixologiyadagi *tushuncha* va *konsept* birliklari bilan ish koʻradi. Konsept tushunchasi asosida maʼno va obraz yotadi va ular bilim umumlashmasi sifatida “kvant” deb ataladi. Konsept – ong – belgi oʻrtasidagi bogʻlanish miya faoliyati orqali boshqariladi<sup>106</sup>. Masalan, “yaxshilik” konsepti barcha yaxshi narsa, belgi, xislat, odat va boshqalarni ifodalab, oʻz “tushunchalar maydoni”ni tashkil etsa, “yomonlik” konsepti buning aksini ifoda etadi.

**Psixolingvistika** – psixologiya va tilshunoslik oʻrtasidagi bogʻlanishlar asosida hosil boʻlgan sohadir. “Psixolingvistika” termini 1946-yilda birinchi marta AQSHda N.Pronko tomonidan qoʻllangan va 1953-yilda Indiana Universitetida oʻtkazilgan ilmiy anjumanda ommalashgan. Hozirgi davrda jahonning turli mamlakatlarida psixolingvistikaga oid nazariya va metodlar mavjud.

Psixolingvistika nutqning hosil boʻlish va eshitib his etish jihatlarini nutq faoliyatining jamiyat, shaxs rivojlanishi bilan bogʻliq ravishda murakkab sistema va struktura sifatida ilmiy tadqiq etadi. Psixolingvistikaning asosiy oʻrganish mavzusi nutqning hosil boʻlishi,

<sup>105</sup> Coates, F. In *The Handbook of Linguistics*. Edited by Arnoff, M., Rees-Miller, J. P. 563-565.

<sup>106</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшunoslik. – Жиззах: Сангдор, 2006. – Б.15-18.

uning ongli ravishda eshitib his qilinishi va bolalar nutqining shakllanishidir<sup>107</sup>. Psixolingvistikaning xoriydagi ta'limotiga ko'ra boshqacha ta'rif ham mavjud. "Psixolingvistika til va nutqning inson ongidagi tabiati va strukturasi ko'ra ko'zgusi" deb ta'rif beradi T.Skovel<sup>108</sup>. Psixolingvistika so'zlovchi va eshituvchi psixologiyasi, uning sharoitga bog'liqligi oddiy va ehtirosga berilgan holati, matnning strukturasi bilan munosabati, turli nutq buzilishi bilan bog'liq kasalliklar (afaziya)ni ilmiy jihatdan o'rganadi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida tilga haqiqiy nutqiy faoliyatdan ayri holda mavjud bo'lgan va qotib qolgan tizim sifatida qaralgan. Nutqni esa ushbu tizimning amalga oshirilishi deb bilgan ko'pgina olimlar uni lingvistika fani predmetidan chiqaradi va psixologiyaning predmeti deb hisoblaydi. Mashhur psixolog S.L.Rubenshteynning fikricha, "*Nutqda faqat psixologik aspekt mavjud*". Tilga nisbatan esa bunday qarashni qo'llab bo'lmaydi.

Til insonlar o'rtasidagi aloqa vositasi bo'lishi, jamiyatdagi jara-yonlar to'g'risida xabar berishi bilan birga tinglovchiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ham ega. Bilamizki, til imkoniyati nutqsiz, nutqiy faoliyatsiz amalga oshmaydi. "*Til va tafakkurning birligi nutqda o'z ifodasini topadi. Nutq og'zaki va yozma shaklda mavjud bo'lib, unda fikrimiz moddiy shaklga kiradi*"<sup>109</sup>. Kishilar o'rtasidagi muomalaning asosiy vositasi hisoblangan yozma va og'zaki nutq psixologiyaga bog'liq bo'lgan eng murakkab nutqiy faoliyat shaklidir. Yozma va og'zaki nutq yuzaga kelishi, rivojlanish usuli, psixologik yondashuvlari bilan ham bir-biridan keskin farq qiladi. Ma'lumki, insonda, avvalo, og'zaki nutq shakllanadi. Og'zaki nutq esa bevosita jonli muloqot jarayonida yuzaga keladi.

Nutqiy faoliyatini o'rganish bilan shug'ullangan olim L.S.Vigotskiyning nutqqa psixologik yondashuvi asosida psixolingvistik nazariya shakllandi. V.P.Belyanin fikriga ko'ra, "*Psixolingvistika nutqiy ifodalarning shakllanishi va qabul qilinish qonuniyatlari haqidagi fandir*"<sup>110</sup>. Demak, nutqiy faoliyatning nutqning shakllanishi, qa-

<sup>107</sup> Белянин В.П. Психоллингвистика. – М.: Флинта, 2003. – С. 11.

<sup>108</sup> Scovel Th. Psycholinguistics. Oxford Univ. Press, 1998. P.4.

<sup>109</sup> Хайруллоев М., Нақбердйев М. Мантиқ. – Toshkent, 1993. – B.31.

<sup>110</sup> Белянин В.П. Психоллингвистика – М., 2004.

bul qilinishi kabi psixologik mexanizmlarini tilshunoslik bilan bir qatorda psixolingvistika fani ham tadqiq etadi.

Nutq murakkab funksional tizim sifatida bosh miya tuzilishining turli sohalarini nutqiy faoliyatga jalb etadi. Bilamizki, ko'pgina insonlarda bosh miyada shish, bosh miyaga qon quyilishi, yallig'lanish va shunga yaqin jarohatlanishlar psixik kasalliklar natijasida ro'y beradi. Miyasi shikastlangan insonlar o'zgarar nutqini tushunmaydi. Bu holatni o'rganish va unga yechim topish uchun, nafaqat neyroxirurgiya, balki tilshunoslik fani ham zarurdir. Nutqning qay tarzda qurilishi, qanday mexanizmlarga ko'ra nutqiy faoliyat amalga oshishini aniqlash lozim bo'lgan. Natijada psixolingvistika fani tarkibida neyrolingvistika fani yuzaga keldi. Bilishning alohida sohasi sifatida neyrolingvistika XX asrning 50-60-yillarida shakllana boshlagan, bu fanning yuzaga kelishiga tibbiyotning afaziyaga chalinganlarni davolash bilan shug'ullanuvchi sohasi hisoblangan afaziologiyaning amaliy talablari asos bo'lgan.

Neyrolingvistika fani ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Neyrolingvistikaga oid talqinlarda I.M.Sechenov tadqiqotlariga asoslanilgan. Boduen de Kurtene fikriga ko'ra, *"Psixik hodisalarni fiziologik substratdan ajratib bo'lmaydi, demak, ularning barchasi faqatgina tirik miya bilan birga mavjud bo'la oladi va uning "o'lim"idan so'ng yo'q bo'lib ketadi"*<sup>111</sup>.

Neyrolingvistika nutqiy faoliyatning miyadagi mexanizmlarini va miyaga mahalliy shikast yetishi natijasida nutqiy jarayonlarda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni o'rganadi.

Neyrolingvistika fanining vujudga kelishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari neyropsixologiya va neyrolingvistika asoschisi Aleksandr Romanovich Luriya nomi bilan bog'liq. Bu olim nutqiy buzilishlarni tizimli tahlil qilishni lingvistika va psixolingvistikaning nazariy tushunchalari bilan umumlashtirgan va tadqiq qilgan.

A.Luriya hayoti davomida nutq muammolarini: uning ontogenezini, funksiyalarini, buzilishini, miya tuzilishini o'rgandi va bular haqida "Очерки психофизиологии письма", "Основные проблемы нейролингвистики", "Язык и сознание" va boshqa asarlarida ma'lumot keltirdi. A.Luriyaning 1950-yilda nashr etilgan "Очерки психо-

<sup>111</sup> Boduen de Kurtene I.A. Из патологии и эмбриологии языка. – Варшава, 1885.

физиологии письма” kitobida va “Язык и сознание” monografiyasida inson ongining shakllanishida nutqning rolini keltirib o‘tadi va buni tadqiqot muammosining yangi jihati deb hisoblaydi. A.Luriya monografiyasi, asosan, neyrolingvistik xarakterda bo‘lib, u nutqning vazifasi va strukturasi haqida o‘zining lingvistik tadqiqotlari bilan miya atrofiga mahalliy shikast yetishi natijasida nutqiy mulohaza va nutqning tushunilishidagi buzilish shakllarining farqlari haqidagi neyropsixologik ma’lumotlarni taqqoslaydi. U nutq hodisalarini kuzatish va o‘rganish bolalar nutqini o‘rganishga nisbatan murakkabroq ekanligini ta’kidlaydi.

Nutqiy nuqsonlarning namoyon bo‘lish sabablari va ko‘rinishlari turli-tumandir. Nutqiy nuqsonni o‘rganish tadqiqotchidan nafaqat lingvistik va psixologiya bilan, balki inson fiziologiyasi va tibbiyot bilan ham bog‘liq bo‘lgan bilimlarning majmuasini egallashni talab etadi.

Nutqiy zonalar nutqiy mexanizmlarning aniq lokallashtirilishini namoyon qiladi. Nutq mexanizmlarining mana shu ikki: nutqni ishlab chiqarish va qabul qilish mexanizmi miyamizda turli xil tizim sifatida ajratilgan va ular normal sharoitlarda o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Miyaga shikast yetishi ushbu ikki nutq mexanizmining buzilishiga olib keladi. Bu esa turli afazik holatlarni yuzaga chiqaradi. Miyaning u yoki bu nutqiy mexanizmlari faoliyati buzilishiga sabab bo‘luvchi zonalarining shikastlanishi bilan bog‘liq nutq buzilishlari turlari *afaziya* deb nomlanadi. *Afaziya* miya qismlarining shikast topishi tufayli yuzaga kelgan nutq buzilishidir (yunoncha *a-* “inkor”, *fasis-* “nutq” demakdir). Nutq buzilishlarining barchasini ham afaziyaga kiritish mumkin emas. Nutq mexanizmlarining buzilishi natijasida yuzaga kelgan nutqiy nuqsonlar til sathlaridan foydalanishda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun nutq buzilishlarini o‘rganish bo‘yicha logopedik ishlarni tashkil etishda ona tilining o‘ziga xosligini ham inobatga olish zarur. Shuni ta’kidlash kerakki, nutqida kamchiligi bor insonlar nutqini o‘rganishda lingvistika insonparvar fan sifatida namoyon bo‘ladi.

Psixolingvistikada nutqiy ifodalarning shakllanishi va qabul qilinishi kabi psixologik qonuniyatlar o‘rganilsa, neyrolingvistikada miyaga shikast yetishi natijasida nutq mexanizmlarining buzilishi va nutqda yuzaga kelgan kamchiliklar o‘rganiladi. Nutq mexanizmlari

harakati miya faoliyati bilan bog'liq bo'lib, nutq mexanizmlarining buzilish sabablarini bilish shaxslar nutqidagi kamchiliklarni aniqlashda va bartaraf etishda asosiy o'rin tutadi. Shuning uchun ham neyrolingvistika va psixolingvistika bir-biriga bog'liq bo'lib, neyrolingvistika psixolingvistikaning yo'nalishi sifatida talqin qilinadi<sup>112</sup>.

Tilshunoslar uchun nevroptologlar tomonidan o'rganiladigan afaziya hodisasi muhim ahamiyatga ega. Afaziyani o'rganish miyada nutqiy markazlarning joylashishini anglash imkonini beradi. Masalan, harakat afaziyasida bemor unga aytilgan nutqni tushunsa ham, so'zlarni talaffuz qila olmaydi. Bunda miyaning chap peshona pastki orqa burmalarida joylashgan Broka markazi shikastlangan bo'ladi. Agar bosh miyaning yuqori chakka burmasida joylashgan Vernike markazi shikastlansa, akustik afaziya sodir bo'ladi. Bunday holda bemor gapira oladi, lekin nutqni tushunmaydi, unda "fonematik eshitish qobiliyati" buziladi. U so'zlarni anglab bo'lmaydigan shovqindek qabul qiladi, ma'nosiga tushunmaydi. U hamma tovushlarni eshitadi, lekin ularni umumlashtirish va ajratish qobiliyatini yo'qotadi. Bularning hammasi ikkilamchi buzilishlarga – so'zlarning noto'g'ri talaffuz qilinishiga, yozish qobiliyatining buzilishiga olib keladi. Bemor matnni qiyinchiliksiz ko'chiradi, lekin aytib turilgan matnni yoza olmaydi.

Bosh miya qopqog'i quyi qismi faoliyatining shikastlanishi nutqni qisman tushunishga olib keladi. Bunday holda semantik afaziya yuz beradi. Bemor mantiqiy grammatik munosabatlarni tushunmaydi, masalan: "otamning akasi" so'z birikmasini yoki "akamning otasi", "yoz bahordan keyin", "bahor yozdan keyin", "doira uchburchak toshda" birkimlarini farqlay olmaydi.

Miyaning peshona chakka qismlarining shikastlanishi markaz faoliyatining buzilishiga, ya'ni nutqiy elementlarning ketma-ket bog'liqligini uzluksiz ta'minlashga monelik qiladi. Bunda bemor nutqni tushunadi va o'zi gapira oladi, lekin to'liq bir gapni tuza olmaydi, hamмага ma'lum grammatik qoidalarga va kesimning bog'lanishiga rioya qila olmaydi. U uzib, telegraf usulida gapiradi.

<sup>112</sup> *Tuxtayeva S.* Neyrolingvistika – psixolingvistika yo'nalishi sifatida. Metodist. Ilmiy maqolalari to'plami. – Toshkent, 2017. –B.8-12.

Bu misollardan ko‘rinib turibdiki, bosh miyaning funksiyasi buzilishini o‘rganish tilning grammatik, fonetik, semantik jihatdan tahlil qilinishi va nutq jarayoni analizi uchun material bo‘la oladi.

Nutq markazlarini o‘rganish nutq jarayonini o‘rganishga yo‘l ochib berdi. Bu jarayonda inson ichida o‘ylaydi, o‘z fikrini ovoz chiqarib namoyon qilmaydi. Odatda ichki nutq eshittirib aytilgan so‘zlarning oldini oladi. Ichki nutqda Broka harakati markazi to‘xtab qoladi, lekin o‘chmaydi. Miya ishtirokidagi jarayonda elektr to‘lqinlar tarqalishi aniqdir. Hozirgi vaqtda olimlar miya tarqatadigan aloqa to‘lqinlarini qayd qiladigan elektronensifalogiya apparatini ishlatadilar. Fikrlash va nutq mexanizmini ochib berishda bu apparat katta ahamiyatga ega.

**Lingvokulturologiya** – til va madaniyat, o‘zaro madaniy aloqa masalalarini ilmiy asosda tadqiq etadi. “Til madaniyat bilan bog‘langan, u madaniyatga yetib boradi, unda rivojlanadi va uni ifodalaydi”<sup>113</sup>. Bu soha faqat madaniyat bilan emas, balki u orqali turli milliy urf-odatlar, diniy hodisalar, milliy konseptlar, dunyoni til orqali ongli his qilish vositalarini o‘rganadi. Dunyoning til xaritasi, umuman, ularning insonlar ongidagi mantiqiy ifodasi bilan mos keladi. Bu masalani keng va chuqur o‘rganish lingvokulturologiya va lingvokognitologiya bilan bog‘liqdir.

Til – madaniyatning in‘ikosi bo‘lib, unda insonni o‘rab olgan real olam, xalq turmush tarzi, mentaliteti, milliy xarakteri, urf-odat, an‘analari, qadriyatlarini, dunyoqarashi aks etadi.

**Etnolingvistika** – tilshunoslik, etnografiya va sotsiologiya bilan bog‘liq bo‘lib, tilning etnos (xalqning kelib chiqishi) bilan aloqasi va uning jamiyatdagi o‘rnini o‘rganadi. Etnolingvistikada til vositalari va kategoriyalarining etnik va ijtimoiy jarayonlarni o‘rganishda qo‘llanishi tahlil etiladi. Bu soha xalq va elatlarning kelib chiqishi (etnogenez va etnik tarix)ni; xalqlarning moddiy va madaniy tarixini (narsalar, odatlar, tushunchalar, belgilar, ramzlar va h.k.); xalq tafakkuri tarixining shakllanishini; til siyosati; tilning tarqalish jarayoni kabilarni o‘rganadi<sup>114</sup>.

**Antropolingvistika** – yozuvga ega bo‘lmagan tillarni o‘rganish sohasidir. Shu bilan birga u etnolingvistika va sotsiolingvistika bilan

<sup>113</sup> Маслова В.А. Лингвокультурология. 2-издание —М.: Академия, 2004. —С. 9.

<sup>114</sup> Герд А.С. Введение в этнолингвистику. Изд. Санкт-Петербургского университета, 2005. —С. 7.

bog‘liq bo‘lib, tilni inson madaniyati va ishonchiga doir andazalar (modellar) yordamida o‘rganadi. Antropolingvistika nutq jamoasini ijtimoiy, diniy, hududiy va qarindoshlik guruhlari sifatida farqlashda lisoniy xususiyatlarning o‘zgarishlarini o‘rganadi. Bunda turli ijtimoliy sharoit, kundalik muloqot, urf-odat, nutq madaniyati va savod kabilar e‘tiborga olinadi<sup>115</sup>.

**Paralingvistika** – (grekcha para – “atrof”, lingvistika – “fan”, ya’ni “lingvistika tevaragidagi fan” ma’nosini anglatadi) tilni boshqarib borishda qo‘llanuvchi vositalarni o‘rganadi. U uchga bo‘linadi: 1) kinesika, ya’ni imo-ishora, mimika, inson tana a‘zolarini qimirlatish vositasida biror tushunchani ifodalash; 2) fonatsiya – inson ovozdagi o‘zgarishlar, masalan, “oh”, “uh”, “voh” kabi turli ehtirolarni ovoz yordamida ifodalash; 3) paragrafemika – yozuvda shaxsiy belgilar yordamida turli tushunchalarni bildirish.

Paralingvistik vositalar turli tillarda so‘zlashuvchi xalqlar tomonidan har xil ifodalanadi. Og‘zaki va yozma nutqda ifodalanadigan turli paralingvistik vositalar doim bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi. Masalan, qosh va ko‘z vositasida ifodalanadigan tushunchalar tildagi so‘zlar va gaplardan ko‘ra mazmunni kuchliroq ifodalaydi. Paralingvistik vositalar milliy, shaxsiy, diniy, psixologik, etnik qarashlar, urf - odat va madaniyat bilan bog‘liq.

**Tilshunoslik va biologiya.** “Til insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan asosiy belgilardan biri sifatida e‘tirof etiladi. Shuning uchun ham uning ildizlari va rivojlanishi nafaqat tilshunoslik, balki insoniyat evolyutsiyasi nuqtayi nazaridan ham muhim. “Til madaniy mahsulmi yoki biologik hodisa?” degan savol yuzaga keladi. XX asrning birinchi yarmida til to‘lig‘icha madaniy mahsul, degan fikr yetakchilik qilgan. Bu bizning aqlimiz va cheksiz o‘rganish imkoniyatlarimiz haqidagi qarashlarga asoslangan. Ammo XX asrning ikkinchi yarmida Noam Xomskiyning generativ grammatikasi paydo bo‘lishi bilan yuqoridagi qarashdan tubdan farq qiluvchi javob paydo bo‘ldi: til mahsul bo‘lib, u inson biologik mavjudligining bir qismidir.

Har bir insonning tili murakkab, ya’ni u iyerarxik tashkillashtirilgan (gapdagi so‘zlar shunchaki ketma-ketlikdan iborat emas, balki qism ichida qism tarzida tuzilgan) va rekursivlikni namoyon etadi

<sup>115</sup>Crystal D. A. Dictionary of Linguistics and Phonetics. Fifth edition. Blackwell Publishing. 2003 –P.26

(ma'lum birliklar xuddi shu birliklarni o'z ichiga olishi mumkin). Har bir xalq o'zining to'liq shakllangan tiliga ega. Har qanday madaniyat madaniy nutqayi nazaridan qanchalar sodda bo'lmasin, uning tili "rivojlangan" deb ataladigan madaniyatlarning tili bilan bir xilda rivojlangan, shakllangan bo'ladi. Masalan, Xoysan jamiyati boshqa insoniyatdan bir qancha uzoq vaqt izolyatsiyada yashagan bo'lsa-da, ularning tiliga xos xususiyatlar boshqa tillar bilan bir xildir. Bu kabi hodisalar tilning biologik asosi mavjud, degan qarashni qo'llab-quvvatlaydi.

Faqat insonlardagina til mavjud. Ba'zi tajribalar hayvonlarni tilga o'rgatishga qaratilgan edi. Natijada hayvonlarda simvallashtirish qobiliyati borligi oydinlashdi. Masalan, primatlarning soqovcha gaplashishida belgilar ketma-ketligida semantik va sintaktik strukturaning yo'qligi qayd etilgan.

Tilning maxsus neyron asoslari borligi haqidagi tafsilotlar to'laligicha oydinlashmagan bo'lsa-da, tasvir texnikasi bu masalani birmuncha aniqlashtirishga erishdi. O'sha texnik metodlar yordamida miyaning peshona qismi va chakka qismini turli neyron yo'laklari bog'lab turishi aniqlandi. Ular til bilan bog'liq aqliy vazifalarni bajarishda o'ta muhimdir. Mazkur "yo'lak"lardan biri Broka sohasi bilan miyaning chakka qismi orqa tomoni yuqorisidagi miya پوستlog'i bilan bog'laydi va u asosiy sintaktik hisob-kitobni amalga oshirishni ta'minlaydi. Bu yo'lak primatlarda yaxshi rivojlanmagan bo'ladi"<sup>116</sup>.

Tilshunoslikning xilma-xil ijtimoiy, tabiiy, texnik fanlar bilan aloqasi, uning boshqa fanlar orasida tutgan o'rni haqidagi masala murakkab hisoblanadi. Tilshunoslikni qaysi fan sirasiga kiritish tilning qaysi jihatini asosiy deb qarashga bog'liq bo'ladi.

**Tilshunoslik va fiziologiya.** Fikr va nutqning "mexanika" sini ochishga intilish tilshunoslarni fiziologlar va nevroptologlar bilan yaqinlashtirdi. "Biz qanday gapiramiz?" degan muammo faqatgina ijtimoiy masala emas, balki fiziologik masala hamdir.

Insonning so'zlashuv qobiliyati, asosan, bo'g'iz hiqildog'ining tuzilishi tufaylidir. Bu a'zo nafas oluvchi bo'g'izning kengayadigan qismidir. Uning devorlari ichki tomoni shilliq parda bilan qoplangan

---

<sup>116</sup> Victor M. Longa. The evolution of the Faculty of Language from a Chomskyan perspective: bridging linguistics and biology. *Journal of Anthropological Sciences* Vol. 91 (2013). P. 1-48



tog'aydan iborat bo'ladi. Ma'lum joyda bu parda ikkala tomondan qalinlashadi va markazda turtib chiqadi. Bular tovush paychalari hisoblanadi. Har bir paycha ko'plab kichik muskullar yordamida harakatlanadi. O'pkadan chiqayotgan havo paychalarni tebranishga majbur qiladi va bu jarayon nutq tovushini hosil qiladi. Ammo bu qanday tovush? Bu tovush paychalarining joylashuvi va jaranglashuviga bog'liq bo'ladi. Ularni nazorat qiluvchi muskul tizimi organizmdagi eng sezgir tizim hisoblanadi. U biz chiqaradigan tovushlarni talaffuz qilish imkonini beradi. Tovush paychalari 130ga yaqin turli holatni egallashi mumkin.

Tovush paychalari titraganda nafas olish yo'lida bo'lgan havo ustida titray boshlaydi. Aslida, biz ana shu tebranishni eshitamiz. Agar tovush paychalari jaranglashmagan bo'lsa, u holda tez tebranadi, qisqa to'lqinlar chiqaradi va biz yuqori ohanglarni eshitamiz. O'g'il bolalar o'n to'rt yoshga yetganlarida ularda tovush paychalari va bo'g'iz yo'ng'onlashadi, tovush esa pasayadi. Shunday qilib, tovushning balandligini tovush paychalari orqali boshqarishimiz mumkin. Ohang-chi? Suhbatlashganda yoki qo'shiq aytganda bo'g'iz, o'pka, ko'krak qafasi, og'iz va burun kabi a'zolar ishga tushadi. Ularda havoning tebranishi u yoki bu ohangni ifodalashga yordam beradi. Suhbatlashganda qorin, qovurg'a, diaphragma, til, tanglay va lablar ham ishtirok etadi. Shunday ekan, suhbat jarayonini juda murakkab va mukammal musiqa asbobini chalishga qiyos etish mumkin.

Nutq apparati va nutq tovushlarining paydo bo'lishi fiziologik negizga ega, chunki nutqiy jarayonda his-tuyg'u organlari, muskullar apparati va insonning nerv tizimi qatnashadi. Zoologlar shimpanze ustida eksperiment olib bordilar, yosh shimpanzalar odam bolasiga juda o'xshashdir. Lekin shimpanzalar insonlar muhitida yashab, dressirovkachi yordamida tarbiyalansa ham, inson nutqi ta'siri ostida bo'lsa ham gapira olmadi.

Qushlar sayraydi, boshqa qushlarga tushunarli tovushlarni chiqaradi. Hayvonlar muloqotda hid, harakat, tovushlardan foydalanadi, ular shodlik, g'azab, qo'rquvni ifodalashi mumkin. Aksar hayvonlar o'zaro muloqotda bo'lishi mumkin, ammo ularning hech qaysi biri odam singari gaplasha olmaydi. Ya'ni birorta hayvon so'zdan foydalanmaydi.

Inson nutqi juda murakkab jarayon va birorta hayvon uni takrorlashga qodir emas. Insonda butun boshli organlar tizimi mavjud bo'lib, u nutq a'zolari yordamida so'zlar tarkib topadigan tovushlarni tallafuz qiladi. Bizning tovush paychalarimiz alohida usulda titraydi, bo'g'iz, og'iz va burun bo'shliqlari muayyan usulda sozlanadi, lablar, tishlar, pastki jag', til va tanglay o'ziga xos usulda harakat qiladi. Bularning barchasi unli va undosh tovushlarni talaffuz qilishga moslashgan, buni hayvonlar takrorlashga qodir emas.

Hayvonlar so'z va gap tuzish uchun tovushlarning butun bir turkumini talaffuz qila olmaydi. Hayvonlar nima uchun gaplasha olmasligining yana boshqa, muhimroq sababi bor. So'zlar – narsalar, xatti-harakatlar, tajribalar, g'oyalar ramzi. Masalan, *qush* so'zi uchadigan jonli obyektни ifodalash uchun qo'llangan ramz. Boshqa so'zlar uning rangi, shakli, uchishi va sayrashini ifodalaydi. Uchinchi guruh so'zlaridan qush va uning xatti-harakatlari to'g'risidagi fikrni ifodalash maqsadida foydalanish mumkin.

Biron kishi bilan mulqotda bo'lish maqsadida so'zlarni qo'llash ma'lum yo'sinda uyushtirilgan ramzlardan foydalanishni anglatadi. Buning uchun ma'lum darajada aql-idrok bo'lishi talab etiladi, bu imkoniyatlar hayvonlarda yo'q. Shuning uchun ular inson singari gapira olmaydi. Barcha hayvonlarning tovushi faqatgina tug'ma impulslar bilan chegaralanib qoladi. Hayvon bolasi tovush chiqarishga o'rganmaydi, chunki qayerda bo'lishidan qat'i nazar barcha mushuk bir xil miyovlaydi, hamma kuchuk bir xil vovullaydi, inson jamoasining titlari esa turli-tumandir.

Klinik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, miya faoliyatining buzilishi, nutq faoliyatining buzilishiga olib keladi. Hatto alkohol, qattiq toliqish, qo'rqinch tufayli vaqtincha miya buzilishi inson nutqiga ta'sir ko'rsatadi.

Miya va nutq faoliyatini o'rganishda rus fiziolog olimlari I.M.Sechenov va I.P. Pavlov ilmiy-tabiiy metodlarni tatbiq qilish asosida insonlar va hayvonlarning yuqori nerv faoliyati nazariyasini yaratdilar. Shu nazariyaga muvofiq, insonlarning butun borliqni muayyan aks ettirishi ikkinchi signal tizimiga asoslanganligi bilan farq qiladi. Ikkinchi signal tizimini nutq jarayoni tashkil qiladi. Ular barcha qo'zg'atuvchilar kabi shartli reflektorlarni chaqiradi, ularning o'ziga

xos xususiyatlari bor – bu barcha hayvonlarga xos, tashqi dunyoni hodisa va aniq predmetlarni ifodalovchi 1-signal tizimini belgilaydi.

Soʻz signallarning signali boʻlib xizmat qiladi. I.P.Pavlov fikricha, “hayvonlar “homo sapiens” paydo boʻlgunga qadar atrof olamni bevosita taassurotlar orqali bilgan. Ularga turli xil agentlar orqali oliy nerv tizimining mos hujayralari retseptorlariga taʼsir koʻrsatgan. Bu taassurotlar tashqi obyektlarning birdan-bir signallari boʻlgan. Insonda ikkinchi darajali signallar birlamchi signallar belgisi – nutq jarayoni koʻrinishida rivojlanadi<sup>117</sup>. Har ikki signal tizimi birgalikda amal qilib kelmoqda. Birinchi signal tizimi his-tuygʻuni idrok qilish signali, ikkinchi signal – tushunilgan soʻz orqali anglash belgisidir.

Tilshunoslik tarix, adabiyotshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, etnografiya kabi ijtimoiy, matematika, informatika kabi aniq, biologiya, fizika, ximiya kabi tabiiy fanlar bilan aloqador.

Tilshunoslik bevosita tarix bilan aloqador. Tildagi oʻzgarishlar tarixiy muhit, hodisalar bilan bogʻliq. Narsa-hodisani nomlashda, xatti-harakatlarni baholashda, belgilarni aks ettirishda har bir xalq yashash muhiti, dunyoqarashidan kelib chiqib yondashadi. Tilning mohiyatida xalq tarixi yotadi. Turli voqea-hodisalar, ijtimoiy munosabatlar tilda oʻz ifodasini topadi. Har bir xalq oʻz tarixiga ega boʻlganidek, til ham oʻz tarixiga ega. Xalqlar oʻrtasidagi munosabat, harbiy yurishlar, istilolar, mustamlakachilik jarayoni lugʻat fondining boyib borishini taʼminlagan. Umumiy tilshunoslikning rivojlanish jarayonini oʻrganish ham tarixiy voqelikni bilishni talab etadi. Tilshunoslikning oʻrganish obyekti til boʻlsa, tarixning oʻrganish obyekti til sohibi boʻlgan inson oʻtmishi, madaniyati, yashash tarzidir.

Tilshunoslik adabiyotshunoslik sohasi bilan aloqador. Badiiy adabiyotning quroli soʻzdir. Badiiy adabiyotda soʻz orqali hissiyotlar aks ettiriladi – sheʼr dunyoga keladi, voqea-hodisalar tasvirlanadi, qahramonlar portreti yaratiladi – nasriy asarlar bunyod boʻladi. Adabiyotshunoslik masalalarida tilning ijtimoiy vazifalaridan biri emotsional-ekspressivlik (hissiy taʼsir) vazifasi namoyon boʻladi. Yozuvchi soʻzdan qurol sifatida foydalanadi. Bundan tashqari, badiiy adabiyotda soʻz badiiy sanʼat yaratish vositasi sifatida ham istifoda etiladi.

<sup>117</sup> И.П. Павлов. Полн. собр. соч. Т. III. Кн. 2. — М. 1952 // Шендельс Е.И. Связь языковедения с другими науками. — М. 1962.

Antonim soʻzlar tazod sanʼatiga, omonim soʻzlar tajnis va iyhom sanʼatiga, oʻzakdosh soʻzlar ishtiyoq sanʼatiga asos boʻladi.

**Tilshunoslik va informatika.** Til barcha davrlarda jamiyat hayotida muhim oʻrin tutib kelgan. Til ijtimoiy taraqqiyot mahsuli boʻlib, shakllanishi, boyib borishi va ayrim hollarda isteʼmoldan chiqishi bilan tabiiylik xususiyatini namoyon etadi. Tilning asosiy ijtimoiy funksiyalaridan biri kommunikativlikdir. Tilning emotsional-ekspressiv, akkumulyativ funksiyalari kommunikativlik asosiga qurilgan. Shuni ham taʼkidlash lozimki, tilning boshqa funksiyalari ham kommunikativlik bilan teng ahamiyat kasb etib bormoqda. Emotsional-ekspressiv funksiya insonlarning ruhiy-hissiy holatlarini ifoda etib, maʼnaviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilsa, akkumulyativ funksiya ajdodlar merosini avlodlarga yetkazish, mental xususiyatlarni, xalq dunyoqarashi, urf-odat, anʼanalari, turmush tarzi, madaniyat darajasini namoyon etishda oʻz ifodasini topmoqda. Til tafakkur bilan bogʻliq holda insonni barcha jonzotlardan ajratib turuvchi imkoniyat sifatida baholanadi. Tilsiz tafakkur, tafakkursiz til mavjud boʻla olmaydi. Til borliqni anglash, voqelik haqida muayyan tasavvurga ega boʻlish vositasidir. Tilning shakllanishi va rivojlanishi ong, tafakkur rivoji bilan bogʻliq. Kishilik jamiyatida tilning tafakkur omili sifatidagi ahamiyati katta. Til jamiyat taraqqiyotini taʼminlash, oʻzaro munosabatlarni takomillashtirishda oʻziga xos oʻrin tutadi. Til tafakkur mahsuli, oʻz navbatida til tafakkur tadrijiga xizmat qiladi. Til fikr manbai ekan, u barcha sohalaridagi yangiliklar, ixtirolar, kashfiyotlar zamini hamdir. Bugungi kunda tilning ijtimoiy funksiyalari yanada kengaymoqda. Til fanlararo, sohalararo munosabat asosi sifatida ham eʼtiborga molikdir. Aynan mana shu ehtiyoj tufayli kompyuter lingvistikasi fani paydo boʻldi. Kompyuter lingvistikasi kompyuter tizimi imkoniyatlarining tilshunoslik sohasiga tatbiq qilinishi natijasida yuzaga keldi. Kompyuter lingvistikasi umumtil asoslarini shakllantirishda, tillar oʻrtasidagi munosabatlarni takomillashtirishda oʻziga xos oʻrin tutadi.

Tilning murakkab fiziologik, biologik, ijtimoiy hodisa sifatidagi ahamiyati ikki jihatda namoyon boʻladi. Dastavval, tilning ichki qonuniyat asosidagi taraqqiyotini, turli fonetik, leksik, semantik, grammatik jarayonlarni, mental xususiyatlarni mujassamlantirgan holdagi tako-

millashuvini ta'kidlash joiz. Til insonni tafakkur jihatdan rivojlantirish omili bo'lishi bilan bir qatorda tashqi jihatdan ta'minlash, ya'ni axborot uzatish vositasi sifatida ham muhim qiymatga ega. Til insonni voqelik bilan muntazam ravishda tanishtirib boradi, davrga, ijtimoiy turmush tarziga mos ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Tilning tashqi taraqqiyot omili, axborot, ma'lumot berish vositasi sifatidagi ahamiyati globallashuv davrida, ayniqsa, yaqqolroq namoyon bo'lmoqda.

XX asr o'rtalaridan insoniyat tarixida tubdan burilish hosil qilgan globallashuv jarayoni boshlandi. "Globallashuv" so'zi lotincha "glob" "kurra", "shar" so'zidan olingan bo'lib, qit'alar manfaatning jadal sur'atlarda yaqinlashuvi, birlashuvini anglatadi. Tez sur'atlar bilan uyg'unlashayotgan milliy iqtisod va milliy madaniyatlar uchun umumiy muloqot vositasiga ehtiyoj seziladi. Shunday vaziyatda milliy tillar iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy fikrning aniqroq, to'laroq ifoda etilishiga xizmat qiladi. Globallashuv ta'sirida bir tilning o'zigina ijtimoiy ehtiyojlarni qondira olmaydi<sup>118</sup>.

Global taraqqiyotning muhim xususiyatlari sohalarga texnikaning kirib kelishi, kompyuter dasturlarining shakllanishi, integratsiya jarayoni bilan belgilanadi. Hozirgi vaqtda jahon miqyosida kechayotgan integratsiya jarayonida tabiiy til asosidagi axborot uslubini yaratish hayotiy zaruratga aylandi. Bugungi kunda o'zbek tilining mavqeyini yuksaltirish, nufuzli tillar qatoriga olib chiqish muhim zaruratlardan biri hisoblanadi. Kompyuter lingvistikasi mana shu zaruratni amalga oshirish uchun yaratilgan qulay imkoniyatlardan biridir. O'zbek tilini jahon miqyosiga olib chiqish, dunyoviy tillar sirasiga kiritish va til o'rganish va o'rgatishda kompyuter lingvistikasi fani muhim ahamiyat kasb etadi.

XXI asr boshiga kelib axborot texnologiyalari taraqqiyoti tufayli globallashuv jarayoni yangi bosqichga ko'tarildi. Insoniyat tomonidan qo'lga kiritilgan fan, texnika, madaniyat, ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlantirish, demokratiya, qonunchilik, adolatni barqarorlashtirish borasidagi yutuqlardan oqilona foydalanish O'zbekistonni jahondagi rivojlangan davlatlardan biriga aylantirishga zamin yaratadi. Globallashuv jarayoni barcha sohalarda tezkorlikni, tez sur'atlar bilan rivojlanishni talab etmoqda. Texnika taraqqiyoti mahsuli bo'lgan kom-

<sup>118</sup> Уоназаров Қ. Глобаллашув ва тил фалсафаси. –Т., 2009. –Б.29-30.

pyuter tizimi barcha sohalarda qulayliklar yaratadi, ma'lumotlarning tezkor yetkazib berilishini, tarjima, tahrir jarayonlarining qisqa muddatlarda amalga oshirilishini, turli millatga mansub muloqot vakillari o'rtasida vosita sifatida xizmat qiluvchi sun'iy til, ya'ni axborot-kompyuter uslubining shakllanishini ta'minlaydi.

Hozirgi kunda jamiyat taraqqiyotini texnik vositalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Globallashuv jarayoni mahsuli hisoblangan kompyuter har bir soha taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi kompyuter tizimi ta'lim jarayoni taraqqiyotini ta'minlashga ham xizmat qilmoqda. Darslarni ko'rgazmali tashkil etishda, yangi pedtexnologiyadan foydalanishda, fanning mazmunini ta'sirchan, maqsadga muvofiq yetkazishda kompyuter vositalarining alohida o'rni bor.

O'zbek tilshunosligida informatika bilan lingvistikaning bir butun ifodasi sifatida "kompyuter lingvistikasi" yo'nalishi shakllandi. Kompyuter lingvistikasi faqat tilshunoslik sohasida emas, balki boshqa sohalarda taraqqiyotini ta'minlashga ham xizmat qilmoqda.

Dastavval, kompyuter lingvistikasi tilning axborot-kommunikativ funksiyasini rivojlantirishda ahamiyatlidir. Kompyuter lingvistikasi hozirgi kunda xorijiy tillarning, ayniqsa, ingliz tilining axborot-kommunikativ funksiyasini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bois ingliz tilining qo'llanish hududi bilan bir qatorda sohalarda bo'yicha iste'mol darajasi yanada oshmoqda. Negaki, kompyuterning ishlash tizimi, dasturlar, asosan, ingliz tilida. Bu borada rus tilida ham bir qator ishlar qilingan.

Kompyuter lingvistikasi o'zbek tilshunosligida yangi soha sifatida shakllandi. Kompyuter lingvistikasiga doir tadqiqotlar yuzaga kelmoqda. Ammo bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar hali oldinda. Kompyuter lingvistikasi o'zbek tilining axborot uslubini shakllantirishga, axborot-kommunikativ funksiyasini ta'minlashga xizmat qiladi. Kompyuter lingvistikasidagi bir qator muammolarning, jumladan, o'zbek tilidagi ma'lumotlar bazasining yaratilishi, elektron lug'atlarni shakllantirish, kompyuter leksikografiyasini takomillashtirish, konkordans, tezauruslar yaratish ta'lim jarayonidagi bir qator muammolarni hal qilishga yordam beradi. Xususan, til va adabiyot ta'limi jarayonini takomillashtirishga ham xizmat qiladi.

Kompyuter lingvistikasining o'zbek tilshunosligi taraqqiyotida, o'zbek tili ta'limi jarayonidagi o'rnini ahamiyatlidir. O'zbek tilining mavqeyini yuksaltirishda, axborot-kommunikativ imkoniyatlarini takomillashtirishda, funksional doirasini kengshaytirishda AKT va kompyuter lingvistikasi imkoniyatlaridan foydalanish muhimdir. O'zbek tilining so'z boyligi haqida ma'lumotga ega bo'lishda, tilshunoslik fani bo'limlari, grammatik tizim qonuniyatlarini o'rganishda lingvistik hodisalar, grammatik jarayonlarni taqdim qilish, kompyuter lug'atlaridan foydalanib izohlash, leksemalarning semantik imkoniyatlarini aks ettirish, uyadoshlarini, sinonimlarini tezaurus orqali yoritish amaliy natijalar beradi.

Kompyuter tizimi va kompyuter lingvistikasi o'zbek tili imlo qoidalarini tushuntirishda va yetkazishda ham muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Kompyuter lingvistikasining takomillashtirilishi, o'zbek tilidagi ma'lumotlar bazasining yaratilishi joylarda, e'lon va afishalarda, reklama matnlarida yo'l qo'yilayotgan imloviy nuqsonlarni ham bartaraf etishga xizmat qiladi.

Til o'rgatishda ham AKT, kompyuter lingvistikasining o'rnini ahamiyatli. Til o'rgatish jarayonini avtomatlashtirish, zamonaviy pedtexnologiyani kompyuter vositalari bilan muvofiqlashtirish, o'zbek tilidagi o'qitish, ish olib borish dasturlarini yaratish, axborot uslubi va rasmiy uslub qolipini shakllantirish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Tilning jamiyat hayotida muhim o'rin tutishi haqidagi fikrlaringizni bayon qiling.
2. Til va jamiyat munosabatini yoriting.
3. Tilning ijtimoiy tabiatiga xos xususiyatlarni ayting.
4. Tilning ijtimoiy vazifalarini misollar asosida tushuntiring.
5. Tilning jamiyat taraqqiyoti jarayonida yuzaga kelishi haqida fikr bildiring.
6. Tilning tabiiy-biologik, fiziologik xususiyatlari haqida so'zlang.
7. Tilni boshqa ijtimoiy hodisalardan ajratib turadigan eng asosiy xususiyatini bayon eting.

8. Tilshunoslikning aniq fanlar bilan munosabatini yoriting.
9. Unli tovushlarning yuzaga kelish jarayonini tushuntiring.
10. Tilshunoslik va ijtimoiy, aniq hamda tabiiy fanlar munosabati haqida fikr bildiring.

### Asosiy tushunchalar glossariysi

**Kompyuter lingvistikasi** – tilshunoslikning, dastlab, matematika, texnika asrida informatika bilan aloqadorligi asosida yuzaga kelgan soha.

**Lingvokulturologiya**– til va madaniyat munosabati asosidagi fan.

**Psixolingvistika** – tilshunoslikning psixologiya bilan aloqadorligi asosida yuzaga kelgan soha.

**Sotsiolingvistika** – til va jamiyat haqidagi fan.

**Tilshunoslik va biologiya** – tilni ongli biologik mavjudotning ijtimoiy mahsuli sifatida o‘rganishda namoyon bo‘luvchi munosabat.

**Tilshunoslik va meditsina** – tilni fiziologik jarayon mahsuli sifatida o‘rganishda namoyon bo‘luvchi munosabat.

**Tilshunoslik va tarix** – tilni tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida o‘rganishda namoyon bo‘luvchi munosabat.

### Test

1. Tilning ikkinchi signal tizimi sifatidagi xususiyati qaysi fan bilan aloqadorligida namoyon bo‘ladi?

- A) biologiya fani bilan
- B) ximiya fani bilan
- S) sotsiologiya fani bilan
- D) fizika fani bilan

2. Fanlar integratsiyasi nimani ifoda etadi?

- A) fanlar taraqqiyotini
- B) fanlarning umumiy masalalarini
- S) fanlarning masalani birgalikda hal qilish maqsadida birlashishini
- D) fanlarning tarmoqlashuvini

3. Qaysi metodlar ham tilshunoslik, ham boshqa sohalarda faol qo‘llanadi?

- A) umumiy metodlar



- B) xususiy metodlar
- S) lingvistik tahlil metodlari
- D) ijtimoiy metodlar

4. Tilshunoslikda qoʻllanadigan fizikaga oid metodni toping.

- A) semantik maydon
- B) valentlik
- S) statistika metodi
- D) qiyosiy metod

5. Tilshunoslikda qoʻllanadigan ximiyaga oid tushunchani belgi-

lang.

- A) statistika metodi
- B) valentlik
- S) semantik maydon
- D) qiyosiy metod

6. Tilshunoslikda qoʻllanadigan matematikaga oid metodni toping.

- A) semantik maydon
- B) valentlik
- S) statistika metodi
- D) qiyosiy metod

7. Nutq jarayoni, nutq mexanizmi, nutqning shakllanishi va yuzaga chiqish jarayonini tahlil qiluvchi sohani belgilang.

- A) sotsiolingvistika
- B) psixolingvistika
- S) neyrolingvistika
- D) amaliy tilshunoslik

## Asosiy tushunchalar izohi<sup>119</sup>

**Abbreviatura** (ital. abbreviatura <lot. abbrevio—qisqartiraman) — qisqartma soʻzlar.

Abzas (nem. abatz < absetzen — surmoq, nari surmoq) — xat boshi

**Adabiy meʼyor** — til birliklarining adabiy til qoidalariga mos holda, namunali tarzda qoʻllanishini belgilovchi meʼyor.

**Adabiy til** — umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, maʼlum meʼyorga solingan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli.

**Agglinativ tillar** — soʻz yasalishi va shakl yasalishi agglyutinatsiya yoʻli bilan amalga oshadigan tillar. Mas. *turkiy tillar, fin-ugor tillari*.

**Agglyutinatsiya** (lot. *agglyutinare* — “yopishtirmoq”) — 1. Soʻz yasalishi yoki shakl yasalish asosi oʻzgarmagan holda yangi soʻz yoki soʻz shakli hosil boʻlishi. Bunda har bir affiks maʼlum bir maʼno, vazifa bilan qatnashadi. Mas. turkiy tillarda, jumladan, oʻzbek tilida yasama soʻzlar va soʻz shakllari asosga maʼlum izchillik bilan affikslar qoʻshish orqali hosil qilinadi va bu affikslarning har biri oʻz maʼnosi bilan qatnashadi: *suv-chi-lar-imiz-ni*. 2. Ikki soʻz (asos)ning bir soʻzga, bir soʻz shakliga aylanishidan iborat morfologik jarayon. Mas., *echkini emar > echk-emar*.

**Akustik fonetika** (yun. “tovush, tovushga oid”) — eksperimental fonetikaning nutq tovushlari hosil boʻlishini yuzaga kelgan tovush toʻl-qinlari aspektida oʻrganuvchi boʻlimi. Akustik jihatdan tovushning bir qator belgilari farqlanadi: 1) tovush kuchi; 2) tovush balandligi; 3) tovush tembri; 4) tovush choʻziqligi.

**Aksent** (lot. “urgʻu”) — boshqa til birliklarini ona tilining fonetik xususiyatlari asosida talaffuz qilish.

**Aksentema** (lot. “urgʻu”) — boʻgʻindagi urgʻuning kuchli va kuchsizligi.

**Aksentologiya** (lot. “urgu”; yun. logos “soʻz haqida taʼlimot”) — fonetikaning urgʻuni (urgʻuning tabiati, tipi, vazifasini) oʻrganuvchi boʻlimi.

<sup>119</sup>Terminlar izohida “Лингвистический энциклопедический словарь” (М., 1990), А. Хожиевнинг “Тилшунослик терминларининг изохли лугʻати” (Т., 2002), N.Mahkamov, I.Ermatovlarning “Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati” (Т., 2013)dan foydalanildi.

**Amaliy tilshunoslik** – tilshunoslikning lingvistik masalalarni (mas., tarjimasi) hal etishni hisobga olgan holda amaliy yo‘l bilan o‘rganuvchi sohalarini (eksperimental fonetika, leksikografiya, lingvostatistika kabi).

**Amorf tillar** (yun. “shaklsiz”, “shaklga ega bo‘lmagan”) – affikslarga ega bo‘lmagan, so‘zlar orasidagi grammatik aloqalar bitishuv yo‘li bilan yoki yordamchi so‘zlar vositasida ifodalanadigan tillar. Mas., xitoy tili.

**Analitik tillar** (yun. “yoyiq, yoyilgan”) – grammatik ma‘nolar (gapda so‘zlarning o‘zaro munosabati) so‘z shakllari (shakl yasovchi qo‘shimchalar) vositasida emas, balki yordamchi so‘zlar, so‘z tartibi, ohang yordamida ifodalanadigan tillar. Mas., ingliz, fransuz, ispan tillari analitik tillar guruhiga kiradi.

**Analogiya** (yun. “muvofiqlik, moslik, o‘xshashlik”) – til va nutq birliklarining (so‘z yasalishi, shakl yasalishi va b. modellarining) munosabatidagi o‘xshashlik, mahsuldor bo‘lgan hodisaning boshqasiga yoyilishi: *Analogiya yo‘li bilan o‘zgarish. Analogiya asosida yasaliş*. Mas., *qara* o‘timsiz fe‘lining *ko‘r* o‘timli fe‘liga sinonim sifatida qo‘llanishi (*cho‘chimasligini qara*), shuningdek, *ko‘r* ko‘makchi fe‘liga *qara*, *boq* fe‘llarining sinonim sifatida qo‘llanishi (*o‘qib ko‘r*, *o‘qib qara*, *o‘qib boq*) ham analogiya natijasidir. Analogiya asosida ba‘zan, noto‘g‘ri yasalişlar ham yuzaga kelishi mumkin: *gulchi* qolipida *somsachi*, *piyozchi*, *kartoshkachi* kabi. ...*buning natijasida o‘quv yurtini tanlashda kelishmovchiliklar va yanglishmovchiliklar kelib chiqadi* (Gazetadan). Bu misolda *yanglishmovchilik* so‘zi noto‘g‘ri qo‘llangan. Uning qo‘llanishi *anglashilmovchilik* so‘zi ta‘siridadir.

**Analogistlar** (analogists) – “narsa bilan uning nomi orasida muayyan bog‘lanish bor. Bu bog‘lanish narsalarning xususiyatlaridan, tabiatidan kelib chiqadi va bu bog‘lanish ilohiy kuch tomonidan o‘rnatilgan” degan qarash tarafdorlari.

**Anomalistlar** (anomalists) – “tilda narsa nomi bilan narsa orasida hech ganday bog‘lanish yo‘q, bu nomlar mazkur tilda gaplashuvchilar tomonidan yaratilgan, demak, til Inson tomonidan yaratilgan”, degan qarash tarafdorlari.

**An'anaviy tilshunoslik** – tilshunoslikdagi faqat til birliklari va tuzilishining ichki munosabatlari, aloqadorliklarini yoritish bilan birga til va tafakkurning o'zaro munosabati, tilning jamiyat bilan, shu tilda so'zlashuvchi jamoa bilan aloqasi kabi masalalarini o'rganishni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan yo'nalishlar.

**Apokopa** (*yun.* “qisqartirish”) – so'z oxiridagi tovush yoki tovushlarning tushib qolishi, natijada so'zning qisqarishi. Mas., *kel>ke, to'rt>to'r* kabi.

**Apostrof** (*yun.* “chetga yoki orqaga qaragan”) – chet tilga oid ismlar tarkibidagi ayrim qismlarni ajratib talaffuz etishni, fonetik transkripsiyada undoshlarning yumshoqligini ko'rsatish uchun satr ustiga qo'yiladigan belgi.

**Argo** (*fran.* “jargon”) – yasama til. Biror ijtimoiy guruh, toifa (masalan, talabalar, sportchilar, o'g'rilar va b.)ning o'ziga xos. boshqalar tushunmaydigan lug'aviy birliklardan iborat yasama tili. Mas., *kolxoz* – chiptasiz yo'lovchilar (haydovchilar tilida).

**Areal lingvistika** – 1. Tilshunoslikning lingvistik areallarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi sohasi. 2. Tilshunoslikda lingvistik areallarni o'rganishg'a alohi- da e'tibor beruvchi yo'yalish.

**Artikulyasion baza** – biror tilga xos tovushlarni talaffuz etish ko'nikmalari, artikulyasiyalar tizimi.

**Artikulyasiya usuli** – tovush hosil bo'lishida ishtirok etuvchi nutq a'zolarining bir-biriga nisbatan bo'lgan holati natijasida havo oqimining sirg'alib o'tishi portlab chiqishi.

**Artikulyasiya o'rni** – tovush hosil bo'lishida qatnashuvchi nutq a'zolarining bir-biriga yaqinlashib, havo oqimiga to'siq hosil etadigan nuqtasi.

**Arxaizm** (*yun.* “qadimgi”) – ma'lum davr uchun eskirgan, iste'moldan chiqqan boshlagan til birligi (so'z, frazeologizm va b.). Mas., *ochun* (dunyo, olam), *osig'* (foйда) va b.

**Assimilyatsiya** (*lot.* “o'xshashlik”) – biror tovushning boshqa tovush ta'sirida unga o'xshashi (bir xil bo'lishi): *oshshi<oshni, tussiz<tuzsiz* kabi. As- similyatsiyaning bir necha turi farqlaladi: t o' l i q a s s i m i lyatsiya; to'liqsiz assimilyatsiya; progressiv assimilyatsiya; regressiv assimilyatsiya; yondosh assimilyatsiya (distant assimilyatsiya).

**Assonans** (*fran.* “ohangdoshlik”) – aynan yoki yaqin unililarning takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan ohangdoshlik. Mas., quyidagi misolda assonans o‘ unlisi asosida yuzaga kelgan: *ko ‘m-ko ‘k, ko ‘m-ko ‘k, ko ‘m-ko ‘k...* *Ko ‘klam quyoshidan ko ‘kargan qirlar...*

**Assotsiativ grammatika** – so‘z, so‘z birikmasi va gaplarni paradigmatik planda, til unsurlari sifatida o‘rganuvchi grammatika.

**Assotsiatsiya** – til birliklarining shakli yoki mantiqiy- semantik belgisiga ko‘ra o‘zaro birlashuvi.

**Afaziya** (yunon. *aphasna*, a – inkor, phasis – nutq) – miya muayyan qismlarining, odatda, chap yarim sharning shikastlanishi tufayli vujudga kelgan nutqiy buzilish. Afaziya miyaga qon quyilishi (insult), miya o‘simtasi, biror bir mexanik shikast tufayli vujudga keladi. Agar miyadagi nutqiy zonalarining hammasi shikastlansa, *total afaziya* yuzaga keladi. Bunday holatda nutq umuman yo‘qoladi va uni tushunish amalga oshmaydi. Agar miyaning nutqiy zonalaridan biri ishlab ketsa, *qisman afaziya* vujudga keladi.

**Affiks** (*lot. affixus* “birlashtirilgan, biriktirilgan”) – so‘zga (leksemaga) zid qo‘yiladigan (leksik ma‘noga ega bo‘lmagan), o‘zi qo‘shiladigan asosning lug‘aviy yoki grammatik ma‘nolarining shakllanishiga xizmat qiladigan morfema; qo‘- shimcha. Mas., *ter-im-chilar - imiz-ni*. Affikslar vazifalariga ko‘ra ikki asosiy turga bo‘linadi: 1) so‘z yasovchi affikslar; 2) shakl hosil qiluvchi affikslar. Affikslar so‘zning boshiga, o‘rtasiga yoki oxiriga qo‘shilishi mumkin. So‘zning boshiga qo‘shiladigan affikslar *preffiks*, o‘rtasiga qo‘shiluvchilari *inffiks*, oxiriga qo‘shiladiganlari *suffix* deyiladi. O‘zbek tilidagi affikslar, asosan, so‘zning oxiriga, ba‘zilari so‘z oldidan qo‘shiladi, ya‘ni suffiks va prefiks xarakterida bo‘ladi.

**Bilingvizm** (*lot.* “ikki marta”+lingia “til”) – *ayn* – ikki tillilik, ikki tilda erkin fikrlay olish, ikki tilni bir xilda egallash.

**Bobo til** – genetik jihatdan o‘zaro bog‘liq tillarning kelib chiqishi va taraqqiy etish manbai (asosi) deb qaraladigan til; qiyosiy-tarixiy metod bilan tiklanadigan lingvistik model.

**Bo‘g‘in** (syllable) – bir yoki bir nechta tovushdan tashkil topib, bir zarb bilan talaffuz qilinadigan fonetik birlik.

**Bo'g'in yozuvi** (syllabic writing) – grafik shakl bo'g'inning ifodasi uchun xizmat qiladigan yozuv. Mas., yapon yozuvi. Bu yozuvda iyerogliflar bo'g'inlarni ifodalaydi. Bo'g'inli yozuvda bir bo'g'inni, bir so'zni, bir tovushni ifodalaydigan belgilar qo'llangan.

**Volyapyuk** (*ingl.* “dunyo” “gapirmoq, ya'ni dunyo tili”) – 1880-yilda nemis katolik ruhoniysi Shleyxer tomonidan tavsiya etilgan xalqaro sun'iy til.

**Vulgarizmlar** (*lot.* “oddiy, sodda”) – dag'al so'z, ibora.

**Gap (sentence)** – grammatikaning yirik va mustaqil birligi.

**Genealogik tasnif** (geneologic classification) – tillarni qarindoshlik munosabatiga, kelib chiqish asoslariga ko'ra guruhlaydigan tasnif.

**Glossariy** – biror asar, ayniqsa, qadimgi asarlardagi eskirgan va kam qo'llanadigan, tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar izohi.

**Glottogonik jarayon** – tilning paydo bo'lish va taraqqiyot jarayoni.

**Glottogoniya** (*yun.* “tug'ilish”) –1. Tilning kelib chiqishi. 2.Tilning kelib chiqishi va taraqqiyoti haqidagi ta'limot.

**Grammatika** (*yun.* grammar “harf o'qish va yozish san'ati”) – 1. Tilshunoslikning so'z shakllari (shakl yasalishi), so'z birikmalari turlari, gap turlari (tilning grammatik qurilishi) haqidagi bo'limi. O'rganish manbai, materiali va vazifasi nuqtayi nazaridan grammatikaning bir necha turi farqlanadi: 1) tarixiy grammatika; 2) tasviriy grammatika; 3) formal grammatika. O'zaro qardosh yoki qardosh bo'lmagan tillar grammatik qurilishni solishtirib o'rganishiga ko'ra grammatikaning ikki turi farqlanadi: 1) chog'ishtirma grammatika; 2) qiyosiy grammatika.

**Grammatik kategoriya** (grammatical category) – bir xil grammatik hodisalar, ayniqsa, shaklidan qat'iy nazar, grammatik so'zlar majmuyi, yig'indisidir. Grammatik kategoriyalardagi bir xillik grammatik shakllarga, grammatik vazifaga qarab belgilanadi.

**Grammatik ma'no** – so'zning shakliy qismi, grammatik shakli ifodalaydigan ma'no. Mas., *-lar* qo'shimchasi otga xos ko'plik ma'nosini (*do'stlar, bog'lar* kabi), – *yap* affiksi fe'lga xos hozirgi zamon ma'nosini (*kelyapti, so'rayapti* kabi) ifodalaydi.

**Grammatik shakl** – grammatik ma’noni ifodalash uchun xizmat qiladigan til vositalari. Mas., *yozdiryapman* fe’li tarkibida ortirma nisbat, hozirgi zamon, birinchi shaxs birlik ma’nosini ifodalovchi shakllar qatnashgan. Grammatik shakl affikslar yordamida yoki yordamchi soʻzlar vositasida hosil qilinadi. Shunga koʻra grammatik shaklning ikki turi oʻzaro farqlanadi: 1) *s i n t e t i k s h a k l*; 2) analitik shakl. Grammatik kategoriyaga boʻlgan munosabatiga koʻra grammatik shakling ikki turi farqlanadi: 1) kategorial shakl; 2) nokategorial shakl yoki *f u n k s i o n a l s h a k l*.

**Grafika** (graphics) – yozuv tarixi va yozuv birliklari: harf, grafema, alifbo tizimini oʻrganuvchi tilshunoslik boʻlimidir.

**Denotat** (*lot.* “belgilamoq”) – til birligi (mas., soʻz) yordamida nomlanuvchi (ataluvchi) voqelik, narsa-buyum. Mas., *yuz, aft, bashara, chehra, turq* soʻzlari bir predmet (denotat)ning turli nomlaridir.

**Denotativ ma’no** – denotat bilan bevosita bogʻliq boʻlgan, bevosita denotatni bildiruvchi ma’no.

**Dialekt** (*yun.* “sheva, lahja”) – umumxalq tilining son jihatdan nisbatan kam boʻlgan, biroq hududiy, kasb-hunar va b. jihatdan umumiylikka ega boʻlgan kishilar tomonidan qoʻllanadigan koʻrinishi. Kasb-hunar leksikasi. Sotsial dialekt, Mahalliy (hududiy) dialekt.

**Diaxroniya** (diachrony) – til taraqqiyotini tarixiylik nuqtayi nazaridan qiyosiy aspektda tahlil qiluvchi metod.

**Diglossiya** (diglossy) – bir milliy tilning turli subkodlarida gapira olish, sharoit va muloqot doirasiga bogʻliq holda, tilning bir subkodidan ikkinchi bir subkodiga koʻchish, bir til doirasidagi turli uslublardan foydalana olish. “Diglossiya”termini nafaqat bir milliy tilning turli subkodlarida gapirish, balki turli tillarni bilish va ularni muloqot vaziyatiga koʻra galma-gal qoʻllay olishni ham anglatadi.

**Divergeniya** – Oʻzgarishga sabab boʻladigan pozitsion sharoitlarning yoʻqolishi natijasida fonema variantlarining fonologizatsiyalinishi, bir fonemaning ikki fonemaga ajralishi.

**Diereza** (*yun.* “boʻlinish”) – qator undoshlardan birining assimilyatsiya yoki dissimilyatsiya natijasida tushib qolishi. Mas., *arslon > aslon*.

**Dinamik urgʻu** – tovush kuchiniig oʻzgarishiga (intensivligiga) asoslanadigan urgʻu. Dinamik urgʻuda intensivlik yetakchi boʻladi.

**Dissimilyatsiya** (lot. “noo‘xshash”) – so‘zdagi bir xil yoki bir-biriga qisman o‘xshash tovushlardan birining artikulyatsion jihatdan farq qiladigan boshqa tovush tomon o‘zgarishi. Dissimilyatsiya juda kam uchraydigan hodisa bo‘lib, asosan, so‘zlashuv nutqida yuz beradi: *tranvay* (*tramvay* o‘rnida), *zaral* (*zarar* o‘rnida) va h. Dissimilyat–siya–ning ikki turi farqlanadi: k o n t a k t d i s s i m m i l y a t s i y a; distant dissimilyatsiya.

**Distant assimilyatsiya** – yonma-yon bo‘lmagan undoshlar assimilyatsiyasi. Mas., *moshkichiri* – *mochkichiri* kabi.

**Distant dissimilyatsiya** – yonma-yon bo‘lmagan undoshlar dissimilyatsiyasi. Mas., *zaral* (*zarar*).

**Distant holat** (lot. “oralik”) – til birliklarining bir-biridan ajralgan, uzoqlashgan holatda joylashuvi. Mas., ega va kesimning distant holati: *Aziz o‘sha kuni yarim tungacha ux lo l m a d i* (U. Usmonov).

**Distributiv metod.** Struktural lingvistikada til unsurlarini muayyan tilga xos qonun-qoidalar asosida bo‘lish metodi.

**Distributsiya** (lot. “ajratish, tarqatish”) – biror til birligining nutqda boshqa til birliklari qurshovida ishlatila olish o‘rinlari. Distributsiyaning quyidagi turlari bor: 1) qo‘shimcha distributsiya; 2) erkin almashinish d i s t r i b u t s i y a s i; 3) kontrast d i s t r i b u t s i y a va b.

**Diftong** (yun. “ikki karra”+ “ovoz, tovush”) – ikki tovushdan tarkib topgan unli bir bo‘g‘in tarkibida keluvchi, shunga ko‘ra bir tovushga yaxlitlanuvchi unli. Diftong o‘zbek tilida deyarli yo‘q.

**Differensiatsiya** (lot. “farqlanish”) – 1. Til birliklarining shakl, mazmun va boshqa jihatdan o‘zaro ajralishi, qatlamlanishi. Mas., *artmoq* va *archmoq* fe’llarining (fonetik va ma’no jihatdan o‘zaro alohidalanishi; *ishlar*, *kelar* fe’l shaklining gumon ifodalovchi shaklga aylanishi uning *ishlaydi*, *keladi* shakli bilan differensiyalanishi natijasidir.

**Enklitika** (enklits) – urg‘uli so‘zdan keyin kelib, ohang jihatdan unga qo‘shilib ketadigan so‘z.

**Etimologiya** (etymology) – so‘zlarning boshlang‘ich ma’nosi va shaklida bo‘lgan o‘zgarishlarni aniqlaydigan, o‘rganadigan soha.

**Flektiv tillar** (flective language) – o‘zak morfema va affiksall morfema chegaralari sezilmaydigan, yangi so‘zlar o‘zak o‘zgarishi asosida yuzaga keladigan tillar.



**Fonema** (phonema) – soʻz, soʻz shakllari va morfemalarni shakilantiradigan, maʼno farqlash uchun xizmat qiladigan eng kichik, boshqa boʻlaklarga boʻlinmaydigan til birligi.

**Fonetika** (phonetics) – tilshunoslikning nutq tovushlari, ularning hosil boʻlishi, tiplari, tovushlar oʻzgarishi, boʻgʻinlar, ularning tuzilishi, tiplari, strukturasi; urgʻu, urgʻu tiplari va intonatsiya haqidagi tarmogʻi.

**Fonologiya** (phonology) – nutq tovushlarining vazifaviy qiymatini oʻrganadigan soha. Fonologiyaning oʻrganish manbai fonemadir.

**Fraza** (phrase) – nutqning eng katta, ikki tomondan pauza bilan chegaralangan, oʻziga xos ohangga ega boʻlgan fonetik birligi. Frazalardan taktdan tashkil topadi.

**Hukm** (decision) – hukmronlik, hokimiyat, boshqarish, tuzum, qaror, toʻxtam, buyruq; fikr, tushuncha. Narsa va uning belgisi haqidagi tasdiq yoki inkor.

**Jargon** (*fran.*) – biror guruh vakillarining oʻz nutqi bilan koʻpchilikdan ajralib turish maqsadida, oʻzicha mazmun berib ishlatadigan soʻz va iboralari. Mas., *novcha* (aroq), *qizil* (vino) – ichuvchilar nutqiga xos: *togʻamning oʻgʻli* (militSIONER, inspektor) – shofyorlar nutqida. *Jargon* koʻp hollarda *argo* oʻrnida qoʻllanadi (bu terminlar talaffuz jihatidan bir-biriga oʻxshash).

**Ideografik (logografik) yozuv** (ideographic writing) – bunday yozuvda ramzlar narsa-buyumlarni aks ettirib qolmay, tildagi tushunchalarni ham ifodalaydi. Ushbu yozuvda maʼlumot maʼnosini shakllar bilan aks ettirish qiyin boʻlgan logogrammalar orqali yetkaziladi.

**Ideogramma** – ideografik yozuvda soʻz anglatadigan tushunchani ifodalash uchun qoʻllanadigan shartli belgi – simbol.

**Ideografik yozuv** – ideogrammalar asosidagi yozuv.

**Idrok** (reason) – fahmlash, ong, tushuncha, tashqi dunyo, voqea-hodisa haqida bilimga ega boʻlish, tushunish qobiliyati, zehn, fahm-farosat.

**Iyeroglifik yozuv (ierographic writing)** – ideografik yozuv. Iyeroglifik yozuv ifoda etilayotgan narsa-buyum xususiyatlarini imkon qadar aks ettiradi. Iyeroglifik yozuv mavhum tushunchalarni

ifodalay olishi bilan o'zidan oldingi yozuvlardan farqlanadi. Bu yozuvdan qadimgi Arabistonda keng foydalanilgan.

**Iyeroglif** (*yun.* "muqaddas yozuv") – butun bir so'z, bo'gin yoki tovushni ifodalash uchun xizmat qiladigan grafik ifoda.

**Ijtimoiy dialekt** – muayyan ijtimoiy guruh kishilari foydalanadigan dialekt.

**Ijtimoiy kelishuv nazariyasi** (the theory of the social agreement) – narsalarni qanday atashni odamlarning o'zlari kelishib olishgan, degan qarash.

**Izoglossa** (*yun.* "bir, o'xshash" + "til, nutq") – u yoki bu til hodisasining tarqalish hududini ko'rsatish uchun geografik xaritalarda tortilgan chiziqalar.

**Izofa** – fors va boshqa ba'zi tillarda aniqlovchi va aniqlanmish munosabatini ifodalovchi vositalardan biri. Mas., *tarjimayi hol, dardi bedavo, baloyi nafs* kabi birikmalardagi tartib va **-yi** izofani ta'minlovchi vositalar hisoblanadi. Bu turdagi birikmalar fors-tojik tilidan o'tgan.

**Izofali birikma** – izofa vositalari yordamida hosil bo'lgan birikma: *onayi zor, fasli bahor* kabi.

**Invariant** (*fran.* "o'zgarmas") – til qurilishi birligi (fonema, morfema, leksema va sh. k.)ning nutqdagi muayyan voqelanishidan ajratib, mavhum olingan holati.

**Integratsiya** (*lot.* "butunlashish, birlashish") – tillar, shuningdek, dialektlarning o'zaro farqlari yo'qola borib, bir umumiy tilga birlashishi. *Qiyos. D*

**Intervokal undosh** (*lot.* "ora" + "unli") – unlilararo undosh.

**Interlingva** (*lot.* "ora" + "til") – 1903 yilda Juzeppe Peano tomonidan taqdim etilgan xalqaro yordamchi til.

**Interlingvistika** – tilshunoslikning xalqaro aloqa-aralashuv vositalari sifatida turli yordamchi tillarni yaratish va ulardan foydalanish jarayonini o'rganuvchi bo'limi.

**Internatsional leksika** (*lot.* "ora" + "xalq") – baynalmilal leksika.

**Interferensiya** (*lot.* "ora" + "o'tkazish") – ona tiliga xos xususiyatlarni o'rganilayotgan, qardosh bo'lmagan tilga o'tkazish. Mas., rus tilida fikrlovchi kishining *Капандау унар* gapining o'zbekcha nutqda *Qalam yiqildi* tarzida ifodalanishi.

**Intonatsiya** (lot. “baland tovush bilan talaffuz etaman”) – nutqning sintaktik xususiyatlarini va ekspressiv-emotsional bo‘yoqlarni ifodalashi uchun xizmat qiluvchi ritmik-melodik tomoni; ovozning baland-pastligi; ohang. Quyidagilar intonatsiyaning tarkibiy unsurlari hisoblanadi: 1) nutq melodikasi; 2) nutq r i t m i; 3) nutq intensivligi; 4) nutq tempi; 5) nutq tembri; 6) mantiqiy urg‘u va fraza urg‘usi.

**Intralingvistika** – tilshunoslikning til ichki tizimini, uning birliklari va kategoriyalarini, til yaruslari va ularning tuzilishini nolisoniy omillarga murojaat qilmay o‘rganuvchi sohasi. Intralingvistikaning asosiy bo‘limlari fonologiya, leksikologiya va grammatikadir.

**Infinitiv** (lot. “noaniq”) – Fe’ning muayyan harakatni bajaruvchi shaxs, zamon, maydan tashqari holatda ifodalaydigan, harakatning o‘ziningina ataydigan shakli. Mas., rus. *говорить, бежит, обнима-ть*; o‘zb. *olmoq, kulish, borish* kabi harakat nomi shakli.

**Kakografiya** (yun. “yomon”+ “yozaman”. Ongli ravishda xatolar qoldirilgan matnni o‘quvchilarga tuzatishga berish bilan imloni o‘rnatish usuli. Bu usul pedagogik jihatdan asoslanmagan.

**Kalka** (fran. “kopiya, taqlid”) – o‘zga til materialidan qismma-qism nusxa olish yo‘li bilan hosil qilingan so‘z yoki boshqa bir til birligi. Kalkalar leksik, semantik, frazeologik bo‘lishi mumkin.

**Kalkalash** – o‘zga tilning leksik, frazeologik birliklari modellari asosida o‘z til unsurlaridan foydalanib, yangi so‘z yoki frazeologik birliklar hosil qilish.

**Kategorial ma’no** – ma’lum bir turkumdagi so‘zlar uchun umumiy bo‘lgan ma’no. Mas., *uy, daraxt, suv, tosh, uyqu* so‘zlari uchun umumiy bo‘lgan predmetlik ma’nosi; *go‘zal, achchiq, uzun, yorug‘, yashil* so‘zlari uchun umumiy bo‘lgan belgi ma’nosi; *kel, o‘yna, yugur, o‘rgan, chiniq* so‘zlari uchun umumiy bo‘lgan harakat ma’nosi kategorial ma’nolardir.

**Kategorial shakl** – ma’lum bir grammatik kategoriyaga xos ma’noni ifodalovchi so‘z shakli. Mas., kelishik shakllari, fe’ning zamon shakllari kategorial shakllardir.

**Kauzativ** – harakatning bajarilishi uchun sabab, qo‘zg‘ash ma’nosiga ega bo‘lgan. Mas., kauzativ fe’l (*haydamoq, majbur qilmoq*).

**Kvantitativ urg‘u** (lot. “miqdor”) – miqdoriy urg‘u.

**Kinema** (*yun.* “harakat”) – bir nutq a’zosining muayyan tovush hosil qilishdagi talaffuz faoliyati, artikulyatsiya jihatdan farqlovchi belgi. Mas., **p** tovushi bir kinema(lab)dan iborat, **m** tovushi esa uch kinemadan iborat (lab, tomoq va burun).

**Kinesika**– kishilarning fikr almashuvida nutq a’zolaridan tashqari barcha tana a’zolarining harakatini, imo-ishoralarni o’rganuvchi fan.

**Kinetik** nutq (*yun.* “harakatga oid”) – imo-ishora tili.

**Kinoya** (*allegory*) – qochiriq, kesatiq ma’nolarida aytilgan o’zgaralar “gapi”, “so’zi”. Kinoya bilan aytilgan so’z qo’shtirmoqqa olinadi. Kinoya bilan aytilgan, ko’p hollarda, so’z teskari ma’noda tushuniladi.

**Koynе** (*koiny*) – aholi turli guruhlarining ijtimoiy va lisoniy aloqalari jarayonida shakllangan dialektlararo og’zaki muloqot vositasi.

**Kommunikatsiya** (*lot.* *communacation* “xabar, aloqa”) – biror mazmunning til vositalari bilan berilishi, xabar qilinishi.

**Komparativistika** (*lot.* “qiyosiy”) – qiyosiy-tarixiy tilshunoslik.

**Konvergensiya** (*lot.* “yaqinlashmoq, birlashmoq”) – birdan ortiq tovushning tarixiy taraqqiyot natijasida bir tovushga birlashishi.

**Konversiya** (*lot.* *conversion* “aylanish, o’zgarish”) – so’zning fonetik va morfologik jihatdan o’zgarib, bir so’z turkumidan boshqa bir so’z turkumiga o’tishi, shu yo’l bilan yangi so’z hosil bo’lishi.

**Konkret ot** – aniq ot.

**Konnotativ ma’no** (*connotative meaning*) – lotincha *con* – “bilga”, *notatio* – “ko’rsatish” ma’nosidagi so’zlardan shakllangan. Ko’chma ma’no, denotativ ma’noga qo’shimcha ravishda ekspressiv, uslubiy munosabat kabilarni ifodalovchi ma’no (*ottenka*); denotativ ma’no ajratilgandan keyin hosil bo’ladigan ayirmaga teng ma’no.

**Konsonant**– undosh.

**Konsonantizm** (*lot.* “undosh tovush”) – undoshlar tizimi.

**Konstruksiya** (“tuzilish”) – tuzilma.

**Kvaziomonim** (*kvasihomonyms*) – tarkibidagi birgina fonema bilan farq qiluvchi so’zlar.

**Leksema** (*lexeme*) – lug’aviy ma’noga ega bo’lgan, grammatik shakllardan xoli leksik birlik. Leksema ikki planli til birligidir. U shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topadi.

**Leksik ma'no** (lexical meaning) – lugʻaviy ma'no. Soʻzning material qismi (leksema) bildiradigan ma'no.

**Leksikografiya** (lexicography) – lugʻat va uning tuzilishini oʻrganuvchi tilshunoslik boʻlimi.

**Leksikologiya** (lexicology) – soʻz va uning lugʻaviy ma'nosi, lugʻaviy ma'noning taraqqiyot yoʻllari, soʻzning shakli va ma'no munosabatiga koʻra turlari haqidagi boʻlim.

**Lingvistik tahlil metodlari** (linguistic analyze methods) – tilshunoslikning oʻzi uchungina xos boʻlib, shu fanga doir ilmiy xulosalar berishga xizmat qiladi.

**Lison** (language) – kishining miyasida, miyaning til xotirasi qismida mavjud hodisalar va ularni ishlatish qoidalari.

**Lisoniy birliklar** (linguistic unities) – lisonga mansub, ya'ni til xotirasida mavjud hodisalar

**Madaniyat** (culture) – ijtimoiy munosabatlarda, e'tiqodlar tizimida, urf-odatlarda, narsalarni hayotga tatbiq etish jarayonida va moddiy hayotda gavdalanadigan oʻziga xos va aniq yashash tarzi, qadr-qimmat va gʻoyalar jamlanmasi.

**Mantiq** (logics) – nutq, til; soʻzlash, logika. Toʻgʻri tafakkur yuritishning asosiy qonunlari va shakllari haqidagi fan.

**Mehnat hayqiriqlari nazariyasi** (the theory of the work shout) – tildagi barcha soʻzlar ibtidoiy kishilarning birgalashib mehnat qilishi jarayonidagi hayqiriqlar asosida paydo boʻlgan, degan qarash.

**Metafora** (metaphor) – “oʻxshashlik” asosidagi ma'no koʻchishi.

**Metod** (method) – obyektiv, qoʻllanish vaqti va oʻrnidan qatʼiy nazar, natijasi bir xil boʻladigan, izchil, aniq tushunchalarga asoslanadigan, fan uchun zarur boʻlgan bilimlarni egallash vositasi.

**Metonimiya** (metonymy) – “aloqadorlik” asosidagi ma'no koʻchishi. Bunda narsa-buyum oʻziga aloqador boshqa nom bilan ataladi.

**Milliy til** (national language) – tillarning eng mukammal, taraqqiyot bosqichlarini oʻtgan, rivojlangan koʻrinishi.

**Morfema** (morphem) – eng kichik ma'noli qism.

**Morfologik tasnif** (morphologic classification) – tillarni morfologik xususiyatlariga koʻra guruhlashga qaratilgan tasnif. Soʻzlarning tuzilishi eng muhim belgi boʻlib, har bir tilning grammatik qurilishi nazarda tutiladi, ya'ni nutqda soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishi-

dagi turlovchi va tuslovchi qo‘shimchalar, ularning xususiyatlari va so‘zning yasalish tomonlari hisobga olinadi.

**Morfologiya** (yun. morphology – grammatik ma’no so‘z shakllari, so‘z turkumlari haqidagi grammatik ta’limot.

**Muloqot jarayoni** (communicative act) – nutq so‘zlash, qabul qilish jarayoni.

**Murakkablashuv** (complication) – avval tub so‘z hisoblangan so‘zlarni yasama yoki murakkab so‘zlar qatoriga o‘tib qolishi yoki bir morfemali so‘zlarni ikki va undan ortiq morfemali so‘zlarga aylanishi.

**Morf** (morph) – nutqning morfologik yarusidagi eng kichik ma’no anglatuvchi birligi, morfema esa tilning morfologik yarusidagi eng kichik ma’no anglatuvchi birligidir.

**Nostratik gipoteza yoki nostratik nazariya** (non-stratic theory– lotin tilida *noster* “bizniki” ma’nosini beradi) til oilalarini yanada kengroq doiradagi genetik asosga birlashtirishni nazarda tutadigan qarash.

**Nutq** (speech) – miyada, til xotirasida mavjud hodisalardan va ularni ishlatish qoidalaridan foydalanish jarayoni va shu jarayonning hosilasi.

**Nutq situatsiyasi** (speech situation) – til birliklaridan foydalanish imkoniyati, so‘zlash, muloqot jarayoni.

**Nutqiy birliklar** (speech unities) – lisoniy birliklarning miya markazidan keluvchi impulsga ko‘ra nutqda namoyon bo‘lishi.

**Nomema** (nomema) – leksemaning shakl jihati bo‘lib, uning fonetik belgilaridan iborat. U tilshunoslikda “substantsiya”, “shakl”, “moddiy tomon”, “tashqi tomon”, “belgi”, “signal”, “fonetik qobiq” atamallari bilan ham yuritiladi.

**Piktografik yozuv** (pictographic writing) – voqea-hodisalar haqidagi tafakkur ma’lumotlari jonli va jonsiz vositalar orqali ifodalangan yozuv.

**Proto til (protolanguage)** – tillar uchun asos bo‘lgan, qadimiy boba til.

**Proklitika (proclitics)** – urg‘uli so‘zdan oldingi so‘zning ohang jihatdan unga qo‘shilib ketishi.

**Qardosh tillar** (relative languages) – tuzilishi, grammatik xususiyatlari, shu tillardagi soʻzlarning paydo boʻlish manbai, soʻz shakllari va maʼnolari bir-biriga ancha yaqin tillardir. Bunday tillar bir umumiy oʻzakli tildan kelib chiqqan.

**Qiyosiy leksikologiya** (compared lexicology) – qardosh tillar leksikasi va ular oʻrtasidagi bir xillik hamda tafovutlar, tafovutlar sabablari, semasiologik va frazeologik umumiyliklarni solishtiradigan soha.

**Ramz** (sign) – belgi. Til – ramzlar tizimi.

**Referent** (referent) – inglizcha *refer* – aloqador, koʻrsatuvchi, soʻz atayotgan narsa, predmet, voqelik, hodisa.

**Reduksiya** (reduction) – tovush artikulyastiyasining kuchsizlanishi natijasida tovush (ovoz)ning oʻzgarishi, tovushning miqdor va sifat belgisi jihatidan pasayishi.

**Reduplikatsiya** (reduplication) – oʻzakning toʻliq yoki qisman takrorlanish holati boʻlib, u soʻz oʻzgartiruvchi, soʻz yasovchi qoʻshimchalar vazifasini bajaradi.

**Semasiologiya** (semasiology) – soʻzning maʼnosi va uning taraqqiyotini oʻrganuvchi tilshunoslik boʻlimi.

**Signifikat** (significate) – tushuncha.

**Signifikativ munosabat** (significative relation) – *lotincha* significatum “belgi”, soʻz maʼnosining tushunchaga munosabati.

**Sinekdoxa** (synechdoche) – butunning nomi bilan qismni, qismning nomi bilan butunni atash.

**Sintagma** (sintagmas) – gapda ketma-ket kelgan birliklarning bir nafas bilan aytilishi.

**Sintaksis** (syntax) – soʻz birikmalarini, gap qurilishi va grammatik xususiyatlarini, gap turlarini, gap boʻlaklarini, bu boʻlaklarning oʻzaro birikish yoʻllarini oʻrganuvchi boʻlim.

**Sinxroniya** (*synchrony*) – til taraqqiyotini muayyan davr nuqtayi nazaridan tahlil qiladigan metod.

**Soʻz turkumlari** – soʻzlarning umumiy leksik-grammatik xususiyatiga koʻra boʻlinishi.

**Supersegment birliklar** – urgʻu, ohang, melodika, pauza kabi ustama hodisalar, ular soʻzga, frazaga, gapga yoki nutqqa yaxlit holda aloqador boʻlishi bilan segment birliklardan farq qiladi.

**Segment birliklar** – soʻz yoki morfema tarkibida gorizontol chiziq boʻylab birin-ketin keladigan birliklar: nutq tovushi, boʻgʻin, soʻz, takt, fraza.

**Semasiologiya** ( semasiology) – til birliklarini maʼno jihatdan oʻrganadigan soha. Unda soʻzning shakl va maʼnosi izohlanadi.

**Soʻz birikmasi** – bir-biri bilan sintaktik jiqatdan bogʻlangan, birinchi darajali predikativlik munosabatiga ega boʻlmagan, ikki yoki undan ortiq mustaqil soʻzlar birikmasi

**Soddalashuv** – qoʻshma yoʻl bilan yasalgan negizlarni yasama negizlarga oʻtish yoki qoʻshma negiz bilan yasama negizning tub negizga oʻtish hodisasi.

**Sotsiolekt** (sotsiollekt) – umumiy ijtimoiy xususiyatlariga koʻra birlashgan ayrim guruhlarining lisoniy ehtiyojlarini qondirish uchun nutq amaliyotida ishlab chiqilgan til shakli.

**Takt** – frazaning ikki kichik pauza orasiga joylashgan va yagona urgʻu bilan talaffuz qilinadigan bir yoki bir nechta boʻgʻin yigʻindisi.

**Til** – butunni ham (nutqni qamrab olgan holda), qismni ham (nutqni qamrab olmagan holda) ifodalovchi muayyan birliklarning yaxlitligidan iborat murakkab tizim.

**Til oilasi** – grammatik tuzilishi va boshqa xususiyatlari jihatidan bir-birlariga yaqin boʻlgan tillar guruhi.

**Til tizimi**–fonema, morfema, soʻz, gap va til sathlarining bir butunligidan iborat til birliklari, tizim sifatida bir-birini taqozo etadigan va boshqa bir belgisiga koʻra bir-biriga zidlanadigan birliklar.

**Til va jamiyat** – oʻzaro taʼsir qilib, biri ikkinchisining taraqqiyotiga zamin yaratadigan ijtimoiy voqeelik.

**Tilshunoslik nazariyasi** – tilshunoslik taraqqiyotining eng umumiy qonuniyatlari, tilning ichki qurilishi, til tizimi, til va nutq munosabatlari haqidagi fan.

**Tovushga taqlid nazariyasi** – kishilarning oʻz atrofidagi tovushlarga taqlid qilishi natijasida dastlabki soʻzlar, predmetlarning nomlari paydo boʻlgan, degan qarash.

**Turkiy tillar oilasi** – qardosh tillardagi oʻxshashlik, yaqinlik ularning soʻz boyligi, grammatik qurilishi va nutq tovushlarida ifodalanadi. Oʻzbek, uygʻur, qozoq, qirgʻiz, tatar, boshqird, ozorbayjon,



yoqut, turkman, qoraqalpoq, turk, chuvash tillari turkiy tillar oilasiga kiradi.

**Tarixiy leksikologiya** – ayrim olingan bir tilning leksikasini dinamik holatda – tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan bog‘lab o‘rganadigan soha.

**Tavsifiy (sinxron) leksikologiya** – ayrim olingan bir tilning, masalan, o‘zbek tilining leksikasini statik holatda – shu til leksikasining avvalgi taraqqiyoti dinamikasiga bog‘lamay o‘rganadi.

**Umumiy leksikologiya** – barcha tillarning boyligini, ularning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganadi.

**Umumiy metodlar** – ijtimoiy sohaning barcha ko‘rinishlari uchun amal qiladigan metodlar. Umumiydan xususiyya, xususiyydan umumiyga, analiz – sintez, oddiydan murakkabga tomon tahlil qilish metodlari, deyarli, barcha sohalarda amal qiladi.

**Umumiy tilshunoslik** – tilshunoslik uchun umumiy bo‘lgan taraqqiyot qonununiyatlarini, tilshunoslik rivoji, taraqqiyot bosqichlari, tilshunoslik maktablari, nazariy ta‘limotlar tarixi, shakllanish jarayoni, til strukturasi xos bo‘lgan umumiy jihatlar haqidagi soha.

**Undovlar nazariyasi** – tildagi barcha so‘zlar ibtidoiy kishilarning his-hayajon so‘zlari ta‘sirida paydo bo‘lgan, degan qarash.

**Vazifadoshlik** (funksiyadoshlik) – vazifa asosida ma‘no ko‘chishi. Bunda so‘z ma‘nosi vazifaga ko‘ra ko‘chadi.

**Vokalizm** – unli fonemalar tizimi.

**Xususiyy tilshunoslik** – muayyan tilning taraqqiyot xususiyatlarini, tarkibiy qismlari, bo‘limlari, sathlari, boshqa tillar bilan munosabati, til oilasida tutgan o‘rni haqida bilim beruvchi soha.

**Yozuv** – ma‘lum bir tarixiy jarayon mobaynida aloqa-munosabatning muhim vositasi bo‘lib, u ma‘lum tarixiy jarayon natijasida shakllanadi va kishilar orasidagi bivosita aloqa-munosabat vositasi sifatida ijtimoiy manfaatlar uchun xizmat qiladi.

**Xususiyy leksikologiya** – faqat bir tilning lug‘at boyligini o‘rganadigan soha.

## Foydalanilgan adabiyotlar

### Ilmiy-metodologik manbalar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni. 07.02.2017. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil, 28-(6722) soni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil, 21-aprel.

### Adabiyotlar

4. Аврорин В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка (к вопросу о предмете социолингвистики). –Л., 1975. –С. 177.
5. Азизов О. Тилшуносликка кириш. –Тошкент, 1996.
6. Абдуазизов А. Тилшуносликка кириш. I-кисм. Фонетика ва фонология. –Тошкент, 1999.
7. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. –Toshkent, 2010.
8. Абдуазизов А.А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. –Тошкент: Университет, 2010.
9. Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. –Тошкент: Фан, 2009.
10. Абжалова М. Эсперанто. –Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010.
11. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. –М.: Флинта, Наука, 2010.
12. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn. –Toshkent, 2011.
13. Апресян Ю.Д. Идеи и методы современной структурной лингвистики. –М.: Просвещение, 1966.
14. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений. –М.: Наука, 1988.
15. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1969. –С.458.
16. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent: Navro‘z, 2016. –134 б.

17. Баскаков Н.А. Историко-типологическая фонология тюркских языков. –М.:Наука, 1988.-С.111-112
18. Белянин В.П. Психоллингвистика. –М.: Флинта, 2004.
19. Бодуэн де Куртенэ И.А. Из патологии и эмбриологии языка. – Варшава, 1885.
20. Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Том I.-СПб.1869/1960. –820 с.; Том II . СПб. 1871. – 417 с.
21. Бушуй Т., Сафаров Ш. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. –Тошкент: Фан, 2007.
22. Бушуй Т. Язык в истории развития человеческой мысли. – Ташкент: Фан, 2011.
23. Боневец Р. Иероглифы. –М.2003.
24. Выготский Л. С. Мышление и речь. –М., 1982.
25. Vrabel T.T. Lectures in theoretical phonetics of the english language and method-guides for seminars, poliprintungvár, 2009. -P.12.
26. Writing and Language. In The Handbook of Linguistics. Edited by Arnoff, M., Rees-Miller, J. P.65-68.
27. Гельб И.Е. Опыт изучения письма (Основы грамматиологии). –М., 1982.
28. Герд А.С. Введение в этнолингвистику. Изд. Санкт-Петербургского университета. 2005.
29. Дадабоев Х.А. Тилшунослик назарияси ва методологияси. – Toshkent, 2004.
30. Daniels Peter T. (2001) Writing and Language. In The Handbook of Linguistics. Edited by Arnoff, M., Rees-Miller, J. P.65-68.
31. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 2017. – 136 б
32. Erdoğan Boz, Yaman Ertuğrul. Üniversiteler için türk dili (yazili va sözlü anlatim). – Ankara, Savaş yayinevi, 2011.-S.73-74.
33. Журавлев В.К. Внешние и внутренние факторы языковой эволюции. –М.,1982.
34. Jurafskiy D. (2007). & James H. Martin. Speech and Language Processing: An introduction to natural language processing, computational linguistics and speech recognition
35. Жўраев Ш. Билингвизм шароитида тожик ва ўзбек тиллари-нинг лексик сатҳдаги ўзаро алоқалари (Самарқанд вилояти материаллари асосида). Филол. фан. фалс. д-ри дисс. авторе.-Самарқанд, 2018.
36. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2009

37. Исмоилов Б. Дунёни билишда тил ва тафаккур бирлиги. – Тошкент, 1966.
38. Исҳоқов М. Мангу битиглар. –Тошкент, 2009.
39. История письма. –М., 1979.
40. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: O'qituvchi, 2009.
41. Yo'ldoshev I. va boshqalar. Tilshunoslikka asoslari (darslik). – Toshkent, 2013.
42. Linguistics: The Scientific Study of Human Language. 2006.
43. Лингвистический энциклопедический словарь. –М., 1990.
44. Ли Ямей. Хитой тилидаги иерархик муносабатни ифодаловчи фразеологизмлар (лексик-семантик, структур ва функционал-стилистик таҳлил). Филол. фан. д-ри...дисс. –Тошкент, 2011.
45. Маслова В.А. Лингвокультурология. 2-издание. –М.:Academia, 2004.
46. Менглиев Б. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабат: Филол. фан. д-ри дис. -Тошкент, 2001. -248 б.
47. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.-Toshkent:Fan,2013.
48. Маҳмудов Н. Ёзув тарихидан қисқача лугат-маълумотнома. – Тошкент: Фан, 1990.
49. Маҳмудов Н. Тил. – Тошкент, 1998.
50. Маҳмудов Н. Маърифат манзиллари. –Тошкент, 1999.
51. Менглиев Б. Тил яхлит система сифатида. –Тошкент: Nihol, 2010.
52. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Филол. фан. д-ри...дисс. –Тошкент, 2000.
53. Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. –Тошкент, 1993.
54. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари.-Тошкент: Ўқитувчи, 1995,
55. Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990.
56. Нурмонов А. Проблема системного исследования узбекского языка. –Тошкент:Фан, 1992.
57. Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001.
58. Нурмонов А. Лингвистик белги назарияси. –Тошкент: Фан, 2008.
59. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналешлари.-Тошкент, 2008.

60. Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2008.
61. Nurmonov A. Lingvistik tadqiq metodologiyasi va metodlari. – Toshkent, 2011
62. Нурмонов А. Парадигма ва унинг оламнинг лисоний манзараси (ОЛМ)га муносабати. Танланган асарлар. III жилд. – Тошкент: Akademhashr, 2012.
63. Никитин М.В. Основы лингвистической теории значения. – М.: Высш.шк., 1982.
64. Поливанов Е.Д. Введение в языкознание для востоковедных вузов. Издание второе. – М.: УРСС, 2002.
65. Пўлатов И., Тўхтасинова О. Тилларни типологик ўрганиш. – Тошкент, 2009.
66. Пўлатов А. Компьютер лингвистикаси. – Тошкент, 2011.
67. Филин Ф.П. Очерки по теории языкознания. – М., 1982.
68. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2013
69. Раҳимов А. Фузия лисоний типини квантитатив ва синергетик ёндашув асосида тадқиқ этиш (Ўзбек тили мисолида). Филол.фан.номз...дисс.автореф. – Тошкент, 2009.
70. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000.
71. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили луғатининг туркий қатлами. – Тошкент, 2001.
72. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.
73. Раҳматуллаев Ш. Тил қурилишининг асосий бирликлари. – Тошкент, 2002.
74. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). – Тошкент: Университет, 2003. – 600 б.
75. Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. Тил қурилишини тизим сифатида ўрганиш масалалари. – Тошкент: Университет, 2007
76. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Mumtoz soʻz, 2010.
77. Richter B. First steps in theoretical and applied linguistics. – Budapest, 2006
78. Реформатский А.А. Введение в языковедение. 3-издание. – М., 2004.

79. Рустамий С.А. Ўрта асрлар ислом балоғат илмида тилшунос-ликка оид қарашлар.. Филол. фан...фан д-ри (DSc) дисс. автореф.-Тошкент, 2018.
- 80.Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангдор, 2006. –Б.15-18.
- 81.Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Университет ва педагогика институтларининг филология факультетлари учун дарслик. –Тошкент: “Ўқитувчи”, 1981.
82. Scovel Th. Psycholinguistics. Oxford Univ. Press, 1998. P.4.
- 83.Samoylovich A. Türk dillerinin siniflandırılmasına dair bazı eklemeler (A.Samoylovichning 1922-yilda Petrogradda nashr etilgan «Некоторые дополнения к классификации тюркских языков» nomli maqolasini prof. Mehman Musa o‘g‘li tarjima qilgan) // Dil araştırmaları. Uluslararası hakemli dergi. –Ankara. 2007. –S.184.
- 84.Safarova R. Leksik-semantik munosabat turlari. –Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
85. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах: Сангдор, 2006.
- 86.Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008.
- 87.Сафаров Ш. Семантика. –Тошкент:Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2013.
- 88.Степанов Ю.С. Методы и принципы современной лингвистики. –М.: УРСС, 2004.
- 89.Sobirov A. O‘zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. –Toshkent: Ma’naviyat, 2004.
90. Соссюр Ф.де. Курс общей лингвистики. Труды по языкознанию. –М.,1977.
- 91.Тилшуносликнинг долзарб масалалари. –Тошкент: “Akadem-nashr”, 2013.
- 92.Tulenov J. Dialektika nazariyasi. – Toshkent: 2001.
- 93.Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
- 94.Усманова Ш. Олтой тилларида муштарак маиший лексика. – Тошкент: Фан, 2010.
- 95.Усмонова Ш., Бекмухамедова Н., Искандарова Г. Социолингвистика.-Тошкент: Университет, 2014.
- 96.Хайруллаев М., Нақберdiyev М. Mantiq. – Toshkent, 1993.
97. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O‘zMU, 2007.

98. Худойберганава Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол. фан. д-ри... дисс. –Тошкент, 2015
99. Шайкевич А.Я., Абдуазизов А.А., Гурджиева Е.А. Введение в языкознание. –Ташкент: Ўқитувчи, 1989.
100. Швейцер А.Д., Никольский Л.Б. Введение в социолингвистику. –М.: Высшая школа, 1978. –С. 117.
101. Щитка Н.Н., Юсупова К.Н. Введение в языкознание. –Тошкент, 2006.
102. Якушин Б.В. Гипотезы о происхождении языка. –М., 1984.
103. Курбонова М. Ўзбек болалар нутки лексикасининг социопсихолингвистик тадқиқи. Филол. фан. ном. ...дисс. –Тошкент, 2009.
104. Курбонова М. Ўзбек болалар нутқининг социопрагматик тадқиқи. Филол. фан. д-ри...дисс.-Т., 2017
105. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. – 1-жилд. – 680 б.
106. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 2-жилд. – 671 б.
107. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 3-жилд. – 687 б.
108. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 4-жилд. – 606 б.
109. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 5-жилд. – 591 б.
110. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002.
111. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясаллишининг назарий масалалари. -Тошкент: “Фан”, 2010.

### **Internet saytlari**

112. <http://www.kv.minsk.by/index1999262201.htm>.
113. <http://www.iitp.ru/iitp/lab15htm>.
114. <http://www.rsuh.ru/dl/glava10rihgt9.htm>.
115. <http://www.ce.cctpu.edu.ru/msclub/systems/epstn.htm#5>.
116. [www.krugosvet.ru](http://www.krugosvet.ru)
117. <http://en.wikipedia.org>. Computational linguistics.
118. <http://www.redaktoram.ru>

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-§. “Tilshunoslik nazariyasi” fani mazmuni, maqsadi, vazifalari.....	6
2-§. Tilning ijtimoiy tabiati.....	21
3-§. Til va tafakkur.....	44
4-§. Til-tafakkur-nutq munosabati.....	59
5-§. Til – ramzlar tizimi.....	74
6-§. Til birliklari oʻrtasidagi lisoniy munosabatlar.....	112
7-§. Tillarning shakllanishi va rivojlanishi.....	124
8-§. Tilning tarixiy taraqqiyoti va oʻzgaruvchanligi.....	136
9-§. Dunyo tillari va tillar tasnifi.....	149
10-§. Til va yozuv.....	183
11-§. Lingvistik tahlil metodlari.....	203
12-§. Tilshunoslik va boshqa fanlar.....	213
Asosiy tushunchalar izohi.....	233
Foydalanilgan adabiyotlar.....	249



# **TILSHUNOSLIK NAZARIYASI**

## **DARSLIK**

- Muharrir: – M.X. Mustafayeva  
Musahhih: – I.T. Nishanbayeva  
Kompyuterda  
sahifalovchi: – J.R. Azimov

Noshirlik faoliyatini boshlagani haqida vakolatli  
davlat organini xabardor qilgani to'g'risida  
TASDIQNOMA № 3991

2020 yil 30 oktyabrda bosishga ruxsat etildi  
Bichimi 60x84, 1/16. Times New Roman garniturasida.  
Ofset bosma. Shartli bosma tobog'i 16, nashr bosma tobog'i 16.  
Adadi 200 nusxada. 9-sonli buyurtma

“Shafolat nur fayz” nashriyoti, Toshkent shahar,  
Uchtepa tumani, Maxorat ko'chasi 71-uy

“Shafolat nur fayz” MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahar, Olmazor tumani, Nodira-19  
Telefon +99899 993-83-36

